

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

6.2023

научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oiptnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 6 (193)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

**Matyoqubov Hikmatjon Shuhratovich (PhD, UrDU Fizika kafedrası dotsenti; hikmat0188@mail.ru),
Madaminov Sharifboy Xakimjonovich (UrDU "Fizika" yo'nalishi magistranti),
Axmedova Surayyo Zafar qizi (UrDU "Fizika" yo'nalishi magistranti),
Djumaniyozova Dilnoza Erkinboyevna (UrDU "Fizika" yo'nalishi magistranti)
**KVAZI BIR O'LCHAMLI TARMOQLANGAN MOLEKULALAR ZANJIRLARDA
POLYARON DINAMIKASI****

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz tarmoqlangan o'tkazuvchan polimerlarda polyaron dinamikasini modellashtirish masalasini ko'rib chiqamiz. Buning uchun biz kvant graf nazariyasini va tarmoqlangan tizimlar uchun SSH modelini umumlashtiramiz.*

***Аннотация.** В данной статье мы рассматриваем проблему динамики поляронов в разветвленных проводящих полимерах. Система моделируется с помощью концепции квантового графа и SSH-модели, т. е. путем построения расширенной версии последней.*

***Annotation.** In this paper, we address the problem of polaron dynamics in branched conducting polymers. The system is modeled by means of the quantum graph concept and SSH-model, i.e., by constructing extended version of the latter.*

***Kalit so'zlar:** polyaron, kvant grafi, SSH modeli, o'tkazuvchan polimer, to'lqin funksiyasi, chiziqli polimer.*

***Ключевые слова:** полярон, квантовый граф, SSH модель, проводящий полимер, волновая функция, линейный полимер.*

***Key words:** polaron, quantum graph, SSH model, conducting polymer, wave function, linear polymer.*

1. Kirish. O'tkazuvchan polimerlar va bunday materiallarga asoslangan qurilmalarning elektron xususiyatlarini optimallashtirish, ulardagi asosiy elektron jarayonlarni va zaryad tashishni barcha mexanizmlarini chuqur tushunishni talab qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun turli o'tkazuvchan polimerlarda zaryad tashuvchilar dinamikasining yuqori aniqlikdagi va aniq modellarini ishlab chiqish lozim bo'ladi. Zaryad tashuvchilarning muhim turlaridan biri polyaronlar deb ataladigan kvazizarrachalardir, bu fonon buluti tomonidan qamralgan elektron yoki teshikdir. Polyaronlar zaryad tashuvchi sifatida o'tkazuvchan polimerlarda fotoelektik jarayon natijasida hosil bo'ladi. O'tkazuvchan polimerlardagi polyaron dinamikasi Su-Sriffen-Higher (SSH) modelida yaxshi tavsiflangan, bu qattiq jismlar fizikasidagi kuchli bog'lanish modellarining bir o'lchovli analogidir [1.2].

SSH modelining qo'llanilishi o'tkazuvchan polimerlarda polyaronlarning zona tuzilishi va paket xususiyatlarini hisoblash imkonini beradi. Bugungi kunga kelib, o'tkazuvchan polimerlarda zaryad tashishning turli jihatlarini SSH modeli va uning turli modifikatsiyalari doirasida o'rganilib kelmoqda. Biroq, o'tkazuvchan polimerlarda zaryad dinamikasini o'rganishda erishilgan ba'zi yutuqlarga qaramasdan, ushbu mavzuning ayrim jihatlarini hali to'raligicha tadqiq qilinmagan. Yani tarmoqlangan arxitekturaga ega polimerlar to'la o'rganilmagan. Biz bu masalani, asosan, tarmoqlanish tugunlarida bir-biriga bog'langan tarmoqlangan uch yoki undan ortiq chiziqli polimer zanjirlari uchun qarab chiqamiz.

Tarmoqlangan polimerlar chiziqli polimerlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Xususan, optimal model tanlab, bunday polimerlardan tayyorlangan materiallar va qurilmalarning funksional xususiyatlarini boshqarish mumkin. Tarmoqlangan polimerlar so'nggi 10–15 yil ichida shu yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar, umuman ilmiy hamjamiyat ichida juda katta qiziqish uyg'otdi. Shu vaqt ichida turli adabiyotda tarmoqlangan polimerlarni sintez qilish va ularning optik, elektron va mexanik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha juda ko'p ilmiy ishlar e'lon qilindi [3.10].

Ushbu maqolada biz tarmoqlangan o'tkazuvchan polimerlarda polyaron dinamikasini modellashtirish masalasini ko'rib chiqamiz. Buning uchun biz kvant graf nazariyasini va tarmoqlangan tizimlar uchun SSH modelini umumlashtiramiz. Bu bizga tarmoqlangan polimer zanjirlarida polyaron dinamikasini tasvirlaydigan to'lqin tenglamalarini topish imkonini beradi. Graflar bo'yicha bunday tuzilmalarni modellashtirish fizikaning turli sohalarida yuzaga keladigan tarmoqlangan tuzilmalardagi to'lqinlarning dinamikasini samarali va aniq tasvirlash uchun kuchli vosita hisoblanadi. Grafning o'zi ma'lum bir qoidaga ko'ra, tarmoqlanish nuqtasida bog'langan yo'nalishlar majmuasi sifatida tavsiflanadi. Ushbu qoida graf topologiyasi deb ataladi. Grafning topologiyasi maxsus matritsa orqali ifodalanadi.

2. SSH modeli. O'tkazuvchan polimerlarda polyaron dinamikasi. Avvalo, SSH chiziqli modelini, tarmoqlanmagan polimerlarga qo'llash orqali ko'rib chiqamiz. Chiziqli polimer uchun Gamilton SSH model uchun quyidagicha yoziladi.

$$\begin{aligned}
H(t) = & \frac{i}{2} \int (u(x,t)\partial_t u^*(x,t) - u^*(x,t)\partial_t u(x,t))dx + \\
& + \frac{i}{2} \int (v(x,t)\partial_t v^*(x,t) - v^*(x,t)\partial_t v(x,t))dx - \\
& + \gamma \int \left[\frac{d\Delta(x,t)}{dt} \right]^2 dx - \theta \int \Delta^2(x,t)dx - \\
& + i\beta \int (u^*(x,t)\partial_x u(x,t) - v^*(x,t)\partial_x v(x,t))dx - \\
& \int_{b_j} \Delta(x,t)(u^*(x,t)v(x,t) + v^*(x,t)u(x,t))dx
\end{aligned} \tag{1}$$

$u(x,t)$ va $v(x,t)$ to'liqin funksiyalari juftligi effektiv elektron va fonon ta'sirini tavsiflaydi. Undan kelib chiqadigan to'liqin tenglamalaridan Lagranj, quyidagi shaklda yozilishi mumkin.

$$\begin{aligned}
-i\partial_t u + i\beta\partial_x u - \Delta(x)v &= 0 \\
-i\partial_t v - i\beta\partial_x v - \Delta(x)u &= 0
\end{aligned} \tag{2}$$

$u(x,t) = \exp(i \in t)u(x)$, $v(x,t) = \exp(i \in t)v(x)$ yordamida ushbu tenglamalarda vaqt va fazo bo'yicha o'zgaruvchilarga ajratish mumkin:

$$\begin{aligned}
\in u = -i\beta\partial_x u + \Delta(x)v &= 0 \\
\in v = -i\beta\partial_x v + \Delta(x)u &= 0
\end{aligned} \tag{3}$$

Taqiqlangan zona parametrining oshkor ko'rinishi quyidagicha yozilishi mumkin

$$\Delta(x) = \Delta_0 - k_0\beta[\tanh k_0(x + x_0) - \tanh k_0(x - x_0)] \tag{4}$$

Musbat energiya bilan lokallashgan holat uchun elektronni to'liqin funktsiyalar sistemasini quyidagicha yozish mumkin

$$\begin{aligned}
u_0(x) &= N_0[(1 - i)\operatorname{sech}k_0(x + x_0) + (1 + i)\operatorname{sech}k_0(x - x_0)] \\
v_0(x) &= N_0[(1 + i)\operatorname{sech}k_0(x + x_0) + (1 - i)\operatorname{sech}k_0(x - x_0)]
\end{aligned} \tag{5}$$

$$N_0 = \frac{\sqrt{k_0}}{4} \tag{6}$$

Ushbu to'liqin funksiyalari quyidagicha normallashtiriladi

$$\int (u_0^2 + v_0^2)dx = 1 \tag{7}$$

va


$$\tanh 2k_0 x_0 = \frac{k_0\beta}{\Delta_0}. \tag{8}$$

Ko'rsatilgan to'liqin funksiyalari bilan biz polyaron kengligi x_0 va polyaron bog'lanish energiyasini E_0 ni baholashimiz mumkin

$$2x_0 \approx 8.9a, E_0 = 0.1\Delta_0. \tag{9}$$

bu yerda a - panjara doimiysi.

3. O'tkazuvchan tarmoqlangan polimerlarda polyaron dinamikasi. Biz keyingi bo'limda biz ushbu modelni o'tkazuvchan tarmoqlangan polimer uchun quyidagicha umumlashtiramiz.



1-rasm. Yulduzsimon graf.

O'tkazuvchan polimerlardagi, organik elektron qurilmalardagi polyaronlar fotogeneratsiya natijasi-da zaryad tashuvchi sifatida paydo bo'ladi.

O'tkazuvchan polimerlarda polyaron dinamikasini modellashtirishning effektiv usullaridan biri polimer zanjirini bir o'lchamli panjara sifatida ko'rib chiqadigan va kuchli bog'lanish modelining chiziqli bo'lmagan versiyasidan foydalanadigan SSH modelidir. Bu yerda biz bir monomerda bir-biriga bog'langan uchta (chiziqli) polimer zanjirlaridan tashkil topgan tarmoqlangan o'tkazuvchan polimerlarda polyaron dinamikasini ko'rib chiqamiz, bu zanjir Y-tarmoqlanish shakliga ega deb tasavvur qilinadi (1-rasm).

Bunday tizim 1-rasmda ko'rsatilgan eng oddiy yulduz shaklidagi grafda ko'rsatilishi mumkin. Polimerning uzunligi uning kengligidan ancha katta deb faraz qilsak, polyaron dinamikasini SSH Gamiltoniani nuqtayi nazardan tasvirlashimiz mumkin [11.14].

$$b_j, j = 1, 2, 3 b_1 \sim (-\infty; 0] \quad b_{2,3} \sim [0; +\infty) \quad (10)$$

Ushbu yulduzsimon graf uchun SSH Gamiltonian quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$H = \sum_{j=1}^3 \int_0^{+\infty} H_j(t) dt$$

$$H_j(t) = \frac{1}{\beta_j} \left[\frac{i}{2} \int_{b_j} \left(u_j(x, t) \partial_t u_j^*(x, t) - u_j^*(x, t) \partial_t u_j(x, t) \right) dx + \right. \\ \left. + \frac{i}{2} \int_{b_j} \left(v_j(x, t) \partial_t v_j^*(x, t) - v_j^*(x, t) \partial_t v_j(x, t) \right) dx + \right. \\ \left. + \gamma_j \int_{b_j} \left[\frac{d\Delta_j(x, t)}{dt} \right]^2 dx - \theta_j \int_{b_j} \Delta_j^2(x, t) dx - \right. \\ \left. + i\beta_j \int_{b_j} \left(u_j^*(x, t) \partial_x u_j(x, t) - u_j^*(x, t) \partial_x u_j(x, t) \right) dx + \right. \\ \left. + \int_{b_j} \Delta_j(x, t) \left(u_j^*(x, t) v_j(x, t) + v_j^*(x, t) u_j(x, t) \right) dx \right] \quad (11)$$

To'liq tenglamalarini SSH ushbu Gamiltoniandan foydalanib, tarmoqlangan o'tkazuvchan polimerda polyaronning tarmoqlanish nuqtasidagi chegaraviy shartlarni olishimiz mumkin.

Bu esa energiyani saqlanishidan chiqariladi

$$\dot{H} = 0 \quad (12)$$

shunday qilib, birinchi o'zgarish (11) nolga teng bo'lishi va $\delta u_j = 0$, $\delta v_j = 0$ dan foydalanib, $t = 0$ va $t \rightarrow +\infty$ $u_1, v_1 \rightarrow 0$ da $x \rightarrow -\infty$, $u_{2,3}, v_{2,3} \rightarrow 0$ $x \rightarrow +\infty$ da 1-rasmda ko'rsatilgan yulduz grafi uchun to'liq tenglamalari va chegara shartlarga ega bo'lamiz:

$$-i\partial_t u_j + i\beta_j \partial_x u_j - \Delta_j v_j = 0 \\ -i\partial_t v_j - i\beta_j \partial_x v_j - \Delta_j u_j = 0 \quad (13)$$

$$u_1^* \delta u_1|_{x=0} = u_2^* \delta u_2|_{x=0} + u_3^* \delta u_3|_{x=0}, \\ v_1^* \delta v_1|_{x=0} = v_2^* \delta v_2|_{x=0} + v_3^* \delta v_3|_{x=0}. \quad (14)$$

Quyidagidan foydalanib,

$$u_j(x, t) = \exp(i \in t) u_j(x), v_j(x, t) = \exp(i \in t) v_j(x) \\ \frac{1}{\alpha_1} \delta u_1|_{x=0} = \frac{1}{\alpha_2} \delta u_2|_{x=0} + \frac{1}{\alpha_3} \delta u_3|_{x=0} \quad \text{va} \\ \alpha_1 \delta v_1|_{x=0} = \alpha_2 \delta v_2|_{x=0} = \alpha_3 \delta v_3|_{x=0}, \quad (15)$$

biz to'liq tenglamasini fazo va vaqt bo'yicha o'zgaruvchilarga ajratishimiz mumkin, keyin quyidagi to'liq tenglamalarini olamiz:

$$\in u_j = -i\beta_j \partial_x u_j + \Delta_j v_j \\ \in v_j = i\beta_j \partial_x v_j + \Delta_j u_j \quad (16)$$

Tugun uchun chegara shartlari quyidai ko'rinishda bo'ladi:

$$\alpha_1 u_1|_{x=0} = \alpha_2 u_2|_{x=0} = \alpha_3 u_3|_{x=0}, \\ \frac{1}{\alpha_1} v_1|_{x=0} = \frac{1}{\alpha_2} v_2|_{x=0} + \frac{1}{\alpha_3} v_3|_{x=0}. \quad (17)$$

Ushbu belgilashni kiritamiz

$$u_j(x) = \frac{u_0(x)}{\beta_j}, v_j(x) = \frac{v_0(x)}{\beta_j} \quad (18)$$

(16) va (17) da berilgan masalaning aniq analitik yechimi quyidagi shaklda yozilishi mumkin:

$$\begin{aligned} u_0(x) &= N[(1-i)\operatorname{sech}k_0(x+x_0) + (1+i)\operatorname{sech}k_0(x-x_0)] \\ (x) &= N[(1+i)\operatorname{sech}k_0(x+x_0) + (1-i)\operatorname{sech}k_0(x-x_0)] \\ \Delta_j(x) &= \Delta_{0j} - k_0\beta_j[\tanh k_0(x+x_0) - \tanh k_0(x-x_0)], \end{aligned} \quad (19)$$

bu yerda

$$\tanh 2k_0x_0 = \frac{k_0\beta_j}{\Delta_{0j}} \quad (20)$$


(19) tenglamani yechish uchun (17) chegara shartlarini qanoatlantirish lozim bo'ladi. Bu shartni esa (16) va (17) lar yordamida quyidagi ko'rinishda keltirib chiqaramiz:

$$\frac{1}{\beta_1^2} = \frac{1}{\beta_2^2} + \frac{1}{\beta_3^2} \quad (21)$$

(19)da berilgan aniq yechimlar tarmoqlangan Y-tarmoqlanishga ega o'tkazuvchan polimerda polaronning to'liq funksiyasini ifodalaydi.

2-rasmda (22)dagi parametrlar uchun to'liq funksiyasini grafigi keltirilgan.

$$\beta_1 = 1; \beta_2 = \beta_3 = \sqrt{2} \quad (22)$$



2-rasm. Tarmoqlangan o'tkazuvchan polimerda (21) yig'indi qoidasi bajariladigan β_j qiymatlari uchun, polaronning to'liq funksiyasi profile.

Xulosa. Tarmoqlangan o'tkazuvchan polimerlardagi polaronlar dinamikasini o'rgandik. Polaronlar dinamikasi uchun chiziqli to'liq tenglamalari sistemasiga olib keladigan o'zgartirilgan SSH modelidan foydalanishga asoslangan model kvant graflari tushunchasi bilan birgalikda qo'llaniladi. Y-tarmoqlanishga ega bo'lgan tarmoqlangan o'tkazuvchi polimerda polaronning aniq to'liq funksiyasi olinadi. Ushbu ishda taklif qilingan model yanada murakkab tarmoqlanuvchi topologiyalar holatiga ham kengaytirilishi mumkin. Bundan tashqari, u polimer asosidagi yupqa plyonkali organik quyosh yachaykalaridagi eksitonlar dinamikasini modellashtirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Heeger A.J. and R.Pethig. Charge Storage and Charge Transport in Conducting Polymers: Solitons, Polarons and Bipolarons [and Discussion]. Philosophical Transactions of the Royal Society of London. Series A, Mathematical and Physical Sciences, 1985, 314(1528), p. 17–35.

2. Heeger A.J. Nobel Lecture: Semiconducting and metallic polymers: The fourth generation of polymeric materials, Rev. Mod. Phys., 2001, 73, p. 681.
3. Heeger A.J., Kivelson S., Schrieffer J.R., Su W.-P. Solitons in conducting polymers. Rev. Mod.Phys., 1988, 60, p. 781.
4. Su W.P., Schrieffer J.R., Heeger A.J. Solitons in Polyacetylene. Phys. Rev. Lett., 1979. 42, p. 1698.
- [5]. Brazovskii S.A. JETP Lett., 1978, 28, p. 20.
- [6]. Campbell D.K. and Bishop A.R. Solitons in polyacetylene and relativistic-field-theory models. Phys. Rev. B, 1981, 24, p. 8.
- [7]. Campbell D.K. and Bishop A.R. Soliton Excitations in Polyacetylene and Relativistic Field Theory Models. Nuclear Physics B, 1982, 200[FS4], p. 297 – 328.
- [8]. Horovitz B. Soliton Lattice in Polyacetylene. Spin-Peierls Systems, and Two-Dimensional Sine-Gordon Systems. Phys. Rev. Lett., 1981, 46, p. 11.
- [9]. Horovitz B. The mixed peierls phase and metallic polyacetylene. Solid State Communications, 1980, 34, p. 61–64.
- [10]. Horovitz B. Solitons in polyacetylene: A comment. Phys. Rev. B., 1980, p. 22.
- [11]. Sobirov Z., Matrasulov D., Sabirov K., Sawada S., and Nakamura K. Integrable nonlinear Schrödinger equation on simple networks: Connection formula at vertices. Phys. Rev. E, 2010, 81, P. 066602.
- [12]. Sobirov Z., Matrasulov D., Sawada S., and Nakamura K. Transport in simple networks described by an integrable discrete nonlinear Schrödinger equation. Phys.Rev.E, 2011, 84, p. 026609.
- [13]. Adami R., Cacciapuoti C., Finco D., Noja D. Fast Solitons on Star Graphs. Rev.Math.Phys, 2011, 23, p. 4.
- [14]. Sabirov K.K., Sobirov Z.A., Babajanov D., and Matrasulov D.U. Stationary nonlinear Schrodinger equation on simplest graphs. Phys.Lett. A, 2013, 377, p. 860.

**Yusupova Janar Kamolovna (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali assistenti),
Cho'ponov Otajon Shuxrat O'g'li (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali talabasi)
MINIMAL KENGLIKDAGI DARAXT. KRUSKAL ALGORITMI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada graflardagi ortiqcha yo'llarni olib tashlab minimal qoldiq daraxtni hosil qilish algoritmi tavsiflangan. Ushbu algoritm 1956-yilda ingliz informatigi Jozef Kruskal tomonidan yaratilgan.*

***Аннотация.** В этой статье описан алгоритм генерации минимального остаточного дерева путем удаления избыточных путей в графах. Этот алгоритм был создан в 1956 году английским информатиком Джозефом Крускалом.*

***Annotation.** This article describes an algorithm for generating a minimal residual tree by removing redundant paths in graphs. This algorithm was created in 1956 by the English computer scientist Joseph Kruskal.*

***Kalit so'zlar:** graf, algoritm, qoldiq daraxt, Kruskal, graf uchlari, graf qirralari.*

***Ключевые слова:** граф, алгоритм, остаточное дерево, Крускал, вершины графа, ребра графа.*

***Key words:** graph, algorithm, residual tree, Kruskal, graph vertices, graph edges.*

Kirish. Graflar nazariyasi bo'yicha tadqiqotlar natijalari inson faoliyatining turli sohalarida qo'llaniladi. Ulardan ba'zilar quyidagilardir: boshqotirmalarni hal qilish, qiziqarli o'yinlar, yo'llar, elektr zanjirlari, integral sxemalari va boshqarish sistemalarini loyihalashtirish, avtomatlar, blok-sxemalar va kompyuter uchun programmalarni tadqiq qilish va hokazo.


Masalaning qo'yilishi. Og'irligi bor yo'naltirilmagan graf berilgan. Ushbu grafning barcha uchlari bir-biriga bog'laydigan, shu bilan birga, barcha mumkin bo'lganlarning eng kichik og'irligiga (ya'ni, chekka og'irliklar yig'indisiga) ega bo'lgan shunday qoldiq daraxtni topish talab qilinadi. Bunday qoldiq daraxt yoki minimal kenglikdagi daraxt deb ataladi. Agar barcha qirralarning og'irligi har xil bo'lsa, minimal oraliq daraxt noyobdir. Aks holda, bir nechta minimal oraliqlar bo'lishi mumkin (konkret algoritmlar, odatda, mumkin bo'lgan oraliqlardan biri bilan yakunlanadi) [1].

Yechish usuli. Kruskal algoritmi. Ushbu algoritm 1956-yilda Kruskal tomonidan tasvirlangan.

Kruskal algoritmi, dastlab, har bir uchni o'z daraxtiga joylashtiradi, so'ngra bu daraxtlarni asta-sekin birlashtirib, har bir iteratsiyada qaysidir chekkada ikkita ma'lum daraxtni birlashtiradi. Algoritmni boshlashdan oldin barcha qirralar og'irlik bo'yicha (kamaymaslik tartibida) saralanadi. Keyin birlashtirish jarayoni boshlanadi: barcha qirralar birinchisidan oxirgisiga o'tkaziladi va agar joriy qirraning uchlari turli pastki daraxtlarga tegishli bo'lsa, u holda bu pastki daraxtlar birlashtiriladi va javobga qirra qo'shiladi.

Barcha qirralarni sanab o‘tish oxirida barcha uchlar bir xil pastki daraxtga tegishli bo‘ladi va javob topiladi [2].

Misol sifatida 8 ta uchga va 14 ta qirraga ega quyidagi graf berilgan (1-rasm):



1-rasm. 8 ta uchga va 14 ta qirraga ega yo‘naltirilmagan graf.

Grafdagi bog‘lanishlar:

v_i, u_i, c_i


- 0 1 4
- 0 7 8
- 1 2 8
- 1 7 11
- 2 3 7
- 2 8 2
- 2 5 4
- 3 4 9
- 3 5 14
- 4 5 10
- 5 6 2
- 6 8 6
- 6 7 1
- 7 8 7

Berilgan qiymatlarni oxirgi ustun bo‘yicha saralaymiz:

- 6 7 1
- 5 6 2
- 2 8 2
- 0 1 4
- 2 5 4
- 6 8 6
- 2 3 7
- 7 8 7
- 0 7 8
- 1 2 8
- 3 4 9
- 4 5 10
- 1 7 11
- 3 5 1

Yechim. Bu dastur bevosita yuqorida tavsiflangan algoritmni amalga oshiradi va $O(M \log N + N^2)$ da ishlaydi. Uchlarni saralash $O(M \log N)$ operatsiyalarini talab qiladi. Uchning ma’lum bir pastki daraxtga tegishliligi oddiygina tree_id massivi yordamida saqlanadi – har bir uch uchun u tegishli bo‘lgan daraxtning raqamini saqlaydi. Har bir uch uchun biz $O(1)$ da uning uchlari turli daraxtlarga tegishli yoki yo‘qligini aniqlaymiz. Nihoyat, ikkita daraxtni birlashtirish $O(N)$ da oddiygina tree_id massivi orqali takrorlash orqali amalga oshiriladi. Jami $N-1$ birlashma operatsiyalari bo‘lishini hisobga olsak, algoritmning ishlash vaqti $O(M \log N + N^2)$ ga teng.

Natijaviy minimal qoldiq daraxt:



2-rasm. Natijaviy minimal qoldiq daraxt.

Bu yerga Minamal qoldiq daraxt qirralari summasi:

$1+2+8+4+4+2+7+9 = 37$ ga teng

Algoritimning Cpp dasturlash tilidagi dasturi:

```

#include <iostream>
#include <vector>
#include <algorithm>
using namespace std;
int main(){
    int n, m;
    cin >> n >> m;
    vector < pair < int, pair<int,int> > > g (m); // vazn:1-uch – 2-uch
    int u, v, c;
    for (int i = 0; i < m; i++) {
        cin >> u >> v >> c;
        g[i] = make_pair(c, make_pair(u, v));
    }
    long long cost = 0;
    vector < pair<int,int> > res;

    sort (g.begin(), g.end());
    vector<int> tree_id (n);
    for (int i=0; i<n; ++i)
        tree_id[i] = i;
    for (int i=0; i<m; ++i){
        int a = g[i].second.first, b = g[i].second.second, l = g[i].first;
        if (tree_id[a] != tree_id[b])
        {
            cost += l;
            res.push_back (make_pair (a, b));
            int old_id = tree_id[b], new_id = tree_id[a];
            for (int j=0; j<n; ++j)
                if (tree_id[j] == old_id)
                    tree_id[j] = new_id;
        }
    }
    cout << "Minamal qoldiq daraxt qirralari summasi: " << cost << endl;
    cout << "Qolgan qirralar: " << endl;
    for (int i = 0; i < res.size(); i++) {

```

```

    cout << res[i].first<<” “<<res[i].second<<endl;
}
}

```

Xulosa. Yuqoridagi algortim grafda berilgan ortiqcha bog‘lanishlarni olib tashlab, minimal qoldiq daraxtni olish imkonini beradi [3]. Bu algoritim orqali bir uchdan boshqa uchga boradigan eng qisqa masofani topish mumkin. Kruskal algoritmi xasis algortimlar turkumiga kiradi, ya’ni, grafning uchlari orasidagi barcha bog‘lanishlarni saqlagan holda minimal qoldiq daraxtni hosil qiladi [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.B.Dantzig, On the shortest route through a network. Management Science, 6 (1960). p. 187 – 190.
2. Thomas H. Cormen, Charles E. Leiserson, Ronald L. Rivest, Clifford Stein. Introduction to Algorithms. McGraw-Hill, 2001.
3. Э.Майника. Алгоритмы оптимизации на сетях и графах. М., “Мир”, 1981, с. 324.
4. Akhram Khasanovich Nishanov, Oybek Turabaevich Allamov, Ortiq Bakhtiyorovich Ruzibaev, Anvar Shukhratbekovich Abdullaev, Shakhlo Turabaevna Allamova. An approach to finding the most optimal route in a dynamic graph. 2021. International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT).

**Qodirova Malika Abdupatto qizi (SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi; malika.kodirova24@gmail.com),
Xudoyberdiyev Sobirjon Shavkat o‘g‘li (SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali talabasi)**
**TAQQOSLAMALAR ORQALI BERILGAN YUQORI DARAJALI SONNING OXIRGI BIR
NECHTA RAQAMLARINI TOPISH METADOLOGIYASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada algebra kursining sonlar nazariyasi bo‘limiga oid taqqoslama tushunchasi va uning xossalari berilgan bo‘lib, u orqali sonli ifodaning oxirgi raqamlarini hisoblash usuli ko‘rib o‘tilgan. Maqolaning asosiy maqsadi o‘rta maktab, akademik litseylardagi olimpiadaga qiziquvchi o‘quvchilar va abituriyentlarga ba’zi sonlar nazariyasi bo‘limidan murakkab masalalarni sodda, qulay va bir necha usullar bilan yechishni o‘rgatishdan iborat. Maqolada sonlar yuqori darajasi orqali berilganda hosil bo‘ladigan ifodaning oxirgi 2 ta va 3 ta raqamni takrorlanishlari sonini topishga doir teoremlar ishlab chiqilgan bu teoremlarning zaruriyligi misollar orqali isbotlangan.

Аннотация. В данной статье дается понятие о сравнения и его свойствах, относящиеся к разделу теории чисел курса алгебры, а через него дается способ вычисления последних цифр числового выражения. Основная цель статьи – учащихся общеобразовательных школ, академических лицеев, абитуриентов и студентов интересующихся олимпиадой и научить их решать некоторые сложные задачи из раздела теории чисел простым, удобным и несколькими вариативными способами. В статье разработаны теоремы о нахождении количества повторений последних 2 и 3 цифр выражения, образованного данными числами, через числа более высокого уровня, необходимость этих теорем доказана примерами.

Annotation. This article gives the concept of comparison and its properties related to the number theory section of the algebra course, and through it a method for calculating the last digits of a numerical expression is given. The main purpose of the article is for students of general education schools, academic lyceums, applicants and students interested in the Olympiad and to teach them to solve some complex problems from the section of number theory in a simple, convenient and several variant ways. The article developed theorems on finding the number of repetitions of the last 2 and 3 digits of the expression formed by given numbers through numbers of a higher level, the necessity of these theorems was proved by examples.

Kalit so‘zlar: sonning darajasi, daraja xossalari, qoldiq, taqqoslama, taqqoslama xossalari, Eylar funksiyasi.

Ключевые слова: степень чисел, свойства степеней, остаток делений, сравнение остаточных чисел, свойства сравнения, функция Эйлера.

Key words: degree of a number, power properties, remainder, comparison, comparison properties, Euler function.

Kirish. Ayrim olimpiada masalalarida sonlar yuqori darajasi orqali berilganda, uni hisoblashdan hosil bo‘lgan ifodaning oxirgi raqamlarini topishga doir masalalar tez-tez uchrab turadi. Bu kabi masalalarni yechish uchun hozirgi kunga qadar bir nechta yondashuv va usullar ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirda bu yondashuv va usullardan keng foydalanib kelmoqda. Bu usullardan farqli ravishda, masalani sodaroq va tushunarliroq usullar orqali yechimlarini topish, yangi metodlarni ishlab chiqish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

A.S.Yunusov, S.I.Afonina, M.A.Berdiquolovlarning tadqiqot ishlarida sonlar yuqori darajasi orqali berilganda uni hisoblashdan hosil bo'lgan ifodaning oxirgi bitta va ikkita raqamlarini topishning elementar usuli, ya'ni, sonlar yuqori darajasi bilan berilganda uni hisoblashdan hosil bo'lgan ifodaning oxirgi raqamlari yana bu sonlarning qaysidir darajalarini hisoblashdan keyin takrorlanishi bevosita misollar orqali keltirilgan [1].

N.Raximov, M.Ro'ziyevlarning maqolasida taqqoslama tushunchasi va uning xossalari berilgan bo'lib, taqqoslamaga oid "Eylar", "Fermaning kichik teoremasi" hamda "Qoldiqlar haqidagi Xitoy teoremasi" orqali bir nechta misollarga tatbiqi, xususan, sonning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'lgan ifodaning oxirgi 2 ta raqamini hisoblash usullari ko'rilgan va tahlili keltirilgan [2].

Masalaning qo'yilishi va yechish usullari. Yuqorida tahlili keltirilgan [1] va [2] ishlardan farqli ravishda, 2 dan 9 gacha bo'lgan sonlar yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta (yoki 3 ta) raqamlari hamda bu sonlarni k — yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'lgan ifodaning oxirgi 2 ta (yoki 3 ta) raqamlari bilan bir xil bo'ladigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud kabi yangi yondashuvni amalga oshirish hamda bu yondashuv uchun maqbul ta'rif va teoremlar ishlab chiqish va ularni isbotlarini keltirish muhim sanaladi. Bundan kelib chiqib umumiy holda sonning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 3 tadan ko'p raqamlarini topishga doir teorema ishlab chiqish va bu orqali berilgan yondashuvlar muhim va hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Bizga maktab kursidan ma'lumki, 2 dan 9 gacha sonlarning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami bu sonlarning boshqa yuqori darajalarida takrorlanadi.

Masalan, 2 ning darajalarini yozib chiqsak,

$$2^1 = 2, \quad 2^2 = 4, \quad 2^3 = 8, \quad 2^4 = 16, \quad 2^5 = 32,$$

$$2^6 = 64, \quad 2^7 = 128, \quad 2^8 = 256, \quad 2^9 = 512, \quad 2^{10} = 1024, \dots$$

2 ning yuqori darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqamida faqat 2, 4, 8, 6 raqamlari qatnashib, takrorlanib kelishi ko'rinadi. Shu kabi 2 dan boshqa sonlarning darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami ham ma'lum bir qadamda takrorlanishini ko'rish mumkin.

Shuningdek, 3, 7 va 8 sonlarining yuqori darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami 4 qadamda (4 ta ketma-ket darajasini hisoblashdan so'ng) takrorlanishi; 4 va 9 sonlarining yuqori darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami 2 qadamda; 5 va 6 sonlarining yuqori darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami esa doimo 5 va 6 bilan kelishini keltirishimiz mumkin.

2 dan 9 gacha sonlar yuqori darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta yoki 3 ta raqamlarini takrorlanishlar sonini topish uchun "Taqqoslamalar va ularning xossalari" dan foydalanishimiz mumkin.

Taqqoslama va uning xossalari

Ta'rif. a va b butun sonlarni butun musbat m soniga bo'lganda bir xil qoldiq qoladigan, ya'ni

$$a = mq_1 + r \quad \text{va} \quad b = mq_2 + r$$

bo'lsa, a va b sonlar teng qoldikli yoki m modul bo'yicha o'zaro taqqoslanadigan sonlar deyiladi va quyidagicha yoziladi:

$$a \equiv b \pmod{m} \tag{1}$$

" a va b bilan m modul bo'yicha taqqoslanadi" deb o'qiladi. (1) ifodani \mathbb{Z}_m da $a \equiv b$ ko'rinishda ham yozish mumkin.

Agar $a \equiv b \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $a - b$ ayirma m ga qoldiqsiz bo'linadi, va aksincha, agar a va b sonlarning ayirmasi m ga bo'linsa, u holda $a \equiv b \pmod{m}$ o'rinli bo'ladi (taqqoslamaning ma'nosi haqidagi teorema).

Har qanday butun son m modul bo'yicha o'zining qoldig'i bilan taqqoslanadi, ya'ni agar $a = mq + r$ bo'lsa, u holda $a \equiv b \pmod{m}$ bo'ladi.

Xususiyl holda, agar $r = 0$ bo'lsa, u holda $a \equiv b \pmod{m}$ bo'ladi; bu taqqoslama $m \mid a$ ekanligini, ya'ni, m soni a ning bo'luvchisi ekanligini bildiradi, aksincha ham o'rinli, agar $m \mid a$ bo'lsa, u holda $a \equiv b \pmod{m}$ deb yoziladi.

Taqqoslamalarning asosiy xossalari

1. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ va $c \equiv d \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $ac \equiv bd \pmod{m}$ bo'ladi.

2. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ bo'lsa, u holda $a^n \equiv b^n \pmod{m}$ ($n \in \mathbb{N}$) bo'ladi.
3. Agar $a \equiv b \pmod{m}$ bo'lsa, u holda ixtoriy k butun son uchun $ak \equiv bk \pmod{m}$

bo'ladi.

4. Agar $ak \equiv bk \pmod{m}$ va $(k, m) = 1$ bo'lsa, u holda $a \equiv b \pmod{m}$ bo'ladi.

Ta'rif. Musbat sonlar ustida aniqlangan, hamda a soniga $1, 2, 3, 4, \dots, a-1$ sonlar ichida a bilan o'zaro tub bo'lgan sonlar sonini mos qo'yuvchi funksiya Eyer funksiyasi deyiladi. Eyer funksiyasi $\varphi(a)$ kabi belgilanadi.

Eyer funksiyasining qiymatini berilgan a sonining $a = p_1^{\alpha_1} p_2^{\alpha_2} \cdot \dots \cdot p_k^{\alpha_k}$ kanonik yoyilmasidan foydalanib, hisoblaydigan formula keltiramiz.

Tasdiq. a soni uchun Eyer funksiyasi, ya'ni, a soniga $1, 2, 3, 4, \dots, a-1$ sonlar ichida a bilan o'zaro tub bo'lgan sonlar soni $\varphi(a)$ quyidagicha topiladi:

$$\varphi(a) = a \cdot \left(1 - \frac{1}{p_1}\right) \cdot \left(1 - \frac{1}{p_2}\right) \cdot \dots \cdot \left(1 - \frac{1}{p_k}\right).$$

Teorema (Eyer teoremasi). O'zaro tub bo'lgan a va m ($m > 1$) sonlari uchun quyidagi munosabat o'rinli: $a^{\varphi(m)} \equiv 1 \pmod{m}$.

Bu kabi ta'rif, teorema hamda tasdiqlar bizga algebra va sonlar nazariyasi kursidan ma'lum[3]-[5].

1-qoida. Har qanday sonning yuqori darajasining oxirgi ikkita raqamini topish uchun shu sonni 100 ga bo'lgandagi qoldiqni topish yetarli [6].

2-qoida. Agar sonning darajasini 100 ga bo'lganda Eyer teoremasining o'zaro tublik sharti bajarilmasa, u holda 100 soni bilan darajali sonning asosining EKUBiga taqqoslamaning har ikkala tomoniga bo'lib yuborib, quyidagi masalaga olib kelinadi:

$$(a, m) = d, \frac{a}{d} = \frac{r}{d} \left(\text{mod} \frac{m}{d} \right) \Rightarrow A \equiv R \pmod{M}. \text{ Bu oxirgi munosabat Eyer teoremasiga}$$

tushadi: $A^{\varphi(M)} \equiv 1 \pmod{M}$ [6].

2^{2022} ni oxirgi raqamini topishni taqqoslama orqali hisoblaylik. Buni yaxshiroq tushinish uchun berilgan sonni oxirgi raqamini topish uchun berilgan sonni 10 ga bo'lgandagi qoldiqni topish kifoya, ya'ni $2^{2022} \equiv x \pmod{10}$.

Bu taqqoslamaning yechish uchun, taqqoslamaning xossalariidan foydalaniladi:

$$\begin{aligned} 2^{2022} &= (2^5)^{404} \cdot 2^2 \equiv 2^{404} \cdot 2^2 = (2^5)^{81} \cdot 2 \equiv 2^{81} \cdot 2 = \\ &= (2^5)^{16} \cdot 2^2 \equiv 2^{16} \cdot 2^2 = (2^5)^3 \cdot 2^3 \equiv 2^6 \equiv 4. \end{aligned}$$

Demak, $x = 4$ ya'ni berilgan 2^{2022} sonning oxirgi raqami 4 ekan.

Umumiy holda a butun musbat sonning b butun musbat darajasini oxirgi n ta raqamlarini topishda

$$a^b \equiv x \pmod{10^n} \quad (2)$$

tenglamani yechimlarini topish kerak.

Masalan, 2^{2022} ni oxirgi ikki raqamini topish talab etilsin. (2) formulaga ko'ra, quyidagini yoza olamiz (bu yerda $a = 2$, $b = 2022$ va $n = 2$):

$$2^{2022} \equiv x \pmod{10^2}$$

Taqqoslamaning xossalariidan foydalanib, quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\begin{aligned}
2^{2022} &= 64^{337} = 64^2 \cdot 64^{335} \equiv 96 \cdot 64 \cdot 64^{334} \equiv 44 \cdot 64^{334} = \\
&= 44 \cdot 96^{167} \equiv 44 \cdot 96 \cdot 96^{166} \equiv 24 \cdot 16^{83} \equiv 24 \cdot 16 \cdot 56^{41} = \\
&= 84 \cdot 56 \cdot 56^{40} \equiv 4 \cdot 56^{40} \equiv 4 \cdot 36^{20} \equiv 4 \cdot 96^{10} \equiv 4 \cdot 16^5 = 4 \cdot 16 \cdot 16^4 \equiv 04.
\end{aligned}$$

Demak, $x = 04$, ya'ni berilgan 2^{2022} sonning oxirgi 2 ta raqami 0 va 4 ekan.

Agar bizdan 2^{2022} ni oxirgi uch raqamini topish talab etilsa, (2) formula orqali hosil bo'lgan 1-darajali taqqoslamani yechib, $x = 304$ ekanligini topamiz

Taqqoslamalar orqali quyidagi teoremlarni osonlikcha isbot qilishimiz mumkin.

1-teorema. 2, 3, 7, 8 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami bu sonlarning 4-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 2 ta raqami $4k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud.

4 hamda 9 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami bu sonlarning 2-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 2 ta raqami $2k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud;

5 va 6 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqami bu sonlarning 1-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 2 ta raqami k -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud

Isboti. Teorema 1 dagi shartni qanoatlantiruvchi $k \in \mathbb{N}$ natural son mavjud emas deb faraz qilaylik va 2 sonining yuqori darajalari uchun buni ko'rib chiqaylik.

Yuqoridagi misolda 2^{2022} ning oxirgi 2 ta raqami 0 va 4 ekanligini taqqoslama orqali keltirib chiqardik. Quyidagi holatlarni ko'rib chiqaylik.

$k=1$ bo'lganda

$$\begin{aligned}
2^{2022+4} &\equiv x_1 \pmod{100}, \\
2^{2022} \cdot 2^4 &\equiv x_1 \pmod{100}, \\
x_1 &= 2^{2022+4} \equiv 4 \cdot 16 \equiv 64.
\end{aligned}$$

$k=2$ bo'lganda

$$\begin{aligned}
2^{2022+8} &\equiv x_2 \pmod{100}, \\
x_2 &= 2^{2022+4} \cdot 2^4 \equiv x_1 \cdot 16 \equiv 64 \cdot 16 \equiv 24.
\end{aligned}$$

$k=3$ bo'lganda

$$\begin{aligned}
2^{2022+12} &\equiv x_3 \pmod{100}, \\
x_3 &= 2^{2022+8} \cdot 2^4 \equiv x_2 \cdot 16 \equiv 24 \cdot 16 \equiv 84.
\end{aligned}$$

$k=4$ bo'lganda

$$\begin{aligned}
2^{2022+16} &\equiv x_4 \pmod{100}, \\
x_4 &= 2^{2022+12} \cdot 2^4 \equiv x_3 \cdot 16 \equiv 84 \cdot 16 \equiv 44.
\end{aligned}$$

$k=5$ bo'lganda

$$\begin{aligned}
2^{2022+20} &\equiv x_5 \pmod{100}, \\
x_5 &= 2^{2022+16} \cdot 2^4 \equiv x_4 \cdot 16 \equiv 44 \cdot 16 \equiv 04.
\end{aligned}$$

2 ning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta raqami $4k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud emas deb faraz qilgan edik, lekin $k = 5$ da bu o'rinni emas ekan.

Demak, 2 ning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta raqami 20-darajasidan so'ng takrorlanar ekan.

Xuddi shu singari qolgan sonlarni ham isbotlash mumkin. Qolgan sonlarni ham shu usulda yoki Eylar teoremasi orqali ham isbotlash mumkin. ▷

Yuqoridagi teoremadan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija. 2, 3 va 8 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 2 ta raqami 20 ta darajasidan so'ng takrorlanadi, 4 va 9 sonlarining yuqori darajalari oxirgi 2 ta raqami 10 ta darajasidan so'ng takrorlanadi;

5 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 2 ta raqami 1 ta darajasidan so'ng takrorlanadi; 6 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 2 ta raqami 5 ta darajasidan so'ng takrorlanadi;

7 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 2 ta raqami 4 ta darajasidan so'ng takrorlanadi.

Endi taqqoslama orqali sonlarning yuqori darajalari orqali hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 3 ta raqamini nechta darajasidan so'ng takrorlanishi qonuniyatini topish masalasini qaraymiz.

2-teorema. 2, 3, hamda 8 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta raqami bu sonlarning 20-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 3 ta raqami $20k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud;

4 hamda 9 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta raqami bu sonlarning 10-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 3 ta raqami $10k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud;

5 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 2 ta raqami 1 ta darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 3 ta raqami k -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud;

6 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta raqami bu sonning 5-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 3 ta raqami $5k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud;

7 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 2 ta raqami bu sonning 4-darajasidan so'ng takrorlangani uchun oxirgi 3 ta raqami $4k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud.

Isboti. 1-teoremadagi shartni qanoatlantiruvchi $k \in \mathbb{N}$ natural son mavjud emas deb faraz qilaylik va 2 sonining yuqori darajalari uchun buni ko'rib chiqaylik.

Yuqoridagi misolda 2^{2022} ning oxirgi 3 ta raqami 304 ekanligini taqqoslama orqali keltirib chiqardik. Quyidagi holatlarni ko'rib chiqaylik.

$k=1$ bo'lganda

$$\begin{aligned} 2^{2022+20} &\equiv x_1 \pmod{1000}, \\ 2^{2022} \cdot 2^{20} &\equiv x_1 \pmod{1000}, \\ 2^{20} &= 16^5 = 16 \cdot 256^2 \equiv 16 \cdot 536 \equiv 576, \\ x_1 &= 2^{2022} \cdot 2^{20} \equiv 304 \cdot 576 \equiv 104. \end{aligned}$$

$k=2$ bo'lganda

$$\begin{aligned} 2^{2022+40} &\equiv x_2 \pmod{1000}, \\ x_2 &= 2^{2022+20} \cdot 2^{20} \equiv x_1 \cdot 576 \equiv 104 \cdot 576 \equiv 904. \end{aligned}$$

$k=3$ bo'lganda

$$\begin{aligned} 2^{2022+60} &\equiv x_3 \pmod{1000}, \\ x_3 &= 2^{2022+40} \cdot 2^{20} \equiv x_2 \cdot 576 \equiv 904 \cdot 576 \equiv 704. \end{aligned}$$

$k=4$ bo'lganda

$$\begin{aligned} 2^{2022+80} &\equiv x_4 \pmod{1000}, \\ x_4 &= 2^{2022+60} \cdot 2^{20} \equiv x_3 \cdot 576 \equiv 704 \cdot 576 \equiv 504. \end{aligned}$$

$k=5$ bo'lganda

$$\begin{aligned} 2^{2022+100} &\equiv x_5 \pmod{1000}, \\ x_5 &= 2^{2022+80} \cdot 2^{20} \equiv x_4 \cdot 576 \equiv 504 \cdot 576 \equiv 304. \end{aligned}$$

2 ning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 3 ta raqami $20k$ -darajasidan so'ng takrorlanadigan $\exists k \in \mathbb{N}$ soni mavjud emas deb faraz qilgan edik, lekin $k = 5$ da bu o'rinli emas ekan.

Demak, 2 ning yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi 3 ta raqami 100-darajasidan so'ng takrorlanar ekan.

Xuddi shu singari qolgan sonlarni ham isbotlash mumkin. Qolgan sonlarni ham shu usulda yoki Eyler teoremasi orqali ham isbotlash mumkin.

Yuqoridagi teoremadan quyidagi natija kelib chiqadi.

Natija. 2, 3 va 8 sonlarining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 3 ta raqami 100 ta darajasidan so'ng takrorlanadi;

4 va 9 sonlarining yuqori darajalari oxirgi 3 ta raqami 50 ta darajasidan so'ng takrorlanadi;

5 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 3 ta raqami 2 ta darajasidan so'ng takrorlanadi;

6 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 3 ta raqami 25 ta darajasidan so'ng takrorlanadi;

7 sonining yuqori darajasini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifoda oxirgi 3 ta raqami 20 ta darajasidan so'ng takrorlanadi.

Xulosa. Sonlarning yuqori darajalarini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi raqamlarini topish uchun, hozirda ma'lum bo'lgan nazariyalarga asoslangan holda, ushbu tadqiqot ishida bir nechta teoremlar keltirildi va bu teoremlarning zaruriyligi misollar orqali isbotlandi. Yuqorida ishlab chiqilgan 1-teorema va 2-teoremlardan foydalangan holda, 2 dan 9 gacha bo'lgan sonlarning yuqori darajalarini hisoblashdan so'ng hosil bo'lgan ifodalarning oxirgi 2 ta va 3 ta raqamlari ma'lum bir darajasidan so'ng takrorlanishini aniqlash tadqiqotchi uchun qulay bo'lgan ketma-ketlikni taklif etadi. Berilgan sonning yuqori darajalarini hisoblashdan hosil bo'ladigan ifodaning oxirgi n ta raqamlarini takrorlanish soni oxirgi $n - 1$ ta raqamlarini takrorlanishlar soni orqali hisoblab chiqish mumkinligi ishlab chiqilgan teoreмага asosan isbotlash bir muncha soddaroq va tushinarliroq ekanligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu ishda keltirilgan yondashuv asosida olimpiada masalalarida uchrab turadigan berilgan sonning yuqori darajasini bir necha oxirgi raqamlarini topishga doir masalalarni yechish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusov A.S., Afonina S.I., Berdiqulov M.A., Yunusova. D.I. Qiziqarli matematika va olimpiada masalalari. "O'qituvchi", Toshkent, 2007.
2. Raximov N., Ro'ziyev M. Taqqoslama va uning tatbiqi. "Science and Education" Scientific Journal ISSN 2181-0842, May 2022.
3. Ayupov Sh.A., Omirov B.A., Xudoyberdiyev A.X., Haydarov F.H. Algebra va sonlar nazariyasi. T., 2019.
4. Xojiyev J.X., Faynleyb A.S. Algebra va sonlar nazariyasi kursi. Toshkent, "O'zbekiston", 2001.
5. Ismailov Sh.N. Sonlar nazariyasi. Toshkent, 2008.
6. Norjigitov H., Nuraliyev A.X. Matematikadan olimpiada masalalari. Toshkent, 2020.

Alishev Abdumannon G'afurovich (Jizzax davlat Pedagogika universiteti dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi)

XARAKTERISTIK TENGLAMA KARRALI ILDIZGA EGA BO'LGAN HOL UCHUN CHIZIQLI BO'LMAGAN DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASINING ASIMPTOTIK YECHIMLARI

Annotatsiya. *Sekin o'zgaruvchi koeffitsiyentli chiziqli bo'lmagan differensial tenglamalar sistemasi qaraladi. Xarakteristik tenglama nol karrali ildizga ega bo'lganda yechimlarni asimptotik ko'rinishda ifodalash masalasi o'rganiladi.*

Аннотация. *Рассматриваются системы нелинейных дифференциальных уравнений с медленно меняющимися коэффициентами. Исследуется вопрос об асимптотическом представлении ее решений при наличии нулевого кратного корня у характеристического уравнения.*

Annotation. *The article examines a system of nonlinear differential equations with slowly changing coefficients. The question of finding asymptotic representations of its solutions is studied in the presence of a zero multiple root of the characteristic equation.*

Kalit so'zlar: *asimptotik yoyilma, xos qiymat, vektor, matritsa, kritik hol, xarakteristik tenglama, Lipshtis sharti, formal yechim, umumlashgan teskari matritsa.*

Ключевые слова: асимптотическое разложение, собственное значение, вектор, матрица, критический случай, условия Липшица, формальные решение, обобщенная обратная матрица.

Key words: asymptotic decomposition, eigenvalue, vector, matrix, critical case, Lipschitz conditions, formal solution, generalized inverse matrix.

$$\varepsilon^{p/q} A(\tau, \varepsilon) \frac{dx}{dt} = B(\tau, \varepsilon)x + \varepsilon f(\tau, x, \varepsilon) \quad (1)$$

ko‘rinishdagi sekin o‘zgaruvchi koeffitsiyentli differensial tenglamalar sistemasini qaraymiz, bunda x, f – n -o‘lchovli vektorlar, $x(t, \varepsilon)$ -noma'lum, $\tau = \varepsilon t \in [0, L]$ sekin o‘zgaruvchi vaqt p va q o‘zaro tub sonlar, $A(\tau, \varepsilon), B(\tau, \varepsilon) - (n \times n)$ - tipdagi kvadrat matritsalar, ular $\varepsilon > 0$ kichik parametrlarning darajalari bo‘yicha

$$A(\tau, \varepsilon) = \sum_{s=0}^{\infty} \varepsilon^s A_s(\tau), B(\tau, \varepsilon) = \sum_{s=0}^{\infty} \varepsilon^s B_s(\tau), \quad (2)$$

yaqinlashuvchi qatorga ega. $\forall \tau \in [0, L], \det A_0(\tau) \neq 0$.

Ma'lumki (1)- sistemaning yechimlari, uning

$$\det[B_0(\tau) - \lambda E] = 0, \quad (3)$$

xarakteristik tenglamasining $\lambda_i(\tau) (i = \overline{1, n})$ ildizlarga bog‘liq.

Ushbu ishda (3) – tenglama bitta n -karrali aynan nolga $\lambda_i(\tau) \equiv 0, (i = \overline{1, n})$ teng bo‘lib, unga bitta elementar bo‘luvchi mos kelgan kritik hol uchun asimptotik yechimlarni tuzish masalasi qaraladi.

Sekin o‘zgaruvchi koeffitsiyentli birinchi va ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar sistemasining xarakteristik tenglamasi noldan farqli ildizlarga ega bo‘lgan hollar uchun asimptotik yechimlarni tuzish masalasi Feshenko S.F. va Shkil N.I. va ularning o‘quvchilarining ilmiy [1,2] ishlarida qaralgan.

A.B.Vasileva va uning o‘quvchilarining [3,4] ilmiy ishlarida koeffitsiyentlari sekin o‘zgaruvchi bo‘lmagan kichik parametrga bog‘liq bo‘lgan ikkita differensial tenglamadan tuzilgan sistemaning xarakteristik tenglamasi aynan nolga teng bo‘lgan kritik hol uchun chegaraviy qatlamlar sohasida asimptotik yechimlarni tuzish masalasi qaralgan.

Bu ishlardan farqli ishimizda n -ta tenglamalardan tuzilgan differensial sistemasini uchun kritik, ya'ni xarakteristik tenglamaning aynan nolga teng ildizlari uchun asimptotik yechimlarni tuzishga umumlashgan teskari matritsani qo‘llaymiz. Bu usul asosida tuzilgan yechimlar ixcham bo‘lish bilan birgalikda amaliyotga qo‘llanishi soda.

p va q sonlar orasidagi munosabat (1) – sistemaning yechimini ko‘rinishiga muhim ta'sir etadi. Shuning uchun ishda $p > q$ va $p < q$ hollarni qaraymiz.

1. Teorema. Faraz qilaylik, quyidagi shartlar bajarilsin:

a) $A_s(\tau), B_s(\tau) (s = 0, 1, 2, \dots)$ matritsalar $\tau \in [0, L]$ bo‘yicha $f(\tau, x, \varepsilon)$ vektor $P(\tau, x, \varepsilon) = P(\tau, x) \times (0 < \varepsilon \leq \varepsilon_0)$ sohada (bunda $P(\tau, x), \tau, x$ o‘zgaruvchilarning ba'zi sohasi) cheksiz differensiallanuvchi bo‘lsin;

b) (1) - sistemaning (3) - tenglamasi bitta n karrali nol ildizga ega bo‘lsin: $\lambda_k(\tau), (k = \overline{1, n})$;

g) $\forall \tau \in [0, L], (\varphi_1, B_1(\tau)\psi_1) \neq (\varphi_1, f_u(\tau)\psi_1)$ munosabat o‘rinli bo‘lsin.

U holda (1)- sistema $[0, L]$ oraliqda $p > q$ bo‘lganda

$$x(t, \varepsilon) = \sum_{s=0}^{\infty} \mu_1^s u_s(\tau), \quad \mu_1 = \sqrt[q]{\varepsilon}, \quad (4)$$

formal xususiy yechimga ega bo‘ladi, bunda $\varphi_1, B_0(\tau)$ matritsaning

$\lambda_k(\tau) \equiv 0, (k = \overline{1, n})$ ildizlarga mos keluvchi oxirgi koordinatasi 1 ga qolgan koordinatalari 0 ga teng bo‘lgan ustunli xos vektori, $\psi_1, B_0(\tau)$ matritsaga bog‘liq bo‘lgan. $B_0^*(\tau)$ matritsaning nol fazoviy elementi, bu vektor birinchi koordinatasi 1 ga qolgan koordinatalari 0 ga teng bo‘lgan n -o‘lchovli satirli vektor

Isbot. Teoremani isbot qilish uchun (4)-ni (1)-sistemaga qo‘yib va $f(\tau, u(\tau, \mu_1), \mu_1^{nq})$ vektorni $(\tau, u_0, 0)$ nuqta atrofida Teylor qatoriga yoyilmasini e'tiborga olib hamda yoyilmadan μ_1 parametrlarning bir xil darajalari oldidagi hadlarini yig‘ib,

$$\mu_1^{np} A(\tau, \mu_1^{nq})(u(\tau, \mu_1) = B(\tau, \mu_1^{nq})u(\tau, \mu_1) + \mu_1^{nq} \{f(\tau, u_0(\tau), 0) + \mu_1 f_u(\tau)u_1(\tau) + \dots + \mu_1^s [f_u(\tau)u_s(\tau) + f_{s-1}(\tau) + f_{s-1-nq}(\tau)] + \dots \} \quad (5)$$

ayniyatni hosil qilamiz.

(5) - ayniyatdan μ_1 parametrning bir xil darajalari oldidagi koeffitsiyentlarni tenglashtirib cheksiz algebraik tenglamalar sistemasiga kelamiz:

$$B_0(\tau)u_k(\tau) = 0, (k = 0, 1, \dots, nq - 1); \quad (6)$$

$$B_0(\tau)u_{nq}(\tau) = -B_1(\tau)u_0(\tau) - f(\tau, u_0(\tau)); \quad (7)$$

$$B_0(\tau)u_s(\tau) = -B_1(\tau)u_{s-nq}^+(\tau) - f_u(\tau)u_{s-nq} + b; nq + 1, nq + 2, \dots, \quad (8)$$

bunda

1. Introduction. Let A be an algebra (not necessary associative). Recall that a linear mapping $D: A \rightarrow A$ is said to be a derivation, if $D(xy) = D(x)y + xD(y)$ for all $x, y \in A$. A linear mapping Δ is said to be a local derivation, if for every $x \in A$ there exists a derivation D_x on A (depending on x) such that $\Delta(x) = D_x(x)$. This notion was introduced and investigated independently by R.V.Kadison¹ and D.R.Larson and A.R.Sourour². The above papers gave rise to a series of works devoted to the description of mappings which are close to automorphisms and derivations of C*-algebras and operator algebras. R.V.Kadison set out a program of study for local maps in³, suggesting that local derivations could prove useful in building derivations with particular properties. R.V.Kadison proved in [Theorem⁴ A] that each continuous local derivation of a von Neumann algebra M into a dual Banach M -bimodule is a derivation. This theorem gave way to studies on derivations on C*-algebras, culminating with a result due to B.E. Johnson, which asserts that every local derivation of a C*-algebra A into a Banach A -bimodule is automatically continuous, and hence is a derivation [Theorem⁵ 5.3].

Let us present a list of finite or infinite dimensional algebras for which all local derivations are derivations:

- \mathbb{C}^* -algebras, in particular, the algebra $M_n(\mathbb{C})$ of all square matrices of order n over the field of complex numbers;^{6,7}
- the complex polynomial algebra $\mathbb{C}(x)$ ⁸;
- finite dimensional simple Lie algebras over an algebraically closed field of characteristic zero;⁹
- Borel subalgebras of finite-dimensional simple Lie algebras¹⁰;
- infinite dimensional Witt algebras over an algebraically closed field of characteristic zero;¹¹
- Witt algebras over a field of prime characteristic;¹

¹ R.V.Kadison, Local derivations. J.Algebra, 130 (1990), p. 494 – 509.

² D.R.Larson, A.R.Sourour, Local derivations and local automorphisms of $B(X)$, Proc. Sympos. Pure Math., 51 (1990), p. 187–194.

³ R.V.Kadison, Local derivations. J.Algebra, 130 (1990), p. 494 – 509.

⁴ R.V.Kadison, Local derivations. J.Algebra, 130 (1990), p. 494 – 509.

⁵ B.E.Johnson, Local derivations on C*-algebras are derivations, Transactions of the American Mathematical Society, 353 (2001), p. 313 – 325.

⁶ B.E.Johnson. Local derivations on C*-algebras are derivations, Transactions of the American Mathematical Society, 353 (2001), p. 313 – 325.

⁷ D.R.Larson, A.R.Sourour. Local derivations and local automorphisms of $B(X)$, Proc. Sympos. Pure Math., 51 (1990), p. 87 – 194.

⁸ B.E.Johnson. Local derivations on C*-algebras are derivations, Transactions of the American Mathematical Society, 353 (2001) 313-325.

⁹ Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov. Local derivations on finite-dimensional Lie algebras, Linear Algebra Appl., 493 (2016) 381-398.

¹⁰ Y.Yu, Zh.Chen. Local derivations on Borel subalgebras of finite-dimensional simple Lie algebras, Comm. Algebra 48:1 (2020), p. 1–10.

¹¹ Y.Chen, K.Zhao, Y.Zhao. Local derivations on Witt algebras, Linear and multilinear algebra, 70:6 (2022), p. 1159–1172.

- solvable Lie algebras of maximal rank;²
- Cayley algebras;³
- finite dimensional semi-simple Leibniz algebras over an algebraically closed field of characteristic zero;⁴
- locally finite split simple Lie algebras over a field of characteristic zero;⁵
- finite-dimensional semisimple Filippov n -ary ($n > 1$) algebras.⁶

On the other hand, some algebras (in most cases close to nilpotent algebras) admit pure local derivations, that is, local derivations which are not derivations. Below a short list of some classes of algebras which admit pure local derivations:

- the algebra $\mathbb{C}(x)$ of rational functions;⁷
- finite dimensional filiform Lie algebras;⁸
- p-filiform Leibniz algebras;⁹
- solvable Leibniz algebras with abelian nilradicals, which have a one dimensional complementary space;¹⁰
- the algebra of lower triangular $n \times n$ -matrices;¹¹
- real octonion algebra¹²;
- the ternary Malcev algebra M_8 ¹³.

2. Preliminaries. In this section we give some necessary definitions and preliminary results.

A vector space \mathcal{L} over a field \mathbb{K} , with an operation $\mathcal{L} \times \mathcal{L} \rightarrow \mathcal{L}$, denoted $(x, y) \mapsto [x, y]$ and called the bracket or commutator of x and y , is called a Lie algebras over \mathbb{K} if the following axioms are satisfied:

- ♦ The bracket operation is bilinear.
- ♦ $[x, x] = 0, \quad \forall x \in \mathcal{L}$.
- ♦ $[[x, y], z] + [[y, z], x] + [[z, x], y] = 0, \forall x, y, z \in \mathcal{L}$.

A derivation on a Lie algebra \mathcal{L} is a linear map $D: \mathcal{L} \rightarrow \mathcal{L}$ which satisfies the Leibniz law, that is,

$$D([x, y]) = [D(x), y] + [x, D(y)]$$

¹ Y.F.Yao. Local derivations on the Witt algebra in prime characteristic, *Linear and multilinear algebra*. (2020) <https://doi.org/10.1080/03081087.2020.1819189>.

² K.K.Kudaybergenov, B.A.Omirov, T.K.Kurbanbaev. Local derivations on solvable Lie algebras of maximal rank, *Communications in Algebra* 50:9 (2022), p. 1–11.

³ Ayupov Sh.A., Elduque A., Kudaybergenov K.K. Local derivations and automorphisms of Cayley algebras, *Journal of Pure and Applied Algebra*, Volume 227, Issue 5, (2023).

⁴ K.K.Kudaybergenov, I.Kaygorodov, I.Yuldashev. Local derivations of semisimple Leibniz algebras, *Communications in Mathematics* 30:2 (2022), p. 112.

⁵ Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov, B.B.Yusupov. Local and 2-Local Derivations of Locally Simple Lie Algebras, *Contemporary Mathematics. Fundamental Directions.*, 68 (1) (2022), p. 59 – 69.

⁶ B.Ferreira, I.Kaygorodov, K.K.Kudaybergenov. Local and 2-local derivations of simple n-ary algebras, *Ricerchedi Matematica*, (2021) doi.org/10.1007/s11587-021-00602-3.

⁷ R.V.Kadison, Local derivations, *J. Algebra*, 130 (1990), p. 494–509.

⁸ Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov. Local derivations on finite-dimensional Lie algebras, *Linear Algebra Appl.*, 493 (2016), p. 381–398.

⁹ Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov, B.B.Yusupov, Local and 2-local derivations of p-fliform Leibniz algebras, *Journal of Mathematical Sciences*, 245 (3), (2020), p. 359–367.

¹⁰ Sh.A.Ayupov, A.Kh.Khudoyberdiyev, B.B.Yusupov. Local and 2-local derivations of solvable Leibniz algebras, *Internat. J.Algebra Comput.*, 30:6 (2020), p. 1185 – 1197.

¹¹ A.P.Elisova, I.N.Zotov, V.M.Levchuk and G.S.Suleymanova. Local automorphisms and local derivations of nilpotent matrix algebras, *Izv. Irkutsk Gos. Univ.*, 4:1 (2011), p. 9 – 19.

¹² Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov, A.Allambergenov. Local and 2-local derivations on octonion algebras, *Journal of algebra and its applications*, <https://doi.org/10.1142/S0219498823501475>.

¹³ B.Ferreira, I.Kaygorodov, K.K.Kudaybergenov. Local and 2-local derivations of simple n-ary algebras, *Ricerchedi Matematica*, (2021) doi.org/10.1007/s11587-021-00602-3.

for all $x, y \in \mathcal{L}$. The set of all derivations of \mathcal{L} with respect to the commutation operation is a Lie algebra and it is denoted by $Der(\mathcal{L})$. For all $a \in \mathcal{L}$, the map $ad(a)$ on \mathcal{L} defined as $ad(a)x = [a, x]$, $x \in \mathcal{L}$ is a derivation and derivations of this form are called *inner derivation*.

A linear operator Δ is called a *local derivation*, if for any $x \in \mathcal{L}$, there exists a derivation $D_x : \mathcal{L} \rightarrow \mathcal{L}$ (depending on x) such that $\Delta(x) = D_x(x)$. The set of all local derivations on \mathcal{L} we denote by $LocDer(\mathcal{L})$.

Let us consider the following¹ so-called thin Lie algebras with a basis $\{e_n : n \in \mathbb{N}\}$, which are defined by the following tables of multiplications of the basis elements:

- ◆ $\mathcal{L}_1 : [e_1, e_n] = e_{n+1}, \quad n \geq 2.$
- ◆ $\mathcal{L}_2 : [e_1, e_i] = e_{i+1}, \quad i \geq 2 \text{ and } [e_2, e_j] = e_{j+2}, \quad j \geq 3.$

and other products of the basis elements being zero. The following proposition describes derivations of the algebras \mathcal{L}_1 and \mathcal{L}_2 .

Proposition 2.1.² Any derivation D of the algebra \mathcal{L}_1 has the following form:

$$\begin{aligned} D(e_1) &= \sum_{i=1}^n \alpha_i e_i, \\ D(e_2) &= \sum_{i=2}^n \beta_i e_i, \\ D(e_j) &= ((j-2)\alpha_1 + \beta_2)e_j + \sum_{i=1}^n \beta_{i+2} e_{i+j}, \quad j \geq 3, \end{aligned} \tag{2.1}$$

where $\alpha_i, \beta_i \in \mathbb{C}$, $i = 1, \dots, n$, and $n \in \mathbb{N}$.

Proposition 2.2.³ Every derivation d on the algebra \mathcal{L}_2 has the following form:

$$\begin{aligned} d(e_1) &= a_1 e_1 + \sum_{i=3}^n a_i e_i, \\ d(e_2) &= 2a_1 e_2 + b_3 e_3 + \sum_{i=1}^n (c_i + a_{i+2}) e_{i+3}, \\ d(e_j) &= ja_1 e_j + b_3 e_{j+1} + \sum_{i=1}^n c_i e_{i+j+1}, \quad j \geq 3. \end{aligned}$$

where $a_i, b_3, c_i = b_{i+3} - a_{i+2} \in \mathbb{C}$, $i = 1, \dots, n$, and $n \in \mathbb{N}$.

3 Local derivation on the thin Lie algebra. In this section, we study the local derivation on the thin Lie algebras.

Theorem 3.1. Let Δ be a linear operator on \mathcal{L}_1 . Then Δ is a local derivation, if and only if it has the form:

$$\Delta(e_j) = \sum_{i=j}^n \gamma_{i,j} e_i, \quad j \geq 1. \tag{3.1}$$

where $n \in \mathbb{N}$.

Proof. (\Rightarrow) Assume that Δ is a local derivation of the algebra \mathcal{L}_1 and

¹ K.Khakimjanova, Y.Khakimjanov. Sur une classe d'algebres de Lie de dimension infinie, Commun. Algebra, Vol.29(1) (2001), p. 177 – 191.

² Sh.A.Ayupov, B.B.Yusupov, 2-Local derivations of infinite-dimensional Lie algebras, Journal of Algebra and its Applications, 19 05 (2020), 2050100

³ Sh.A.Ayupov, B.B.Yusupov. 2-local derivations on Virasoro algebras, Bull. Nat. Univ. Uzbekistan. Math. Natural Sci., 4 (2019), p. 217 – 230.

$$\Delta(e_j) = \sum_{i=j}^m \gamma_{i,j} e_i, \quad j \geq 1.$$

Take a derivation d_{e_j} such that $\Delta(e_j) = d_{e_j}(e_j)$, $j \geq 2$. Then

$$\begin{aligned} \Delta(e_j) &= \sum_{i=1}^n \gamma_{i,j} e_i, \\ d_{e_j}(e_j) &= (j-2)\alpha_1 e_j + \sum_{i=2}^n \beta_i e_{i+j-2}. \end{aligned}$$

Comparing the coefficients at the basis elements for $\Delta(e_j)$ and $d_{e_j}(e_j)$, we obtain $\gamma_{i,j} = 0, i < j$.

(\Leftarrow) Assume that a mapping Δ has the form (3.1). For the arbitrary element $x = \sum_{i=1}^n x_i e_i$, $n \in \mathbb{N}$ we shall find a derivation D such that $\Delta(x) = d(x)$. By (2.1) we have

$$d(x)_{e_i} = \sum_{j=1}^{i-1} a_{i+1-j} x_j + i a_1 x_i, \quad i \in \mathbb{N}.$$

Let the coordinates of $\Delta(x)$ of in the basis $\{e_1, e_2, \dots, e_n\}$, $n \in \mathbb{N}$ be

$$\Delta(x)_{e_i} = \sum_{j=1}^n \gamma_{j,i} x_j, \quad i, n \in \mathbb{N}.$$

So we have to find the appropriate coefficient a_i of the derivation d .

Comparing the coordinates in the equality $\Delta(x) = d(x)$, we obtain

$$\sum_{j=1}^n \gamma_{j,i} x_j = \sum_{j=1}^{i-1} a_{i+1-j} x_j + i a_1 x_i \quad i, n \in \mathbb{N}. \quad (3.2)$$

We show the solvability of this system of equations with respect to a_i . Let us consider the following possible cases.

Case 1. Let $x_1 \neq 0$. In this case from (3.2) we uniquely determine $a_i, i \in \mathbb{N}$.

Case 2. Let $x_1 = x_2 = \dots = x_{i-1} = 0$, $x_i \neq 0$, $2 \leq i \leq n$, $n \in \mathbb{N}$. In this case again from (3.2) we uniquely determine a_1, \dots, a_{n-i+1} and a_{n-i+2}, \dots, a_n may be arbitrary.

Theorem 3.2. *Let Δ be a linear operator on \mathcal{L}_2 . Then Δ is a local derivation, if and only if it has the form:*

$$\begin{aligned} \Delta(e_1) &= \gamma_{1,1} e_1 + \sum_{i=3}^n \gamma_{i,1} e_i, \\ \Delta(e_j) &= \sum_{i=j}^n \gamma_{i,j} e_i, \quad j \geq 2. \end{aligned}$$

where $n \in \mathbb{N}$.

Proof. The proof follows by straightforward calculations similarly to the proof of Theorem 3.1.

Urakova Nargiza Salomovna (Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi; nargizaurakova67@gmail.com).

ERKINLIK VA MAS'ULIYAT MA'NAVIYAT ATRIBUTI SIFATIDA

***Annotatsiya.** Maqolada erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining ma'naviyat tizimida tutgan o'rni va ahamiyati, erkinlik va mas'uliyat ma'naviy yuksalishning muhim sharti ekanligi tahlil qilingan. Zamonaviy jamiyatda erkinlik va mas'uliyatning suiiste'moli bilan bog'liq ziddiyatli ta'sirlar va uning oqibatlari bilan bog'liq fikr-muohazalar keltirilgan.*

***Аннотация.** В статье анализируются роль и значение понятий свободы и ответственности в системе духовности, а также то, что свобода и ответственность являются важным условием духовного роста. Представлены мнения, связанные с противоречивыми последствиями и последствиями злоупотребления свободой и ответственностью в современном обществе.*

***Annotation.** The article analyzes the role and importance of the concepts of freedom and responsibility in the system of spirituality, and the fact that freedom and responsibility is an important condition for spiritual growth. Opinions related to the conflicting effects and consequences of abuse of freedom and responsibility in modern society are presented.*

***Kalit so'zlar:** erkinlik, globallashuv, mas'uliyat, javobgarlik qadriyat, transformatsiya, jamiyat, axloq, siyosat, huquq, burch, milliy tiklanish.*

***Ключевые слова:** свобода, глобализация, ответственность, ценность, трансформация, общество, нравственность, политика, право, долг, национальное возрождение.*

***Key words:** freedom, globalization, responsibility, obligation, value, transformation, society, morality, politics, law, duty, national revival.*

Kirish. Inson va jamiyat hayotini ma'naviyatsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, ma'naviyatni ham inson va jamiyatdan ajratib bo'lmaydi. Jamiyatdagi o'zgarishlar muqarar ravishda ma'naviyatga, ma'naviyatdagi o'zgarishlar esa jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazishi, shubhasiz. Erkinlik qaror topgan jamiyatdagina ma'naviy rivojlanish uchun shart-sharoit yuzaga keladi. Erkinlik bo'lmagan joyda esa asta-sekin ma'naviy rivojlanish to'xtaydi. Shu nuqayi nazardan qaraganda, erkinlik va mas'uliyat ma'naviyat rivojlanishning ikki muhim asosi, ya'ni atributi hisoblanadi. Shuning uchun ham inson va jamiyat har doim erkinlikka intiladi. Milliy mustaqillikka o'tish jarayonida inson erkinligi va mas'uliyatini o'sishi asosiy tendensiyalardan biri hisoblandi. Inson kamolotida esa ma'naviyat, erkin tafakkur va mas'uliyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Erkinlik nafaqat shaxsning tanlash, yaratish imkoniyati borligini, bu borada sun'iy cheklovning yo'qligini, shuningdek, u o'z xatti-harakatlari oqibatlari uchun javobgar bo'lishi kerakligini ham anglatadi.

Demak, erkinlik va mas'uliyat ajralmasdir. Falsafa tarixida mas'uliyat g'oyasi erkinlik (iroda erkinligi, qaror qabul qilish, harakat erkinligi), bilan bog'liq o'rganilgan. Erkinlik mas'uliyat shartlaridan biridir, mas'uliyat erkinlikning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Ma'naviyat, avvalo, insonga ichki ruhiy erkinlik beradi. Xohish va istaklarini amalga oshirishda o'z kuchiga tayanish, erkin fikrlash va mustaqil ijod imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Ichki erkinlikdan tashqari ijtimoiy tashqi erkinliklar—siyosiy, huquqiy, iqtisodiy erkinliklar ham bor. Ularni davlat va jamiyat yaratadi. Ijtimoiy adolatning qaror topishi, inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi jamiyat a'zolari uchun teng imkoniyatlar yaratadi. Muayyan bir davrda ijtimoiy taraqqiyot bir tekisda kechmaydi. Goh rivojlanib, gullab-yashnasa, ba'zida esa, aksincha, tanazzulga yoki turg'unlikka yuz tutadi. Bugungi kunda erkinlik va mas'uliyat tushunchalari O'zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanishida yanada ustuvor ahamiyat kasb etamoqda. Erkinlik va mas'uliyat tushunchasini olimlarimiz har tomonlama tahlil etib, uning islohotlar va jamiyat taraqqiyotidagi hamda komil inson tarbiyasidagi ahamiyatini, ijtimoiy vazifalarini, rivojlanish xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor qaratib, ko'plab maqolalar, risolalar, kitoblar yozmoqdalar. Lekin milliy yuksalishning erkinlik va mas'uliyat tushunchalari bilan o'zaro dialektik aloqadorligi, ta'sirlarni tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p emas. Ba'zi masalalar yetarlicha o'rganilmagan.

Xususan, erkinlik va mas'uliyatning ijtimoiy ong va ma'naviyatda tutgan o'rni, uning e'tiqod, axloq, siyosat, huquq bilan o'zaro ziddiyatli aloqalari va ta'siri shunday masalalardan biridir. Erkinlik va mas'uliyat tushunchasi barcha davrlar uchun o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan. Tarixiy va ilmiy manbalarga qaraganda turkiy toshbitiklarda erkinlik xalqni ozod etish va birlashtirish yo'lidagi eng asosiy sifat deb e'tirof etilganini ko'ramiz. Shuningdek, antik davrning buyuk faylasuflari Suqrot, Platon va Arastu tobelikdan chiqish va erkinlikka erishish haqida o'z qarashlarini aytib o'tgan. Islom dinida ham erkinlik va mas'uliyat tushunchalariga alohida urg'u beriladi. Muqaddas kitob Qur'oni karimda inson tirikligida har bir

xatti-harakatining oqibatini o'ylashi va u Oloh oldida javob berishi aytib o'tiladi. Jumaldan, buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Jamiyat a'zosi bir-biriga nisbatan mas'uliyatlidir", deydi [1.187].

Erkinlik g'oyasi uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tib, XVII–XVIII asrlarda Yevropada yangi bosqichga ko'tarildi. XVII asr Dekart, Spinoza, Leybnis, XVIII asrda Volter, Didro, Gobbs, Jon Lokk singari buyuk aql sohiblari erkinlik va u bilan bir butunlikni tashkil etadigan mas'uliyat tushunchalarini chuqur tahlil qildilar. XIX asr faylasufi Gegel unga "anlab olingan zarurat" deya ta'rif berdi. Jamiyat rivojlanish jarayonida erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining mazmuni boyib, kengayib, chuqurlashib bordi. Har bir xalq mutafakkirlari erkinlik va mas'uliyatga o'z millati, mamlakati oldida turgan tarixiy vazifalardan kelib chiqib yondashgan va ta'rif bergan. XX asrning boshlariga kelib, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadid ma'rifatchilari ta'lim-tarbiya tizimi qayta ko'rib chiqilishi, chuqur isloh qilinishi taraqqiyotga va milliy mustaqillikka, erkinlikka erishishni targ'ib qilishgan.

"Ozod va obod Vatanda erkin va farovon yashash" g'oyasi olg'a surildi. Mustaqillikdan so'ng olimlarimiz tomonidan erkinlik va mas'uliyat tuyg'ulariga alohida e'tibor qaratildi. Abdurahim Erkayev, Akmal Saidov, T.Alimardonov, Ulug'bek Saidov kabi olimlar tomonidan inson erkinlik va mas'uliyat tushunchalari o'rganilib kelinmoqda. Maqolada erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining ma'naviyat tizimida tutaqan o'rni va ahamiyati muhokama qilingan. Uning asosiy omillari tavsiflanadi. Mamlakatimizda mazkur sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar va ularning natijalari hamda saqlanib qolayotgan salbiy xolatlar tahlil qilindi. Maqolada ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tadrijiylik, tizimlilik, taqqoslash, analiz va sintez, kontent tahlil, umumlashtirish kabi usullar qo'llanilgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida amaliy va nazariy bilimlarning o'sishi, turmush farovonligini yuksalishi insonning nafaqat individual dunyoqarashi, e'tiqodiga, umuman, ma'naviy erkinlik o'sishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. "Ilk shahar davlatchilikda din, ayniqsa, monoteistik dinlar insonni tabiatning gulto'ji, Xudoning mukarram bandasi deb ulug'ladi. Bu ulug'lash, asosan, yuqori tabaqa vakillariga tegishli bo'lgan. Islom dini tarqalgan O'rta Sharq feodal mamlakatlarida oilaviy hayot va ba'zi bir huquqlar daxlsizligi mustahkamlandi. Bu jarayonlar G'arbda ham kuzatildi. Yuqori tabaqa vakillari, katta huquq va erkinliklarga ega bo'ldi. Past tabaqa vakillari esa yana o'sha haq huquqlarsiz qolib ketaverdi" [2.12–13]. Anashu tabaqa vakillarining ma'naviyati jamiyatning rivojlanishini past suratda qolib ketishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki jamiyatda yuqori tabaqa vakillariga nisbatan past tabaqa vakillari, ya'ni, kambag'al qashshoqlar, ko'pchilikni tashkil qilgan va ularning erkinligi yuqori tabaqa vakillariga nisbatan ancha past edi va buning oqibatida jamiyatning taraqqiy topishi sust bo'lgan. Insonlarga erkinlik yetishmagan. Insonlar ma'naviy qashshoqlashib qolishgan. Jamiyatda ma'naviyatning rivojlanishi uchun erkinlik o'sishi kerak bo'ladi. Erkinlik bo'lmasa ma'naviyat rivojlanmaydi. Insonlar siyosiy totalitar tuzumda yoki diniy fanatizmga asoslangan jamiyatda yashasa, erkin fikrlashga qo'rqsan, ilm-fan, adabiyot va san'at, madaniyat erkin rivojlana olmaydi, qoloq qoidalar, urf-odatlar hukmronlik qiladi. Bunday jamiyatda inson faqat bir tomonlama fikrlab, hamma fikri qaram, tobe bo'ladi. Inson fikrlashdan cheklana boshlaydi. Jamiyat insonlarga erkinlik bermasa u rivojlanishdan to'xtaydi. Insonlarga vijdon erkinligi berilmasa yoki ijod erkinligi berilmasa jamiyat qanday rivojlanadi? Ijod erkinligi tufayli jamiyatda san'at, adabiyot rivojlanadi, so'z erkinligi tufayli jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlar, davlat idoralari faoliyatida tartib intizom rivojlanadi. So'z erkinligi bo'lmasa, jamiyatda intizomsizlik, hokimiyat vakillarining o'zboshimchaligi, poraxo'rlik avj olib ketadi. Insonlarda vijdon erkinligi, ijod erkinligi, fikr erkinligi, so'z erkinligi bo'lishi va ularning huquq va erkinliklari kafolatlanganiga o'zlari amin bo'lishlari lozimdir. O'shandagina ular birovga qaram bo'lmaydi, o'z fikrini ochiq ayta oladi. Ijod erkinligi, so'z erkinligi, e'tiqod rivojlangan joylarda fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylik mavjud bo'ladi. Partiyalar o'rtasida davlatni rivojlantirish yuzasidan bahslar bo'ladi, turli xil variantlar yuzaga keladi. Ana shu bahslar asosida haqiqat tug'iladi. Demak, erkinlik – bu jamiyatni rivojlantirishning, shu jumladan, ma'naviy rivojlantirishning asosiy sharti" [3.261].

Xulosa. Milliy tiklanish jarayonida erkinlik va mas'uliyat kategoriyalari alohida o'rganilmagan. Masalan, huquqshunoslikda erkinlikga cheklovning yo'qligi ma'suliyatga esa javobgarlik nuqai nazardan yondashilinadi. Inson yashashi, hayot kechirishi va jamiyatning taraqqiy etib borishi erkinliklar darajasi va anglangan mas'uliyatning oshib borishi bilan bog'liqdir. Mas'uliyatning ortib borishi odamlarda inson, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg'un his qilish natijada ma'naviy yetuklini yuzaga keltiradi. Erkinlik va ma'suliyat ma'naviyat rivojlanishida salmoqli o'riniga ega. Mazkur holat ziddiyatlarga boy jarayon. Chunki ma'naviyat rivojlanishiga ta'sir ko'rsartuvchi yana boshqa (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) omillar ham mavjud. Mazkur omillarni hisobga olmaslik bir yoqlamalikni yuzga keltiradi va ma'naviy tiklanishda kemtiklini yuzaga keltiradi. Ma'naviyat inson va jamiyatga erkinlik baxsh etadi, ma'suliyatini tarbiyalaydi va milliy tiklanish jarayonida asosiy tendensiyalardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, ma'naviyat tizimida erkinlik va mas'uliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs-

ning erkinlik darajasini o'sib borishi uning imkoniyatlar ko'lamini kengayib borishini ham bildiradi. So'z erkinligining ta'minlanishi natijasida odamlarga, o'zining har qanday holatdagi fikrni olg'a surish imkoniyati yaratildi. Bu jarayon matbuot erkinligi masalagiga, axborot olish, izlash va tarqatish kabilarda ham jiddiy o'zgartirishlarni olib keldi. Erkin shaxsni shakllantirish, erkin jamiyatni qurish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Bunga ko'plab omillar, ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, iqtisodiy va ta'lim-tarbiya jaroyini ta'sir ko'rsatadi. Mas'uliyatli shaxs o'z zimmasiga vazifalar olishdan cho'chimaydi, qiyinchilik va muammolarni yengib o'tadi. Zimmasidagi vazifalarni halol va vijdonan bajarishga harakat qiladi. O'zini mas'ul va javobgar sifatida his qiladi. Vatanni himoya qilish bu nafaqat burch, balki mas'uliyat hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 187-bet.
2. A.Erkayev. Zohiriy va botiniy erkinlik. "Tafakkur", 2018. 3-son, 12 – 13-betlar.
3. Spinoza B. Избранные произведения. М., 1957, 2-т, с. 261.

Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li (Navoiy davlat Pedagogika instituti doktoranti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; e-mail: bekolatov.u@mail.ru)

MATERIYANING TURLI ONTOLOGIK DARAJALARIDA SIMMETRIYA VA UNING BUZILISH QONUNLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada materiyaning turli ontologik darajalari bilan simmetriya va uning buzilish (dissimmetriya) qonunlari o'rtasidagi aloqadorlik muammolari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Har bir ontologik darajaga mos bo'lgan simmetriyaning mavjudligi hamda simmetriya buzilishining sifat jihatdan yangi va yuqori darajadagi tuzilmalar shakllanishidagi o'rni konseptual jihatdan asoslangan. Materiya harakatining turli darajalarini adekvat izohlashda simmetriya va dissimmetriya qonunlarining gnoseologik imkoniyatlari ochib berilgan.*

***Аннотация.** В статье научно-философски проанализированы проблемы взаимосвязи между онтологическими уровнями и законами симметрии и диссимметрии. Концептуально обосновывается место симметрии и диссимметрии при формировании качественно новых структур. Раскрываются гносеологические возможности симметрии и диссимметрии при адекватном объяснении движения материи.*

***Annotation.** The article scientifically and philosophically analyzes the problems of the relationship between ontological levels and the laws of symmetry and dissymmetry. The place of symmetry and dissymmetry in the formation of qualitatively new structures is conceptually substantiated. The epistemological possibilities of symmetry and dissymmetry are revealed with an adequate explanation of the motion of matter.*

***Kalit so'zlar:** simmetriya, simmetriyaning buzilish qonuni, dissimmetriya, materiya, ontologik dara-jalar, materiyaning miqyosli struktura darajalari, materiyaning tashkiliy struktura darajalari, mikroolam, makroolam, megaolam, anorganik dunyo, organik dunyo, ijtimoiy dunyo.*

***Ключевые слова:** симметрия, закон нарушения симметрии, диссимметрия, материя, онтологические уровни, масштабные структурные уровни материи, организационные структурные уровни материи, микромир, макромир, мегамир, неорганический мир, органический мир, социальный мир.*

***Key words:** symmetry, the law of symmetry breaking, dissymmetry, matter, ontological levels, large-scale structural levels of matter, organizational structural levels of matter, microcosm, macrocosm, mega-mir, inorganic world, organic world, social world.*

***Kirish.** Falsafa va fan tarixida simmetriya tamoyili o'zining chuqur ildizlariga hamda o'rniga ega. Qadimgi faylasuflarning aksariyati olamning mukammalligiga aksioma sifatida qarab, unga mos keladigan universal tamoyilni topishga harakat qilishgan. Natijada bu mukammallikning asosida yotgan g'oyani turli san'at namunalari, geometrik timsollarda, mantiqiy fikrlarda va boshqa ko'rinishlarda ifodalashgan. Bunda aynan simmetriya tamoyili Olamning mukammaligini, go'zalligini, undagi tartibotini ifodalovchi bosh g'oya sifatida namoyon bo'lgan, asosan, proporsiya, garmoniya, oltin o'rtalik, tenglik, barqarorlik kabi bir qator tushunchalar orqali tushunilgan.¹*

¹N.O.Safarova, U.R.Bekpo'latov. Simmetriya va asimmetriya (falsafiy-metodologik tahlil). Monografiya, T., «Fan va texnologiya», 2018, 17 – 24-betlar.

Keyinchalik, klassik fan simmetriya g'oyasining matematik qonuniyatlarini ishlab chiqib, uning olam-ni ilmiy bilishning nazariy metapripsipiga aylantirdi.¹ Lekin noklassik fanlarning yuzaga kelishi olamni har doim ham simmetrik emasligini isbotladi.² Asosiy qonunlarni simmetriya tamoyillarini qo'l-lash orqali shakllantirish mumkin bo'lsa-da, aynan ma'lum bir simmetriyaning buzilishi yangi hodisalarni paydo bo'lishiga olib kelar ekan. Bunday holat qadimdan olimlarga ma'lum bo'lsa-da, tajribalarda birinchi bor A.Beshan, keyinchalik, L.Paster tomonidan molekulyar darajada aniqlangan.³

L.Paster vino kislotasining o'ng va chap kristallarini kashf qilishi munosabati bilan buzilgan simmetriyaga duch keldi va aynan shu hodisani "dissimetriya" atamasi orqali izohladi. Keyinchalik, dissimetriya fenomeni haqidagi g'oyalar Peyr Kyuri tomonidan elektr va magnit maydon xossalarini hamda kristallar tuzilishini o'rganish natijasida kengaytirilib, "Kyuri tamoyili" kashf etildi. Bu tamoyilga ko'ra, "Dissimetriya hodisalarni yaratadi".⁴ Shundan so'ng, ilmiy bilish jarayonida simmetriyaning buzilishini izlash yangidan yangi simmetriya va uning buzilishi qonunlarining kashf etilishiga olib keldi. Bilish epistemologiyasida dissimetriya o'zining evrestik potensialini namoyon qiladi, chunki inson idroki, ko'pincha, muqobil choralar orasidan muammolarning nosimmetrik yechimlarini afzal ko'radi va bunday yechimlar mavjud bo'lsa, ularni qidiradi.

Bizningcha, simmetriya va dissimetriyaning ontologik asosi shundaki, olam haqiqatan ham simmetriya va uning buzilishi xususiyatlariga ega. Lekin simmetriya buzilishining moddiy olam evolutsiyasidagi muhim ahamiyati yetarlicha tadqiq etilmagan. Aslida, evolutsiyalanuvchi moddiy olamning o'ziga xos xususiyatlari va uni anglash mumkin bo'lgan tartiboti mavjud. Ushbu moddiy xususiyatlar va tartib tabiat qo'nunlarida aks ettirilishi mumkin. Bu aynan simmetriya va uning buzilish qonunlaridir.

Ilm-fan va matematik tavsif uzoq yillar davomida olam tartibini va chiziqli hodisalarni o'rgandi, chunki ular go'yoki juda mukammal va chiroyli edi. Ammo, xaosli, tartibsiz tuzilmalar va nochiziqli hodisalarga tadqiqotchilar yetarlicha e'tibor qaratmadilar. Fan rivojlanishining postnoklassik bosqichida esa aynan olamning shu jihatlariga katta e'tibor qaratilib, murakkab tavsifga ega bo'lgan turli qonunlar kashf etildi.⁵

Simmetriyaning buzilish hodisalari bilan bog'liq vaziyat ham xuddi shunday yo'nalishda edi. Chunki dissimetriya tabiatning har qanday hodisasida mavjud bo'lib, har bir olim uchun eng yangi istiqbolli so'halar ushbu hodisani o'rganish orqali aniqlanishi mumkin edi. Lekin bu hodisadan, asosan, elementar zarra-lar fizikasida simmetriyaning buzilishi va buzilishni kompensatsiyalash g'oyasi tarzida samarali foydalanildi, xolos.⁶ Keyinchalik, postnoklassik ilmiy tafakkur tarzi shakllana boshladi va murakkab tizimlarni tadqiq etishga oid zamonaviy tadqiqotlarda dissimetriya masalasi asosiy o'ringa chiqdi. Ushbu tadqiqotlar doirasida simmetriyaning buzilishi hodisasi (qayta tashkillashish)ni ifodalovchi dissimetriya fenomenining ontologik daraja nazariyalari bilan bog'liqligini tadqiq qilish dolzarblik kasb etmoqda.

Simmetriya buzilish qonunlarining konseptual muammolari aksariyat holda ontologik daraja nazariyalari bilan chambarchas aloqadorlikka ega. Ma'lumki, falsafada an'anaviy ravishda materiyaning tuzilishi to'g'risidagi konsepsiya harakat, ya'ni o'zgarish shakllariga asoslanilgan. Ham falsafiy, ham turli xil ilmiy nazariyalar materiya va harakatning paydo bo'lish shakllarining xilma-xilligi doirasida bir necha turdagi tizimlashtirishni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ular "ontologik daraja nazariyalari" deb ataladi.⁷ Bu nazariyalar materiyaning paydo bo'lish shakllarini ketma-ket joylashtirish uchun qo'llaniladi. Biroq, ushbu nazariyalar doirasida simmetriya yoki uning buzilish (o'zgarish) qonunlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Ma'lumki, olamda tuzilmasiz moddiy obyektlar bo'lmaydi. Har qanday obyekt shakllanishi uchun, avvalo, elementlarning, qismlarning o'zaro ta'sirlari yoki munosabatlarida ma'lum darajadagi simmetriya mavjud bo'lishi kerak. Shuningdek, bu o'zaro ta'sirlar yoki munosabatlar simmetriyasining buzilishi (dissimetriyasi), o'z navbatida, yangi strukturaga ega bo'lgan, murakkabroq obyekt yoki tizimlarni hosil

¹Тарасов Л.В. Этот удивительно симметричный мир. М., "Просвещение", 1982, с. 176.

²Овчинников Н.Ф. Принципы сохранения. М., "Наука", 1966, с. 332. Принцип симметрии. М., "Наука", 1978, с. 400.

³Пастер Л. Исследования о молекулярной диссимметрии естественных органических соединений. Пастер Л. избр. труды, в 2 т, т. 1, М., АН СССР, 1960, с. 9 – 48; Вернадский В.И. «Пронизанная жизнью оболочка нашей планеты». Жизнеописание. Избранные труды, с. 437.

⁴Кюри П. О симметрии в физических явлениях. Избр. труды, М.–Л., "Наука", 1966, с. 95–113.


⁵Николис Г., Пригожин М. Самоорганизация в неравновесных системах. М., "Мир", 1979, с. 512.

⁶У.Гибсон, Б.Поллард. Принципы симметрии в физике элементарных частиц. М., "Атомиздат", 1979, с. 344.

⁷Сергей Сухонос. Теория эволюции иерархических систем. Книга первая. Структурные уровни природы. Издательство "Экономика", 2013, с. 320.

qila-di. Materiyaning aynan shu sxema asosida tashkillashish tamoyili – har qanday ontologik darajalarga te-gishli bo‘lgan, eng umumiy va fundamental qonuniyatdir.

Falsafada mavjud ontologik daraja nazariyalariga binoan materiya miqyosli va tashkiliy struktura da-rajalariga bo‘linadi. Ushbu struktura darajalari materiya tashkillashishining iyerarxik sxemasi sifatida 1-rasmda tasvirlangn.



1-rasm. Materiya tashkillashishining iyerarxik sxemasi.

Materiyaning miqyosli struktura darajalarini mikro-, makro-, megaolamlar tashkil etadi. Bu olamlar mazkur tizimlarda hukmronlik qiluvchi eng umumiy (fundamental) o‘zaro ta’sirlar va o‘lchamlari bilan farqlanadilar. Masalan, mikroolamda kuchli va kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sir kuchlari hukmronlik qiladi hamda bu kuchlarning ta’sir doirasi atom yadrosi va atom o‘lchovi darajasida chegaralangan bo‘ladi. Kuchli yadroviy o‘zaro ta’sirlar atom yadrosining tarkibiy qismlari bo‘lgan proton va neytronlarning yaxlitligini, kuchsiz yadroviy o‘zaro ta’sirlar esa atom strukturasi yaxlitligini ta’minlaydi. Bu kuchlar tufayli mikroolam o‘zining strukturaviy yaxlitligini saqlaydi. Mikroolamning fazoviy o‘lchamlari 10^{-8} – 10^{-16} sm, yashash vaqti cheksizlikdan 10^{-24} sekundgacha bo‘lgan va bevosita ko‘z bilan ko‘rish imkoniyati mavjud bo‘lmagan maydonlar, elementar zarralar, yadrolar, atomlar va molekulalardan iborat bo‘lgan tizim.

Makroolam esa turli moddalar, turli agregat holatlari, tirik organizmlar, inson va uning faoliyati natijasida yaratilgan makrojism va hokozolar shaklida namoyon bo‘ladi. Makroolamdagi molekulyar birikmalar va Yerdagi barcha hayotiy jarayonlarning strukturaviy birligini elektromagnit o‘zaro ta’sir kuchlari saqlab turadi. Bu miqyosda fazoviy kattaliklar mm, sm, m, kmlarda, vaqt esa sek, min, soat, sutka (kun) va yillarda ifodalanadi.

Megaolam – ulkan kosmik miqyoslar va tezliklardagi, o‘lchamlari astronomik birliklarda, yorug‘lik yili hamda parseklarda, mavjud bo‘lish vaqti esa million, milliard yillar bilan o‘lchanadigan kosmik obyektlar sferasidan iborat bo‘lgan olam. Materiyaning bu miqyosiga sayyoralar, yulduzlar, galaktikalar va ularning tarkiblari kirib, uning yaxlitligi gravitatsion o‘zaro ta’sir kuchlari tufayli saqlanadi.

Materiyaning tashkiliy struktura darajalari moddiy sistemalarning tashkiliy jihatdan uyushganligi, bir-biridan aloqadorliklarning soni va sifati jihatdan, energiya va axborot almashish xususiyati bilan, faollik darajalari, fazo-vaqt strukturasi sifatli xususiyatlari bilan farq qiladi. Ular noorganik daraja

(jonsiz ta-biat), organik daraja – (jonli tabiat) va ijtimoiy daraja (jamiyat) deb yuritiladi. Jonsiz tabiat darajasida atom yadrosi, atom va molekular majmuasi, molekular birikmalar, jismlar, yer shari, osmon jismlari, quyosh sistemasi va boshqa sayyoralar, yulduzlar to'plami, gallaktika, metagallaktika va koinotning quyi darajada uyushgan fazo-vaqt aloqadorliklari namoyon bo'ladi.

Jonsiz tabiat darajasiga nisbatan uyushganroq va faolroq fazo-vaqt sistemasi organik daraja bo'lib, jonli tabiatni tashkil qiladi. Jonli tabiatni o'rganganimizda ham, biz materiyaning tizimli tuzilishga ega ekanligiga iqror bo'lamiz. Unga organik molekulyar tizimlar, tirik organizmlarning xilma-xil ko'rinishlari, bir hujayrali suv o'tlari va sodda jonivorlardan murakkab tuzilgan umurtqalilargacha, sodda hayvonlardan odamlargacha kiradi.

Odamlardan tashkil topgan turli murakkablikdagi tizimlar ijtimoiy darajaga mansub bo'lib, ular – oila, turli jamoalar, birlashmalar va tashkilotlar, partiyalar, sinflar, millatlar, davlatlar, davlatlararo tuzilmalar shaklida ruyobga chiqadi. Yuqorida aytilgan tashkiliy-struktura darajalari bir-biridan moddiy aloqadorliklar sifati va miqdoriga ko'ra, unda yetakchilik qiluvchi harakat shakliga ko'ra bir-biridan farq qiladilar. Masa-lan, noorganik darajada mexanik, fizik, kimyoviy va geologik harakat shakllari faoliyat ko'rsatsa, organik darajada yuqoridagi harakat shakllariga biologik harakat qo'shiladi va u mazkur darajada yetakchilik qiladi, ijtimoiy darajada yana bir harakat shakli – ijtimoiy harakat faoliyat ko'rsatib, u ushbu darajada yetakchilik qiladi.

Ushbu ontologik darajalarning o'zaro o'tish jarayonlarini tahlil qilish natijasida quyi darajaning hal qiluvchilik roli muhim ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. Unga ko'ra, daraja nazariyalarida ketma-ket ikkita (pastki va yuqori) darajalar orasida pastki daraja eng katta ehtimol bilan ketma-ket yuqori darajadagi o'zaro ta'sirning o'ziga xos turiga mansub bo'ladi. Ya'ni, oldingi pastki darajadagi o'ziga xos o'zaro ta'sir turlari har qanday darajadagi rivojlanish va mavjudlikda hal qiluvchilik rolini bajaradi. Shuningdek, ikki xil (yuqori va pastki) darajalarning o'zaro bog'liqligida, odatda, yuqori darajadagi tuzilish boshqasiga faol ta'sir qiladi, chunki har qanday quyi darajadagi material tuzilishi o'z tabiatini faqat o'z (past) sifati va o'z dara-jasida aks ettirishi mumkin. Bu jarayonda pastki darajadagi moddiy struktura yuqori darajadagi moddiy harakat shakllariga mos keladigan moddiy tuzilmalarni faqat o'zining pastki darajasida aks ettiradi.

Ammo, darajalar faqatgina moddiy harakatning ularga tegishli bo'lgan shakllari bilangina emas, balki ularning o'ziga xos o'zaro ta'sirlari bilan ham belgilanadi. Masalan, har qanday jonli predmetni fizik obyekt sifatida aks ettirish mumkin, lekin uning biologik xususiyatlarini aks ettira olmaydi, shuningdek, hech bir hayvon odamlar orasidagi ijtimoiy farqlarni ajrata olmaydi. Demak, har bir ontologik darajaga o'ziga xos bo'lgan o'zaro ta'sir va unga mos ravishdagi simmetriya qonuniyati muvofiq keladi hamda darajalarning qu-yidan yuqoriga yoki, aksincha, o'tishlarida materiyada yangi xususiyatlar paydo bo'ladi. Bu esa, ontologik darajalar bilan simmetriya xususiyatlari orasida fundamental o'zaro bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Bu bog'liqlikning eng muhim tomoni shundaki, materiya evolutsiyasida sifat jihatidan quyi yoki yuqori tashkiliy strukturaga o'tish jarayoni shu materiyadagi ma'lum bir simmetriya xususiyatini dissimmetriklashtirish tufayli yo'qotish va yangi simmetriyaning yuzaga kelishi orqali sodir bo'ladi. Binobarin, sifat jihatidan yangi (moddiy) darajadagi rivojlanishning (uning nisbiy umumiyligida) sharti ma'lum bir simmetriya (o'zigagina tegishli xususiyati) ning buzilishi, shu bilan birga, yangi darajaning davomiyligi (mavjudligi) sharti (yangi) simmetriyaning qaror topishi xususiyatlarga ega bo'lishi hisoblanadi. Shuning uchun yangi moddiy xususiyatlar va yuqori ontologik darajalarning paydo bo'lishi bilan parallel ravishda yangi simmetriyalar ham paydo bo'ladi. Ushbu yangi simmetriyalar avvalgi (pastki) darajalarda mavjud bo'lgan va berilgan darajada buzilganilaridan sifat jihatidan farq qiladi va bu yangi simmetriyalar yangi xususiyatlarni o'zida saqlab qoladi. Shu bilan birga, har bir simmetriya buzilishi materiyaning yuqori tashkiliy darajasiga olib keladi. Bu esa materiyaning har bir yuqori tashkiliy darajasi, ma'lum ma'noda, avvalgisiga qaraganda kamroq barqarorlikka ega bo'lishiga olib keladi. Masalan, anorganik daraja biologik darajadan barqarorroq, o'z navbatida, biologik daraja ijtimoiy darajaga nisbatan kattaroq barqarorlikka ega.

Hozirgacha falsafada ontologik darajalar orasidagi o'zaro aloqadorliklar va o'ziga xosliklar asosan harakatning shakllari asosida tushuntiriladi. Harakat shakllaridan boshqa yana "nima" moddiy tuzilmalar darajalari iyerarxiyasini tizimlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin? degan savolga hali ham ja-vob topilmagan. Bizningcha, ushbu muammoni – materiyaning bir harakat darajasidan boshqa harakat darajalariga o'tish hodisalaridagi simmetriya va uning buzilishi qonunlarini o'rganish orqali yechish mumkin.

Ontologik daraja nazariyalarini harakat shakllari orqali falsafiy izohlash faqat ma'lum chegaralarda muvaffaqiyatli ishlashi mumkin. Ya'ni, u, moddiy dunyoning uchta asosiy darajasi (jonsiz tabiat, organik dunyo va insoniyat jamiyati)ni go'yoki aniq tavsifini beradi. Lekin materiya tashkillashishini bunday

falsafiy izohlash qoniqarli emas. Chunki harakatning individual shakllarini tegishli fundamental o'zaro ta'sirlar orqali izohlash mumkin. Harakatning uchta asosiy shakli paydo bo'lishi bilan evolyutsion chiziq aniq belgilanadi, shu bilan birga harakatning har qanday yangi fundamental shakli avvalgisiga nisbatan yangi xususiyat sifatida paydo bo'ladi. Bu shakllangan yangi ontologik daraja avvalgi xususiyatlarni butunlay yo'qotmaydi va biror miqdorda o'zida saqlab qoladi. Masalan, tirik organizm biologik xususiyatlari bilan ajralib turadi, lekin u massa, hajm, harorat kabi boshqa fizikaviy xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Demak, harakatning yangi fundamental shakli evolutsiyasi haqida gapirganda, uning avvalgi darajasiga tegishli hamda rivojlangan harakat shakllarining o'z darajalari yig'indisida mavjud bo'lishi bilan xarakterlash kerak ekan. Hozirgi kunda ham ma'lum bo'lgan yuqori fundamental darajalar (organik dunyo va insoniyat jamiyati) avvalgi darajalarining mavjudligini anglatadi (navbati bilan jonsiz va tirik tabiat).

Ontologik darajalarni tartibga solish jihatlari (harakat shakllari, o'zaro ta'sirlar, genetik ketma-ketliklar, ularning bir biriga kirishishgan to'plami, asosan, uchta asosiy darajada bir-biriga to'g'ri kelganligi uchun ularni bir-biri bilan aniq bog'liqlikda izohlash mumkin. Ularning o'ziga xos bo'lgan jihatlari o'z darajalari bo'yicha tengdir. Lekin materiyaning nozik tuzilishini mavjud daraja nazariyalari doirasida tushu-nish mumkinmi? Bu aniq darajada (masalan, jonsiz tabiat darajasida), yuqoridagi tushunchalarning tartibga soluvchi jihatlari sifatidagi o'rni bir-biriga to'g'ri kelmaydi, hatto ularni bir ma'noda to'g'ri aloqadorliklarga keltirish mumkin emas. Demak, ularning qaysi birigadir ustunlik berish orqali uning asosida jonsiz materiyaning tuzilishi tasvirini shakllantirish mumkinmi? yoki boshqacha qilib aytganda, uning asosida ma'lum bir fizik daraja nazariyasini ishlab chiqish mumkinmi? degan savol tug'iladi.

Bizningcha, harakat shakllari konsepsiyasi doirasida fizik materiyaning tuzilishini yetarlicha izohlash imkoniyati mavjud emas. Bu masalalar yechimi, avvalo, fizik materiya darajalaridagi o'zaro ta'sirlar bilan harakat shakllari o'rtasidagi aniq kontseptual farqni aniqlash bilan bog'liq. Ular orasidagi farqni fizikada aniq tushinish mumkin bo'lsa-da, ular falsafada yetarlicha aniqlashtirilmagan. Ya'ni, fizikaviy o'zaro ta'sir tushunchasi falsafiy ma'noda harakat shakllariga nisbatan ma'lum bir qo'shimcha "modda"ga ega, ya'ni, u harakat va o'tishning vaqt va makon sharoitlarini, ularning dinamikasini, shuningdek, ko'rsatilgan tarkibga qo'shimcha harakat elementlarni o'z ichiga oladi.

Materiya turlari o'zaro ta'sir turlariga qarab o'zgarib turadi, hatto ularning individual darajalarga mos holatdagi fazovaqt shakllari ham mavjuddir.¹ Materiya tashkillashishi undagi kattaliklar aloqadorliklarining tartibi, genetik evolutsiyaning ketma-ketligi va murakkablik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Genetik evolutsiyaning ketma-ketligini fundamental fizik o'zaro ta'sirlar vositasida tushuntirib bo'lmagani kabi kuchli, elektromagnit yoki gravitatsion o'zaro ta'sirlar orasidagi genetik tartibni ham aniqlash mumkin emas. Shuningdek, fizika doirasidagi fundamental o'zaro ta'sirlar falsafadagi uchta asosiy ontologik darajaga tegishli bo'lgan xarakterli o'zaro ta'sirlardan ancha farq qiladi. Demak, materiyaning murakkablik darajasi uning turli xil o'zaro ta'sirlarda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, aynan shu o'zaro ta'sir obyektning o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi.

Shunday qilib, turli ontologik daraja nazariyalarini birlashtirish uchun barcha darajalar ma'lum bir o'zaro ta'sirlar turi bilan tavsiflanishi lozim ekan. Buning uchun esa turli ontologik darajalar bilan simmetriya va uning buzilishi qonunlari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni aniqlash kerak. Lekin simmetriya va uning buzilishi qonunlari hali barcha fanlarda ham yetarlicha konseptualashtirilmagan bolsa-da, ularga oid mavjud bilimlar orqali ma'lum bir natijalarga erishish mumkin. Masalan, asosiy fizik o'zaro ta'sir qanchalik kuchli bo'lsa, shu materiya darajasida shunchalik ko'p miqdorlar saqlanib qoladi. Agar ushbu o'zaro ta'sir turi zaiflashsa, unga mos ravishda dissimmetriklashtirish (qayta tashkillashish) tufayli simmetriya buzilishlari soni ham ortadi. Bu shuni anglatadiki, o'zaro ta'sir qanchalik zaif bo'lsa (yoki zaiflashsa), unga ko'proq moddiy tuzilmalar (zarralar) ta'sir qiladi va ularda kamroq saqlanish qonunlari amal qiladi. Masalan, kuchli o'zaro ta'sir barcha elementar zarracha miqdorlarini saqlab qoladi, elektromagnit o'zaro ta'sirda izospin saqlanmaydi, ammo qolganlarning barchasi saqlanadi, kuchsiz o'zaro ta'sirda zaryad juftligi saqlanmaydi ammo ularning kombinatsiyasi (CPT) saqlanib qoladi va h.k. Lekin shunday fizikaviy o'zaro ta'sirlar va ularga mos holdagi umumiy simmetriya tamoyillari ham mavjudki, ular butun olam tashkillashishida muhim ahamiyatga ega. Masalan, simmetriyaning umumiylik tamoyili bilan universal o'zaro ta'sir hisoblangan gravitatsiyaning chambarchas bog'liqligi sababli, barcha kosmik jismlar shar shaklini olgan. Hatto, bu ta'sir tufayli aksariyat jonli tuzilmalar shu shaklni olishga intiladi. Materiyaning organik darajasini simmetriya va uning buzilishi bo'lgan dissimmetriyasiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki zamonaviy biologiya fanida noorganik olamda mavjud bo'lmagan va faqat organik

¹Век В.В. Структура материи в концепции теоретической и экспериментальной научной философии. Монография, М., издательский дом Академии Естествознания, 2017, с. 352.

olamgagina tegishli bo'lgan beshinchi tartibli simmetriyaning mavjudligi—bu materiya darajalari orasidagi eng muhim farqlardan biri sifatida qabul qilingan.¹ Bundan, materiyaning noorganik darajasidagi 5-tartibli simmetriyaning buzilishi (dissimmetriya) – organik materiyaga hayotbaxsh etuvchi fenomen ekanligi kelib chiqadi. Aynan, materiyaning noorganik darajalarida 5-tartibli simmetriyani sun'iy hosil qilishga bo'lgan izlanishlar natijasida kvazikristallarning kashf etilganligi simmetriya buzilishi g'oyasining evristik potentsialga ega ekanligini ko'rsatadi.

Agar materiyaning noorganik darajasi uchun yaratilgan simmetriya nazariyasida simmetriya o'qi, simmetriya markazi, simmetriya tekisligi kabi tushunchalar simmetriya elementlari bo'lib hisoblansa, materiyaning organik darajasida esa biologik ritm, reaktivlik (aks ta'sir), adaptatsiya (moslashuv) kabi tushunchalar simmetriya elementlari bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, biologik organizmni mavjud bo'lish sharoiti geofizik omillarga, organizmning javob reaksiyasiga, organizmlarning harakatlanish xususiyatlariga va or-ganizmni o'ziga xos elementlari va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Ko'pchilik hollarda bir necha sabablar bitta oqibatga olib keladi. Masalan, Yerning har qanday nuqtasida (sirtida) yerning tortish kuchi ta'sirida “konus” simmetriyasi hosil bo'lib, bu kuch faqat tashqi simmetriyalardan olingan nusxalardan yig'ilgandir. Tirik (jonli) organizmlar ichidagi muhit esa dissimmetrikdir. Jonli organizmlarning tashkillashishi ichki strukturalar simmetriyasi bilan tashqi simmetriyaning o'zaro muvofiqligi natijasidir. Biologik obyektlardagi simmetriya va dissimmetriya materiyaning noorganik va organik darajalari uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarning fundamental asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham biologik hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi aynan simmetriya xossasiga va dissimmetriklashtirish darajalariga bog'liq bo'ladi.

Demak, aynan simmetriya va uning buzilishi (qayta tashkillashishi) bo'lgan dissimmetriya materiyaning noorganik va organik darajalari orasidagi buzilmas aloqadorliklar, bog'lanishlar hamda o'zaro o'tishlarni xarakterlay oladigan tamoyillar sirasiga kirar ekan. Galdagi vazifa materiyaning eng murakkab darajasi bo'lgan ijtimoiy olamda simmetriya va uning buzilish qonunlarini hamda ularning materiyani quyi darajalari (noorganik va organik) bilan o'zaro bog'lanishlarini konseptuallashtirishdir. Bizningcha, simmetriya va uning buzilishi g'oyalarining ijtimoiy mohiyatini ijtimoiy-gumanitar fan sohalari nuqtai – nazaridan o'rganish zarur. Chunki ijtimoiy-gumanitar fanlarda simmetriya va uning buzilishi g'oyasidan qadimdan juda samarali foydalanib kelingan va bu hozirda ham davom etmoqda. Masalan, siyosatshunoslikda – ijtimoiy-siyosiy boshqaruvdagi xalq va davlat orasidagi maqsadlar hamda xatti-harakatlar muvofiqligi, o'zaro kelishuv, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va h.k.(simmetriya), ushbu jihatlarining buzilishi, ijtimoiy sheriklik asosida yangidan tashkillashishi va h.k.(dissimmetriya), psixologiyada simmetriya hamda uning buzilish hissi va h.k., sana'tning turli sohalarida ritm, garmoniya, proporsiya hamda ularning buzilishi, tilshunoslikda lisoniy birliklarda simmetriyasi va uning buzilishi v.k., estetikada go'zallik va xunuklikning strukturaviy asosi kabi ko'plab jihatlariga ega. Umuman olganda, har qanday fanda simmetriya va uning buzilish g'oyalariga oid jihatlarini u yoki bu darajada topish mumkin. Bundan materiyaning ushbu (ijtimoiy) darajasiga tegishli bo'lgan simmetriya va uning buzilishiga oid g'oyalar bilan materiyaning quyi ikki darajalari (anorganik va organik) orasidagi o'zaro bog'lanish qonunlarini aniqlash orqali materiyaning barcha darajalariga xos bo'lgan eng umumiy qonuniyatlarni anglash imkoniyatlari kengayadi. Yuqorida gravitatsiyaning anorganik va organik olam tashkillashishidagi eng muhim jihatlari aytib o'tilgan edi va bu hodisadan kelib chiqadigan eng muhim xulosalardan biri – tortish maydonining ta'sir doirasidagi tizimni o'ziga simmetriklashtirishga harakat qilishi, shu bilan birga, ushbu tizimning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda dissimmetriya hodisasi tufayli unga (gravitatsiyaga) javob reaksiyasi natijasida eng maqbul variantlarda bo'la olish xarakteriga ega ekanligi edi.

Aynan shu xulosani materiyaning ijtimoiy darajasiga tadbqiq qilish va bunda fizikaviy gravitatsiyaning o'rniga shaxs yashayotgan biror ijtimoiy muhitning ta'sirini “Ijtimoiy gravitatsiya” tarzida tushunish mumkin. Haqiqatdan ham, inson shaxs sifatida biror ijtimoiy muhitning ta'sirlari natijasida shakllanadi va shu ijtimoiy muhit shaxsda o'ziga tegishli bo'lgan xususiyatlarni shakllantiradi. Buni dono xalqimiz qadimdan bilgan va turli iboralarda izohlab kelgan. Masalan, “Onasini ko'rib, qizini ol”, “Qazonga yaqin yursang qarosi yuqar, yomonga yaqin yursang balosi”, “Menga do'sting kimligini ayt, men seni kimligingni aytaman” va h.k. Shu bilan birga, xuddi fizikaviy gravitatsiya materiyaning organik darajasiga tegishli bo'lgan olamni o'ziga to'liq simmetriklashtira olmaganligi kabi, biror ijtimoiy muhit ham undagi shaxsda shu muhitga tegishli bo'lgan xususiyatlarni to'liq shakllantira olmaydi. Chunki hozirgi globallashuv sharoitida bir shaxsning o'zi turli ijtimoiy muhitlar gravitatsiyalari ta'sirida qolgan va shu gravitatsiyalar biror darajada shaxsda o'ziga tegishli xususiyatlarni shakllantirishi mumkin. Bu jihatdan inson turli ijtimoiy gravitatsiyalar ta'siridagi ijtimoiy dissimmetrik obyekt sifatida mavjud bo'ladi. Masalan,

¹Урманцев Ю.А. Симметрия природы и природа симметрии. Философские и естественно-научные аспекты. “Стереотип”, 2017, с. 232.

hozirigi kunda mamlakatimizda yoshlarni zamonaviy bilimlarni egallashlari bilan bir qatorda milliy o'zligimizga munosib avlodlarni tarbiyalash bo'yicha izchil islohotlar olib borilmoqda va bu biz aytayotgan konsepsiyaning mohiyati bilan mantiqiy jihatdan bir ildizga egadir.

Yuqoridagi yondashuvlar hech qanday reduksionizmga olib kelmaydi, balki materiyani turli ontologik darajalari orasidagi o'zaro aloqadorliklarni faqat harakat shakllari bilangina falsafiy izohlash yetarli emasligini asoslab, ularni o'zaro ta'sirlar va ulardagi simmetriya hamda uning buzilishi qonunlari vositasida izohlash mumkinligini ko'rsatadi. Bu yerda "harakat" kategoriyasining mavqeyiga hech qanday putur yetmaydi, balki materiya ontologik darajalarining bir-biriga aylanishi ya'ni o'zgarishi konkretlashtiriladi, to'ldiriladi. Zero, harakat har qanday o'zgarishdir. Harakatning manbai esa ushbu o'zgarishlarning asosida yotuvchi o'zaro ta'sirlar va ular orasidagi munosabatlardir. Simmetriya va uning buzilishi qonunlari esa, ushbu o'zaro ta'sirlar va munosabatlarning tabiatini, o'ziga xos va umumiy tomonlarini, materiyani turli ontologik darajalari tashkillashishidagi ahamiyatini asoslab beruvchi universal tamoyillardir.

Boybekova Shahnoza Aliyevna (Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi; BoybekovaShahnoza86@gmail.com)
GLOBALLASHUV DAVRIDA OILAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI

***Annotatsiya.** Maqolada globallashuv davrida oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi bilan bog'liq qarashlar tahlil etilgan. Globllashuvning milliy qadriyatlar tizimiga ziddiyatli ta'siri va uning oqibatlari bilan bog'liq fikr-muohazalar keltirilgan.*

***Аннотация.** В статье анализируются взгляды, связанные с трансформацией семейных ценностей в эпоху глобализации. Представлены мнения, связанные с противоречивым влиянием глобализации на национальную систему ценностей и ее последствиями.*

***Annotation.** The article analyzes views related to the transformation of family values in the era of globalization. Opinions related to the conflicting influence of globalization on the national value system and its consequences are presented.*

***Kalit so'zlar:** oila, globallashuv, qadriyat, trnsformatsiya, jamiyat, axloq, nikoh, etnoestetik munosabatlar, integratsiya.*

***Ключевые слова:** семья, глобализация, ценность, трансформация, общество, нравственность, брак, этноэстетические отношения, интеграция.*

***Key words:** family, globalization, value, transformation, society, morality, marriage, ethno-aesthetic relations, integration.*

Kirish. Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohasiga kirib borishga ulgurdi va o'zining salmoqli ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu kabilar oila, oilaviy munosabatlar va qadriyatlar tizimiga ham sezirali o'zgarishlarni olib kelmoqda. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, kishilarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, milliy axloq normalari, qadriyatlari, diniy e'tiqodlari ham oilaviy munosabatlarning shakli va mazmuniga ham ta'sir etadi. Shu sababli oilaviy munosabatlarning axloqiy, ijtimoiy, aksiologik mezonlari ham o'zgarishlarga uchraydi. Zero, "...bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin" [1]. Bugungi globallashuv jarayonida ham bir qator olimlar jamiyat, oila va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Xususan, xorijlik tadqiqotchilar A.Toynbi, G.Gadamer1, D.I.Feldshteyn, Z.Freyd, I.Prigojen, K.Levi-Stross, S.Xantington, F.Nitssshelar oiladagi sog'lom turmush tarzining barpo etilishida urf-odatlarining roli va turli millatlarning bir-biri bilan bog'liq ayrim etnoestetik muammolarini tadqiq etganlar. Ularning ilmiy faoliyatida oilani mustahkamlash, uning ijtimoiy hodisa sifatida insonlarni birlashtiruvchi bo'g'in ekanligi obyektiv tarzda nazariy asoslangan. Mamlakatimizda ham bu boradagi imiy tadqiqot ishlari talaygina. Xususan, B.Aminov, E.Yusupov, S.Shermuhamedov, T.Mahmudov, Q.Xonazarov, I.Jabborov, S.Karimov, N.O'rinboev kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma'naviy omillar ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan. Mazmun-mohiyatini milliy g'oyasining maqsad va manfaatlarini tashkil etgan bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida qaror topishi, erkin fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga alohida ahamiyat berilishi natijasida, bir tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy paradigmalari shakllanmoqda, shuningdek, boshqa tomondan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o'rtasida yangi munosabatlar uyg'unligi qaror topmoqda. Bu esa oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Qadriyatlar masalasi ziddiyatli va murakkabligi masalalardan biri hisoblanadi. Qadriyatlar inson, jamiyat uchun ahamiyatli, ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladigan, hayotini yengillashtirishga, yuksaltirishga, ijtimoiy muhitni va munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan narsalar, predmetlar, ijobiy g'oyalar, me'yorlar, ideallar, tamoyillar, mezonlardir. Shuning uchun ham voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kishilarning qadriyatlar to'g'risidagi qarashlari o'zgarib boradi. Bu aksiomatik mulohaza. Masalan, inson kasal bo'lganida sog'likni, urush bo'lganda tinchlikni qadriyatini yanada yanada ko'proq anglaydi. Shu jihatdan olganda, hozirda tez o'zgarayotgan, rivojlanayotgan va transformatsiyalashayotgan davrda oila maqomini saqlab qolish dolzarb ahamiyatga ega. Insoniyat paydo bo'libdiki, bu muammo barcha davrlarda olimu fuzalo, faylasuf va siyosatshunos, tarbiyachi va murabbiylar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Qiziq, bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan birining qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi", degan so'zlarning bitib qo'yilgani ham yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida asosiy masalalardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi. Qadriyatlar qotib qolgan tushuncha emas. Ular mudom harakatdagi jarayondir. Globallashuv tendensiyasi an'analar va qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni, uni asrashga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirishni taqozo qilmoqda. Milliy qadriyatlarimizni zaiflashtirishga harakat qilayotgan omillar, bir tomondan, qadriyatlarimizni qadrsizlantirishga, o'ziga xoslikni yo'qotishga va milliy ehtiyojlarni yemishirga intilmoqda. Oilaviy munosabatlarni kundalik hayot darajasida kuzatilishining o'ziyoq oilaviy qadriyatlarining deformatsiyasi va degradatsiyasini yaqqol namoyon qilmoqda. Bugungi kunda oilaga davlat va jamiyatning g'amxo'rliги va jiddiy qo'llab-quvvatlashiga qaramasdan salbiy holatlar saqlanib qolmoqda. Oilaning zaiflashishi mamlakatdagi demografik vaziyatni ham o'zgarishiga olib kelmoqda.

O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – oilada yoshi ulug' qariya va momolar, bobo va buvilarning yuksak mavqe va martabaga egaligi bo'lib, ular hamisha izzat-ikrom qilinadi, barcha masalalarda ulardan izn olib, so'ng ish boshlashga amal qilinadi. O'zbek oilasiga xos mazkur xususiyat, qadriyat bugungi kunda yanada sayqallanib borayotgani ko'zni quvontiradi. Oila tarbiyasi har qancha o'ziga xos bo'lmasin, u, asosan, yagona manbadan oziqlanib, o'sib, o'zgarib boradi. Bu manba milliy-madaniy merosdir. Oila shu merosning ajralmas bir bo'lagidir. Har bir oila jamiyatda paydo bo'lib, shu jamiyat ichida yashaydi, shunga ko'ra, oilaviy munosabatlar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy munosabatlar bilan belgilanadi hamda ular ta'sirida takomillashib boraveradi. Ayniqsa mazkur masalani yoshlar o'rtasida ko'zga tashlanayotgan soxta konformizm misolida ko'rish mumkin.

Nikohsiz oilalar sonining ortib borishi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida oilaviy munosabatlar rivojiga jamiyat, jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, ularni boshqarish zaruriyati ham kuchayadi. Bu zaruriyat natijasida nikoh bilan bog'liq munosabatlar kelib chiqqan. Nikoh, oila qurayotgan ikki yosh o'rtasidagi munosabatlarni davlat, jamiyat tomonidan muayyan axloqiy, huquqiy mezonlar asosida boshqarilishi zaruriyati natijasida vujudga kelgan marosimdir. Nikoh oilaning vujudga kelishidagi birdan-bir asos bo'lganligi uchun u faqat axloq normalari bilan emas, balki qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Afususki, bugunki kunda nikohsiz turmush (FHDYdan nihokni qayt etish nazarda tutilmoqda) qurish, qo'shxotin olish kabi illatlar ko'paymoqda. Oilani rejalashtirish, ayollar va yosh go'daklarning salomatligini mustahkamlash haqidagi fikrlar ham qishloq aholisi orasida yetarli targ'ib etilayotgani yo'q. Ayrim ziyolilar ham jahondagi ko'plab davlatlar, hatto musulmon, mamlakatlarida ham keng targ'ib etilayotgan oilani rejalashtirish siyosatiga noto'g'ri munosabatda bo'layotgani sir emas. Jadidchilik harakatining ulug' namoyandasi Fitrat o'zining "Oila" asarida: "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi", deb yozadi [3]. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari ham sezilarli ekanidan ko'z yumib bo'lmaydi. Nogiron bolalar uchun har yili yuz millionlab so'm miqdorida nafaqa puli berilmoqda. Agar oiladagi ma'naviy muhit barqaror bo'lmasa, ota-onalarni sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi mas'uliyati kuchaymasa, bu borada ko'zlanilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Qolaversa, genofondining buzilib ketishi har qanday millat va davlat uchun xavf-xatar hisoblanadi. Yosh oilarda mas'uliyat va javobgarlik hissining kamayib borishi. Mazkur holat yuqorida ta'kidlangan erta nikoh qurilishi va oilaga tayyorgarlikning yetarli emasligi natijasida kelib chiqmoqda. Mazkur holatni nemis faylasufi F.V.Gegel oiladagi ota mas'uliyati va huquqi misolida izohlashga harakat qiladi. "Ota bo'lish, deb yozadi mutafakkir, oila a'zolari oldidagi mas'uliyatdir" [4].

Xulosa. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasining yoshlar, xususan, talabalar ma'naviyatiga ta'sirini o'rganishni davom ettirish, buni muttasil va uzluksiz jarayonga aylantirish zarurati mav-

juddir. Ushbu yo‘nalishda yangi-yangi tadqiqotlar olib borish, amaliy ishlar samarasini oshirishga yordam beradigan usul va vositalarni izlab topishga yanada ko‘proq ahamiyatni qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, T., “O‘zbekiston”, 2018, 464-bet.
2. Taranov P. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с. 16.
3. Abdurauf Fitrat. Oila. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1998, 8-bet.
4. Gegel G.F. Сочинения. Том 3, М., 1956, с. 294.

Raximova Mo‘minaxon Zokirjonovna (Urganch davlat universiteti dotsenti, fal.f.b.f.d (PhD)) ABDURAUUF FITRATNING “OILA” ASARIDA ILGARI SURILGAN IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK G‘OYALAR VA ULARNING INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI

Аннотация Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning “Oila” asarida ilgari surilgan ijtimoiy-psi-xologik g‘oyalar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati xususida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada, oilaning tashkil etilishi, oilada er va xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning psixologik jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье обсуждаются социально-психологические идеи, выдвинутые в работе Абдурауфа Фитрата «Семья», и их значение в развитии человека. В статье также анализируются психологические аспекты организации семьи, социальных отношений между мужем и женой, родителями и детьми.

Annotation. This article discusses the socio-psychological ideas put forward in the work of Abdurauf Fitrat “Family”, and their significance in human development. The article also analyzes the psychological aspects of family organization, social relations between husband and wife, parents and children.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, psixologiya, oila psixologiyasi, ta’lim, tarbiya.

Ключевые слова: семья, семейные отношения, воспитание ребенка, психология, семейная психология, образование, воспитание.

Key words: family, family relations, child upbringing, psychology, family psychology, education, upbringing.

Dunyoda yuz beradigan har qanday o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, shu jumladan, bu ta’sir oila muhitida ham namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizning yuksak taraqqiyoti va istiqbolini ta’minlashda barcha ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda oila institutining o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir. Ushbu masalada dastavval, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongida, ma’naviyatida Vatanga muhabbat tuyg‘usini qaror toptirish vazifasi muhim hisolanadi. Qadim davrlardan oila – muqaddas dargoh sifatida vatanga qiyoslangan. Oila kishilarda yurtga sadoqat, ota-onaga cheksiz muhabbat, aka-ukalar o‘rtasida mehr-oqibat tuyg‘ularini shakllantiruvchi maskan sifatida qadrlanib kelgan. Shu sababdan, oilada uning a’zolari o‘rtasida ijtimoiy birdamlik va psixologik yaqinlikni yuksaltirish va tarbiyani shakllantirish taraqqiyotning har bir bosqichida, shu jumladan, XXI asrda ham dolzarb masaladir.

XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar harakat sanalgan jadidchilik harakatining eng yorqin vakili, ma’rifatparvar siyosi Abdurauf Fitratning ijtimoiy, axloqiy, qarashlari, tarbiyaga doir g‘oyalari, asosan, uning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida berilgan. Ushbu asar 1914 yilda yozilgan bo‘lib, 1915–1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. “Oila” asari muallifning yuksak bilim va chuqur mulohaza egasi ekanligi asar mohiyatiga singdirilgan masalalar mazmunini islom dinining muqaddas kitobi Qur’oni karim oyatlariga tayanib tahlil etilganligida, shuningdek, har qanday ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarga yetuk mutaxassis sifatida yondashganida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababdan ushbu asarni tom ma’noda psixologik yetuk yosh avlodni tabiyalash uchun hayotiy qo‘llanma sifatida foydalanishga arziydigan tarbiyaviy asar deb baholash mumkin.

Fitrat “Oila” asarida: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”¹ deb ko‘rsatadi.

Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da’vat etadi. Har jihatdan sog‘lom va mustahkam axloqiy asosga qurilgan oilada tarbiyalangan farzandlargina millatni yuksaklikka ko‘tara olishini, uni

¹ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000, 8-bet.

istibdodan qutqarishini, yurt erki va ozodligini ta'minlay olishi mumkinligini ta'kidlab: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor ...", deydi alam bilan Fitrat. Darhaqiqat, har qanday davlatning shakllanishi, uning kelajagi, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqeyi va salohiyati – dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati yuksak, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran anglaydigan, yosh avlodga bog'liqdir. Zero, bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat, vatanga muhabbat, mehr-shafqat, halollik va poklik kabi axloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi.

Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari oilaning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va axloqiy qoidalarga bag'ishlangan. Ayniqsa, asarning "Uylanish yoki uylanmaslik xususida", "Qalin (puli) va to'y qanday bo'lishi lozimligi haqida", "Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida", "Oilaning maishati va idorasi" qismlarida bu masalalar xususida atroflicha fikr yuritilgan.

"Oila" asari muallifning kirish so'zidan tashqari, ikkita katta qismni o'z ichiga oladi. Birinchi qismda uylanish va uylanmaslik xususida so'z ochilib, Fitrat uylanishning foydalari va uylanmay yurishning zararlari to'g'risida gapira turib, o'z fikrining isboti uchun Qur'on oyatlaridan, suralardan dalillar keltiradiki, bu misollar asarni mutoala qilgan har bir jamiyat a'zosini chuqur o'yg'a toldirardi va uning dunyoqarashida juda ko'plab taassurotlarning uyg'onishiga zamin hozirlaydi.

Muallif uylanmaslikning zarari borasida fikr yurita turib, jumladan, quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Faraz qilaylik, siz yeringizni biron-bir dehqonga berdingiz. Ish asbob-anjomlarini ham berib bug'doy ekishni buyurasiz. Agarda o'sha dehqon yerni olib, ekish asboblarini ham egallab o'z uyida bemalol o'tirsa, bug'doy ekmasa, bir yil yeringizni o'z holiga tashlasa, uning bu harakatini siz xiyonatdan boshqa narsa deb bilmaysiz, albatta. Uylanmaydigan odam ham jinsiy aloqa uchun berilgan kuch-quvvatidan foydalanmasa yoki Lut qavmining amalini qilsa, nafsini o'zi qondirsa, bilib qo'ysinki, Alloh qonuniga xiyonat qilibdi".¹ Shu tariqa, uylanish haqida boshlangan suhbat tadrijiylik asosida inkor etib bo'lmas dalillar va chuqur mulohazalar negizida davom ettiriladi.

Oila, Fitratning talqinida, uchta muhim komponentdan tarkib topadi, uning fikricha bular quyidagilardan iborat:

- Bu komponentning birinchi vakili uylanishga talabgor bo'lgan yigit, ya'nikim er;
- ikkinchi komponent bevosita birinchi komponent bilan bog'liq bo'lgan qiz, ya'ni xotin;
- uchinchi komponent esa yuqoridagi komponentlar hosilasi bo'lgan farzandlardir.

Ana shu komponentlarning har biri o'ta nozik, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Negaki, er va xotin uchun oila qurish asosiy muammo bo'lishi bilan birga, bu masala o'zining muhim qirralariga ham ega. Muallif asarda oilaning huquqiy asoslarini yoritib berishdan avval, masalaning g'oyatda muhim tomonlarini ham yodda tutadi. Oilaviy h ayotning davom etishi "farzandlar" deb atalmish ne'matga bog'liqligini Fitrat qayta-qayta ta'kidlashdan charchamaydi.

Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki butun millatning ham kuch-qudratini, sha'n-shavkatini bildiruvchi omil aynan farzanddir: "Masalan, Belgiyaliklar va inglizlarni hayotini tahlil qilaylik, har ikkala millat a'zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko'z oldimizga ularni keltirib, muhokama qilsak, ko'ramizki, ingliz millati belgiya xalqidan yuz barobar ko'proq kuch va shavkati e'tiborga egadir. Qizig'i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o'rtasida ilm-u amal va sa'y-harakatda farq yo'q. Unda shavkat-u shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo'ladi, ya'ni ingliz millatining umumiy sonidan topsa bo'ladi, ingliz millatining aholisi 44 ming, belgiyaliklar esa 7,5 mingga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa'y-harakati va amali belgiyalikning sa'y-harakati va amalidan bir necha marotaba unumlidir. Ovro'pa hukmdorlari o'z millatlarining sonini ko'paytirishga harakat qiladilar. Ovro'pa olimi o'z xalqining nufuziga putur yetsa: "Ey! Mamlakatimizning sharafi va e'tibori qolmayapti, millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringiz", deya dod soladi".²

Guvohi bo'lganimizdek nasl qoldirish, ya'ni farzand masalasi erkak yoxud ayolning xususiy masalasi emas. Fitrat tez-tez takrorlagan, ta'kidlagan farzand masalasi nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki ayni paytda millatning ham iqtidori, ham obro'-e'tibori, ham sharaf-shonini belgilaydigan zanjir halqasidir. Millat esa vatan, mamlakatning yuragi, demak, millat son jihatidan qanchalik ko'p bo'lsa, o'sha vatanning ham kuch-qudrati shu qadar ziyod bo'lishi tabiiy. Faqat buning uchun Fitrat ta'biri bilan aytganda, tarbiyani ustuvor pog'onaga ko'tarishimiz, oliy maqsadga aylantira olishimiz lozim. Shunday

¹ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2000, 11-bet.

² Shu manba. 13-bet.

ekan, ushbu masala, qalbida yurtiga daxldorlik hissini tiya oladigan hech bir shaxsni befarq qoldirmaydi. Bu masala xususida esa ruhan sog'lom kishilargina fikr yurita oladi.

Fitrat talqinida, son, miqdor darajasi sifat degani emas, xalqning soni ko'p bo'lgani bilan, uni tashkil etuvchi kishilar inson, degan nomga nomunosib bo'lsa, unda bunday ko'p sonlilikning hech qanday foydasi yo'q, aksincha, zarari ko'proq. Chunki yozuvchi o'z saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda hayot egasi bo'lish o'sha millat kishisining yurtparvarligiga, jonkuyarligiga, harakatchanligiga ham bog'liqligini aytadi. "Qaysi millatning namoyondalari g'ayratli, shijoatli bo'lsalar, qo'l-oyog'i kuchli va chaqqon, hamma a'zolari sog' va faol, izzat va e'tibor sohibi bo'ladilar. Qaysi qavmning namoyondalari harakat va intilishdan mahrum bo'lsa, qo'l-oyog'i dardmand kishiga o'xshab zaif va nozik bo'ladi".¹

Oila masalasi millat, mamlakat va kishilik jamiyati degan uch mutanosiblikni ta'minlab turuvchi muhim halqa ekanligini hech birimiz unutmasligimiz lozim, muallifning maqsadi ham aynan shunga qaratilgan. Darhaqiqat, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqeyi va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran angelaydigan, bugungi avlodga bog'liqdir. Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari tom ma'noda yangi hayot yo'lga qadam qo'yayotgan yoshlarimizga dasturulamal vazifasini o'taydi.

Uylanish masalasiga batafsil to'xtalgan adib, ushbu masala mohiyatini takomillashtirgach yigit kishi nechta xotinga uylanishi mumkinligi, ko'p xotinelilikning boshga keltiradigan kulfatlari, boringki foydali tomonlarini ham shu qadar falsafiy tarzda sharhlab berganki, tan bermaslikning aslo iloji yo'q. Fikrining isboti tarzida payg'ambar so'zlaridan foydalanishi kitobxonni chuqur mushohada qilishga undaydi. "Nabiy akram (s.a.v.) buyurganlar: Agarda erning ikki xotini bo'lsa va ularning oralarida adolat qilmasa, qiyomatda tanasi yarimta bo'lg'ay" ("Al-jome, sus-sag'ir"dan²).³

Nechta xotinga uylanish mumkinligi borasidagi fikrlardan so'ng mutafakkir bevosita uylanmoq uchun qanday xotin tanlash lozimligi borasidagi mulohazalarga yuzlanadi va ehtimolki, aynan shu nuqtadan boshlab biz turkistonliklarning eng ayanchli ahvoli, og'riqli nuqtalari ko'zga tashlanadi.

Biz, o'zbeklar dinimiz bo'lgan islom aqidalariga rioya qilmasligimiz, muqaddas kitobimizdan batamom g'ofilligimiz, boshdan oyoq jaholat botqog'iga botganimiz shundan ham namoyon bo'ladi, turmush qurish ostonasida turgan ikki yosh bir-birini ko'ra bilmay turib, to'y qiladi. Vaholanki, eng mukammal din hisoblanmish islom dinimizda bunday an'ana, udum, urf-odat yo'qligini Fitrat inkor qilib bo'lmas dalillar asosida isbot etolgan: "Endi yaxshi axloqqa ega bo'lgan yoki bo'lmaganlikni kim tekshiradi? Mahalla xodimlari bu ishning uddasidan chiqadilarmi? Hech qachon. Bu ishni qiz va kuyov zimmalariga tashlashdan boshqa iloj yo'q. Mol va nasabni tashqaridan tadqiq qilsa bo'ladi. Lekin jamol va axloqni bilish uchun qiz va yigitning muloqotlari juda muhim hisoblanadi. Sog'lom aql egalari nazarida shu ishlarining zarurligi har narsadan ham muhimdir.

SHu joyda yana bir savol tug'iladi. Bu taklifni islom shariati qabul qiladimi-yo'qmi? Al-Mag'firat binni SHahba⁴ "Mishkot al-maloih"da rivoyat qiladi: "Men bir ayolga sovchilarimni yubordim. Hazrat Payg'ambar eshitib so'radilar: "Sen uni ko'rdingmi?" Men: "Yo'q", deb javob berdim. Hazrat buyurdilar: "Uni ko'rgin, orangizda bu muhabbatga sabab bo'lajak".⁵ Yoki quyidagi misolga yuzlanaylik: "Sahl binni Sahl⁶ (r.a.) naql qiladilar: "Bir ayol Payg'ambar oldiga kelib dedi: "Yo, Rasululloh nafsimni senga baxshida etish uchun keldim". Payg'ambar shu xotinni (avval) ko'rdilar".⁷

Fitrat to'y qanday bo'lishi haqida shunay yozadi: "Bizning mamlakatimizda to'y ko'p zararlarga sabab bo'lgan hollari mavjud. Buxoroda shunday odamlar borki, 10-12 yil davomida 5-6 ming so'm mablag'ni zor berib yig'adilar. Bir hafta ichida hammasini "to'y" nomi bilan nobud qiladilar, yana qarzdor va kambag'al bo'lib qoladilar. To'y kunlari sarpo kiygan. Yeb-ichgan odamlar to'y egasining ahvolini ko'rib masxara qiladilar. Hatto, kelib ahvolini so'ramaydilar ham agar bu beandishadan: "shuncha molholni nimaga behuda sarf va xarj qilib, bu qora kunga tushdingiz? Qaysi din, qaysi mazhab qaysi hukumat va qanday qonun sizlarni bu ahmoqona ishga majbur qildi?" deb so'rasangiz, albatta, javob bera olmaydilar. Bunday to'ylar islom shariatida yo'q, chunki bu isrofgarchilikdir, isrof esa shariatda haromdir".⁸ Am-Am-mo bugun to'ylarni sodda (isrofgarchilikdan xoli) tarzda o'tkazaylik degan fikrga ko'nikmagan yoshlar to'ygacha va to'ydan keyin ham ruhiy tushkunlikka tushayotganini kuzatishimiz mumkin.

¹ O'sha manba. 14-bet

² Muhammad at-Termiziy. "Al-jome al-kabir" nomli hadislar to'plamining muhtasar nusxasi.

³ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2000, 19-bet.

⁴ Al-Mag'firat ibn Sha'ba. Sahobalardan, 660-yilda vafot etgan.

⁵ O'sha manba. 25-bet.

⁶ Asl nomi Sahl ibn Sa'd as-Sa'idiy, hijriy 88-yili 96 yoshda vafot etgan.

⁷ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2000, 25-bet.

⁸ Фитрат. Оила. Т., «Маънавият», 1998.

Qanday ayolga uylanish masalasini to‘laqonli oydinlashtirgan muallif mahr va to‘y masalasi, to‘ylarimizdagi isrofgarchilik, ortiqchaliklar xususida to‘xtaladi. Eng hayratlanarlisi shundaki, bu valiy sifat zot “Oila” asarida nimaiki yozgan bo‘lsa, mamlakatdagi qaysi illatlardan saqlanish lozimligini qayta-qayta ta’kidlasa, bugungi kunda vatanimiz fidoyilari, xususan, yurtboshimiz va oliy davlat hokimiyati organlari aynan shu kamchiliklarimizni tanqid qilayotgani, ularni bartaraf qilishga harakat qilayotgani buyuk Fitrat orzularini amalga oshirayotgandek ko‘rinadi, go‘yo. Jumladan “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 14-sentabrdagi №2736–III/QQ-592–III O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining kengashi qo‘shma qarori shu jumladandir.¹

Bugungi kunda to‘ylardagi dabdababozlik, dasturxonlardagi g‘oyat ortiqchaliklar, ayrim viloyat va tumanlarimizda qalin pulining ko‘pligi, to‘y bazmlaridagi mashinalar karvoni va hokazolar jamiyatimizni ichdan yemirayotgan illatlarning pishib yetilishiga, oilalarning notinchligiga, qarzdorlar soni, muhtojlar soni ortishiga sababchi bo‘layotganligi, ming afsuski bor gap. Aynan shu kabi illatlarni bartaraf etishda katta mas’uliyat oila qurish ostonasidagi ikki yosh hamda ularni kamolga yetkazgan volida va padarlari-miz zimmasiga tushadi, ular doimo uzoqni ko‘ra bila olishi, yetti bora o‘lchab bir bora kesmog‘i joiz.

To‘y haqidagi mulohazalarini bayon qilgan muallif undagi har bir komponentga: muhabbat, visol, murosayi madora, taloq kabilarga jiddiy yondashadi. Jamiyatimizdagi navbatdagi illat – qizlarning ta’lim olmasligini qoralaydi. Bu masalani ham erning zimmasiga yuklaydi. Visol haqida gapirganda qiz bolaning 18 yoshda, yigit kishining 23 yoshda oila qurishini ma’qul ekanini ta’kidlab o‘tadiki, bugungi kuni-mizda tibbiyot bu masalalarga oydinlik kiritgani, ilmiy isbotlagani hech birimizga sir emas. Ammo eng qizig‘i, tibbiyot deyarli to‘la rivojlanmagan XX asr boshlarida Fitrat bu masalalarning hammasini yoritib bergan edi.

¹ Lex/UZ

Ismailova Laylo Xondamirovna (Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti dotsenti v.v.b. PhD)
**HUUDUD BRENDINGI MARKETINGNING ENG ZAMONAVIY VA BIRLASHTIRILGAN
SHAKLI SIFATIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakat turizmi iqtisodiy jihatdan yuksalgan o'lkalar misolida hudud brendingini o'rganish va tahlil qilish, ulardagi reklama matnlari yaratishdagi usullarini tadqiq qilish samarali natija berishi tahlil etilgan.*

***Аннотация.** В данной статье проанализировано изучение и анализ регионального брендинга, а также методов создания рекламных текстов в случае стран с экономическим ростом страны туризма для получения эффективных результатов.*

***Annotation.** In this article, the study and analysis of regional branding, as well as the methods of creating advertising texts in the case of countries with economic growth of the country's tourism, are analyzed to give effective results.*

***Kalit so'zlar:** raqobat, turizm, marketing, investitsiya, resurs, reklama, hudud, brend.*

***Ключевые слова:** конкуренция, туризм, маркетинг, инвестиции, ресурс, реклама, территория, бренд.*

***Key words:** competition, tourism, marketing, investment, resource, advertising, territory, brand.*

Hudud qiyofasi, ichki va tashqi ijtimoiy-siyosiy va ishbilarmon doiralardagi obro'-e'tibori, milliy va mintaqaviy tashqi iqtisodiy va siyosiy loyihalarni rag'batlantirishda asosiy omil bo'lgani holda, hamkorlikni yo'lga qo'yishda eng muhim raqobat resursi bo'lmoqda. "Yaxshi nom" mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashning sharti bo'lib, hududning jadal rivojlanishi uchun muhim bo'lgan qator masalalarni hal etishga ko'maklashadi. Bu, birinchi navbatda, investitsiyalarni, jumladan, xorijiy ishbilarmonlarni jalb qilish, milliy hududiy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari uchun savdo bozorlarini kengaytirish, mehnat resurslarini jalb qilish, turizmni rivojlantirish demakdir.

Agar shahar marketingi shahar manfaatlarini muntazam ravishda ilgari surish bo'lsa, u holda shaharni brendlash marketingning eng zamonaviy va birlashtirilgan shakli hisoblanadi. Brend – bu iyeroglifning bir turi. Uning avval nimani anglatgani muhim emas. Balki uning nomlanishi muhimdir. Bu esa nostalgik brendlar mo'l ekanligining sababidir.¹ Shahar brending asl mohiyati va qiymati shahar manfaatlarini ilgari surishda qanday yordam berishi va mamlakatga keltiruvchi foydasi orqali o'lchanadi. Turizm sohasida brending mahsuloti iste'molchilar tasavvurida har bir inson uchun ko'plab noyob uyushmalar (tasvirlar) yaratadi, ammo ularning aksariyati sayyohlik mahsulotining voqeligiga mos emas. Zamonaviy turizm butun dunyo bo'ylab ko'proq tarqalgani sari, turistik (manzil) mamlakat marketingi uchun yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Xalqaro turizm ko'plab sayyohlik, muhim milliy eksport hisoblanuvchi turli mamlakatlar o'rtasida yaralgan shiddatli raqobat arenasidir. Bu bozorga kirgan har qanday davlat, boshqa davlatlar bilan, shuningdek, butun jahon mintaqalari bilan munosabatlarining murakkab raqobat tizimiga kiradi. Marketing siyosati mamlakat turistik hudud qiyofasini shakllantirish va ijobiy rivojlantirishga qaratilgan.

Global dunyoda muvaffaqiyatli rivojlanish uchun mamlakatlar "ongli" ravishda rivojlanishni bilishlari hamda o'zgarishlarga tayyor bo'lishlari talab etiladi. Zamonaviy shaharlar dunyo sahnasiga yangi rollar bilan chiquvchi aktyorlar kabidir. Teatrda bo'lgani kabi ushbu sahnada ham turli daraja va mahoratga ega aktyorlar, iste'dodlilar, muxlislar va teatrdan keluvchi foyda ham mavjuddir. Hatto rejissorlar ham bor. Hayotiy teatrdagi kabi bu jabhada ham, iste'dod sohiblari oddiy o'yinchilardan ko'ra kamroqdir. Mamlakatlar ijro etuvchi "rollar" bu hududiy brendlardir. Agar aynan shu "aktyor" shaharlar talabga muvofiq resurslarga ega bo'lmay turib ham rivojlanib, "aktyor"likka moyil bo'lmagan shaharlardan moddiy jihatdan boyib ketishi kuzatilmaganda, ushbu teatrga mos metaforalar qiziqarli o'xshatish holida qolishi mumkin edi.² Vizgalov o'z asarida brendingni ushbu o'xshatish orqali juda yaxshi tushuntirib beradi.

Chindan ham shaharlar brendini yaratishda ma'lum vazifalarni bajarishadi. Bunda ularga turistik sloganlar va reklamalar yordam beradi. Bizningcha, e'lonlar bu jarayonda muhim o'rin egallab shahar nomidan so'zlovchi elementlar bo'lib ham xizmat qiladilar. Darhaqiqat, jadal reklama qilingan e'tibor tor-

¹ Новиков М.Х. Рекламный текст в СМИ. Способы обозначения целевой аудитории. Автореферат диссерт. ... канд.фил.наук, Ростов-на-Дону, 2007, с. 22.

² Визгалов Д.В. В 42 брендах города. Денис Визгалов [Предисл. Смирнягина]. Москва, Фонд «Институт экономики города», 2011, с. 82.

tuvchi belgilarni namoyon qilgan hududlar sayyohlar diqqatini doimo tortib kelgan. Ba'zi hollarda bu kabi hududlar hech qanday yodgorlik yoki qiziqarli go'shalarga ham ega bo'lmaydilar. Ammo biror tashkil etilgan ko'rgazmalar reklamasi orqali shahar ko'p sonli sayyohlar mo'ljaliga aylanishi aniq. C.Landri va uning hamkasblari har bir shahar aholisi o'zlarining ijodiy kapitallarini baholashi, rivojlantirishi, qurishi va boshqa shaharlarga raqobatlashishda uni vosita sifatida ishlatishga qodir bo'lgan shahar konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Konsepsiyaga ko'ra, C.Landri o'zining cheksiz nekbinligini namoyon etadi. Uning so'zlariga ko'ra, har qanday shahar, hatto moddiy jihatdan eng umidsiz rivojlanish resurslariga ega bo'lmagan ham o'zini o'zgartirishi mumkin.

Bunda shaharning fidokor ijodkor aholi sinfining yordami kerak bo'ladi. Resurslar (investitsiyalar) ijodkor aholi sinfi ishi natijasida keyinroq kelaveradi. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi – bu ijodiy sohalar, avvalambor, shaharning madaniy hayotidan iborat bo'ladi.¹ Bizga ma'lumki, madaniyat orqali o'zlarini o'zgartirishga muvaffaq bo'lgan shaharlar bir qator muvaffaqiyatli marketing misollarida eng katta guruhni tashkil qiladi. Shahar marketingi va brendini boshqarish uchun madaniyat va san'atga tayanish – bu eng ulkan yutuq. Potensial turist ongidagi aniq maqsad tasviri uning aynan o'sha ma'lum destinatsiyani tanlashiga sabab bo'ladi. Ushbu poygada destinatsiya marketologlari reklama materiallari va kompaniyalar yaratish maqsadida innovasion, eng aqlga sig'maydigan usullarga ham murojaat qiladilar.²

Muayyan hududning qulay qiyofasi uning muvaffaqiyatini belgilaydi va uning obro'si sayyohlar va ishbiarmonlar tanlovidagi asosiy omildir. Bizga ma'lumki, dastlab, "imij" tushunchasi estetika va badiiy tanqid atamasi sifatida qo'llanilgan. Keyinchalik, mahsulotning ajralmas xarakteristikasiga aylangan imij marketing kategoriyasiga aylanib, so'ngra boshqa obyektlarga nisbatan va boshqa sohalarda (masalan, shou-biznes, siyosat va h.k.) ham faol muomalaga kirdi. Mamlakat aholisi o'z yurtining barcha imkoniyatlarini bilgani holda, o'zga yurt vakillari bilan birga, ko'pincha, streotiplarga qarab joy haqida ilk bilimga ega bo'ladilar. Quyida dunyoning turli qismlaridagi omadli hududiy brending kompaniyalariga nazar solamiz: Buyuk Britaniya reklama kompaniyasi – bu eng yuqori darajadagi hamkorlikning ajoyib namunasi. Buyuk Britaniya kompaniyasi milliy yubileylardan (masalan, Shekspir vafotining 400 yilligi) unumli foydalangan holda reklama kompaniyalarini ishlab chiqaradi.

Hudud tasviri kishilarning tabiiy-iqlimiy, tarixiy, etnografik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va psixologik hamda boshqalar haqida yuzaga keladigan e'tiqod va his-tuyg'ulari majmuyi. Ushbu hududning xususiyatlari va uning subyektiv ko'rinishi bevosita yoki bilvosita namoyon bo'ladi. Bevosita namoyon bo'lishi deganda, insonning belgilangan hududda ma'lum vaqt davomida yashashi orqali o'sha joy borasida shakllangan fikri nazarda tutiladi. Bu holatda musofir eng obyektiv qarashga ega bo'ladi. Bilvosita ma'lumotga ega bo'lish esa hudud haqida ommaviy axborot vositalari, reklama, sloganlar, sayyohlik firmalari orqali xabar topishni anglatadi. Hudud qiyofasi odamlar ongida rivojlanadigan juda xilma-xil, ba'zan sun'iy yaratilgan obrazdir. Muayyan hudud haqida qancha odam fikr bildirsa, shuncha dunyoqarashni namoyish etish mumkin.

Har bir xalqning o'zi butunlay boshqacha bo'lgani kabi ularning idroki ham o'ziga xosdir. Bundan tashqari, odamlar hudud haqida turli ma'lumotlarga ega bo'lsa ham, u bilan bog'liq tajribasi bir xil emas. Natijada, turli odamlar ongida bir xil hudud tasviri turlicha shakllanadi. Ko'pincha, odamlarning hududiy qiyofasi etarli axborot va o'z tajribasi yo'qligidan shakllanadi. Bu holda tasvir ommaviy stereotip g'oyalari, ommaviy axborot vositalari, adabiy kino va boshqa manbalardan olingan faktlar asosida yuzaga keladi. Yurtning pozitiv imijini yaratishda ko'plab rivojlangan mamlakatlar uslubiga e'tibor berish mumkin. Ijobiy tasvir ortidagi ulkan imkoniyatlarni anglagan mamlakatlar o'z madaniyatining, tabiiy resurslarining eng yaxshi tomonlarini olgan holda yurtning pozitiv imiji poydevorini yaratishga uringanlar.

Mamlakatning jozibadorligini oshirish unga yuqori imkoniyatlar eshigini ochishi, shubhasiz. Bular qatoriga biznes, turizm, jamoaning hayot tarzi yaxshilanishi kabilarni kiritish mumkin. Biznes doirasi vakillari o'z investitsiyalarining xavfsizligini ta'minlaydigan mamlakatga investitsiya kiritishni afzal biladilar. Mamlakatning jozibadorligi darajasini oshirish uchun yagona usul – bu tovar va xizmatlarning ijobiy turistik imijini mustahkamlashdan iborat. Shu o'rinda mamlakat tasvirini yaratuvchi aniq mijozlar sadoqatini ta'minlovchi "Barqaror brend" yaratish murakkab jarayondir. Zamonaviy turistik bozor ko'p xususiyatlarga ega, lekin, eng muhimi, uning dinamikasi va rivojlanish istiqbollari. Turizm sohasidagi raqobat tobora keskinlashgani sari, har bir sayohat kompaniyasi har doim raqobatchilardan ustunligini is-

¹ Визгалов Д.В. В 42 брендах города. Денис Визгалов [Предисл. Смирнягина]. Москва, Фонд «Институт экономики города», 2011, с. 86.

² Фозилджанов И., Хидиров Т., Каримов М. О национальном туристическом бренде Узбекистана. Теоретические аспекты современной науки. Белгород, 2015, с. 102 – 105.

botlashga intiladi. Hozirgi kunda “brend” tushunchasi nafaqat yaxshi reklama qilingan tanish mahsulotni, balki madaniy va ma’naviy ma’noga ega bo’lgan tushunchaga aylanib qolgan. Bugungi kunda tovar belgisi nima ekanligi haqida qizg’in bahs-munozaralar mavjud. Brend ko’p omillarni o’z ichiga olgan iste’molchilar ongida murakkab ruhiy tuzilish bo’lib, bir qator ilmiy sohalar kesishgan ilmiy konsepsiyalar: marketing, huquq, psixologiya, sosiologiya va madaniyatshunoslikni jamlaydi. Brend bu mahsulotni nafaqat vizual, semantik va qiymat xususiyatlarini ajratib ko’rsatadi, balki unga qo’shimcha, umum e’tirof etilgan ijtimoiy va tijorat qiymatini berishi ham mumkin.¹ Har bir shaharning iqtisodiy jihatdan rivoji sayyohlarga moslashtirilganligiga bevosita bog’liq. Shaharning ijobiy timsolini yaratishda virtual olamda reklama va sloganlardan foydalanish hamda ushbu timsolga to’liq javob beruvchi qulay sharoitlar yaratish sayyohlarning yodida ijobiy timsol o’rnashib qolishiga zamin yaratadi.

Til madaniy ahamiyatli axborotlarni to’plash va saqlash vositasi bo’lib xizmat qilgani holda milliy mentalitetning ifodasi hamdir. Madaniyat ham til kabi ma’lumotni uzatishga qodir bo’lgan tizim bo’lsa-da, tildan farqli ravishda, mustaqil vujudga kela olmaydi. Shuning uchun ham olimlarimiz ta’kidlaganidek, til, madaniyat, millat madaniyatshunoslikning markaziy triadasidir.

Tadqiqotimiz davomida xalq madaniyatini aks ettiruvchi noekivalent leksika va lakunalardan unumli foydalanish reklama samarasini oshirib berishiga amin bo’ldik. Reklama matnlari tahlili jamiyatning madaniy qadriyatlari va etnik xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Ushbu fikrlardan xulosa qilib, iste’molchining qisqa vaqtda e’tiborini tortish uchun matn yaratuvchidan reklama matnining mukammal tuzilishi talab qilinadi. Turistik destinatsiya borasida yangicha tasavvur uyg’otishga xizmat qiluvchi onomastikaga oid terminlar muhim ahamiyatga ega. Turistik obyektlarga nom berish jarayonida lingvomadaniy vaziyat ko’p jihatdan millatning mentalitetini belgilashi hamda uning muhim qismi – til va madaniyat aks ettirilgan qadriyatlar to’plami ekanligini hisobga olish zarur. Shuningdek, turistik reklama orqali mamlakat imijini jahon sahnasiga olib chiqish, aniqrog’i, mamlakat brendini yaratish imkoniyati mavjud.

Mamlakatning nafaqat o’z aholisi, balki sayyohlar tomonidan ham ijobiy tasvirga ega bo’lishi uchun turistik reklamaga oid loyihalarni rahbatlantirish asosiy omillardan biridir. Xalqaro turizm bozori mamlakatlar o’rtasidagi shiddatli raqobat arenasi bo’lib, unga kirgan har qanday davlat murakkab raqobat tizimiga kiradi. Tilshunoslar oldida turgan vazifalar sifatida mamlakat brendini yaratishda turistik reklama matnlarini mukammallashtirish, ularda milliy qadriyatlarimizga oid tushunchalarni go’zal tarzda aks ettirish kabilarni ta’kidlash mumkin. Turistik reklama matnlarining madaniy birliklar bilan boyitilishi o’z madaniyatimizga chuqur kirib uni dunyo bilan baham ko’rishga imkoniyat yaratadi.

Shaharning sun’iy timsollariga misol tariqasida Fransiya timsoli dunyoga tanilgan. Bunga misol qilib, Parijning eng taniqli me’morchilik namunasi Eyfel minorasini keltirish o’rinli. Minora o’z konstruktori Gustav Eyfel sharafiga nomlangan va yiliga 5,5 million kishi tashrif buyuruvchi turizmning mashhur obyektidir. Ushbu minoraning yillik budjeti 100 million yevroni tashkil qiladi. Aniqki, inshoot Fransiya davlati brendiga aylangani, shubhasiz. O’tgan yil ma’lumotiga ko’ra, minoraga 6,1 million sayyoh kelgan bo’lsa, ulardan 3,1 million tasi chiptalarni onlayn xarid qilishgan. Minoraga tashrif buyuruvchilar soni 2023-yilga kelib, 7,5 millionga yetishi kutilmoqda. Hozirgi kunda Parij eng ko’p sayyohlar tashrif buyuruvchi destinatsiya bo’lib qolmoqda.² Quyidagi ikki tasvirga diqqat qaratgan holda ko’rish mumkinki, birinchisi Parijdagi 1989-yilgi ko’rgazma uchun tayyorlangan va Eyfel minorasiga 25 foiz chegirma taklif qilinsa, ikkinchi rasmda esa sayyohlik slogani bo’lib, “Seni Parijda kutib olaman”, deya Eyfel nomidan ta’kidlangan shior ko’rinishidadir.³

Britaniyalik sotsiolog Urri o’zining “Turist nigohi” asarida nima sababdan insonlar ma’lum bir joyga sayohat qilishlariga izoh beradi. Uning fikriga ko’ra, turizm bu uyda va ishda topilmagan vizual taassurotlarni olish maqsadida qilingan sayohatdir. Turistlarning asosiy mashg’uloti bu diqqatga sazovor joylarni kuzatish bo’lib, ularning ma’lum bir joylarga qiziqishi tasodif emas. Turist nigohi jamoat fikri bilan shakllantiriladi. Misol tariqasida xitoylik turistlar Qadimgi Rimning yodgorliklaridan ko’ra, Frankfurkt shahridagi osmono’par binolarni afzal ko’rsalar, bu yevropaliklar uchun mutlaqo tushunarsizdir. Urrining fikriga ko’ra, turist nigohi tushadigan joylar orqali sayyohlar ongiga ta’sir qo’rsatiladi.⁴ Darhaqiqat, mamlakat brendini yaratish orqali sayyohlarning nigohiga ta’sir ko’rsatish mumkin. Bunda internet orqali mamlakat yoki shahar uchun maxsus reklama sloganini yaratish ushbu jarayonning muhim bosqichidir.

¹ Charmesson G. Brand: how to create a name that will bring millions. T. Charmesson. SPb, Peter, 1999, p. 106.

² <https://www.vedomosti.ru/business/characters/2020/02/12/822931-iyule-avguste>

³ Svenska: Affisch för världsutställningen i Paris, 1889

⁴ Urry J. The Tourist Gaze: Leisure and Travel in Contemporary Societies, Sage, London, United Kingdom. 1990, p. 262.

Milliy turizm sohasining rivojini reklamasiz tasavvur qilish mushkul. Ushbu sohadigi e'lonlarning farqi shundaki, u sayyohlarni jalb qilish bilan birga, bevosita mamlakatning obrazini yaratib beradi. Shu o'rinda izlanishimizni aynan shu mavzu orqali yakunlashimiz sabablariga to'xtalib o'tsak. Mamlakatimizning qadriyatlarga boy tarix durdonasi ekanligi sir emas. Shu kabi imkoniyatlarga ega yurtimizning jahon hamjamiyatidagi munosib o'rnini topishida biz, tilshunoslarning ham hissamiz borligi bizni quvontiradi. O'z sohamiz nuqtayi nazaridan yondashgan holda, ona-Vatanimiz ravnaqiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shish, uni dunyoga tanitish, xalqaro sayyohlarga haqiqiy chin go'zallikka ega yurtimizni namoyon qilish borligini bildirish eng dolzarb masaladir.

Yurtimizda so'nggi bir necha yillar davomida turizm sohasi jamiyatning ijtimoiy va madaniy jabhasining ajralmas qismiga aylandi. Sayyohlik firmalarimizning taklif etayotgan turli madaniy sayyohlik dasturlarida yurtimizdagi noyob yodgorliklarning namoyish qilinishi, uning targ'ibotida o'z tasdig'ini topmoqda. Har bir sayyohlik firmasi o'zining taqdim qilayotgan xizmatlarida reklama orqali ko'plab sayyohlarda qiziqish uyg'otib, turizm biznesi borasida keng qamrovga ega bo'lishga harakat qilmoqdalar.

Hozirgi kunda yurtimizda ham ko'plab sayyohalarning e'tiborini jalb etuvchi platformalar yaratildi. Ko'plab dunyoga mashhur oynomalar kabi aynan turizmga mo'ljallangan maxsus jurnallar va alohida broshyura nashrlari chop etilmoqda. Ularning aholiga tez va sifatli etib borishini ta'minlashda internetning o'rni beqiyos. Diyorimizda sayyohlik internet saytlari ham tashkil etildi. Internet ijtimoiy hayotimizda eng ko'p qo'llaniladigan axborot vositasiga aylandi. Buni yaxshi anglagan ko'plab sayyohlik firmalari, unga milliy turizmni rivojlantirishdagi asosiy vosita deb qaray boshladilar. Shu o'rinda amalga oshirgan tadqiqotimiz natijasi sifatida yurtimizning go'zal shaharlari uchun ularning tarixi va o'ziga xos jihatlari asoslanib yaratgan reklamalarni taqdim etamiz.

Mo'ynoq

Asrimizning inson sabab eng katta ekologik fojialaridan biri bilan yaqindan tanishishni istaysizmi?

Ko'zingizni yuming va moviy dengiz, musaffo osmon, turfa baliqlar, ajoyib plyajlar bo'yidagi betakror shaharni tasavvur qiling...

Ko'zingizni asta oching va qarshingizda xayolingizdagi jannat shahar kemalar qabristoniga aylangan quruq dengiz oldida joylashgan Mo'ynoqligiga amin bo'ling. Orol fojiasining tirik guvohi Mo'ynoq bo'ylab sayohat sizni turli hissiyotlar girdobiga tortishi aniq!

Ushbu reklama matnida qisqa va tushunarli tarzda Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq shahri ta'rifini keltirdik. Reklama matnidagi pragmatik murojaat ushbu ekologik fojidan bexabar sayyoh uchun biroz bo'lsa-da, ma'lumot beradi va qiziqish uyg'otishga sabab bo'ladi. *Jannat* va shu kabi so'zlar turistik reklama matnida o'ta go'zal manzilni ifodalash uchun keng qo'llaniladi.

Samarqand

Dunyoning eng qadimiy shaharlari bo'lgan Afina va Rim tengdoshi, buyuk sarkarda Amir Temur saltanatining poytaxti bo'lgan ulug'vor va certilsim shaharni yaqindan bilishni istaysizmi? Unda, Sharq gavhari Samarqand tomon shoshiling!

Bu reklama orqali Samarqand shahrining qariyb 2750 yillik tarixga ega ekanligi uni dunyoning eng qadimgi mamlakatlari poytaxtlari bilan qiyoslash orqali yorqin namoyon etildi. Atoqli ot sifatida buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurning ham nomi tilga olinib, shaharning saltanat poytaxti bo'lganini ta'kidlash orqali sayyoh uchun sermazzun va qiziqish uyg'otishga undovchi ma'lumot ham taqdim etildi. "Sharq gavhari" stilistik vositasi esa Samarqandning Sharqdagi noyob shahar ekanligini ta'kidlaydi. Leksik tomondan tahlil etsak, "shoshiling" kabi fe'llar turistik reklamada ko'p uchrab, ongga ta'sir ko'rsatish kuchiga egadir.

Buxoro

Markaziy Osiyo islom me'morchiligining yorqin namunalaridan bahra olishni istasangiz, sharqona ertaklar shahri bo'ylab yo'l oling! Donishmand allomalar yurti Buxoroning hayratomuz go'zalligini xotirangizga muhrlang!

Keyingi reklamamiz orqali Buxoro shahri haqida ma'lumotga ega bo'lmagan har bir sayyoh shaharning islom tarixida muhim o'ringa ega ekanini anglashi muqarrar. "Ertaklar shahri" iborasi orqali ushbu manzilning afsonalardek go'zalligini ifodalash mumkin. Zehni o'tkir, yirik olim Imom al-Buxoriy bobomiz o'zga yurtlarda ham shuhrat qozonib, islom dini tarixida muhim o'rin tutgan bo'lib, alloma nomidan foydalanish orqali sayyohlar oqimini oshirish muqarrar. Reklamada buyruq gapdan foydalanish esa sayyohni passiv kuzatuvchidan faol sayyohga aylanishga undaydi.

Xiva

Xonlar taomi tuxumbarak ortidan shivit oshni tanovul qilib, "Lazgi" sadolari ostida o'rta asrlar qal'asi ichra sayr etishga nima deysiz? Javobingiz ha bo'lsa, tarixiy shahar-muzey Xiva sizni kutmoqda!

Ushbu reklamani yurtimizning yana bir qadimiy va maftunkor shahri Xiva uchun yaratdik va unda milliy o'ziga xos so'zlar, ya'ni realiyalardan keng foydalandik. Ma'lumki, realiyalar deganda, bir millat va elatga xos narsa-hodisalarni ifodalovchi so'zlar va tushunchalar anglashiladi. Ushbu reklamadagi Xorazm milliy taomi *tuxumbarak, shivit osh, lazgi* so'zlari aynan shu hududgagina xos so'zlar bo'lib, realiyalarga misol bo'la oladi. Reklama matni tuzilishi so'roq gapdan iboratligi, o'quvchi bilan bir qatorga turish hamda do'stona suhbat shaklini oladi. Bu kabi reklama matnlaridagi pragmatik murojaat uning sermahsulligini oshiradi.

Toshkent

Zamonaviy megapolis tarixiy obidalar bilan uyg'unlashgan shaharni ko'rishni istaysizmi? Turkiy, so'g'd va islom madaniyatining namunasi bo'lgan Markaziy Osiyodagi eng yirik qadimiy shaharlardan birini-chi? Unda quyoshli Toshkent sari yo'l oling! Barcha narsa mujassam Chorsu bozori, o'ziga rom etuvchi tarixiy obidalar, bir so'z bilan aytganda, jamiki unutilmas taassurotlar Toshkentda! Sermazmun kuningizni shaharning ajoyib restoranlarida, UNESKOning nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritilgan mazali taomlardan bahra olish bilan davom ettiring!

Ushbu turistik reklama matni ham ko'plab turistik reklamalarning asosiy maqsadga erishishdagi usuli, ya'ni, manzilning go'zal xususiyatlarini ifodalash va sayyohning ongiga bevosita ta'sir etishga va harakatga undashga yo'naltirilgan. Reklama beruvchi tomon doimo o'quvchi, ya'ni bo'lajak sayyohda qiziqish uyg'otuvchi gaplardan foydalanishga intilishi zarur. O'quvchining qalbiga yo'l topa oluvchi birgina so'z yoki ibora bo'lajak sayyohda kuchli qiziqish uyg'otishi va uni harakatga undashga sabab bo'lishi mumkin. Yuqoridagi reklamada Toshkentgagina xos realiya – *Chorsu bozori* nomi berilgan. Bu gapni stilistik jihatdan tahlil etsak, *barcha narsa mujassam* birikmasi orqali giperbola, ya'ni, mubolag'a ishlatilgan bo'lib, undan turistik reklamalarda, odatda, manzilning ijobiy jihatlarini bo'rttirish uchun foydalaniladi.

Hozirda sayyohlikning gastronomik turi ham rivojlangan bir davrda, yurtimizning bu sohadagi afzalliklaridan turistik reklama matnini yaratishda foydalanish o'rindidir. Reklama matnimizning oxirgi gapi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Davlat yoki shaharning mukammal imijini yaratish mamlakatning sayyohlar tomonidan ijobiy qabul qilinishiga sabab bo'ladi.

Mamlakat turizmi iqtisodiy jihatdan yuksalgan o'lkalar misolida hudud brendingini o'rganish va tahlil qilish, ulardagi reklama matnlari yaratishdagi usullarini tadqiq qilish samarali natija beradi. Bo'limda mamlakatlar misolida negativ imijdan ijobiyga o'tish o'tish va undagi qo'llangan usullardan misollar keltirildi.

Insonlar olamdagi jarayonlarga o'z munosabatlarini til orqali bildiradilar. Til – anglash, bilish quroli ekanligi bilan birga, unda millat tarixining asrlar silsilasi davomidagi o'zgarishlari aks etadi. Til turistik reklama matnini lingvomadaniy birliklar bilan boyitib, uning milliy madaniyati hamda madaniy tajribasini ham jahonga taqdim etadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, turistik reklama matnlarini tuzishda sayyohlarning milliy madaniyatini e'tiborga olish bilan birga, o'z milliy madaniyatimizni ham bilishimiz zarur. Chunki reklamadagi ko'p qirraviylik va onggga ta'sir qilish kabi belgilar, ya'ni, stereotiplar orqali fikrlovchi ko'plab sayyohlarning jamiyat borasidagi fikrini o'zgartirishga qo'yilgan muhim qadamdir.

Xulosa sifatida, hudud brendingi va mamlakatning pozitiv timsolini yaratishning eng muhim omillaridan biri savodli reklamadir. Mamlakatga tashrif buyurmagan, u haqida kam tushunchaga ega bo'lgan sayyohlar uchun ma'lumotga boy bo'lgan turistik reklama matnlarini yaratish mamlakatning nafaqat o'z aholisi uchun, balki sayyohlar tomonidan ham ijobiy bahoga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Arziyev Mo'ydinjon Abduraxmonovich (Farg'ona Politehnika instituti "Iqtisodiyot" kafedrasida assistenti; e-mail: ARZIYEV1970@mail.ru),

Tuychiyeva Odina Nabiyevna (Farg'ona Politehnika instituti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti v.b.; e-mail: o.nabiyevna@ferpi.uz)

RAQAMLI IQTISODIYOT – YUKSALISHNING ENG QISQA YO'LI

Аннотация. Мақоллада рақамли иқтисодийот соҳасидagi ривожланган мамлакатлар таърибаси ва утуқлари, республикамизда уни шакллантириш ва ривожлантириш омиллари, муаммолари, тармоқнинг мамлакатлар иқтисодийотидagi қо'шимча қиймат ва бандликни та'минлашдagi ҳиссаси тahlil этилган. О'збекистондagi истиқболда рақамли иқтисодийотни шакллантириш ва ривожлантириш хусусида муаллифларнинг фикрлари жамланган.

Аннотация. В статье анализируются опыт и достижения развитых стран в области цифровой экономики, факторы и проблемы ее становления и развития в нашей республике, вклад сети в обеспечение добавленной стоимости и занятости в экономике страны. Мысли автора о становлении и развитии цифровой экономики обобщены в тональной перспективе.

Annotation. *The article analyzes the experience and achievements of developed countries in the field of the digital economy, the factors and problems of its formation and development in our republic, the contribution of the network to providing added value and employment in the country's economy. The author's thoughts on the formation and development of the digital economy are summarized in a tonal perspective.*

Kalit soʻzlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, internet texnologiyalari, jamiyat rivoji, ijtimoiy tarmoqlar, tarmoq foydalanuvchilari, blokcheyn.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, цифровые технологии, интернет-технологии, развитие сообществ, социальные сети, пользователи сети, блокчейн,*

Key words: *digital economy, digital technologies, Internet technologies, community development, social networks, network users, blockchain.*

Kirish. Respublikamizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning 2030-yilgacha konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaga binoan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 2030-yilga borib, 2 baravarga ortadi va aholi jon boshiga YIM ishlab chiqarish 3 baravarga oshirishi prognozlashtirilgan. Joriy “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yilida davlat dasturi doirasida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun qariyb 30 trillion soʻm sarflanishi moʻljallanmoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini koʻzda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot–2030 milliy dasturi” qabul qilinib, ha-yotga joriy etilmoqda.

Mavzuga oid tadqiqotlar sharhi. Soʻnggi yillarda axborotli jamiyatga oʻtish, raqamli iqtisodiyot, bilimlar iqtisodiyoti singari tushunchalarni izohlaydigan ilmiy ishlar va oʻrganadigan koʻplab ilmiy adabiyotlar paydo boʻldi. Birinchi navbatda, bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanishga bagʻishlangan tarjima ishlarini qayd etish lozim. 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “Raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar deyarli barcha qoʻllamoqda. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotni ahvoli haqida ilk marotaba ma’ruza eʼlon qildi”.

2003-yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Rossiya davlat xizmati akademiyasining mualliflar jamoasi ishi chop etildi. Shu yili A.N.Kozirev va I.L.Makarovning fundamental ishi, shuningdek, bilimlar iqtisodiyoti boʻyicha oʻquv qoʻllanmasi paydo boʻldi. BMT Rivojlanish Dasturining Rossiyada bilimlarga asoslangan jamiyat tashkil topishiga bagʻishlangan Rossiya boʻyicha 2004-yilgi yillik toʻplami mamlakat ilmiy gʻoyasiga jiddiy oʻzgarish kiritdi.

Institutsional tub oʻzgarishlar, bilimlar iqtisodiyotining “ijtimoiy kapital” deb nom olgan qismini tadqiq etish boʻyicha ishlarni alohida blokka ajratish mumkin. Bu borada F.Fukuyamaning ijtimoiy kapital singari toifani jiddiy ravishda rivojlantirib, toʻldirilishi alohida eʼtiborga loyiq. Ushbu toifa Gʻarbda iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarda keng qoʻllanilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida bilish nazariyasining induksiya va deduksiya, mantiqiy yondoshuv, zamon va makon, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Olib borilgan izlanishlar jahonda va respublikamizda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati, bu sohadagi yutuqlar va hal etilishi lozim boʻlgan masalalar boʻyicha umumlashtirilgan xulosa va takliflar yaratilgan. Mamlakatlar faoliyatini oʻrganishda tahlil va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil, grafik taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Taʼkidlash joizki, raqamli, iqtisodiyot oʻta murakkab tizim boʻlib, uni inson shakllantiradi, bu keng qamrovli tizimni inson boshqaradi, tarkibini belgilaydi, tashkil qiladi, rejalashtiradi va bularning hammasi barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashga, inson hayotini, yashash darajasini yuksaltirishga qaratilgan boʻladi.

Jahonda innovatsion taraqqiyotda raqamli sektorning ulushi oshib bormoqda. Ayniqsa, bu sohadagi Xitoyning tajribasini oʻrganish katta ahamiyatga ega. Xitoyning uchta raqamli giganti Baudu, Alibaba, Tanset va Xiaomi (adabiyotlarda qisqacha VATX deb ataladi) jahonda raqamli innovatsiyalarda global lider boʻlmoqdalar. Ular raqamli tovar va xizmatlarni eksport qilishda jahonda yetakchilik qilmoqdalar. 2017-yili G-20 mamlakatlari iqtisodiyot vazirlari deklaratsiyasida, Xalqaro valuta fondi va OESD mamlakatlari raqamlashtirishning yalpi ichki mahsulotga taʼsirini oʻrganish zaruriyati haqida kelishib oldilar.

Internet tarmogʻi tezligi soʻnggi yillarda shiddat bilan ortib bormokda, uni, Digital Economy Report – UNCTAD tomonidan berilgan statistik maʼlumotda ham koʻrish mumkin.

PwC kompaniyasi 2021-yil 31-mart holatiga dunyoning yetakchi 10 kompanisini tahlil qilib eng yuqori kapitallashuvga ega Top 10 kompaniyasini eʼlon qildi. Dunyoning Top kompaniyalarining 10 dan 7 tasi AQSHga toʻgʻri kelmoqda. Bu yuqorida keltirib oʻtilgan Global Digital Economy Competitive-ness Development Report (2019) natijasiga mos ekanligini isboti. Shuningdek, Top 10 ta kompaniyaning 8 tasi (Apple Inc, Microsoft, Alphabet Inc. (Google), Amazon Inc., Facebook, Alibaba Group, Tencent va Visa Inc.) raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat koʻrsatuvchi yoki aloqasi sezilarli darajada yuqori boʻlgan

kompaniyalarning umumiy kapitalizatsiyasini hisoblaydigan bo‘lgan qariyb 7.4 trl.\$ni tashkil qiladi. Ushbu ko‘rsatkich bilan YIM bo‘yicha dunyoda AQSH (YMM 23.5 trl. \$), Xitoy (21.4 trl. \$), Hindiston (9.6 trl. \$)dan ortda qoladi, xolos. Demak, raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlatirish bugungi rivojlanayotgan davlatlar uchun suv va havo kabi zarur.

O‘zbekistonda ham AKTlarni keng joriy qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Elektron axborot, monitoring va boshqaruv tizimlari barcha zamonaviy ishlab chiqarish va yirik xizmat ko‘rsatish sohalari, chunonchi, aholini elektr, suv va gaz bilan ta‘minlash sohalari qamrab olinadi. Elektron boshqaruv barcha turdagi transport kommunikatsiyalari, shu jumladan, umumdavlat va davlatlararo avtomobil yo‘llari bilan ta‘minlanadi.

Mamlakatlardagi raqobatchilik muhitining kuchayishi munosabati bilan Internet xizmatlari operatorlari va provayderlari soni muttasil ko‘payib bormoqda.

1-jadval

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish ko‘rsatkichlari (2022)

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston	MDH Davlatlari	Jahon	Xitoy
Statsionar telefon aloqasi (har 100 kishida)	17.7	18.85	23.36	38.5
Mobil aloqa (har 100 kishida)	90.5	104.27	99.65	126.5
Faol mobil tarmoq aloqasi (har 100 kishida)	77,4	83,73	61,89	100,5
Mobil tarmoq narxi 1G \$	1,44	1,33	3,90	0,49
Simli internet narxi, internet paketlarining o‘rtacha oylik narxi \$	18,44	36,68	81,32	17,41
Internetdan foydalanuvchilar foizi, %	75,2	68,65	74,13	100,1
Foydalanuvchi uchun o‘rtacha simli internet tarmoq tezligi (Mbit/s)	20, 14	40,93	91,46	200,00
Foydalanuvchi uchun o‘rtacha mobil internet tarmoq tezligi it/s (Mbit/s)	12,99	24,2	40,51	200,11

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tizimini rivojlantirishga berilgan katta e‘tibor tufayli soha tez rivojlanmoqda. Ammo internet tarmog‘ining tezligi, mobil aloqa va mobil tarmog‘i narxi, mobil aloqa mavjudligi bo‘yicha jahonda va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidan orqada bormoqda. Provayderlar va operatorlarning asosiy qismi Toshkentda jamlangan bo‘lishiga qaramay, Respublika hududlarida, ayniqsa, Samarqand va Buxoro viloyatlarida ularning soni mutgasil oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa bozorning ushbu segmentida raqobatning kuchayib borayotganidan dalolat bermoqda. Kanallarning o‘tkazuvchanlik layoqati ko‘payishi va operatorlar hamda provayderlar soni ortishi barobarida, internet tarmog‘iga kommunikatsiyalangan va keng tarmoqdan foydalanish tizimi abonentlari jadal sur‘atlar bilan oshib bormoqda.

Mamlakatda internet tarmog‘idan jamoaviy foydalanish shahobchalari soni ortib bormoqda (JFSH). Bunga ushbu shahobchalar faoliyatini litsenziyalash jarayoning soddalashtirilishi yordam bermoqda. Internet tarmog‘ida ulanish uchun Wi-Fi texnologiyasidan foydalanish ham kengaymoqda. WiMax 2 texnologiyasi 802.16 m standartida ishlaydi va WMAN tarmog‘ida 1 Gbit/s gacha, Mobile WMAN tarmog‘ida 100 Mbit/s gacha. Radius qamrog‘i esa 120–150 km.gacha (ishlab chiqarish jarayonida) bo‘lishi kutilyapti. Shu bilan birga, Wi-Fi texnologiyasi bo‘yicha simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish uchun chastotalar ajratib berilgan. Ular simsiz lokal (ofis ichidagi) tarmoqlarni yaratishga va Internet tarmog‘iga ma‘lumotlarni uzatish tezligi 54 Mbit/s bo‘lgan yuqori tezlikka ega simsiz ulanishlarni vujudga keltirishga mo‘ljallangan.

Wi-Fi texnologiyasidan foydalanilgan holda internet tarmog‘iga ulanish hududi kengaytirilmoqda. Natyukada Wi-Fi foydalanish nuqtalari soni ortadi.

Xulosa. Bugungi kunda dunyoda 8 mlrdga yaqin aholi yashayotgan bo‘lsa ularning qariyb 60% internet tarmog‘iga ulangan. Bu esa, o‘z navbatida, 5 mlrd.dan ortiq ishtirokchiga ega bozor demakdir. Ammo rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda, qishloq va shahar aholisining axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasida katta farq (digital gap) saqlanib qolmoqda. Respublikamizda esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muammolar qatoriga aholining bu sohadagi savodxonlik darajasi, internet tezligi, chekka qishloqlarda internetga kirish, infratuzilma va mutaxassislar malakasi va taqchilligidir.

Shuni ta‘kidlash joizki, qaysi davlatda raqamli iqtisodiyot elementlarini bo‘lgan Internet tarmog‘i va uning servislari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va aholi undan samarali foydalanayotgan bo‘lsa, o‘sha davlat-

larning gigant kompaniyalari ham ko'p va bu, o'z navbatida, aholi moddiy turmush darajasini oshiriga sabab bo'ladi. Yuqorida keltirilgan Top kompaniyalar jadvalida, asosan, raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalar ekanligini anglashimiz mumkin. Shuningdek, ushbu gigant kompaniyalar, asosan, AQSH va Xitoy kompaniyalaridir.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarning ajralmas sohasi hisoblanib, uni rivojlantirishga berilgan e'tibor o'z natijasini bir necha barobar ortig'i bilan qaytaradi. Rivojlangan davlat bo'lishlik uchun, albatta, raqamli iqtisodiyot sohasiga e'tibor bugun har qachongidan muhimdir, chunki yuksalishning eng qisqa yo'li raqamli iqtisodiyotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. How big is China's Digital economy? Bruegel, Working Paper, Issue 04, 17 May, 2018.
2. China's Digital Economy a Leading Global Force. MGI Discussion Paper, August, 2017 <http://www.itu.in Veng/ITU-D/>
3. Нонака И., Такеучи Х. Компания– создатель знания. Зарождение и развитие инноваций в японских фирмах. Пер. с англ. М., ЗАО «Олимп – Бизнес», 2003.
4. Козырев А.Н., Макаров В.Л. Оценка стоимости нематериальных активов и интеллектуальной собственности. М., РИЦ ПИ ВС РФ, 2003.
5. Топ-10 самых конкурентоспособных цифровых экономик мира.
6. Топ-10 компаний по уровню рыночной капитализации в 2020. <https://www.vesti.ru/finance/article/2419923>.

Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna (Farg'ona Politexnika instituti Iqtisodiyot kafedrası assistenti; gaybullayevagulbahor1@gmail.com) MAMLAKATIMIZDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

***Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimiz turistik resurslari va ulaming potensial imkoniyatlari, turistik sanoat obyektlari izohlab berilgan. Davlatimizning turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari hamda turistlarni jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan ishlar batafsil o'rganilgan.*

***Аннотация.** В статье описаны туристские ресурсы нашей страны и ее потенциальные возможности, объекты туристической индустрии. Подробно изучены возможности развития туристической отрасли нашей страны и выполненная работа по привлечению туристов.*

***Annotation.** The article describes the tourist resources of our country and its potential, objects of the tourism industry. The opportunities for the development of the tourism sector of our country and the work carried out to attract tourists.*

***Kalit so'zlar:** turizm, turistik hudud, turistik xavfsizlik, turistik qiziqish, turistik industriya, aqlli shahar, yashil zona, aqlli turizm, innovatsiya.*

***Ключевые слова:** туризм, туристическая зона, туристическая безопасность, туристический интерес, туристическая индустрия, умный город, зеленая зона, умный туризм, инновации.*

***Key words:** tourism, tourist zone, tourist safety, tourist interest, tourism industry, smart city, green zone, smart tourism, innovation.*

Turizm, ko'p jihatdan, iqtisodiy formatsiya va kategoriyadir. U turizm tashkilotchilari uchun ham, turizm iste'molchilari – turistlar uchun ham ko'p qirrali iqtisodiy faoliyat. Jahon va milliy turizm rivojlanishining har bir bosqichi – barcha ishtirokchilarning faoliyati, o'ziga xos xarakteristikasi va ko'rsatkichi bilan xarakterlanadi. Har bir turistik hudud, har bir mamlakat, har bir shahar va joy iqtisodiy foyda va daromad olish uchun mavjud turistik resurslaridan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Xohish juda zo'r bo'lsa ham bunga erishish oson emas. Har bir mamlakatda o'zining siyosiy qarashlari, iqtisodiyoti rivojlanishining yo'nalishlari, jamiyat an'alarining ko'p qirralari mavjud. Turistlarni jalb qilish uchun hatto juda qiziqarli bo'lgan obyektlar va hodisalar uchun ham xizmat ko'rsatishning mos darajasini, xavfsizlikni ta'minlovchi turistik qiziqish va ehtiyojni uyg'unlashtirib qondiruvchi turistik industriya (sanoat) va infratuzilma zarur. Turistik oqimlarni ko'proq jalb qilish uchun turistik resurslar va ulaming potensial imkoniyatlari, ayniqsa, turistik sanoat obyektlari batafsil o'rganiladi va baholanadi [1].

Turizmni «tilla tuxum qo'yuvchi tovuq»qa o'xshatishadi. Lekin, bu tovuqni boqishga ham bog'liq. Shunga ko'ra, turistik markazlar va hududlar nafaqat turizmdan pul ishlab qolishadi, balki turistik sanoatni barqaror rivojlantirishga, turistik mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda harakat qildirishga juda katta miqdorda mablag'lar ajratishadi. Turizmni rivojlantirishga ajratilgan mablag'lar, birinchi qarashda, astronomik raqamlarda bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu xarajatlar o'zlarini oqlaydi va davlatga turizmdan undan ham katta hajmdagi daromadlarni keltiradi [2].

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7400 madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey-shaharlar: «Xiva shahridagi Ichan qal'a», «Buxoro shahriining tarixiy markazi», «Shahrisabz shahriining tarixiy markazi», «Samarqand shahri» hududida joylashgan bo'lib, UNESCO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

So'nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan, Toshkent shahrida «Nyatt Regency Tashkent» va «Lotte City Notel Tashkent Palace» brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko'ngilochar bog'larning tashkil etilishi, «Angren-Pop» temir yo'li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishini aytib o'tish joiz [3].

Bugungi kunda shaharlar global o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, rivojlanish ko'rsatkichlari esa aqlli tarmoqlarga asoslangan infratuzilmani yaratish va har doim taraqqiy etib borishni talab etmoqda. Turizmning asosiy talabi dunyoning turli burchaklaridan tobora ko'proq sayyohlarni jalb qilish hisoblanadi. Aqlli turizm deganda, turizmni rivojlantirishning innovatsion vositalari va yondashuvlarini ishlab chiqish uchun aqlli shaharlarga o'xshash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash tushuniladi [4].

Aqlli turizm AKT, mobil aloqa, bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va virtual haqiqat kabi asosiy texnologiyalarga tayanadi. Jismoniy infratuzilma, ijtimoiy bog'liqlik va tashkiliy manbalardan (ham davlat, ham nodavlat) va foydalanuvchilar tomonidan ilg'or texnologiyalar bilan birgalikda samaradorlik, barqarorlik va tajribani oshirish uchun olingan ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishni maqsadli yo'nalishda birlashtirilgan harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Aqlli turizm uchun foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalariga IT, mobil aloqa, bulutli hisoblash va sun'iy intellekt kiradi. U turizmning jismoniy, axborot, ijtimoiy va tijorat infratuzilmasini aqlli turizm imkoniyatlarini ta'minlash uchun bunday vositalar bilan birlashtiradi. Aqlli turizmning tamoyillari turizm tajribasini oshirish, resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, barqaror jihatlariga urg'u berib, maqsadli raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Shuningdek, u sayyohlik resurslarini samarali taqsimlash va turizm ta'minotini mikro va makrodarajada integrasiyalashuvi uchun qulayliklar yaxshi taqsimlanishini ta'minlash uchun ma'lumot to'plashi va tarqatishi kerak. Ular texnologik jihatdan rivojlangan yo'nalishlarda, masalan, aqlli shaharlarda samarali bo'lishlari kuzatilmoqda. Aqlli shahar ko'chalar, binolar, transport va havodagi sharoitlarni to'plash va o'lchash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Bu sensorlar va boshqa texnologiyalarni suv va trafikdan tortib, to energiyadan foydalanishgacha bo'lgan har bir narsani kuzatib borish va to'plash uchun mo'ljallangan joyga borishni anglatadi. Keyin ma'lumotlar simli va simsiz ulanishlar orqali, hamma narsa bir-biriga ulangan hamma narsaning interneti orqali ma'lum qilinadi. Keyin hukumat va biznesdagi qaror qabul qiluvchilarga yaxshiroq qaror qabul qilishga yordam berish uchun ma'lumotlar siqiladi yoki tahlil qilinadi [5].

Ushbu ro'yxatdagi hamma narsa tashrif buyuruvchilarga va turizmni rivojlantirishga foyda keltirishi mumkin, bunda makro va mikrodarajada taklif qilinadigan narsaning sifati va barqarorligi yaxshilanadi.

Aqlli shahar yondashuvi shaharning har bir qismida ushbu yechimlarning har birini taqdim etishda eng yangi va eng katta texnologiyalardan foydalanadi. Mehmon, rezident, biznes egasi va investor uchun natija yanada toza bo'lib, tashrif buyurish, yashash va biznes qilish uchun sog'lom va sifatli joy bo'ladi. Ushbu yondoshuvning yana bir muhim jihati shundaki, maqsad aqlli shaharga yondashganda, ayniqsa sayohat va turizmda yangi biznes imkoniyatlari paydo bo'ladi. Mehmonxonalar, restoranlar, sayyohlik bilan bog'liq transport va diqqatga sazovor joylar hayotning sifatini oshirilgan maqsaddan foydalanadi. Tashrif buyuruvchilar yuqori sifatli, ba'zida juda ko'p bo'lgan joylarga kelishadi. Smart City texnologiyasi olomonni kuzatib borishga va yaxshiroq boshqarishga yordam beradi, ya'ni aviachiptalarni oldindan sotish, tashriflar vaqtini taqsimlash. Aqlli shaharda ishlatiladigan ko'plab texnologiyalar, masalan energya, chiqindilar va suvni monitoring qilish va samaradorlikni oshirish, turizm sifati va sarf-xarajatlarni tejash nuqtayi nazaridan ham foydalidir.

Turizm sohasi, ayniqsa, ko'plab mehmonxonalar va mehmonxonalar tarmog'i barqarorlik texnologiyasini qabul qilishda yaxshi rivojlanmoqda. Har bir manzil, mehmonxona, turoperator yoki boshqa sayyohlik operatori hali ham barqarorlik choralari va texnologiyalarini qabul qilmagan. Rivojlanayotgan bozor yo'nalishlari uchun texnologiyalarni joriy qilish va joriy qilish xarajatlari dastlab to'xtatuvchi bo'lishi mumkin, ayniqsa ularning sayyohlik oqimi tabiiy yoki texnogen ofatlarga juda sezgir bo'lsa. Biroq, aqlli shahar harakati o'sgani sayin, sohaga texnologiyalarni o'zlashtirish yanada barqaror bo'lish osonlashadi. Turizm va aqlli shahar texnologiyalari uchun boshqa o'sish sohasi – bu tashrif buyuruvchilarning tajribasini oshirish uchun ma'lumotlardan foydalanish, odamlarni yangi joylarga yanada qiziqarli usullar bilan bog'laydi. Ilovalar, istirohat bog'ida, muzeyda, asosiy ko'chada yoki shahardagi eng yaxshi savdo mar-

kazlari bo'ladimi, ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lish orqali tashrif buyuruvchilarning tajribasini oshirish va yaxshilashga yordam beradigan aniq o'sish maydonidir [6].

Mamlakatimizda turistlarni jalb qilish, turistik xizmat ko'rsatish tizimini yanada qulaylashtirish maqsadida Prezidentimizning 2022-yil 29-iyul kungi qarori bilan "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasi hamda 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"da-gi qarori qabul qilindi.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolida hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinlarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlik doirasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasi bo'yicha tashabbusni yuqori saviyada tashkil etish, turizm sohasidagi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish, shuningdek, Qo'qon shahri 2022-yilda "Turkiy dunyoning turizm poytaxti" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan shaharning madaniy va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini takomillashtirish hamda jozibadorligini oshirish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar bilan turizm sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, ziyorat va madaniy meros ob'ektlariga turlarni tashkil qilish va yangi sayohat marshrutlarini ishlab chiqish, ziyorat va madaniy-tarixiy turizm doirasida muntazam targ'ibot tadbirlarini tashkil etib borish rejalashtirildi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon, Qo'qon, Termiz va boshqa tarixiy shaharlarda buyuk allomalarning ilmiy va madaniy merosi to'g'risida seminar, simpozium, konferensiya, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazish hamda ilmiy-ommabop nashrlarda materiallar e'lon qilish orqali sayyohlarni jalb etish, turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar bilan hamkorlikda ilmiy-tahliliy materiallar, badiiy, teatr va kino asarlari, videoroliklar, kitoblar, tarqatma materiallar va boshqa ko'rinishdagi targ'ibot materiallarini tayyorlash, turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlar, shuningdek, turkiy xalqlar diasporalari keng tarqalgan boshqa mamlakatlardan turistlarni mamlakatimizga keng jalb qilish masalalari ko'zda tutilgan.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar tillarida yuritiluvchi "Tabarruk ziyorat" turizm platformasini (keyingi o'rinlarda – Platforma) tashkil qilingan bo'lib, platformani turkiy davlatlar tashkilotining rasmiy veb-sahifasi bilan integratsiya qilish; turkiy davlatlar tashkilotining axborot resurslarida Kontseptsiya va uning doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni joylashtirilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida mamlakatimizning rivojlangan turizm industriyasi hamda boy turistik salohiyatga ega bo'lgan, sayohat va dam olish uchun xavfsiz davlat imidjini shakllantirishga, shuningdek yangi turizm bozorlarini o'zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini yiliga 4,8 milliondan 9 milliongacha oshirishga, shuningdek, O'zbekistonga turistlarni jalb qilish bo'yicha xorijiy hamkorlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PF-5611. 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi.
2. M.Mirzayev, M.Aliyeva, Turizm asoslari. Toshkent, 2011.
3. Uzmanbayeva Dilnoza. To'xtasinovna napravleniya razvitiya plodoovoschnykh klasterov v Uzbekistane. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2023, № 1.
4. Gaybullayeva G.M. (2022). Promotion and prospects of green economy in central ASIA. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), p. 156 – 161.
5. Akhunova M.K. (2023). The role of innovation in the development of the new uzbekistan. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(1), p. 11 – 20.
5. Xomidov M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), p. 56 – 64.

Tulaganovna Manzura Narmatova (Jizzax davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi)
 UY-RO'ZG'OR BUYUM VA JIHOZLARIGA OID MAISHIY LEKSEMALAR

Аннотация. Мақоллада “Malika ayyor”, “Bahrom va Gulandom” dostonlarida uy-ro'zg'or buyum va jihozlariga oid maishiy leksemalar tahlil qilingan. Uy-ro'zg'or buyumlari orasida oshxonada foydalaniladigan narsa, buyum-jihozlar insonlarning hayotida muhim o'rin tutishi, xalqning kundalik turmush darajasi, yashash tarzi, eng muhimi, etnomadaniy holatining qay darajada ekanligini namoyon etishdagi hissasi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация. В статье анализируются бытовые лексемы, связанные с предметами быта и инвентарем в эпосах «Малика Айяр» и «Бахром и Гуландом». Среди предметов быта обсуждаются предметы, используемые на кухне, важное место предметов в жизни людей, их вклад в проявление повседневного уровня жизни людей, образ жизни, а главное, их этнокультурный статус.

Annotation. The article analyzes household lexemes related to household items and equipment in the epics “Malika Ayyar” and “Bahrom and Gulandom”. Among the household items, the things used in the kitchen, the important place of the items in people's lives, their contribution to the manifestation of the people's daily living standard, lifestyle, and most importantly, their ethno-cultural status, are discussed.

Kalit so'zlar: doston, leksema, lug'at, buyum, jihaz, dasturxon, qozon, o'choq, pichoq, kosa, g'alvir, lagan, chiroq.

Ключевые слова: эпос, лексема, словарь, предмет, оборудование, стол, горшок, печь, нож, чашка, миска, тарелка, лампа.

Key words: epic, lexeme, dictionary, item, appliance, table, pot, stove, knife, bowl, bowl, plate, lamp.

Insoniyat turmush tarzida oila tizimiga xos uy-ro'zg'or buyumlari orasida oshxonada foydalaniladigan narsa, buyum-jihozlar juda muhim o'rin tutadiki, ular insonlarning hayotdagi o'rni, kundalik turmush darajasi, yashash tarzi, eng muhimi, etnomadaniy holatining qay darajada ekanligini ham namoyon etadi.

Turkiy xalqlar qatori, millatimizning kundalik maishiy leksikasining bir tarmog'i bo'lgan uy-ro'zg'or buyum-jihozlar nomlari tilimizning og'zaki va yozma nutqida juda faol qo'llanilishi hech kimga sir emas. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, xalqimizning ma'naviy boyligi hisoblangan xalq og'zaki poetik ijodida, ayniqsa, xalq dostonlari matnida qo'llanilgan mazkur leksik birliklarni o'rganish tilshunosligimiz uchun yaxshi samara berishi tayin. Shu nuqtayi nazardan, biz bu o'rinda, Fozil Yo'ldosh kuylagan “Malika ayyor”, “Bahrom va Gulandom” dostonlari tilida uchragan oshxonada buyum-jihozlari nomlari, etimologiyasi, qo'llanilish darajasi va ularning leksik-semantik xususiyatlari to'g'risida kuzatishlarimizni bayon etamiz.

Tilimizdagi so'zlarning izohli lug'atida (O'TIL) dasturxon leksik birligiga quyidagicha izoh berilgan: **dasturxon** (f. dastarxon – ovqat qo'yiladigan mato, unga qo'yilgan taomlar (O'TIL.I.51). O'rtaga yozib, ustiga ovqat qo'yiladigan mato, ro'zg'or buyumi (O'TIL.I.574). Ta'kidlangan leksema “Bahrom va Gulandom” dostonida 5 marta, uning shakllaridan dasturxonini 1 marta, dasturxonni 2 marta qo'llanilganligi kuzatildi. Masalan: “Bobongda undan ziyod tiriklik bo'lmadi”, – deb Bahromni tushurib, **dasturxon** yozib, oldiga taom tayyor qildi (B.G.29). Davlat tovoqni ko'tarib bordi, **Dasturxon** yozib tovoqni Bahrom oldiga qo'ydi (B.G.67).

So'z boyligimizdan munosib o'rin egallagan va faol qo'llaniladigan dasturxon leksemasi, aslida, fors-tojik tilidan ona tilimizga kirib kelgan. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, dasturxon tojik tilida dasturxon shakliga ega. Mazkur leksemaning qo'llanilishi doirasi va etimologiyasi haqida so'z borganida, millatimizning sevimli farzandi, ulug' shoir E.Vohidovning bu boradagi mulohazalarida muayyan asoslar borligini ta'kidlash lozim. U o'zining “So'z latofati” asarida dasturxon so'zi, aslida, dastor va xona so'zlaridan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi, so'ngra quyidagi bitiklarni yozadi: “xon esa bugungi tilimizda – stol. Ota-bobolarimiz chordona qurib o'tirganlari uchun bizning stolimiz pastroq qilib yasalgan. Uni xontaxta ham deyiladi”. Ba'zi tadqiqotchilar dasturxon so'zining Navoiy asarlarida xon, sufra kabi leksemalar bilan sinonimik qatorda talqin etilganligini ham ta'kidlaydi.

Hozirgi kunlarda dasturxon shakliga kirgan dastorxon leksemasining kelib chiqishi ba'zan “dastur” “urf-odat”, “mehmonga hurmat” ma'nolari bilan bog'liq holda talqin qilinishi xalq orasida keng yoyilganlik holati tilimizning og'zaki va yozma nutqida ancha faol qo'llanilishini tasdiqlaydi. Ayni holatni tad-

qiqotimiz obyekti sanalgan “Malika ayyor” dostonida ham kuzatdik: *Qalandarlar oqlin oldi, Oldiga dasturxon soldi, Shu zamonda ko‘p taomlar... Usti ustiga aralashdi* (M.a.101): *Bu ikki podshoga ovqat, dasturxon, har xil taomlardan olib kelib berdi* (M.a.154).

Qozon leksemasi ham oshxona jihozlaridan birini ifodalovchi va faol lisoniy birlik sifatida “Malika ayyor” dostonida (M.a.47–207) qo‘llanilgan. Ona tilimizning izohli lug‘atida qozon leksemasiga “turli taomlar pishirish, tayyorlash yoki suv isitish uchun cho‘yandan quyib tayyorlangan ro‘zg‘or buyumi” (O‘TIL.V.323) tarzida izoh berilgan. Mazkur leksemaning *ashich* atamasi bilan ifodalanganligini tilshunos M.Koshg‘ariy ta‘kidlab, quyidagi misolni keltirgan: *Ul ashich ichra et o‘lturdi – qozonda et ivitdi, ho‘lladi* (DLT. I. 86; 228).

Xalqimizning maishiy turmushida faol qo‘llanadigan qozon, dastlab, sopoldan tayyorlangan va keyinchalik, metall qozonlar uning o‘rnini egallagan. Qozon leksemasi XIII asrga tegishli turkiy yozma manbalarida qo‘llanilganligi aniqlangan. Keyinchalik, Navoiy asarlarida ham uchraydi (4.HA.VII 278; 1.L.M. IX.58). Hatto Vamberi qozon so‘zining qozmoq ma‘nosini ifodalagan qaz fe‘lidan kelib chiqqanligini taxmin qiladi.

Qozon leksemasining qo‘llanilish darajasiga nazar solganimizda, u barcha turkiy xalqlarning kundalik-maishiy turmush tarzida qadimgi va hozirgi vaqtlarda ham qo‘llanilganligi, deyarlik barcha turkiy tillarda uchraganligi kuzatildi. Ayrim ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, qozon qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, no‘g‘ay, boshqird, uyg‘ur tilida – qozan; qo‘miq tilida – k‘azan; o‘zbek tilida – qozon, turkman tilida – gazan; oltoy tilida – kozon; xakas tilida – xazan kabi shakllarda juda keng qamrovda uchraydi. Ko‘ramizki, barcha turkiy qavmlar qatori, tilimizning oltin xazinasidan munosib o‘rin olgan qozon leksik birligi og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llanilgan, buni biz tahlilga jalb etgan “Malika ayyor” dostonida ham kuzatdik: *Avazxon “bu qozonni qantalimda bosib ushlab olmasam, qozoni ham qochib qutulib ketsa ajab emas”, – deb ko‘nglini xushladi, qozonning ustiga o‘zini tashladi* (M.a.47).

Taboq – leksemasining zamonaviylashgan shakli *tovoq* bo‘lib, uning qo‘llanilishi og‘zaki nutqda juda faol. Ona tilimizning izohli lug‘atida mazkur shaklga quyidagicha izoh berilgan: TOVOQ 1. Yuzi yoyiq, biroz yalpoq, kosa shaklidagi chuqurroq idish (turli o‘lchamda sopol, chinni, metall, ba‘zan marmardan tayyorlanadi). Sopol tovoq. Chinni tovoq. Tunuka tovoq. 2. shv. Lagan. 3. s.t.Plastinka (O‘TILIV. 130).

Tabaq leksemasining oshxona buyumi sifatidagi qo‘llanilish doirasi juda keng, ayniqsa, turkiy tillarning ko‘pchiligida hozirgi vaqtda ham mavjudligini bir qator ilmiy manbalar tasdiqlaydi. Bu o‘rinda birgina ilmiy dalil keltiramiz. Masalan, “Tatar tili lug‘ati”da tabaq – kosa, yumaloq yoki cho‘zinchoq katta tarelka (blyuda, chasha) ma‘nolarini ifodalashi qayd etilgan. Shuningdek, turk tilida tabaq – tarelka, piyola, ovqat ichiladigan idish (blyuda); no‘g‘ay tilida tabaq–piyola, lagan; qoraqalpoq tilida tabaq–yog‘ish idish, kosa, tarelka ma‘nolarida qo‘llaniladi. Mazkur leksemaning qozoq tilida tabaq, o‘zbek tilida esa tovoq shakllari ancha faol qo‘llanilishi hech kimga sir emas. Ayni etnolingvistik hodisa og‘zaki nutqimizda, xususan, xalq dostonlari tilida ham o‘z izini qoldirgan. Buni tahlil ob‘ektiga jalb etilgan “Bahrom va Gulandom”, “Malika ayyor” dostonlari matnida ham kuzatamiz. Masalan, *Davlat tovoqni ko‘tarib berdi. Dasturxon yozib, tovoqni Bahromning oldiga qo‘ydi* (B.G.67).

Tabaq (tovoq) lekemasi xalqimizning ijtimoiy-tarixiy hayotining ayrim bosqichlarida xilma-xil nomlar orqali ifodalangan. Masalan, Navoiy asarlarida “quvacha, moy idishi” ma‘nolariga ega bo‘lgan “sabu”, “ichi chuqur lagan, tog‘ora, jom, idish” ma‘nolarini ifodalaydigan tos, shuningdek, lagan, tog‘ora ma‘nosidagi, tasht kabi shakllarning qo‘llanilganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Ayni lisoniy holatga o‘xshash kosa so‘zi tovoqning sinonimi sifatida yoki birgalikda qo‘llanilish holati ba‘zi sheva vakillari nutqida uchraydi: Kosa–tovoq, idish–tovoq, osh–tovoq tarzida. Bundan ko‘rinadiki, og‘zaki nutqda kosa, tovoq idish, shuningdek, yozma asarlarda sabu, tas, tasht kabi lisoniy shakllar oshxona buyumlarini ifodalashda tovoq (tabaq) so‘ziga nisbatan sinonimik qatorini tashkil qiladi.

Pichoq oshxonadagi narsa, buyum-jihozlardan biri bo‘lib, kundalik maishiy turmush tarzida qadimdan keng qo‘llaniladi. Mazkur leksik birlik qadimgi turkiy yozma yodgorliklari tilida, xususan, “Qutadg‘u bilig” matnida bicak shaklida qo‘llanilganligi haqida ayrim qaydlar mavjud. Turkiy tillarning etimologik lug‘atida bu so‘zning tarkibi ikki xil talqin qilinadi: a) qadimgi turkiy tildagi “o‘tkir kesuvchi asbob” ma‘nosini anglatgan bi otidan kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi – chyok qo‘shimchasi bilan yasalgan; b) qadimgi turkiy tildagi “kes” ma‘nosini anglatgan bic fe‘lidan -(a)q qo‘shimchasi bilan yasalgan (o‘sha manba) (ESTY. II.160).

Eski turkiy yodgorliklarida bic – fe‘li shaklida, “Devonu lug‘atit turk”da bichak tarzida qo‘llanilgan (DLG.Ij.366). Alisher Navoiyning asarlarida, masalan, “Farhod va Shirin”da bichak leksemasi “igna so‘zan” ma‘nolarida qo‘llanilganligini kuzatamiz (FSh.VIII.90). Ayrim ilmiy manbalarda ta‘kidlanishicha, Navoiy asarlarida pichoq so‘zi oshxona anjomi sifatida ham, harbiy qurol sifatida xanjar so‘ziga si-

nonim sifatida qoʻllanilgan. Biz tahlilga jalb etilgan dostonlarning birida oshxona anjomi sifatida ishlatiladigan pichoq soʻzi hayot uchun xavfli qurol sifatida qoʻllanilganligini guvohi boʻldik. Buni epik qahramonlardan biri Qalandarning yosh bolani devlar qoʻlidan qutqarish, uni ota-onasiga, qavm-qarindoshlariga omon-eson yetkazish uchun qilgan muayyan xatti-harakatlarini ifadolovchi nutqida qoʻllanilganligini kuzatdik: *Lekin soʻraganing bilan devlar senga Torkistonni, Malikani aytmas, “Sening nima ishing bor”, –der. Shunda sen ulay-bulay de, oʻzimni oʻldiraman deb, joʻrttaga bir pichoqni olib qorningga urmoqchi boʻl* (Ma.76).

Oʻchoq leksik birligi ham kundalik maishiy-turmush tarziga xos qadimiy soʻz boʻlib, uning qoʻllanilish bosqichi uzoq davrlarga borib taqaladi. Mazkur leksemaning qoʻllanilishi doirasi keng: deyarli barcha turkiy tillarda xilma-xil fonetik farqlar orqali uchraydi va bir qator mustaqil maʼnolarni ifodalaydi. Xususan, Sh.Usmonovanning ayrim ilmiy ishlarida “oʻt yoqiladigan joy; oʻt; olov; moʻri; chuqur; turar joy; uy”, “oʻrtasi oʻchoq boʻlgan bino”, “oila, sulola” kabi maʼnolarda ishlatilishi qayd etilgan (15.101–106).

Professor Sh.Rahmatullayev *oʻchoq* soʻzining etimologiyasiga izoh berar ekan, dastlab, o:t (“olov”) soʻziga kichraytirish maʼnosini ifodalovchi -chuq qoʻshimchasining qoʻshilishidan hosil qilinganligini, shunga koʻra, eng avvalo, “kichik olov” maʼnosida qoʻllanilganligini, keyinchalik, “olov yoqiladigan qurilma” maʼnosi paydo boʻlganligini taʼkidlagan (14.496). Boshqa tadqiqotlarda, Navoiy asarlarida qoʻllanilgan oʻchoq soʻzi baʼzan oʻz maʼnosida, baʼzan koʻchma: “oila, sulola” semasida ifodalanishi taʼkidlangan. Gap oʻchoq soʻzining anglatgan maʼnolari haqida borar ekan, biz tahlilga jalb etgan dostonlarning birida “oʻt yoqishga va ovqat pishirishga moʻjallangan chuqur joy” maʼnosida qoʻllanilganligini kuzatdik: *Xisrav necha kunlar xalqni yigʻdirib, semiz qoʻylarni soʻydirib, bir maydonda oʻchoq oʻydirib, namoyishga karnay-surnay qoʻydirib, xaloyiqqa toʻy-tomosh berib yotdi* (BG.7).

Kosa leksemasi ham oshxonadagi narsa-buyum jihozlaridan biri boʻlib, uning qoʻllanilishi doirasi keng qamrovda ekanligi, kishilarning kundalik-maishiy hayotida muhim oʻrin egallaganligi barchaga ravshan. Bu leksema, aslida, etimologik jihatidan forscha boʻlsa-da, tilimizda va kundalik turmush tarzida qadimdan faol qoʻllanilganligi aniq: bu isbot talab etmaydigan hodisa. “Piyoladan kattaroq, asosan, suyuqlik va turli xil ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish” (OʻTIL.II.410) nomini ifodalovchi kosa leksik birligi qadimda dastavval yogʻochdan, soʻngra chinnidan tayyorlanganligi ham tarixiy dalil. Bu oʻrinda birgina lisoniy dalil keltirish bilan chegaralanamiz. Yogʻoch piyola, chinni piyola tarzida ogʻzaki va yozma nutqda faol qoʻllanilganini Navoiy asarlarida berilgan ayrim matnlar ham toʻla tasdiqlaydi. Masalan:

Qizil rohu yashil chinni piyola

Nechukkim sabzi sahni ichra lola (3.FSh.VIII.108)

yoki

Daryo sanga tolibi navola,

Kishti kafida yigʻoch piyola (1.L.M.IX.7)

Koʻramizki, idish nomi oldidan kelgan sifatlovchilar uning qanday material, ashyodan ekanligini bildiradi. Shunga oʻxshash yana boshqa lisoniy hodisani biz oʻrgangan xalq dostonlarining birida, oltin kosa leksik birligining, qoʻllanganligini kuzatdik: Avazxon tanho savashdi. Qon toʻkar maydon ichinda. Qilich kelar yalab-yalab, Istar koʻngil qilar talab, Oltin kosa, gulgun sharob, ichildi maydon ichinda (Ma.29.142). Mazkur matn gulgun sharob quyilgan kosa idishi oltindan tayyorlanganini tasdiqlaydi.

Asosan, choy ichish uchun ishlatiladigan, kosadan kichik boʻlgan idish nomi – piyola ham kundalik-maishiy hayotda faol qoʻllanilgan, oshxona buyumlaridan biri sifatida qadrlangan. Shu bois mazkur soʻz ogʻzaki va yozma nutqlarda va asarlarda bir xil darajada qoʻllaniladi. Buni biz oʻrgangan xalq dostonlaridan birida ham kuzatamiz: Odamman deb chiqib oʻsgan elimdan, Gʻarib boʻldim hech ish kelmas qoʻlimdan, Bir piyola choy quymading qoʻlingdan, Ketdi darmonim mening, Qoldi armonim mening (Ma.171). Bu oʻrinda taʼkid lozim: kosa va piyola leksemalari biz tahlilga jalb etgan “Bahrom va Gulandom” dostoni matnida qoʻllanmagan.

Gʻalvir, elak leksemalari ham kundalik-maishiy leksikaga mansub boʻlib, dostonlar tilidan oʻrin olgan. Ona tilimizning izohli lugʻatida *gʻalvir* – katta sim elak, *gʻalvir* (OʻTIL.V.432), shuningdek, *elak* – un elash uchun ishlatiladigan, toʻr qoplangan yogʻoch gardishdan iborat uy-roʻzgʻor asbobi (OʻTIL.V.29) tarzida izoh berilgan. Xalqimiz orasida elakdan oʻtkazmoq, *gʻalvirdan oʻtkazmoq* shakllari ancha faol qoʻllanadi. Lekin har ikkala holatda ham bir-biriga yaqin boʻlgan maʼnolar ifodalanadi. Ma-salan, Elakdan oʻtkazmoq shaklida: a) “elab tozalamoq”, “elamoq”; b) “obdon tekshirmoq”, “sinovdan oʻtkazmoq” kabi maʼnolarni ifodalaydi. Gʻalvirdan oʻtkazmoq variantida ham bir xil maʼno ifodalanadi. Gʻalvirda elamoq va sinovdan oʻtkazmoq (OʻTIL.V.432.29).

Ko'ramizki, g'alvir so'zi elak so'zi o'rnida qo'llanilib, sinonimlik vazifasini bajarishi ham mumkin. Ayni lisoniy holat biz tahlil qilgan "Malika ayyor" dostoni matnida ham uchradi: Avazxon bu so'zni eshitib: "Bu yomon kofir ekan, Shu tarzda Chambilga borsa, Chambil elining tuprog'ini g'alvirdan o'tkazib ketar (Ma.23).

G'alvir atamasi xalq og'zaki ijodining boshqa bir namunalarida, masalan, xalq maqollari matnida ham uchraydi. Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga kabi. Mazkur xalq maqolini Navoiy bobomiz quyidagi she'riy shaklga solganligidan ilm ahli-filologik olimlar xabardor, deb o'ylaymiz: Tor ichi sichqonga solib erdi g'am, Quyrug'iga bog'ladi g'irbol ham.

Demak, g'alvir leksemasi "Hayratul – abror" asarida (4.VII.260) g'irbol (elak, g'alvir) shaklida qo'llangan. Elak leksemasi biz tahlilga jalb etgan "Bahrom va Gulandom" dostoni matnida uchramasada, bu so'z xalq dostonlarining boshqa namunalari matnida uchrashini tabiiy bir hol, deyish mumkin.

Lagan forscha so'z bo'lib, u "tog'ora", "idish", "shamdon" kabi ma'nolarni bildiradi. Ona tilimizning izohli lug'atida bu so'zga quyidagacha izoh berilgan: 1. Quyuq taomlar solish uchun mo'jallangan, tarelkadan katta yassi idish: 2. Kosadan katta, ichi chuqur sopol idish, tovoq (O'TIL.II.125).

Navoiy asarlari lug'atida mazkur leksik birlik (lagan, lakan) shamdon, mis lagan, mis tog'ora tarzida izohlangan (5.ANATIL.331). Mazkur leksema ulug' shoir asarlarida, xususan, "Hayratul – abror", "Saba'yi Sayyor"da "Shamdon, sham o'tkazib qo'yiladigan yassi idish" ma'nosida qo'llangan (4.HA.VII.86; 2.SS.X.57).

Lagan so'zining qo'llanilish doirasi keng, ham og'zaki nutqda, ham yozma asarlarda faol uchraydi. Buni biz tadqiqotimiz obyektiga tanlangan "Bahrom va Gulandom" dostonida ham kuzatdik. Gulandom bilan Kanizak (Davlat)ning o'zaro muloqatiga oid epik bayonda lagan leksemasi uzuk solingan idish ma'nosida qo'llangan: "Buni kim berdi, Davlat? Hech kimga yo'q bu e'tiqod. Bu ajoyib uzuk ekan, Har kimda yo'qdir bu quvvat. Davlat aytar: olib qaytdim. Changda yotgan namat-po'shdan, Kelib lagan tutdim unga. Ko'rsam zabun ahvoli, Yo'q ekan yonida puli, So'ngra uzukni berdi (B.G.66).

Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, lagan so'ziga o'xshash lagun leksik birligi ham borligini yozma adabiyot manbalarida uchratdik. Masalan, M.Koshg'ariyning bergan izohiga ko'ra, "lagun – ichi chuqur qilib yog'ochdan qilingan idish. Unda sut, qatiq va shunga o'xshash narsalar ichiladi. Yog'och tovoq" deya izohlanganligidan mazkur leksik birlikning qadimdan qo'llanganligi ayon bo'ldi. Biz nazarda tutayotgan lagan, lakan, lagun leksemalari "maxsus idish" ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan, degan fikrxulosaga keldik.

Chiroq (chirog') forscha so'z bo'lib, "xonani yoritish uchun xizmat qiladigan uy-ro'zg'or asbobi lampa (O'TIL.IV.493) ma'nosini ifodalaydi va kundalik maishiy turmushda faol so'z sifatida qo'llaniladi. Ushbu leksik birlik xalq dostonlarida farzand yoki yaqin odam nomi sifatida ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Masalan, "Yusuf va Ahmad"dagi "Chiroqqinam, shunday yomon tush ko'rdim" yoki "Nurali" dostoniga mansub "O'g'ul tugul, yo'qdir biror kishim, Chambilda chiroqsiz o'tganman o'zim" kabi matnlar fikrimizga misol bo'la oladi. Biz tahlil qilgan "Bahrom va Gulandom"da chiroq so'zi ham "farzandsizlik tufayli nomi o'chib ketishi" ma'nosini ifodalaganligini kuzatamiz: Mamlakatga podshoh bo'lgan o'zimdi, Farzandga to'rt qilgan ikki ko'zimdi, Bu g'amlardan menga o'lim lozimdir, O'zim o'lgan kuni chirog'im o'char, Taxti baxtim, bunda davlatim ko'char (B.G.6).

Tadqiqot ishimizga jalb etilgan "Malika ayyor" dostonida esa yana boshqa lisoniy holatni kuzatdik. Chiroq (chirog') leksemasi ko'chma ma'nodagi "ustun, a'lo, yuqori daraja" ma'nolarida qo'llanilganini guvohi bo'ldik: Barchaning otasi hazrati odam, Payg'ambarlik anga bo'ldi musallam, Ibrohim, Ismoil, Makka, muazzam, Dinlarning chirog'i Imomi A'zam, Muhammadga ummat, haqqa musallam, Tashnalariga serob aylar kun bo'ldi (M.a.71-bet).

Xulosa qilib aytganda, o'rin-joy jihozlari va buyumlari tilimizning lug'at boyligidan munosib o'rin olgan. Ularni to'plash, bir tizim asosida leksikografik ma'lumotlar tayyorlash ma'naviy qadriyatlarimizdan biri sanaladi. O'rin-joy jihozlari va buyumlarining o'zbek xalq og'zaki ijodida qo'llanilishi holatlarini o'rganish ham muhim ilmiy-amaliy tadqiqotni kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Layli va Majnun. IX. 7-bet.
2. A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Sab'ayi sayyor. X. 57-bet.
3. A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Farhod va Shirin. VIII jild. 108-bet.
4. A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Hayrat ul-abror, VII jild.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati (1983 – 1985).
6. Abdulxayr M. Navoiy asarlari izohli lug'ati. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018, 331-bet
7. B.G. – Bahrom va Gulandom. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1886.
8. Vohidov E. So'z latofati. Toshkent, 2014.

9. Devoni lugʻatit turk. 1-jild, T., “Fan”, 1960.
10. Jumanazarova G.U. “Bahrom va Gulandom” dostonning leksikografik maʼnolari. Jizzax, “Sangzar”, 2010.
11. Ma. – Malika ayyor. Toshkent, Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1886.
12. Muhammadiyev X.L. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi maishiy leksika. Fil.fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD), Jizzax, 2022.
13. Pirimov A., Sharofuddinov Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridagi maishiy leksikaga oid soʻzlar haqida. “Ilm sarchashmalari”, 1-son, Urganch, 2020.
14. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. I., 496.
15. Usmonova Sh. “Oʻchoq” soʻzining etimologiyasi haqida. Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar toʻplami. III, 2006.
16. Хайридинов Т.Х. Бытовая лексика татарского языка. Казан, “Фикер”, 2000.
17. Xolmurodova M. “Qutadgʻu bilig” leksemasi. Fil. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati, Toshkent, 2019, III, 2006, 18-bet.
18. Этимологический словарь тюркских языков. 1974, II, с. 160.
19. OʻTIL – Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh tomlik. Toshkent, OʻzbME, 1-jild, 2006.
20. OʻTIL – Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh tomlik. Toshkent, OʻzbME, 2-jild, 2006.
21. OʻTIL – Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh tomlik. Toshkent, OʻzbME, 4-jild, 2006.
22. OʻTIL – Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh tomlik. Toshkent, OʻzbME, 5-jild, 2006.

**Qarshiyeva Xolida (Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti
Lingvistika yoʻnalishi Oʻzbek tili kafedrasida magistranti)
XORIJY OʻZLASHMALAR TADQIQIGA ANTROPOSENTRIK YONDASHUV**

***Annotatsiya.** Bugungi davr tilshunosligida, xususan, oʻzbek tilshunosligida ham oʻzlashma soʻzlar-ni antroposentrik aspektda tadqiq etish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Mazkur maqolada oʻzbek tiliga mustaqillikdan soʻng oʻzlashgan xorijiy oʻzlashmalar va ularning tadqiqiga antroposentrik yondashuv haqida maʼlumot berilgan.*

***Аннотация.** В лингвистике сегодняшнего времени, в частности в узбекском языкознании, одной из актуальных проблем стало исследование заимствований в антропоцентрическом аспекте. В данной статье представлена информация об иностранных заимствованиях узбекского языка после обретения независимости и антропоцентрическом подходе к их изучению.*

***Annotation.** In the linguistics of today’s time, in particular, in Uzbek linguistics, the study of words in the anthropocentric aspect has become one of the pressing problems. In this article, the Uzbek language is given information about foreign acquisitions acquired after independence and an anthropocentric approach to their research.*

***Kalit soʻzlar:** antroposentrik aspekt, xorijiy oʻzlashmalar, milliy mentalitet, milliy madaniyat, antroposentrik paradigma, lisoniy birliklar, soʻz shakllari, ifoda vositalari.*

***Ключевые слова:** антропоцентрический аспект, иностранные заимствования, национальный менталитет, национальная культура, антропоцентрическая парадигма, языковые единицы, словоформы, средства выражения.*

***Key words:** anthropocentric aspect, Foreign Appropriations, national mentality, national culture, anthropocentric paradigm, linguistic units, word forms, means of expression.*

Til va inson munosabati, ularning oʻzaro taʼsiri masalasi hamma davrlarda ham olimlarni qiziqtirib kelgan. Ammo tilda inson shaxsining namoyon boʻlishi masalasi, koʻp hollarda, tadqiqotchilar eʼtiboridan chetda qolib kelgan.

Sh.Safarov til va insonning oʻzaro aloqasi masalasi haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Soʻz-siz, lison va inson ongi, miyasi oʻrtasidagi bogʻliqlik doimiy, bu bogʻliqlik inson ongli faoliyatini taʼminlovchi vositadir. Bizning yuragimiz faoliyat koʻrsatmasa, yashay olmasligimiz aniq, biroq insonning yashashi yuragining urib turishi bilan bogʻliqligini bilish uning hayoti qanday va qay maqsadda kechayotganligini bilish imkonini bermaydi. Lison ham hayot manbayi, shu sababli uning hayotdagi oʻrnini, undan odamlar qanday foydalanayotganligini hamda uning hayot darajasi, sifatiga qanday taʼsiri borligini bilmoq kerak. Bularning barchasi biz foydalanayotgan hodisa – tilning tabiati va ijtimoiy mohiyatini bilish imkonini yaratadi. Demak, tilshunoslik mavhum va oʻz doirasidan chiqa olmaydigan fan boʻla olmaydi. Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyat bilan bogʻliqdir”.¹

Til va inson munosabatidagi bunday aloqadorlik masalasi tilshunoslarni diqqatini torta boshladi. XX asrning soʻnggi choragidan boshlab dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi inson bilan bogʻ-

¹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 36-бет.

liq holda o'rganish tendensiyasi yuzaga keldi. Bu davrga kelib, til birliklarini antropotsentrik yondashuv asosida tadqiq etish barqarorlashdi. So'nggi o'n yilliklarda tilni uning egasi, xalqning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Natijada bugungi davrga kelib lisoniy birliklarni millat madaniyati bilan aloqadorlikda o'rganuvchi tilning lingvomadaniyatshunoslik tarmog'i yanada rivojlandi. Bu holat tilga insonning tashqi olim haqidagi bilimlarini millatning milliy-mental xususiyatlari bilan bog'liq holda aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida qarash ehtiyojini yuzaga keltirdi. Zero, milliy mentalitetga xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, xalqning milliy tafakkuri bilan bog'liq jihatlar tilning asrlar davomida shakllangan barqaror birliklarida yorqin aks etadi.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikning aksariyat yo'nalishlarida til tizimi birliklari *til – inson – olam* modeli asosida o'rganilmoqda. Bunday tadqiqotlar obyektining markazida til va undan foydalanuvchi inson munosabati masalasi turadi. Til hodisalarini inson omili bilan bog'liqlikda o'rganish antropotsentrik tilshunoslik yo'nalishining asosini tashkil etadi. N.Mahmudov antropotsentrik paradigmaning mohiyatini quyidagicha bayon qiladi: "Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "Inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganidek, inson aqlini insonning o'zidan, tilidan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi".¹

Bu fikrlardan shuni anglashimiz mumkin, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi tilga til sohibi – so'zlovchi shaxs omilining ta'siri masalasini tadqiq etish bilan aloqador.

Ilmiy adabiyotlarda tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratganligi bilan izohlanadi.² Darhaqiqat, XX asrning so'nggi choragidan boshlab tilshunoslikda tilga antropologik hodisa sifatida yondashuvning yuzaga kelishi til tizimini uning egasidan ajragan holda, tadqiq etish mumkin emasligini isbotladi. Natijada tilshunoslikda lisoniy hodisalarni insonning kognitiv tabiati hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liqlikda o'rganish tendensiyasi shakllandi.

D.Xudoyberganova antropotsentrizmning yuzaga kelishi ildizlari haqida fikr bildirib quyidagi xulosalarni bayon qiladi: "Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlanadi. *Antroposentrizm* termini, dastlab, qadimgi yunon falsafasining "Inson – koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya, ayniqsa, O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi".³

Lisoniy birliklarning mohiyatini ochib berishda antropotsentrik paradigma, uning tahlil usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan xorijiy so'zlarlar insonning tashqi olamga ilmiy munosabati, ilmiy qarashlarining tilda voqelanishida muhim o'rin tutadi. Insonning voqelik haqidagi ilmiy qarashlarini aks ettiruvchi konseptlar tilda muayyan so'zlar orqali voqelanadi.

Konsept antropotsentrik tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biridir. Sh.Safarov "Kognitiv tilshunoslik" risolasida konseptning tilda voqelanishi jarayonini quyidagi tasvirlaydi: "Konseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o'tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi – obrazning mantiqiy "qayta ishlanishi" natijasida hosil bo'lgan konsept lisoniy "libos" olishidan oldin ushbu libosning tasavvurdagi aksi – modeli yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo'lgan zahotiy oq uni amalga oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda "so'zsiz" model nolisoniy yoki "botiniy nutq" jarayonida yuzaga keladi".⁴

Ko'rinadiki, konseptning tilda voqelanishi murakkab bosqichli jarayon bo'lib, bu jihatdan qaraganda, so'zlarning hosil bo'lishi ham voqelikning ilmiy idrok etilishi bilan yakunlanib qolmaydi, balki idrok etilgan obraz "qayta ishlov"dan o'tib, ilmiy konsept darajasiga ko'tarilgach, eng so'nggi bosqichdagina bu konsept so'z orqali tilga ko'chadi. Konseptning verbal ifodalanishi jarayoni murakkab va bir necha bosqichli bo'lgani uchun ham tilshunoslikda unga berilgan tavsiflar ham rang-barang.

Rus olimasi L.V.Adonina tilshunoslikda konseptga 12 ta ta'rif berilganligini bayon qilarkan ekan, bu ta'riflarga mos tarzda konsept 12 xil talqinga ega bo'lishi va shu asosda bir qator turlarga bo'linishi mum-

¹Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... "Ўзбек тили ва адабиёти", Т., 2012, 5-сон, 6–7-бетлар.

²Худойберганова Д. Тил тафаккур маданияти. Тошкент, "Nodirabegim", 2020, 72-бет.

³Худойберганова Д. Ўша асар. 65-бет.

⁴Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. Жиззах, "Сангзор", 2006.

kinligini qayd etadi. Masalan, universal, etnik, shaxsiy, ilmiy, badiiy, maishiy, leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik, matniy konsept kabilar.¹

D.Xudoyberganova ham konseptning murakkab tuzilma ekanligini e'tirof etadi. Olimaning fikriga ko'ra, "konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyektida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplari ajratilganligini"² bir mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash mumkin.

Ma'lumki, konsept tilda nafaqat leksik tizim birliklari, frazeologizmlar, hatto gap, matn orqali ham voqelanadi. Gap, matn orqali voqelangan konseptlar sintaktik mohiyat kasb etgani uchun *sintaktik konsept* termini bilan yuritiladi.

Sintaktik konseptlar gap yoki matnning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, nafaqat leksema yoki frazeologizm, balki gap va matn ham konseptni ifodalash shakllaridan biri bo'lib, u voqelikni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish mahsuli bo'lganligi uchun ham antropotsentrik mohiyat kasb etadi. Bugungi kunda kognitiv fanlar olg'a surgan borliqni mental gavdalanitirish g'oyasi bilan germenevtika g'oyalari, ko'p jihatdan, uyg'unlashmoqda. Xususan, borliqdagi moddiy va ruhiy olam o'rtasiga qat'iy chegara qo'yishga tanqidiy munosabatda bo'lib, bizning sezgi a'zolarimizga berilgan borliq uzvlari, mental ya'ni fikriy hosila (mental konsept) ekanligini e'tirof etish g'oyalari orqali umumiylikni hosil qiladi.³

Matnlardan farqli tarzda alohida olingan leksik birliklar, shu jumladan, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham lisoniy ong mahsuli bo'lmish konseptlarni matn qurshovsiz voqelantira oladi. Ma'lum bo'ladi, konsept tilda, nafaqat milliy tilimizga xos ayrim so'z va iboralar, gap va undan yirik sintaktik butunliklar, balki xorijiy o'zlashmalar orqali ham voqelanadi.

Bugungi davr tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham o'zlashma so'zlarni antropotsentrik aspektida tadqiq etish dolzarb muammolardan biriga aylandi. Tilimizga so'z o'zlashtirishda, bu turdagi maxsus leksikani shu til egalari shaxsi bilan bog'liq holda tadqiq etish, ularning olam va undagi predmet va hodisalarni ilmiy tarzda "qayta idrok etishi", bu jarayonda ilmiy tafakkur sohiblari ongida ilmiy konseptlarning shakllanishi, bu konseptlarning milliy ong bilan bog'lanishi va tilda aniq til birliklari bilan ifoda etilishi, o'zlashmada madaniy kodning ifodalanishi, nihoyat, til sohiblari nutqini o'rganish orqali ular lisoniy shaxsini aniqlash kabi qator vazifalar antropotsentrik aspektida tadqiq etiluvchi zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridir.

Ma'lumki, tillar orasidagi farqlar, odatda, madaniyatlar orasidagi farqlar bilan asoslaniladi. Jumladan, muqobilsiz leksika deb atalgan birliklar muayyan xalq milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettirishiga ko'ra belgilanadi. L.S.Barxudarovning yozishicha, "Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to'liq yoki qisman muqobiliga ega bo'lmasligidir".⁴ U muqobilsiz leksikaga quyidagi guruhdagi leksik birliklarni kiritadi:

- 1) atoqli otlar – geografik joy nomlari, tashkilot, korxonalar, gazeta kabi nomlar;
- 2) realiyalar–boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo'lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatlarni ifodalovchi so'zlar. Masalan, milliy taom nomlari, milliy libos kabilar;
- 3) "tasodifiy lakunalar"–biron-bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko'ra boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi.⁵

Turli tillarda shunday so'zlar ham mavjudki, ular muqobilsiz leksika tarkibiga kira oladi. Umuman, bunday terminlarni lingvomadaniyatshunoslik aspektida maxsus o'rganish nafaqat tillar, balki turli madaniyatlar orasidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, realiyalarni ifodalovchi termin va so'zlarning differensial xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro aloqasini belgilash uchun zarur.

¹ Адонина Л.В. Концепт «женщина» в русском языковом сознании. Дисс. ...канд. филол. наук, Воронеж, 2007, с. 99.

²http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&view=full&id=149&Itemid=

³Нурманов А., Ганиева Д., Ганиева Б. Феноменология ва герменевтиканинг лингвистик билишдаги роли. ФарДУ, "Илмий хабарлар", 2005, 2-сон, 34 – 36-бетлар.

⁴Бархударов Л.С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. М., Международные отношения, 1975, с. 94.

⁵Бархударов Л.С. Кўрсатилган манба. 94-бет.

Til birliklarini, xususan, antropotsentrik yondashuv asosida o'rganishda, ya'ni obyektning mohiyatini inson omili bilan bog'liq holda tadqiq etishda inson fenomeni masalalari bilan shug'ullanuvchi barcha yo'nalishlar: kognitiv, pragmatik, kulturologik, psixologik va aspektlar jamlangan bo'ladi.

Xullas, o'zbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, mustaqillikdan keyin yangi-yangi so'zlar, so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi. Unda yangi me'yorlar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar tilning fonetik tarkibi va alifbosida ham, imlo va talaffuzida ham, morfologik va leksik-semantik tuzilmasida ham, stilistikasi va grammatik qurilishida ham ozmi-ko'pmi o'z aksini topdi. Ayniqsa, o'zbek tili leksikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti, mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zbek tili lug'at tarkibida juda ko'n yangi so'zlar va terminlar yuzaga keldi.

Mayliyeva Gulmira Bahramovna (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SIFATNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sifatning semantik xususiyatlari yoritib berilgan hamda tilshunoslikda semantika termini haqida ma'lumotlar berilgan. Sifatning ma'noviy guruhlarning alohida jihatlari e'tibor qaratilgan.*

***Аннотация.** В данной статье описываются семантические особенности прилагательного в узбекском и английском языке и переданы информации о термине семантики в лингвистике. Уделено внимание особенностям значительных групп прилагательного.*

***Annotation.** This article describes semantic features of adjectives in English and Uzbek, besides, attention is paid to special meaningful groups of adjectives.*

***Kalit so'zlar:** semantika, sifatning semantik, sintaktik xususiyatlari, mutlaq sifat, xususiyatni o'zgartiruvchi, o'zgaruvchan, o'zgarimas, nisbiy, darajalanadigan sifatlar va darajalanmaydigan sifatlar.*

***Ключевые слова:** семантика, семантические, синтаксические особенности прилагательного, абсолютные, способ изменяющие, изменяемые, не изменяемые, относительные, градуируемые и неградуируемые прилагательные.*

***Key words:** semantics, semantic, syntactical features of adjectives, absolute, property-modifying, state-level (changeable), individual-level (non-changeable), relative (scalar), gradable, non-gradable adjectives.*

Tilshunoslikda semantika termini ilk bor. U 1883-yilda ishlatilgan.¹ Semantika so'zi yunoncha "semantikos" – ma'noli, ma'no anglatuvchi so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'z ma'nolari to'g'risidagi fan. Zamonaviy semantika fani asoschisi fransuz tilshunosi Mishel Breal hisoblanadi. Uning semantika haqidagi maqolalarini Jorj Wolf fransuz tilidan ingliz tiliga tarjima tahrir qilib "The beginnings of Semantics" kitobini nashr qildirgan.

Semantik jihatdan sifatlarni mantiqiy farqlanadigan quyidagi 3 ta turli guruhlarga ajratiladi:²

1. Mutlaq (bo'linadigan, kesimlilik xususiyatiga ega) sifatlar. Ushbu turdagi sifatlar kesim vazifasida keladi va ular xususiyatlarni ifodalaydi.

Masalan: *it was a yellow bag* misoli *it was a bag* hamda *it was yellow* gaplarining ma'noviy ke-sishmasi hisoblanadi. Ushbu gapni alohida qilib ishlatilganda ham ma'no kelib chiqaveradi: *It was a bag*, yoki *It was yellow*. Shuning uchun ham ushbu sifatlar bo'linadigan sifatlar ham deyiladi. Bunday turdagi sifatlar asosan quyidagi ma'no turlarini ifodalovchi sifatlar hisoblanadi:

- a) shaklni ifodalovchi sifatlar: *triangular* – uchburchakli, *hexagonal* – oltiburchakli;
- b) ijtimoiy guruh va millatlarni ifodalovchi sifatlar: *French*, *Russians*, *communist*;
- d) rangni ifodalovchi sifatlar: *blue*, *yellow*, *brown*.

2. Xususiyatni o'zgartiruvchi (bo'lmaydigan, boshqaruvchi) sifatlar, ular boshqaruvchi sifatlar bo'lib, xususiyat yasovchi sifatlar hisoblanadi. Masalan: *this device has atomic energy* misolida *atomic* sifati *atom* so'zining o'zagidan olingan va undan sifat yasalgan. Ushbu gapni qismlarga bo'lganda alohida ma'no ifodalamasligini ko'rishimiz mumkin: *this device has atomic*. Shu sababli bu turdagi sifatlar bo'lmaydigan sifatlar deyiladi. Xususiyatni o'zgartiruvchi sifatlar quyidagilar kiradi: nominal³–otdan tashkil topgan sifatlar (*atomic energy*, *scientific research*); manner–holatni ifodalovchi sifatlar (*a hard worker*, *a slow speech*) va miqdor, ravish va aniqlovchiga doir sifatlar (*fake information*, *great power*)

¹ Ш.Сафаров. Семантика. Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, Тошкент, 2013.

² Arnold D. Big Theoretical and descriptive issues in machine Translation, Phd dissertation, University of Essex, 1989.

³ Levi Judith N. 1978. The Syntax and Semantics of Complex Nominals. Academic Press, New York.

3. Bu turdagi sifatlar nisbiy bo‘lib, ular mutlaq sifatlar kabi o‘z ifodalab, kesimlilik xususiyatiga ega bo‘lishadi, lekin ulardan farqli o‘laroq bu turdagi sifatlar taqqoslashning ba‘zi standart va normalariga mos kelmaydi. Masalan: *This is a big mouse* misolida *mouse* ya‘ni *sichqon* katta hayvon bo‘lishi mumkin emas, lekin matnda uni boshqa bir narsaga taqqoslaganda katta ekanligini ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Nisbiy ma‘noga ega sifatlar o‘zida ham mutlaq, ham boshqaruvchi xususiyatga ega sifatning xossalari mujassamlashtirgan: *this is a mouse* → *this is big*; boshqaruvchi sifatda esa *this is a mouse that is big*.

Boshqa ma‘noviy guruhlar. Sifatlar boshqa xossalarga ko‘ra ham guruhlarga ajratiladi:

1. Aspekt, yondashuv jihatdan ikki xil ko‘rinishga ega sifatlar: stage-level ya‘ni mavjud holatdagi o‘zgaruvchan, dinamik belgini ifodalovchi sifatlar (broken-singan, ripen-yetilgan, frozen-muzlagan). Bu turdagi sifatlar o‘zbek tilidagi nisbiy sifatlariga to‘g‘ri keladi, nisbiy sifatda qiyoslanish va darajalanish bo‘lmaydi, lekin u daraja belgisiga ega bo‘lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi. Hamda individual-level ya‘ni o‘zgarimas, barqaror belgini ifodalovchi xossaga ega doimiy sifatlar (long, smart, red). Aynan shu xususiyati bilan sifat boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi, ya‘ni boshqa so‘z turkumlari ham belgini ifodalaydi, lekin ular sifat kabi turg‘un va dinamik belgini ifodalamaydi. Masalan: oq-oqargan-oppoq. Ingliz tilidagi individual-level turdagi sifatlar o‘zbek tilida asliy sifat ham deyiladi. Asliy sifatlar esa predmetning turg‘un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi. Asliy sifatda daraja shakllari, ayrimlarida ozaytirma va kuchaytirma shakllari bor.

2. Darajalash xususiyatiga ko‘ra sifatlar darajalanadigan va darajalanmaydigan sifatlariga bo‘linadi. Darajalanadigan sifatlar xususiyatni ifodalovchi sifatlar bo‘lib, ular qiyosiy va ortirma darajada taqqoslanadi. Masalan, *She is younger than Jane* - u Jeynga qaraganda *yoshroq*.

Darajalanmaydigan sifatlar mutlaq sifatlar bo‘lib, ularning qiyosiy va ortirma darajasi bo‘lmaydi, ya‘ni ular o‘z nomi bilan darajalanmaydi. Masalan: *It is an excellent idea* – *Bu ajoyib fikr*.

Quyida darajalanadigan va darajalanmaydigan sifatning ekvivalentlarini keltirib o‘tamiz: Non gradable adjectives: excellent, boiling, enormous, terrible, freezing, exhausted.

Gradable adjectives: good, hot, big, bad, cold, tired.

Ba‘zi darajalanadigan sifatlar bittadan ortiq darajalanmaydigan ekvivalentga ega. Masalan: *good* darajalanadigan sifatning darajalanmaydigan ekvivalentlari *fantastic, amazing, incredible*. Bundan tashqari, ekvivalentga ega bo‘lmagan darajalanmaydigan sifatlar ham mavjud, ular, ko‘pincha, past participle-o‘tgan zamon sifatdoshi, yoki gerundiy bo‘lishi mumkin. Masalan: *divorced, broken, coming, published, dead* va hk. *This plant is dead* misolida *plant a little bit dead* bo‘lishi yoki *deader* bo‘lishi mumkin emas, ya‘ni o‘simlik o‘lganroq deb bo‘lmaydi.

Ba‘zi tillarda sifatning fe‘l yoki ot so‘z turkumlariga o‘zgarib ketishini va sifatga oid so‘zlar kam uchraydigan tillar (xitoy tili, hausa – Nigeriya tili, chinuk – Shimoliy Amerika hindulari tillari)da ham sifatning turlarini bemalol ajrata olishni inobatga olib tilshunos olim Robert Dikson sifat so‘z turkumini 7 ta ma‘noviy guruhlariga ajratgan: dimension-hajm o‘lchovni ifodalovchi sifat, physical property-jismoniy xususiyat, colour-rang-tus, human propensity-inson hatti harakatlari, age-yosh, value-qiymat, speed-tezlikni ifodalovchi sifat turlariga bo‘lgan.¹Frawley²ning sifat ma‘noviy guruhlari klassifikatsiyasi ham Diksonning klassifikatsiyasiga o‘xshash, faqat ba‘zi turlarga kengroq ba‘zilarga kamroq ta‘rif berilgan:

Value (qiymat): good, bad;

Human propensity (inson xatti-harakatlari):

mental state (ruhiy holat): jealous, happy, loyal, ashamed;

Physical State (jismoniy holat): weak, sore, thirsty, robust;

Behavior (o‘zini tutish): wild, argumentative, funny, glad.

Physical property (jismoniy xususiyat):

Sense: related to taste, smell-hid bilish va ta‘m sezgilariga oid.

Consistency (barqarorlik): hard-qattiq, soft-yumshoq, long, short.

Texture (tuzilish): rough-dag‘al, smooth-silliq, scaly-tangachali.

Edibility (iste‘mol qilish jihatdan): ripe-pishgan, yetilgan, raw-hom, cooked-

pishirilgan.

Substantiality (qamrov, ko‘lam): full-to‘la, thick-qalin, hollow-pastqamlilik;

Configuration: sharp-o‘tkir, broken-singan, whole-butun;

Color: red, yellow, blue Age: young, old

¹ Raskin V. et S. Nirenburg Lexical Semantics of Adjectives. A microtheory of Adjectival meaning, in: MCCS-95-288, 1995.

² Frawley W. (1992). Linguistic Semantics. Hillsdale, NJ: Laurence Erlbaum Associates, Publishers.

Quantity: large, little

Possession (egalik)ni ifodalovchi sifatlar.

Ushbu keltirilgan sifat turlaridan shunisi qiziqki, Dikson ham, Frawley ham darajalanadigan sifat-larning jihatlari borasida izlanish olib borganlar, vaholanki, Warren darajalanadigan va shu bilan birga-likda nisbiy sifatlar borasida yondashuv olib borgan.

O'zbek tilida sifatning 9 ta ma'noviy guruhlari darsliklarda keltirilgan: 1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar. 2. Holat bildiruvchi sifatlar. 3. Shakl bildiruvchi sifatlar. 4. Rang-tus bildiruvchi sifatlar. 5. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar. 6. Hid bildiruvchi sifatlar. 7. O'lchov bildiruvchi sifatlar. 8. O'rin bildiruvchi sifatlar. 9. Payt bildiruvchi sifatlar.¹

Bulardan xususiyat ifodalovchi sifatlar narsa mavjudotlarning xarakter-xususiyatini ifodalaydi: mu-loyim, qo'pol, kamgap. Xarakter-xususiyat ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Holat bildiruvchi sifatlar narsa mavjudotning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalay-di. Bu turdagi sifatlar tabiiy (bukri), jismoniy (baquvvat), ruhiy (xursand), iqtisodiy (badavlat), harorat (issiq), tozalik (ozoda), eskilik, yangilik (ko'hna), ho'l-quruqlik (quruq), tinch va notinch (osoyishta), ye-tilganlik (xom) holatini bildiruvchi sifatlariga bo'linadi.

Shakl bildiruvchi sifat narsa predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi (uzun, qisqa). Rang-tus bildiruvchi sifatlar: oq, qora, qizil. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar: shirin, achchiq. Hid bildiruvchi sifatlar: xushbo'y, badbo'y. O'lchov bildiruvchi sifatlar: keng, tor. O'rin bildiruvchi sifatlar: ichki, tashqi, devo-riy. Payt bildiruvchi sifatlar: qishki, ertapishar, yozgi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sifatning ma'noviy guruhlari o'zbek va ingliz tillarida turli guruhlarga bo'lingan va ular ingliz tilida asosan yettita bo'lib: *qiymatni, hajm-o'lchovni, rang-tusni, yoshni, jismoniy xususiyatlarni, inson xatti-harakatlarini, tezlikni* ifodalovchi sifatlardir. Maqolada ingliz tilida sifatning ma'noviy guruhlari Angliyalik olim, Avstraliyaning James Cook Universiteti professori Robert Dikson tomonidan sifat so'z turkumiga berilgan klassifikatsiya asosida misollar keltirildi.

**Matnazarova Xayriniso Satimboy qizi (Urganch davlat universiteti "Roman-german filologiyasi"
kafedrasida tayanch doktoranti; xayrinisomatnazarova@gmail.com)
O'ZBEK TILIDAGI LEKSIK VA GRAMMATIK SINONIMLAR TAHLILI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinonimlarning nutq uslublarida qo'llanilish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada leksik, frazeologik va leksik-frazeologik sinonimlar ta'riflangan. Gram-matik sinonimlarning morfologik va sintaktik sinonim turlari farqlangan.

Аннотация. В данной статье анализируются возможности использования синонимов в стилях речи. В статье также определяются лексические, фразеологические и лексико-фразеоло-гические синонимы. Различаются морфологический и синтаксический типы грамматических си-нонимов.

Annotation. This article analyzes the possibilities of using synonyms in speech styles. The article also defines lexical, phraseological and lexical-phraseological synonyms. Morphological and syntactic types of grammatical synonyms are distinguished in it.

Kalit so'zlar: leksik sinonimlar, frazeologik sinonimlar, tilshunoslik, nutqiy, sinonim, sinonimiya, morfologik sinonimlar, sintaktik sinonimlar.

Ключевые слова: лексические синонимы, фразеологические синонимы, языкознание, речь, синоним, синонимия, морфологические синонимы, синтаксические синонимы.

Key words: lexical synonyms, phraseological synonyms, linguistics, speech, synonym, synonymy, morphological synonyms, syntactic synonyms.

Har bir til o'zining leksik sathining boyligi, tilning qanchalik so'z qamrovining ko'pligini bilan boshqa tillardan farq qiladi. O'zbek tili leksik ko'lamining keng qamrovli ekanligi bilan ajralib turadi. Leksikologiya bo'limiga kiruvchi sinonimiya guruhi nutqni chiroyli va aniq, tushunarli qilib yetkizib be-rihga katta yordam beradi. Til birliklarining ayni bir ma'noni anglatishi asosida guruhlanishi sinonimi-ya deyiladi (yunoncha synonimon – birgalikda ismlilik).² Sinonimlarni ta'riflash uchun bu ta'rif kamlik qiladi. O'zbek tilidagi ilk sinonimlar lug'ati "O'zbek tili sinonimlarning izohli lugati" nomi bilan Azim Hojiyev tomonidan 1974-yilda nashr qilingan. Azim Hojiyevni yozishicha: "Sinonimlar–talaffuzi, yozili-shi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'-

¹ R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma, T., "Fan va texnologiya", 2009.

² U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "O'qituvchi", Toshkent, 1975.

yogʻi, qoʻllanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan oʻzaro farqlanadigan soʻzlardir. Ammo oʻzbek tilining ikki jildli izohli lugʻatida sinonim soʻzlar taʼrifi shunday deb kiritilgan: “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (har ikkala nashr, yaʼni, 1981-yilgi 2-jildli hamda 2006-yilgi 5-jildli nashr)da sinonimlar quyidagicha izohlangan: 1981-yilda nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da sinonim soʻzlarga “tovush sosti, talaffuz jihatidan boshqa-boshqa, ammo maʼnosi bir, oʻxshash yoki juda yaqin soʻzlardan har biri” deb taʼrif keltirilgan boʻlsa, 2006-yilda chop etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”dagi sinonimlar taʼrifi “shakli har xil, maʼnosi bir xil yoki biroz farqli boʻlgan til birliklari qatoridagi har bir til birligi” deb tavsif berilgan. Ushbu ikki lugʻatlardagi sinonimiya, sinonimika, sinonimlik kabi tushunchalarga oldingi lugʻatda qisqa izohlar berilgan boʻlsa, 2006-yilgi nashrda bu tushunchalar “maʼnodosh” tushunchasiga nisbatlangan holda sharh qilingan, biroq 1981-yilgi lugʻatdan farqli ravishda mazkur lugʻatdagi “maʼnodosh” tushunchasi izohida uning sinonimiya bilan bogʻliqligi haqida gapirilmagan. Taʼkidlash joizki, bu farqlar, asosan, predmetning oʻziga xos xususiyatlari, uning xilma-xilligi, har xil maʼnoviy yaqinlikning mavjudligi bilan izohlanadi, shunga muvofiq sinonimlarni aniqlashga boʻlgan yondashuvda aks etadi.¹

“Oʻzbek tilshunosligida sinonimlarga berilgan taʼrifga eʼtibor berilsa, ularni belgilashda dastlab leksemalarning maʼno jihatidan bir xilligiga, soʻngra maʼnolarning umumiylikiga, keyinchalik esa maʼnoviy oʻxshashlikka asoslanilgani kuzatiladi”. Oʻtgan asrning 70-yillariga qadar sinonimlik maʼnoning aynan bir xilligi asosida belgilangan boʻlsa, 80-yillarga kelib, soʻzning semantik strukturasi bir qancha olimlar tomonidan semik tahlil asosida oʻrganila boshlandi. Sinonimlarni belgilashga ham semik tahlilning tatbiq etilishi sinonimik qatorlarga birlashtirilayotgan leksik birliklar maʼnolaridagi aynanlik, umumiylik va farqlilikka aniqlik kiritish imkoniyatini yaratdi. Shuning uchun oʻzbek tilshunosligida sinonimlarni belgilashda anʼanaviy va zamonaviy qarashlar tubdan farq qiladi. Sinonim soʻzlar tarixiga nazar solsak, bunday soʻzlar koʻplab tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilingan. Bu sohaga sinonim soʻzlar lugʻatlarining paydo boʻlishi rus tilshunosligida XVIII asrga borib taqaladi. Sinonimiya ikki va undan ortiq til birligining oʻzaro maʼno munosabati asosida tugʻiladi. Bunday munosabatda qatnashuvchi birliklarning miqdorini cheklab boʻlmaydi. Ikkinchidan, bu til birliklari oʻz ichida muntazam bir sistemani tashkil etadi. Shu xususiyatlarni hisobga olib, sinonimiya munosabati hosil etuvchi til birliklari biri ikkinchisiga nisbatan sinonim deyiladi. Sinonimik qatoridagi soʻzlarning uslubiy baholari ikki xil boʻladi. Bular: ijobiy va salbiy. Bunga misol qilib yuz, chehra, oray, bet, aft, bashara sinonimlar qatorini oladigan boʻlsak, bunda “yuz”. Sinonimlar jamlangan holda sinonimiya qatori deb yuritiladi.

Shunga koʻra, sinonimiya ikki xil:

1. Lugʻaviy sinonimiya.

2. Grammatik sinonimiya.²

1. Lugʻaviy sinonimiya – lugʻaviy birliklarning oʻzaro sinonim boʻlishi, masalan, baxt, iqbol, tole, saodat.

Bunday sinonimik qatorga doir soʻzlar uslubiy va maʼno jihatdan farqlanadi. Misol uchun, yuqoridagi sinonimlarning umumiy maʼnosi: turmushdagi mamnunlik holati, turmushdan mamnun etuvchi narsa boʻlsa, ularning har birining qoʻllanilish uslubi bir biridan farqlanadi. *Iqbol* asosan badiiy uslubga xos. *Tole* “baxt”, “iqbol” maʼnosiga nisbatan “omad” maʼnosi qoʻllanadi. *Saodat* koʻproq kitobiy uslubga xos, yakka soʻz holida kam qoʻllanadi. Yana bir misolni koʻradigan boʻlsak, *bechora, shoʻrlik, boyoqish, oʻqsiz, notavon, ojiz, aftoda*. Achinish, taassuf uygʻotuvchi holatli, nochor holatli. *Shoʻrlik* soʻzida belgi darajasi kuchliroq. *Boyoqish* koʻproq oddiy soʻzlashuvga xos. *Ojiz, notavon* soʻzida ilojsizlik oʻttenkasi kuchliroq. *Oʻqsiz* kam qoʻllanadi. *Aftoda* eskirgan. Ayniqsa, onasi *bechorani* ayting. Yigʻlayverib kasal boʻlib qolsa-ya?! (S.Zunnunova). Ha, shoshma, avval oʻzim kirib xabar qilay, qoʻqqisdan kirib borsak, yurak-puragi chiqib ketmasin *shoʻrlikning* (M.Ismoilij). Enang besh-oʻn tanga pul soʻrab yubordi. Boʻlsa, chiqarib ber, *boyoqishlar* chaynab tursin (Oybek). Bu qanday zoʻrovonlik! Qoʻl-oyogʻimizga kishan! Oʻqsiz ona! Baxtsiz Iqboloy Mirshabdan kaltak edi-ya! (N.Safarov). Hay bolam, jinoyat yoʻlidan qayt! Kasal, notavon otangni qaqshatma! (Yashin).³

2. Grammatik sinonimiya – grammatik birliklarning sinonim boʻlishi. Yaʼni, bunda qoʻshimchalar, soʻz birikmalari va gaplar oʻzaro sinonimik munosabatga kirishadi. Grammatik sinonimiya ikki xil boʻladi:

1) morfologik sinonimiya – bunda morfologik birliklar oʻrtasida sinonimlik vujudga keladi. Masalan, qoʻshimchalar sinonimiyasi – yap, – yotir, (yozayapman, yozayotirman), sersoqol-soqoldor kabi;

¹ Mirxanova G. Rus tilshunosligida sinonim soʻzlar oʻquv lugʻatlarining tadrijiy rivojlanishi. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal (3) III/2020 ISSN 2181-063X

² U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. “Oʻqituvchi”, Toshkent, 1975.

³ Hojiyev A. Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati. Toshkent, “Oʻqituvchi”, 1974, 60 – 61-betlar.

2) sintaktik sinonimiya – sintaktik birliklar o‘rtasidagi sinonimlik. Opamga oldim, opam uchun oldim. Riodan eshitdim, Radio orqali eshitdim.

Lug‘aviy sinonimiya uch xil bo‘ladi:

1. Leksik sinonimiya – leksik birliklarning o‘zaro sinonim bo‘lishi: masalan, kambag‘al, qashshoq, bechora, faqir, yo‘qsil, gado, bechorahol, miskin.

2. Frazeologik sinonimiya – frazeologik birliklarning o‘zaro sinonim bo‘lishi: podadan oldin chang chiqarmoq – to‘ydan ilgari nog‘ora chalmoq; dimog‘i chog‘ bo‘ldi-bahr(i)ni ochmoq-bahr(i) ochildi; dunyodan ketmoq-dunyodan o‘tmoq, ko‘z(i)ni yummoq.

3. Leksik-frazeologik sinonimiya–leksik birlik bilan frazeologik birlikning o‘zaro sinonim bo‘lishi: toza, yog‘ tushsa yalagudek. Lug‘aviy sinonimiyaga kiruvchi leksik va frazeologik sinonimiya bir biriga o‘zaro yaqin bo‘lib, ular o‘zaro bir birini to‘ldiradi. Ya‘ni ko‘pchilik leksik sinonimlarning frazeologik variantini ko‘rishimiz mumkin. Ular anglatgan ma‘no qirrasiga, stilistik bo‘yog‘iga ko‘ra bir biriga yaqin ma‘nolarni beradi. Chunki frazeologik sinonimiyani og‘zaki nutqda va badiiy asarlarni kuzatishimiz mumkin. Sinonimlar bir-biriga ma‘no qirrasiga, stilistik bo‘yog‘iga, nutqiy xoslanishiga ko‘ra uch nuqtayi nazardan farqlanadi. Bular ideografik, stilistik va nutqiy sinonimlar deb yuritiladi. Ideografik so‘zlar sinonimlarning ma‘no jihatdan farqini bildiradi. Ya‘ni, idea so‘zi grekchadan –“tushuncha”,tasavvur degan ma‘noni bildirib, biz eshitgan so‘zdan o‘zimiz ma‘no chiqarib olamiz. Misol uchun, Siz shifokor qabuliga borishingiz kerak degan gap bilan Siz shokorga borishingiz shart so‘zlari o‘rtasidagi ma‘no qirrasiga ko‘ra farqni ko‘rishimiz mumkin. Bunda bu gaplarning ikkinchisida shartlilik va qat‘iylik ma‘nolari bo‘rtib turadi. Stilistik sinonimlar bu sinonimlarning stilistik bo‘yoq jihatdan o‘zaro bog‘lanishini anglatadi. Sinonimlar qatordagi stilistik bo‘yoq sinonimlar ikki xil bo‘ladi. Bular:ijobiy va salbiy. Bunga misol qilib yuz, chehra, oray, bet,aft, bashara sinonimlar qatorini oladigan bo‘lsak,bunda yuz so‘zi dominant so‘z hisoblanib, ya‘ni uslubiy tarafdin betaraf so‘z bo‘lsa *bet, aft, bashara* so‘zlari salbiy ma‘noda ishlatiladi. Chehra, oray so‘zlari ijobiy ma‘noda qo‘llaniladi. Agar yuz so‘zining inglizchasini ko‘radigan bo‘lsak, unda *face* so‘zi yuz degan ma‘noni beradi. Boshning bir qismiga nisbatan esa *dial, mug mush, phiz* so‘zlari ishlatiladi. Bunday so‘zlar anglatayotgan hodisaga gapiruvchining munosabatini bildirib keladi. Sinonimlarning o‘zaro nutqiy xoslanishi jihatdan farqi, nutqiy sinonimlar deb yuritiladi. Yuqoridagi sinonimik qatordagi so‘zlar ma‘no jihatdan deyarli bir xil yuzni bildiradi ammo yuz, aft, bashara so‘zlari asosan so‘zlashuv uslubida ishlatilsa, chehra so‘zi badiiy uslubda ishlatiladi. Nutqiy sinonimlar quyidagicha munosabatlarda voqe bo‘ladi:

1. Umumiynutq so‘zi bilan badiiy nutq – nur – umumnutq so‘zi, yog‘du – badiiy nutq so‘zi.

2. Umumnutq so‘zi bilan so‘zlashuv nutq – yana umumnutq so‘zi, tag‘in-oddiy nutq so‘zi.

3. Umumnutq so‘zi bilan rasmiy nutq – qatnashmoq – umumnutq so‘zi, ishtirok etmoq – rasmiy nutq so‘zi. Yuqoridagi barcha sinonimlar qatorining barchasida bosh so‘z dominant deyiladi. Bu so‘z lotinchadan “dominantis”–“hukmron” degan ma‘noni bildiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilshunoslikda sinonim so‘zlarning ta‘riflari haqida turlicha mulohazalar berilgan. Bu tushunchaga olimlar tomonidan tadqiq qilinishi yanada takomillashib bormoqda. Ushbu maqolada sinonim so‘zi uning ta‘rifi va turlari tahlil qilingan. Ularning leksik ma‘nolari o‘rganilib, tilshunoslik sathi yanada kengayishi o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi.

Ishanjanova Munosibxon Saidahmadovna (Andijon davlat Chet tillari instituti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
BOBUR SHAXSI VA MEROSINING YEVROPADA O'RGANILISHI

Annotasiya. Ushbu maqolada Bobur shaxsining Yevropa olimlari tomonidan o'rganilishi, ularning Boburga bergan ta'riflari, Bobur merosini ilmiy o'rganishlari bo'yicha tadqiqotlari tahlil qilingan.

Аннотация. В статье анализируется изучение личности Бабурa европейскими учеными, их характеристика личности Бабурa, их исследования научного наследия Бабурa.

Annotation. This article analyzes the study of the Beaver personality by European scientists, their definitions of the Beaver, their studies on the surface of scientific studies of the Beaver Meuro.

Kalit so'zlar: Bobur ijodi, "Xatti Boburiy", miniaturalar, shoh va shoir.

Ключевые слова: творчество Бабурa, "Хатти Бабурий", миниатюры, король и поэт.

Key words: creation of Babur, "Khatti Baburiy", miniatures, king and poet.

Zahiriddin Muhammad Boburni dunyo, faqatgina, davlat arbobi emas, shoir, musavvir, tarixchi, geograf, etnograf sifatida tan olgan. Uning mashhur qomusiy asari "Boburnoma", "Bobur bitiklari" asari o'rta asrlarda ilm-fan va madaniyat namoyandalari orasida salmoqli o'rin egallagan. U o'zining dunyoqarashi, sinchkovligi va tirishqoqligi bilan O'rta Osiyo xalqlari hayotining ko'plab jabhalarida o'z izini qoldirib ketgan.

Bobur o'zining avlod va ajdodlari uchun, birinchi navbatda, shoh, davlat davomchisi sanalgan. U otasi kabi jasur podshoh bo'lib, lashkar tortib, ko'p janglarda qatnashgan. Bobur podshoh sifatida bobosi Temur kabi ulug' va qudratli davlat barpo etishni niyat qiladi. U Samarqandga yurish qiladi, lekin jangda mag'lub bo'lgach, Qobulga keladi va so'ng Hindistonni zabt etib, buyuk Boburiylar imperiyasiga asos soladi. Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'alarini davom ettirib, muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog'-rog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar, keyinchalik, Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi. Hindistonning buyuk davlat arbobi Javohirla'l Nehru o'zining „Hindistonning ochilishi“ va „Jahon tarixiga bir nazar“ asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida: „Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirkor odam bo'lib, o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi... Bobur san'at, ayniqsa, adabiyotni sevardi“,¹ deya ta'riflaydi.

Uning adabiyotdagi o'rni beqiyos bo'lib, hanuzgacha dunyo olimlari nazdidadir. Bobur qoldirgan ilmiy meroslar dunyoning yirik tilshunoslik maktablarida, jumladan, MDH davlatlari, Chexiya, Germaniya, Turkiya, Italiya, Angliya, Fransiya, AQSH, Hindiston, Pokiston, Afg'onistonda o'rganilib kelmoqda.

Bobur shaxsi Fransiyada o'rganilishi, dastlab, 1697-yilda boshlangan bo'lib, u haqda fransuz sharqshunosi Bartolame Erbalo Molenli Sharq kutubxonasi qomusidagi Bobur yoki Babar nomli maqolasida aytib o'tadi. Fransuz olimi A.Pave do' Kurteyl Boburni Temuriylar avlodidan bo'lgan sharqdagi Sezar deya qiyoslaydi. Ingliz tarixchi olimi Eduard Holden: „Boburni Sezarga qaraganda yaxshi xislatlar bilan tanilgani va uning taqdiriga oliy fazilatli, yaratuvchi inson deb bitib qo'yilgan“ini e'tirof etadi.² Darhaqiqat, „Boburnoma“ning kotibi Boburning ulug' podshohlarga xos sakkiz shaxsiy fazilatini qayd etgan: „U qudratli podshohning yaxshiliklarini aytgan bilan va yozgan bilan tugatish maholdir. Lekin qisqasi shuki, sakkiz asl sifat uning zotiga xos edi: biri bukim – iqboli baland edi, ikkinchisi – himmati yuksak edi, uchinchisi – viloyat olmoq, to'rtinchisi – viloyat saqlamoq, beshinchisi – ma'murlik, oltinchisi – Olloh bandalariga farovonlik niyati, yettinchisi – lashkar ko'nglini qo'lga olmoq, sakkizinchisi – adolat qilmoq“.³

Boburshunos fransuz olim Sh.Ru "Temurlang" asarida Bobur haqida fikrlarini bayon qilar ekan, quyidagilarni yozadi: "Men Bobur bosib o'tgan yo'llarning qariyb hammasini bosib o'tdim. Uning Qobulda qabri ustida uch marta bu shaxsdan hayrat ila turdim".⁴ Haqiqatdan ham, Bobur shaxsi dunyo olimlarini hayratga solmoqda. Uning ruboiy va g'azallari adabiyotimiz durdonalari bo'lsa, "Boburnoma" esa nodir xazinamizdir.

¹file:///Zahiriddin-MuhammadBobur.Boburnomatabdil.pdf

²Pavet de Courteille J.B. Mémoires de Baber (Zahir-ed-Din-Mohammed), Paris, Maisonneuve, 1871.

³З.М.Бобур. Бобурнома. Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1960, 4-бет.

⁴Jean-Louis BACQUE-GRAMMONT. Le livre de Babour. Paris, 1985, 114-бет.

“Boburnoma”ning G‘arbiy Yevropa tillariga tarjimasini, dastlab, Amsterdamda 1705-yil Vitsen tomonidan amalga oshirildi.¹ Olim “Boburnoma”dan olingan parchalarni tarjima qilib, nashr ettiradi. Asar nashridan so‘ng Angliya hukumati Hindiston o‘lkasining tabiati, boyliklari, hududiy bo‘linishlari, shu bilan birga, boburiylar davlatining boshqaruv tizimini ham o‘rgandilar. Shundan so‘ng ushbu o‘lka to‘g‘risida ilmiy, siyosiy, hujjatli asarlar yaratildi. Jumladan, Brijning “Hindistonda musulmon hokimiyatining yuksalishi”, S.R.Burning “Hindiston tarixi”, S.M. Edvardesning “Bobur – tarixchi va sarkarda”, Eleoit va Devsonning “Hindistonning o‘z tarixchilari tomonidan bayon qilingan tarixi” S.Leyn Poluning “Bobur”, Irvinning “So‘nggi mo‘g‘ullar”, V.Rashkbrukning (1890–1978) “O‘n oltinchi asr bunyodkori”, R.Godening “Gulbadan”(1980), S.M.Berkning (1906–2010) “Akbarshoh – boburiylarning eng buyugi” kabilardir.²

XVIII asrdan Angliya Hindistonga qiziqishi kuchaygan davrda Jo Leyden (1775–1811) tomonidan “Boburnoma” tarjima etila boshlangan bo‘lib, uning vafotidan so‘ng ishni U.Erskinga topshiriladi. Asar tarjimasidan so‘ng olim “Temuriylar sulolasidan bo‘lgan Bobur va Humoyun davrida Hindiston tarixi” nomli tadqiqotini olib boradi.³ Tadqiqotning natijalari “Hindistonda Bobur davlati” nomi bilan o‘zbek tilida ham nashr etiladi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan Bobur ijodini Fransiyada o‘rganish boshlandi. Fransuz sharqshunoslari o‘z tadqiqotlarida Boburnoma va uning yaratilishi haqida yozish boshlandi. Shu davrda fransuz olimi A.de Longperyening Bobur ijodini yorituvchi tadqiqotlarida “Xatti Boburiy” haqida” maqolasi o‘rin olganligi guvohi bo‘lamiz. Unda olim Boburning yangi yozuv kashf etganligini yoritib, Bobur alifbosi boshqa alifbolarga nisbatan murakkab emasligi, yozuv uchun ham qiyinchilik tug‘dirmasligini aytib o‘tadi.⁴ Xalqlar madaniyatini kashf qilishda yozuvlarning ham ahamiyati kattadir. Tarixan turkiy xalqlar turkruniy, arab, uyg‘ur yozuvidan foydalanib kelganlar. Bobur arab yozuvida savodini chiqaradi va ushbu yozuvda asarlar bitgan, lekin bu yozuvni yanada soddalashtirish, osonlashtirish maqsadida Boburiy xattini amalda qo‘llay boshlandi. Bu davrda yangi yozuv joriy qilish qiyin bo‘lgan, chunki musulmon olamida arab yozuvi, ya‘ni Qur‘on yozuvidan foydalanilar edi. Bobur o‘zi kashf etgan yozuvda, dastlab, Qur‘onni ikki nusxada tayyorlatadi va birini Makkaga, ikkinchisini Tehronga yuboradi. Ushbu yozuv haqida Bobur o‘z asarlarida yozib qoldiradi, lekin uning nega ommalashmagani haqida ma‘lumotlar mavjud emas.

XIX asrga kelib, Fransuz sharqshunos olimlari tomonidan Bobur va uning adabiy merosini o‘rganishning yangi davri boshlandi. Fransuz olimlari Boburning asarlari, xususan, “Boburnoma”ni tarjima qilishga kirishdilar. Shuningdek, asar tarjimasini xususida uning ilmiy, ijtimoiy, etnografik xususiyatlarini ochib beruvchi ilmiy izlanishlar vujudga keldi. A.J.Klaprot Boburnomani fransuz tiliga birinchilardan bo‘lib tarjima qildi va o‘z izlanishlari natijasida 1824-yil “Sulton Bobur yoxud “Boburnoma” tarixiga oid kuzatishlar” maqolasini e‘lon qildi.⁵ Olim asarni tarjima qilish bilan Sharq va G‘arb xalqlari o‘tmishi va urf-odatlarini o‘rganib, ularni o‘zaro taqqoslab, farqli hamda umumiy jihatlarini ko‘rsatib o‘tadi. Shuningdek, Boburning tilshunoslikdagi ilmi xususida to‘xtalib o‘tadi. 1854-yilda Parijda “Hozirda va qadimda yashagan tarixiy shaxslar hayoti” nomli tarixda muhrlangan buyuk shaxslarning hayoti davomidagi qilgan yaratuvchanlik ishlari yoritilgan asar nashr etildi, shuningdek, ushbu asarda M.Langlening Boburning ham umri davomidagi salmoqli ishlari aks etilgan “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” mavzusidagi maqolasi joy oladi.⁶ Olimning Bobur ijodi haqida to‘plagan materiallari ancha boy bo‘lib, uning tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini belgilab beradi.

XIX asrning 60-yillarida Fransiyada lug‘atshunos olim Per Laruss tomonidan “XIX asr katta fransuz qomusiy lug‘ati” yaratilib, unda ikkinchi jildida Bobur haqida qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek, olim Boburning ijodi haqida gapirganda “Boburnoma” asarining yozilish tarixi va uni dunyoning turli tillardagi tarjimalari haqida to‘xtaladi. Bu asar yuzasidan tadqiqotlar olib borilsa-da, lekin Fransiyada taniqli emasligini aytadi. Boburnoma turkiy-chig‘atoy tilida yozilib, uning dastlabki tarjimasini forsiyda bo‘lganini ta‘kidlaydi, shuningdek, bu asar Hindistonda musulmonlar tomonidan olqishlangani haqida ma‘lumot beradi.⁷

¹ Умаров Э. Бобурнинг тилшуносликдаги маҳорати. Илмий-маърифий, адабий-бадиий журнал, Бобур ва дунё, 2-сон, 40-бет.

² Болтабоев Х. Инглиз тилидаги манбаларда Бобур сиймоси. Илмий-маърифий, адабий-бадиий журнал, Бобур ва дунё, 2-сон, 2017.

³ Shu manba.

⁴ Холбеков М. Ўзбек адабиёти Францияда. Тошкент, 1988, 16-бет.

⁵ Холбеков М. Shu manba.

⁶ Холбеков М. Shu manba.

⁷ Холбеков М. Shu manba.

Pier Laruss “Boburnoma”ning yaratilishi haqida yozar ekan, bu asarning qaysi yillar yozilgani haqida asarning biron joyida aniq aytilmaganini keltiradi. Larusning taxminicha, asar Boburning Hindistonni zabt etgandan so‘ng yozilgan. Hozirgi kunga qadar olimlar “Boburnoma”ning aniq yozilgan vaqti xususida bahslashib keladilar. Professor N.Mallayev Bobur hamda boburiylar davri adabiyotini o‘rganar ekan, ushbu ma’lumotlarni ta’kidlab o‘tadi: “Bobur siyosiy faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab o‘z sarguzashtlari va turli xil tarixiy voqealarni xotira daftarida aks ettirib borgan, keyinchalik, mana shu xotira daftari “Boburnoma”ni yaratishga asos bo‘lib xizmat qilgan. U “Boburnoma”ni qachon yozishga kirishgani ma’lum emas. Biroq asarning ayrim o‘rinlari uning ko‘proq qismi Hindistonda yozilgani yoki qayta tahrir qilinganini ko‘rsatadi”.¹ Ushbu fikr turli qarashlarga oydinlik kiritganday bo‘ladi. “Boburnoma” matnining adabiy janrlarga xos tarzda yozilgani P.Larusni hayratlantiradi. Olim asrning stilistik xususiyatlarga boy izchil, sodda va ravon tilda yozilganini aytadi. Nozik did bilan ishlangan miniatyuralar o‘sha davr ruhini yaqqol aks ettiradi.

XIX asrdan Bobur va Boburiylar haqidagi ma’lumotlar ingliz ensiklopediyalari va bibliografik ko‘rsatkichlariga kiritila boshladi va M.Elliotning (1808–1853) “Hindistonlik musulmon tarixnavislarining bibliografik ko‘rsatkichi”da 231 nafar hind tarixchisi Bobur va uning merosi haqida ma’lumotlar berganlar.² Bu ma’lumotlar, albatta, ingliz adabiyotini ham, o‘z navbatida, boyitishga asos bo‘ladi. “Buxoro va Transaksoniya tarixi” nomli asari Venger sharqshunosi Herman Vamberi tomonidan 1873-yil Sankt-Peterburgda chop etiladi. Unda olim “Boburnoma”ni “Sharq Sezarining xotiralari” deb ta’riflaydi. Yuqorida qayd etilganidek, Per Laruss o‘z qomusida venger olimidan oldinroq: “Boburnoma” o‘quvchilarda Rim imperatori Yuliy Sezarning “Xotiralar” kitobi kabi asqotadi” deb yozgan edi.³ Darhaqiqat, ushbu ikki asar o‘rtasida voqealar bayoni, jang voqealari, geografik joylar tasviri jihatlaridan o‘xshaliklar mavjud. Lekin “Boburnoma”dagi qahramonlar, ichki kechinmalar, insonning ichki va tashqi dunyosini tasvirlashdagi badiiyliklar “Xotiralar” kitobidan ustunligi bilan farqlanadi. “Boburnoma” o‘zida turli xil urf-odatlar, maqol, matallar, jozibali sarguzashtlarga boyligi bilan o‘quvchini rom qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining ijodi bilan ham butun dunyoni zabt etdi. Bobur merosi hozirgi kungacha turli xalqlar tadqiqotchi olimlari tomonidan o‘rgailib kelmoqda. Uning ijodining serqirraligi va ensiklopedik “Boburnoma” asari barcha sohalar uchun ahamiyatga ega. Shu o‘rinda, “Boburnoma”-dagi etnografik birliklar tarjimai tarjimonlar oldiga yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Lug‘atlarda ular, albatta, izohlari bilan berilishi talab etiladi.

Norqulova Shahnoza To‘lqinovna (Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi; e-mail: norqulovashaxnoza8@gmail.com)

MUMTOZ ADABIYOTDA KO‘Z TIMSOLI TALQINLARI BADIYYATI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy g‘azallari hamda mumtoz shoirlar ijodida ko‘z timsoli badiiyati bilan bog‘liq mavzu tevaragida fikr yuritilib, ularning bu boradagi mahorati masalalariga urg‘u beriladi.

Аннотация. В статье рассматриваются газели Алишера Навои, а также тема образительной образности глаз в творчестве поэтов-классиков, подчеркивается их мастерство в этом отношении.

Annotation. The article deals with the gazelles of Alisher Navoi, as well as the theme of figurative imagery of the eyes in the works of classical poets, emphasizing their mastery in this regard.

Kalit so‘zlar: ko‘z, qosh, lab, la‘l, xol, ashk, qorachiq, kiprik, qaboq, dur, jodu, charos, timsol, g‘o‘ya, talqin, mahorat.

Ключевые слова: глаза, брови, губы, рубин, родника, слёзы, зрачок, ресницы, чарующий, мастерство, искусность, образ, идея, изображения.

Key words: eye, eyebrow, lip, spot, tear, pupil, eyelash, eyebrow, pearl, magic, charos, emblem, idea, interpretation, skill.

Badiiy adabiyotda ma’shuqa go‘zalligi ta’rifi va ko‘z tavsifi bilan bog‘liq hodisalar qadimiy ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’shuqaning charos ko‘zi, uning turli qirralari shoirlar tomonidan qalamga olinar ekan, bu badiiy ifoda, avvalo, xalq og‘zaki ijodi sarchashmalaridan oziqlanib ilhom olgani hech kimga sir emas. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy (XI asr) “Devonu lug‘atit turk” (1076) asarida

¹Bobur va Boburnoma frantsuz sharqshunosligi sahiifalariida. <http://ishtixon.uz/ru/node/746> Mal্লাев Н. 3. М. Бобир хаёти ва ижоди хақида. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, 608-бет.

² Elliot Н.М. Supplemental Glossary of Indian Terms A-J, Agra, 1845.

³Bobur va Boburnoma frantsuz sharqshunosligi sahiifalariida. <http://ishtixon.uz/ru/node/746> Холбеков М. Ўзбек адабиёти Францияда. Тошкент, 1988, 16-бет.

jamlangan xalq qo‘shiq-lari yor ko‘zining shahloligi, uning mahliyo etuvchi kuchiga ishora qiluvchi ho-latlar jozibali tasvirini topgan:

*Bulnar mani ulas ko‘z,
Qora mengiz, qizil yuz.
Andin tomar tukal tuz,
Bulnar yana ol qachur.*

Mazmuni: Mastona ko‘zli, qora xolli, qizil yuzli, yuzidan asal tomar, meni asir etib, so‘ng qochadi.¹

E‘tibor berilsa, yorning ko‘zi mastona va shahlo ana shu mast ko‘zlar oshiqni chinakamiga asir eta-di. “Devonu lug‘atit turk” sahifalarida ushbu xil ajoyib misollarni ko‘plab topish mumkin. “Qisasi ar-Rabg‘uziy” (1310) asarida ham ko‘z madhiga bag‘ishlangan misralar mavjud:

*Jilva birla solnu chiqq‘an ol yang‘oqlig‘ yoni qor,
Ko‘zlari yulduz, yuzi kun, olini ko‘kning oyidin².*

Bu hodisa keyingi davrlarda ham davom etadi, masalan, Sayfi Saroyi (1321–1396)ning “Ko‘zla-ring” radifli g‘azalida ko‘zning turli badiiy talqinlari ochib beriladi:

*Ko‘rub qoshi yosin qaro ko‘zlaring,
Otar kirpuk o‘qin manga ko‘zlaring.³*

Xorazmiy “Muhabbatnoma” (1353)sida ma‘shuqa ko‘zini joduga mengzaydi:

*Ko‘ngil shirin so‘zingg‘a bo‘ldi Farhod,
Ko‘zung Kashmir jodusig‘a ustod.⁴*

Sayid Ahmad ibn Mironshoh “Taashshuqnomada” (1436) oshiq ko‘zining qaro-chig‘ini ma‘shuqa xoliga tashbeh qiladi:

*Ko‘ngulda jontek asrarman xayoling,
Ko‘zumning mardumidir aksi xoling.*

Yusuf Amiriy “Dahnoma” (1420)da yor jamolining ko‘rki – bezagi ko‘zning o‘zgacha ta‘rifini to-pishga intiladi:

*Jayron ko‘zluq, buti mushkin, kulola,
Ko‘zi nargis, bo‘yi sarv, engi lola.⁵*

Yuqoridagilardan ayon bo‘ladiki, ko‘z timsolining badiiy talqini o‘tmish adabiyotimizda uzoq ta-rixga ega ekan. Tasavvuf adabiyotida ko‘z go‘zallik timsoli bo‘lib, Yusuf alayhissalom husniga monand hamda Muhammad payg‘ambar mohiyatining nozik tomonlarini namoyon etuvchi timsol tarzida talqin qilinadi. Alisher Navoiy davrigacha bo‘lgan o‘zbek mumtoz adabiyoti katta tajriba to‘plagan edi, uning yetuk namoyandalari ijodida ko‘z timsolining turfa badiiy talqinlarini kuzatish mumkin. Chunonchi, Sak-kokiy, Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Atoyi, Gadoiy, Yaqiniy, Sayyid Qosimiy, Husayniy (Husayn Boyqaro, 1438–1506) va boshqalar ijodi bunga jonli misoldir.

Ayniqsa, bu borada Alisher Navoiy ijodiyoti alohida maqomni egalladi, shoir g‘azallarida ma‘shu-qa ko‘zining turfa qirralari shoirona badiiy talqinini topgan. Navoiyning “deyin” radifli g‘azali matla‘si-ning ilk misrasi ayni ko‘z vasfi ila ibtido topadi:

*Qoshu yosunmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin.⁶*

E‘tibor berilsa, ko‘z va qosh timsollari yonma-yon kelmoqda, zotan ko‘z ila qosh vasf etilganda ularning birini ikkinchisidan ajratish mushkul kechadi, chunki ular bir-birini mantiqan talab qiladi. Man-tiq tabiati aynan shu birgalikni taqozo etadi va uni sun‘iy ravishda o‘zgartirib bo‘lmaydi ham. Qoshni ko‘zdan judo qilib bo‘lmaganidek, ko‘zni kiprikdan, kiprikni qoshdan ham, aslo, ajratib bo‘lmaydi:

*Ko‘zum ucharki, humoyun yuzungni ko‘rgay bot,
Biaynihi anga kirpiklar o‘lmish ikki qanot.¹*

¹ Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni). Nashrga tayyorlovchi Qosimjon Sodiqov. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017, 488-bet.

² Rabg‘uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg‘uziy. Toshkent, “Yozuvchi”, 1990, 126-bet.

³ Saroyi Sayfi. She‘rlar. Guliston. Nashrga tayyorlovchi Ergash Fozilov. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nasho‘riyoti, 1968, 30-bet.

⁴ O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalar. II jild (XIV–XV asrning boshlari), Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi: f.f.d., prof. Nasimxon Rahmon. Toshkent, “Fan”, 2007, 320-bet.

⁵ O‘sha asar. 200-bet.

⁶ Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 2-t, Navodiru sh-shabob. Nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon. Toshkent, O‘zadabiynashr, 1963, 278-bet.

Ko'z, qosh, kiprik qovoqlarning joylashuv o'rinlari o'ta yaqinligi bois ularni yonma-yon qo'yib ta'riflash nafaqat odat tusini olgan, balki mantiqdan og'ish zinhor mumkin emas. Bunga Navoiyning quyidagi ruboiysi misol bo'la oladi:

*Ko'z bila qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi,
Yuz bila so'zing yaxshi, dudog'ing yaxshi.
Iying birla menging yaxshi, saqog'ing yaxshi,
Bir-bir nedeyin boshdan ayog'ing yaxshi.*

Alisher Navoiy ko'z timsoliga murojaat etib, uning vasfiga kirishar ekan, ko'zning nozik jihatlari va so'lim ma'no olamini kashf etadi:

*Noz o'ki birla ko'zum mardumin etding majruh,
Ashk gulgun dema zaxmidin aning qon tomadur.²*

Ko'z timsoliga teran urg'u berish niyatida ko'z mardumi (qorachiq), ashk (ko'z yoshi), gulgun, hatto qon birgalikda nishonga olinib, baribir, yerda tajassum topmoqda. Mardum (qorachiq) ko'z marka-zida joylashgan, ko'z yoshi ko'zdan tomadi, ko'zdan oqadi, ko'z yoshi toma-toma qonga aylanmoqda. Shoir ko'z ta'rifini keng miqyosda tasvirini berishda uning yangi qirralarini namoyish eta oladigan vo-sitalarni izlaydi:

*Xol-u xating xayolidin, ey sarvi guluzor,
Gohi ko'zumga xol tushubtur, gahi g'ubor.*

Yuzdagi qora xol, xat (qora chiziq, yangi maysa) bilan bir o'rinda berilib, yor yuziga ishora kuchaytirilib, oshiq ko'ziga yor xolidan dog' (xol) tushgan, bu bejiz emas, xoldan murod, aslida, ko'z qorachig'idir. Matla' oxiri (ajuz-zarb)dagi "gahi g'ubor" birikmasining tashqi "zohiriy" ma'nosi ko'zning g'ubor bosishi bo'lsa, undagi gard, chang-to'zon g'ashlik ma'nolarini takomillashtirmoqda. Ammo "xat" va "g'ubor" so'zlaridan muddao "xatti g'ubor" atamasi ekanligi yoddan chiqmasligi lozim, "xatti g'ubor"ning botiniy ma'nosiga kelsak, u chiroyli yozuv san'atining bir turi bo'ladi. Alisher Navoiy ko'z talqiniga xos ijobiy va salbiy ifodalardan ham o'rinli foydalanadi, bu esa ko'z timsolining nozik qirralarini ixtiro etishda qo'l keladi:

*Ko'zlaring qonim g'izo qilsun agar yolg'on desam,
Bir qoshuq qonim bihil ul ikki xunxor ollida.³*

Ko'z xunxor, ma'shuqa ko'zi, albatta, baytda ikki holat nazarda tutilmoqda, ma'shuqa ko'zining go'zalligi tengsiz. Baytning tag mag'zi o'zgacha, ma'shuqa ko'zlari xunxor (qonxo'r), oshiq sevgisiga iqrorligi ramzi sifatida ma'shuqaga o'z ko'zlari qonini g'izo (ovqat) sifatida fido etishga shay! Ana shu mavzu, ana shu g'oya, ana shu tasvir goho boshqa g'azallarda ham uyg'un tarzda davom ettiriladi:

*Orazing hajrinda har qonliq ko'zumdur, lolan,
Dog'lar ko'zning qarosin anglakim qon ichradur.⁴*

Hajr, hijron, ayriliq, firoq oshiq holini zabun aylab, uning ko'zidan oqqan yosh tomchilari qonga aylanib, lola rangiga kiribdi. Shu hijron azoblari, firoq iztiroblari yor ko'ziga tushgan dog' (kuygan joy, qoralik, iz, qayg'u, xol) lar oqibatida ko'z qorasi (gavhari) qonga belanib, bezanib olibdi. Navoiy goho ko'ngil va ko'z tushunchalarini yonma-yon qo'llab, ularga xayol, ya'ni ma'shuqa xayolini, ya'ni oshiq tomonidan yorga bo'lgan intilishni o'zaro payvasta qiladi:

*To xayolning gah ko'ngul, gah ko'z aro mehmon erur,
Ko'z bila ko'nglum arosinda hasaddinqon erur.*

Ko'z, ko'ngil va xayol ila fikr rivoji to'xtab qolmaydi, aksincha, ko'z va ko'ngil o'rtasida hasad bo'y cho'zib natijada qon to'kish sodir bo'lmoqda. Bunda ko'z yoshi mutassil oqishi tufayli qon bo'lgani kabi, ayni kondan muddao ko'ngil qoni ekani ham ayon bo'lmoqda. Shu tariqa, ko'z va ko'ngildan, ko'z va bag'irga o'tib boriladi. Shuningdek, bu ma'no hamda mazmun mantiq tizimiga bo'ysundiriladi:

*Hajr o'qidinkim erur bag'rim aro yuz ming teshuk,
Har teshuk bir ko'zdururkim, hamma hayron erur.⁵*

Ba'zan ko'z ashki qonga tashbih qilinish, qon rangi, ya'ni qizilligi la'l (lab)ga monand ta'riflanadi:
*Ko'zlarim la'liga hamrang o'ldi, vah, ne hol ekin,
Kim bu achchiq yiglag'on soyi ul aylar no'shxand.*

¹ Navoiy A. Asarlar. O'n besh tomlik. 1-t, G'aroyib us-sig'ar. Nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon. Toshkent, O'zadabiynashr, 1963, 116-bet.

² O'sha asar. 160-bet.

³ O'sha asar. 85-bet.

⁴ O'sha asar. 157-bet.

⁵ O'sha asar. 151-bet.

Oshiq achchiq-achchiq yig'lamoqda, ko'z ashki bora-bora qonga aylanmoqda, qon qizilligi la'l (qizil rangli tosh)ga hamrang ekan, chunki la'l – qizil, qon – qizil! Bu o'rinda muhimi istiora san'atidan o'ta mohira istifoda etilmoqdaki, la'l ayni zamonda labdir. Qizig'i, oshiq hijron azobidan qon yig'lamoqda, ammo bag'ritosh ma'shuqa oshiq holiga achinish tugul uning ahvoliga kulmoq (no'shxand qilmoq)da, kulgu lab vositasida ro'y bermoqda. Alisher Navoiy ko'z talqiniga xos ijobiy va salbiy ifodalardan ham o'rinni foydalanadi, bu esa ko'z timsolining nozik qirralarini ixtiro etishda qo'l keladi. Mavzu e'tibori ila yakun yasaydigan bo'lsak, ushbu yuqorida aytilganlar hali ibtidoiy so'zlar ekaniga amin bo'lamiz.

Жураева Ижобат Нажмидиновна (Международный Вестминстерский университет в Ташкенте, преподаватель, независимый соискатель кафедры Русской литературы и методики преподавания УзГУМЯ; i.juraeva@wiut.uz)

ЛИТЕРАТУРА О МОЛОДЕЖИ КАК ОБЪЕКТ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ

Annotatsiya. *Yoshlar haqidagi adabiyotlar ijtimoiy vaziyatning in'ikosi bo'lib, yoshlarning noroziligi, introversiyasi, o'smirlik inqirozi, maktab va jamiyatga moslashish kabi ijtimoiy xarakterdagi muammolarini ko'rsatadi. Psixologik xususiyatga ega bo'lgan muammolarga to'xtaladigan bo'lsak, adabiyotda yoshlar mavzusi pedagog va psixologlar uchun muhim vositaga aylanadi. Zamonaviy Amerika adabiyoti ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yoshlar kayfiyatiga ta'sirining eng yorqin namunasi. Ushbu maqolada "yoshlar adabiyoti", "yoshlar" atamalarini tahlil qilinib, ijtimoiy-tarixiy yondashuvdan foydalangan holda mavzuga oid tanqidiy adabiyotlar va monografiyalarning umumiy tahlili berilgan.*

Аннотация. *Литература о молодежи, будучи отражением социального положения, иллюстрирует проблемы молодежи социального характера такие, как молодежный протест, интровертность, кризис подросткового возраста, адаптация к школе и социуму. Затрагивая проблемы психологического характера, тема молодежи в литературе становится важным инструментом для педагогов и психологов. Современная американская литература является ярчайшим примером влияния социально-политической ситуации на настроения молодежи. Данная статья анализирует термин «молодежная литература», «молодежь» и дает обзорный анализ критической литературы и монографий по теме, используя социально-исторический подход.*

Annotation. *Literature about youth, being a reflection of the social situation illustrates the social problems of young people, such as youth protests, introversion, adolescence crisis, adaptation to school and society. Raising the problems of a psychological nature, the topic of youth in the literature becomes an important tool for educators and psychologists. Modern American literature is the clearest example of the influence of the socio-political situation on the moods of young people. This article employs socio-historical approach to analyze the term "young adult literature", "youth" and provides an overview analysis of critical literature on the topic.*

Kalit so'zlar: *yoshlar romani, nasr, realizm, qo'zg'olon, postmodernizm.*

Ключевые слова: *молодежный роман, проза, реализм, бунт, постмодернизм.*

Key words: *young adults novel, prose, realism, revolt, postmodernism.*

Поскольку литература является отражением социального положения, в ней также ярко были отображены бунтарские настроения, кризис подросткового периода, проблемы, связанные с подростковой адаптацией во взрослой среде. Литература уже давно обращалась к этой проблеме и существует ряд работ, исследований, посвященных данному вопросу. Есть работы посвященные конкретным авторам, обратившихся к этой проблеме, есть литература "молодых сердитых" в поствоенной Англии, есть монографии об отдельных авторах, и есть работы обобщающего типа. К ним относятся прежде всего специально посвященная вопросу молодежной темы монографии Шелби Вулф (Shelby Wolf) [17], Кена Донельсон (Kenneth Donelson) [15], М.Джерри Уэйс (M. Jerry Weiss), детского писателя и критика, профессора, за которого установлена литературная премия за детскую, юношескую и молодежную литературу наиболее востребованную студентами штата Нью Джерси, Шейлы Шварца (Sheila Schwartz), Аллин Пейс Нильсен (Alleen Pace Nilsen) [15], Джед Этси (Jed Etsy) [13], Антеро Гарсиа (Antero Garcia) [12], Пэтти Кемпбел (Patty Campbell) [11]. К постсоветским критикам поднявшим тему молодежи в американской литературе можно отнести Эдуарда Розенталя [9], Георгия Анджапаридзе [1], Татьяна Морозова [6], Александр Мулярчик [7], Лидия Землянова [4], Татьяна Денисова [3], Юрий Архипов [2]. В их книгах дается срез американской молодежной литературы 20 го столетия, где критики рассматривают молодежь в отрыве от общества, которой трудно адаптироваться к критическому послевоенному периоду. Они видели в молодежных писателях социальных критиков, осуждающих актуальные проблемы современности.

Термин «молодежная литература» вошел в употребление довольно недавно. Весьма сложным является дать определение молодежной литературе, поскольку сложно определить термин «молодежь». «Термин (молодежная литература), как и желатин, по своей природе скользкий и бесформенный» [10,12], где «бесформенная часть» является аудиторией этой литературы – молодые люди. В предыдущем параграфе мы говорили о подростке как о возрастной категории. Термин «молодой человек» в значении слова «подросток» вошел в употребление только в период после второй мировой войны. В связи с тем, что история показывает, как дети, начиная работать в среднем в возрасте 10 лет, выходили на ранг взрослых уже в этом возрасте, так что они проскакивали период юности и подростковый. Так до 1900 х были две возрастные категории - взрослые и дети. Первым, кто ввел термин «adolescent» (подросток) в употребление является всемирно известный психолог и первый директор Американской ассоциации психологов, Стенли Хол (Stanley Hall), в своей книге «Adolescence: Its Psychology and Its Relations to Physiology, Anthropology, Sociology, Sex, Crime, Religion, and Education» посвященной всецело подростковому возрасту. Алис Труп (Alice Trupe) и Петти Кемпбел (Patty Campbell) датируют интерес к современной молодежной литературе как предмету исследования со времен появления романа Хинтон «Изгой» в 1967 году [18.11]. Таким образом термин «молодежная литература» (young adult novel) появляется только в середине 20го столетия.

Ряд критиков даёт различные определения молодежной литературе и нацеленной возрастной категории этого жанра. Петти Кемпбел (2010) пишет: «Как правило, эти книги, как и их предшественники, фокусируются на сложных проблемах взросления» [11.67] (перевод наш). Литературоведы, классифицируя роман о молодежи, обращают внимание на возраст главного героя, объем книги, целевую аудиторию и замысел писателя. Редактор Harcourt, американской публицистической компании предлагает три возрастные категории читателей внутри жанра: от восьми до десяти лет для детской литературы, от десяти до четырнадцати лет для книг для ранней юности и от четырнадцати до четырнадцати лет для старшего поколения тинейджеров [11.70]. Сложность определения молодежного романа состоит в определении выражения «молодой человек». Одни дети могут читать молодежную литературу в возрасте десяти лет, в то время как другие могут быть не готовы ко взрослым темам во многих романах. Некоторые дают определение «молодым людям» в их постподростковый период. Очень многие произведения, написанные для взрослого читателя, поднимающие противоречивые темы, могут иметь юную аудиторию и обсуждать проблемы юного возраста. Например, произведения «Шоколадная война» Роберта Кормье и «Таинственные пути» (Mysterious Ways, 1984) Терри Дэвиса далеко могут быть не понятны юному зрителю.

Как было сказано выше, молодежная литература не существовала как независимая тема, а была частью литературы для детей, и не воспринималась как аспект литературы, нуждающийся в серьезном внимании. Но к середине 20- го века, целевой аудиторией молодежной литературы становятся не только дети, но и взрослые. Тут жанр начинает обретать популярность. Постепенно молодежная проза обширно трансформируется в жанр прибыльных голливудских фильмов, а «потенциал молодежной литературы управлять гегемонным пониманием в обществе возрастает в геометрической прогрессии» [12.3] Другой причиной популяризации этого жанра является преобладание тем «насилия, женоненавистничества и секс-эксплуатации» в этих произведениях [12.4]. Важно отметить, что с самого начала ее появления, молодежную литературу относили к реалистичной прозе. Кемпбелл (2010) считает, что прототипом реалистичной прозы становится Селинджеровский роман «Ловец во ржи», она тут же относит другие романы последующего периода 1960-х, такие, как роман Хинтон «Изгой» (1967), Липсайда «Претендент» (1967) и Пола Зинделя «Пигмен» (1968) к категории нового реализма («the new realism») [11.11]. Однако мы не можем утверждать, что литературы для детей и подростков не существовало до появления таких героев, как Холден Колфилда, Альфреда Брукса из «Претендента», Понибоя из «Изгоев», Джона и Лорен из «Пигмена», что и будет доказано в следующем параграфе.

Мулярчик (1988) в своей монографии делает обзор реалистического молодежного романа постмодернизма, а также литературовед дает анализ периодизации романа молодежи [7]. Он делит реалистичный американский молодежный роман на три периода: военный-поствоенный с иллюстрацией «гневных тридцатых», роман 1950–60-х годов, охватывающий модернизм и неконформизм как тему середины 20го столетия, и более поздний период 20го века вплоть до 80-х годов, проза, в которой отражались сложные проблемы капиталистического мира. Он обращает внимание читателя на писателей, отражающих социальные противоречия, таких, как Стейнбек, Фолкнер, Вульфа, Хемингвей, Колдвел, Дос Пассос. Мулярчик утверждает что «все эти романы, (написанные вышеуказанными писателями в период между 1938 и 1941), явились как бы квинтэссен-

цией той бунтарской, антикапиталистической устремленности, что обеспечило “гневному десятилетию” особое место в литературной истории Соединенных Штатов XX века”. Здесь же критик утверждает, что благодаря произведениям этого периода, американская литература популяризируется на международном уровне. Также Мулярчик анализирует литературу битников, как литературу с преобладающей темой “интуитивного индивидуального поиска”, пришедшей на замену “утраченным либо отброшенным общественным представлениям” [7.83]. Он отмечает, что темы, поставленные Сэлинджером в произведении “Ловец во ржи” соответствуют “настроениям рубежам 40 – 50-х годов” [7.87].

Немаловажное место заняла тема молодежи в американской литературе в исследовании Татьяны Морозовой (1969). Она анализирует работы таких писателей, как Джером Сэлинджер, Сола Беллоу, Джона Апдайка и писателей-битников. Морозова (1969) как и Анджапаридзе (1988), анализируя произведения середины 20-го столетия утверждают, что преобладающей темой молодых писателей является бунт. Если у Анджапаридзе тема бунта в молодежной литературе начинается с Холдена, героя Сэлинджеровского романа 1950-х годов [1.18], в то время как Морозова в своей монографии утверждает, что «бунт», который также ассоциируется с термином «разбитое поколение», привлекло к себе внимание после произведений, написанных битниками [6.6]. Она, как и Мулярчик ассоциирует творчество битников с критикой капиталистической действительности. “Они видят вокруг себя нагромождения лжи, лицемерия” – пишет Морозова [20.8]. Она объясняет преобладание мистицизма и абстракционизма в работах битников их обращение в католицизм и дзен-буддизм. Также Морозова обращает внимание на влияние философии экзистенциализма, а также преобладающих тем “отчуждения человека от общества, от своей человеческой сущности” [6.14] в творчестве молодых писателей американской литературы послевоенного времени. Морозова отмечает однообразность творчества поэтов-битников, которые только и воспевали марихуану, героин, которые пытались “отдаться во власть острых ощущений”, “бешеного темпа автомобиля”, “чувства полной свободы и раскованности” [6.23]. Являясь представителями самодостаточного поколения, они дают обет жить в бедности и странствии, тем самым отрицая реалии и повиновения конформизму.

Особое внимание в монографии занимает сравнительный анализ творчества Сэлинджера с прозой битников. Она в своем анализе рассматривает ряд схожестей и отличительных черт в героях произведений битников и романа Сэлинджера “Ловец во ржи” (1951). Анализируя схожести, Морозова обращает внимание на утверждение критика Лоренс Липтона об отождествлении битников с Холденом, поскольку и те, и последний выражают свои собственные мысли [20.57]. Это мысль также была отражена в критике Мулярчика, который также отождествляет творчество Сэлинджера с “субъективной прозой” [16.87]. Однако, важно отметить, что Морозова указывает на ряд различий между битниками и героем Сэлинджера – отличительны атмосфера, в которой они живут, образ жизни, индивидуализм Холдена не сравним с коллективными усилиями заработать битников, мышление, утонченность манер, даже “продуманная” проза Сэлинджера отличимая от поспешно написанной прозы пера битников [20.58]. Детскую мечтательность героя Сэлинджера, Морозова объясняет стремлением “героя создать иллюзорный мир, куда он хочет бежать от неудовлетворяющего его мира реального” [20.66]. Возвращаясь к теме бунта в произведениях Сэлинджера, хотелось бы отметить, что герои автора являются порой инфантильными, а свой бунт обращают на свои же страдания. Морозова отмечает талант Сэлинджера передать тонкости подросткового характера во всех действиях Холдена, а также в его способности правдиво передать настроение протеста в своих произведениях. “Художественный образ не только отражает некоторую социальную и психическую реальность, но и выражает чувства и мысли автора” – пишет Кон [5.9–10]. Однако роман “Ловец во ржи” (1951) получил ряд отрицательных отзывов и был рекомендован для снятия с полок книжных магазинов детских книг. Однако далее было признано что “романтическое бунтарство” [6.58; 1.18], не сможет нанести значительного ущерба капиталистическому обществу.

Анджапаридже (1982) также обращает внимание на романы, написанные “рассерженными молодыми” в Англии как последователями Сэлинджеровского настроения протеста и бунта. Критик видит эту же проблему “презрения к народу” в произведениях Кингсли Эмиса “Счастливец Джим” (1954) и Джона Уэйна “Спешите вниз” (1953). Он также отмечает на схожесть характеров, манер, отношения к миру и окружающим людям [1.28].

Потребительство стало главной причиной бунтарских 1960-х годов, и нашло свое отражение в молодежных произведениях прозаиков Франции (Ж.Л.Кюртис, “Молодожены”; Ж.Перек, “Вещи”, 1965; Р.Мерль, “За стеклом”, 1970), Англии (Т.Хайнд, “Пташка”, 1970) анализируемых в мо-

нографии. Студенческий протест был обширно analyzed Анджапаридзе в произведениях, следующих французских, немецких, шведских, английских писателей: Ч.П.Сноу “Завершения” и “Недовольные”, “Ирреволюция” Паскаля Лэне, Рида “Дочь профессора”, Уве Тимм “Жаркое лето”. Герои этих и ряда других произведений периода 1970-х стали представителями всей студенческой молодежи и отражали недовольство европейской молодежи политической атмосферой 1960-х.

При сравнении юношеской литературы различных стран Кон (2003) указывает на особенность американской, где приоритетом подростка и ребенка является “полная свобода действий и фантазии”. Таким образом, наряду с молодыми людьми критиков также привлекает проблемы, изображенные в литературе с героем-подростком. Весьма интересный обзор российской подростковой тематики дает Бобина (2016) [8] в своей главе коллективной монографии о литературе для подростков. Она анализирует молодежную прозу с ракурса тематики и проблем, которые она затрагивает. Бобина раскрывает вопросы особого ребенка, школьной темы, темы семьи, становления ребенка, темы первой любви и также анализ подростка в документальном жанре, в фантастике, фэнтези и приключенческой прозе.

Молодежная литература не всеми воспринималась серьезно в зарубежной литературе, ее включали в категорию детской литературы, исключительно читаемую детьми для развлечения. “Молодежная литература имеет богатую историю, но жанр слишком часто считался малозначимым и даже подвергался очернению” (Young Adult (YA) literature has a rich history, but the genre has too often been marginalized and even demonized) – пишет Антеро Гарсиа (Antero Garcia, 2013) [11, Preface], профессор Стенфордского университета, в своей критической монографии. Другой критик, Дэниелс (Daniels) утверждает, что как в среднем, так и в высшем образовании все еще есть критики, которые настаивают на том, что молодежная литература не заслуживает серьезного внимания, поскольку она недостаточно насыщена, чтобы быть включенной в ранг литературного жанра (цит. в Томас, 2013) [16.146]. Однако, важно заметить, что молодёжная литература обретает популярность у кинематографов, на ней ставятся фильмы, ее стали читать не только дети, но и взрослые, литературные критики видят в ней отражение детской психики, которая передает реалистичное настоящее, ситуации, отражающие социально-политическое недовольство молодежи. Например, Гарсиа (2013) в своей критической монографии о молодежной литературе приводит обзор того, как трилогия Сюзанны Коллинз «Голодные игры» (2008), темы роман молодежи и жанра научной фантастики, привела к дискуссии о государственном образовании в США [12, Preface]. Критик отмечает, что, несмотря на то, что роман-трилогия написана в жанре молодежного романа, проблемы, поднимающиеся Коллинз актуальны среди американских школьников. Жестокое «реалити шоу» натравливающее детей убивать друг друга в первой книге, критик сравнивает с “расовым неравенством” [12, Preface] в школах США. “Я боюсь, что мы не можем понять ни цель романа “Голодные игры” в том другом мире романа, ни то, что он передает нам сейчас” (I fear we fail to look at either the purpose of these Hunger Games in that other world of the novel or how it speaks to us now) – пишет редактор монографии в предисловии [12, Preface]. Томас (Thomas, 2013) рассматривает первый роман трилогии Коллинз с точки зрения эко-феминистической философии, где он демонстрирует, как в вымышленном мире, как патриархальное мышление Капитолия относится к маргинализированным группам людей, в особенности женщинам, как к «сырью, требующей переработки» [16.146] (перевод наш).

Другой американский критик, профессор Бриджвудского колледжа, Алис Труп (Alice Trupe) в своем гиде [18], выполняет тематический анализ современного молодежного романа периода 1960-х – до современности. Труп анализирует темы произведений с главным героем романа в возрасте от 12 до 17 лет. Она поднимает такие темы, как отношение к окружающей природе, внешность и связанные с ней комплексы, первая любовь и свидание, болезнь и инвалидность, эмоциональные проблемы, семья и традиции, взаимоотношения с ровесниками и друзьями, героизм, воображаемое будущее, отверженность, работающая молодежь, бедность, несовершеннолетнее родительство, религия, тема школы, влияние войны, современные произведения охватывающие какой-либо исторический период, а также противоречивые темы как сексуальное насилие, абьюз, наркозависимость, преступление, самоубийство и их последствия, и ряд других интересных тем.

Весьма интересный анализ выполнен Джемом Этси (Jed Etsy) в книге “Unseasonable Youth: Modernism, Colonialism, Fiction of Development” [13], в которой он рассматривает литературную форму романа воспитания и его развития в истории, рассматривает писателей модернистов, а также произведения колониального периода. Автор рассматривает изменения, произошедшие в жанре романа воспитания с 19го века, а также анализирует романы Герберта Уэллса «Тонто-Бенге» (Tono-Bungay, 1909), Оскара Уайльда «Портрет Дориана Грея» (The Picture of Dorian Gray, 1890),

«Портрет художника в юности» (A Portrait of the Artist as a Young Man, 1914) Джеймса Джойса, роман Вирджинии Вулф «По морю прочь» (The Voyage Out, 1915), а также роман развития колониального периода, Джозефа Конрада «Лорд Джим» (Lord Jim, 1899), роман «История африканской фермы» Оливии Шрейнер (Story of an African Farm, 1883) с ракурса развития персонажа под влиянием динамической энергии капиталистической современности.

Таким образом, обзор критической литературы, связанной с молодежной проблемой, освещающей основные закономерности развития этой темы в английской и американской литературе, позволяет нам сделать вывод, что проблема эта одна из актуальнейших в современном литературном процессе и, естественно, произведения, написанные на эту тему, будут появляться постоянно, поскольку они актуальны в современном обществе.

Использованная литература:

1. Анджапаридзе Г. Потребитель? Бунтарь? Борец: Заметки о молодом герое западной прозы 60–70-х годов. М., «Мол. гвардия», 1982, с. 190.
2. Архипов Ю. Бунт и эксперимент в литературе ФРГ и Австрии. Сб. Неоавангардийские течения в зарубежной литературе 1950 – 60 гг. М., «Худ. лит.», 1972.
3. Денисова Т.Н. Экзистенциализм и современный американский роман. Киев, 1985.
4. Землянова Л. Современная американская фольклористика. М., «Наука», 1975, с. 312.
5. Ребенок и общество. Учеб. пособие для студ. выс. учеб. заведений, М., «Академия», 2003, с. 336.
6. Морозова Т. Образ молодого американца в литературе США. М., «Высшая школа», 1969, с. 96.
7. Мулярчик А. Современный реалистический роман США: 1945–1980. Учеб. пособие для вузов по спец. «Русс. яз. и лит.», М., «Высшая школа», 1988, с. 174.
8. От Года литературы – к веку чтения : коллектив. моногр. [науч. ред.-сост. В.Я.Аскарова], Челябин. гос. ин-т культуры, Челябинск, ЧГИК, 2016, с. 566.
9. Розенталь. Парадоксы протеста. Очерки о молодежи запада. Новости, 1985, с. 272.
10. Cart M. 2010. Young adult literature: From romance to realism, Chicago: ALA Editions, с. 12.
11. Campbell P. 2010. Reflections on Young Adult Literature. Scarecrow Studies in Young Adult Literature. Plymouth, UK, The Scarecrow Press, Inc.
12. Garcia A. 2013. Critical foundations in young adult literature: Challenging genres, Rotterdam etc.: Sense.
13. Esty J. 2013. Unseasonable youth: Modernism, colonialism, and the fiction of development, New York: Oxford University Press.
14. Literature for today's young adults (1980), Scott Foresman.
15. Nilsen A., Donelson K. (2009). Literature for Today's Young Adults. Eighth Ed. Pearson.
16. P.L.Thomas Science Fiction and Speculative Fiction. Springer Nature, (2013). p. 544.
17. Shelby A., Karen Coats, Patricia Enciso, Christine A. Jenkins. (2011). Handbook of Research on Children's and Young Adults Literature. Rutledge.
18. Trupe A. (2006). Thematic Guide to Young Adult Literature. Greenwood Press. Preface.

Allamberganova Perxan (O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent; musa20060411@gmail.com)

OTT PLATFORMASI BUGUNGI KUN TOMOSHABINI UCHUN YANGI IMKONIYAT

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida jurnalistika sohasi, jumladan, televideniya ta’siri, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining www.uztv.tv manzili-dagi OTT platformasiga hududiy teleradiokompaniyalar ichida birinchi bo‘lib Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasi qiritilgani, OTT platformasining media olamidagi tushunchasi, uning afzalligi haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, OTT platformasining amaliyotda tadbiiq etishdagi huquqiy asoslari keltirilgan. OTT platformasini ishlatish maslahatlari ham o‘rin olgan.

Аннотация. В данной статье говорится о влиянии развития современных технологий на сферу журналистики, в том числе телевидения, о том, что Каракалпакская телерадиокомпания первой среди региональных телерадиокомпаний начала использовать OTT-платформу Национальной телерадиокомпания. Радиокomпания Узбекистана на www.uztv.tv, концепция OTT-платформы в мире СМИ и ее преимущества. Также представлена правовая основа OTT-платформы на практике. Также включены советы по использованию платформы OTT.

Annotation. This article talks about the impact of the development of modern technologies on the field of journalism, including television, that the Karakalpak Television and Radio Company was the first among regional television and radio companies to start using the OTT platform of the National Television and Radio Company. The radio company of Uzbekistan on www.uztv.tv, the concept of an OTT platform in the media world and its advantages. The legal basis of the OTT platform in practice is also presented. Also included are tips for using the OTT platform.

Kalit so‘zlar: telekanal, platforma, manzil, internet, OTT, kontent.

Ключевые слова: телеканал, платформа, адрес, интернет, OTT, контент.

Key words: channel, platform, address, internet, OTT, content.

Mamlakatimizda televideniya eng katta auditoriyaga ega ommaviy axborot vositasi bo‘lib, uning voqea-hodisalarni tezkor yoritib aholi xabardorligini ta’minlashdagi o‘rni beqiyos. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda televidenie fuqarolarning axborot olishga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi eng ommabop vosita bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv jarayonlarida telekommunikatsiya sohasi jadal sur’atda rivojlanmoqda, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarni uzatish tizimiga zamonaviy texnologiyalar – raqamli, mobil va internet televideniya kabi media-tushunchalar kirib kelmoqda.

Internet tizimining rivojlanishi, turli platformalarning yaratilishi OAVning integratsiyalashuviga olib keldi. Bugun O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi UZTV ilovasidagi OTT platformasida markaziy telekanallar qatorida hududiy telekanallardan birinchi bo‘lib 2022-yil 9-avgustdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi teleradiokompaniyasining “Qaraqalpaqstan” telekanali ham ushbu platformaga kiritildi. Platformaning afzalligi, istalgan joyda, istalgan vaqtda ushbu dastur orqali ayni vaqtdagi efirmi ko‘rish imkoniyati mavjudligidadir. Bu esa o‘z o‘rnida telekanalning ijodiy-texnik xodimlariga bir qancha mas’uliyatlarni yuklaydi, jumladan:

- har bir uzatilayotgan axborotga jiddiy yondashishni;
- qoraqalpoq adabiy til (uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilmaslik) me‘yorlariga amal qilishni;
- rejissura nuqtayi nazardan e‘tiborli bo‘lishni (tasvir va matn uyg‘unligi, tasvirlarning sifat va sa-viyasi).

Mana shunday texnologik tizimni yo‘lga qo‘yishning huquqiy-me‘yoriy chora-tadbirlari 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida respublikamizda qulay axborot-kommunikatsiya texnologiyasi infratuzilmasini yaratish, dasturiy ta’minotni ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash va har tomonlama ko‘mak berish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, mobil va raqamli televideniyaning rivojlantirishga¹ doir vazifalar o‘z aksini topdi.

Mazkur vazifalarni bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmon qabul qilindi. Mazkur hujjatning 7-bandi²da Axborot tex-

¹ <https://lex.uz/ru/docs/3107036>

² <https://lex.uz/docs/5058351>

nologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldiga O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda tizimdagi axborot-tahliliy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy-gumanitar telekanallarini xorijiy davlatlarda teleradiokompaniyaning OTT platformasini (internet tarmog‘i orqali teledasturlarni namoyish etish tizimi) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ishga tushirish va boshqa zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalangan holda namoyish etilishini ta’minlash yuklatilgan edi.

Ana shu vazifani to‘laqonli bajarish maqsadida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda OTT platformasining UZTV ilovasini ishga tushirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot faoliyati va ma’lumotlar uzatishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha idoralararo muvofiqlashtirish komissiyasining milliy telekontent va audiovizual mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalangan holda tarqatish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlari ijrosining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi UZTV platformasining yanada takomillashtirilishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimdagi apparat-studiya jihozlari, yangiliklar studiyalari va boshqa texnologik obyektlarning asosiy televizion komplekslarini e’fira uzatishning raqamli formatiga bosqichma-bosqich o‘tkazishni yakuniga yetkazish bilan birgalikda, IP texnologiyasi bazasida Internet servislari bilan integratsiya qilgan holda aholiga yaratilayotgan qulayliklarni yanada yaxshilash yo‘lida izlanishlar olib bordi.

Xususan, teledasturlarni raqamli formatga o‘tkazgach, internetning interaktiv xizmatlaridan keng foydalanish uchun “OTT platformasi texnologiyasi” (turli aloqa operatorlari va provayderlarning ma’lumotlarini uzatish tarmoqlari orqali foydalanuvchi qurilmasida videokontentni yetkazib berish texnologiyasi) joriy etilishi orqali ushbu qurilmaning mahalliy televideniya va videokontentlarni barcha mobil qurilmalarida va Smart-TVlarda O‘zbekiston hududi hamda undan tashqarida (xorij davlatlarida) ham ko‘rish imkoniyatini yaratish ustida keng qamrovli ishlar olib borildi.

EPG (Electronic Program Guide inglizchadan – “elektron telegid”) tizimi “OTT platformasi”da mavjud bo‘lgan barcha kanal va undagi kontent haqida batafsil ma’lumot olish imkonini taqdim etishi, bu tizimni shakllantirish ishlari va amalga oshirish ham o‘ziga xos bir qator murakkabliklardan iborat bo‘lib, Kompaniya tizimida “OTT platformasi”ni shakllantirish va ishga tushirish bo‘yicha alohida dasturlar va Ishchi guruhlar tashkil etildi hamda kontentlarni saralash va shakllantirish, shakllangan kontentni OTT platformasi orqali internet tarmog‘iga joylashtirish va platformaga tashrifni o‘rganish kabi yo‘nalishlarda mas’ullar belgilanib, Kompaniya mutaxassislari tomonidan katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi.

2021-yil may oyi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarixida yana bir oltin sahifani ochdi. Aynan mana shu vaqtda millionlab hamyurtlarimiz, xorijda mehnat va o‘qish faoliyatini olib borayotgan yoki istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz uchun OTT platformasi test rejimda ishga tushirildi.

Internetdagi www.uztv.tv manzilidagi OTT platformasi orqali, dastlab, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston”, “O‘zbekiston 24”, “Yoshlar”, “Navo”, “Bolajon”, “Toshkent”, “Sport”, “Oilaviy”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Dunyo bo‘ylab”, “Kinoteatr”, “Mahalla” va “O‘zbekiston tarixi” singari telekanallarini to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki takroran tomosha qilish, O‘zTV “Oltin fondi”da saqlanayotgan va ko‘pchilik uchun sevimli bo‘lgan nodir videotasvirlarni “Retro” ruknida ko‘rish imkoniyatlari yaratildi. Hozirda platformaning dizayni va texnologik jihatlarini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

“OTT platformasi texnologiyasi” – turli aloqa operatorlari va provayderlarining ma’lumotlarini uzatish orqali foydalanuvchi qurilmasida videokontentni yetkazib berish texnologiyasidir.¹

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi arxiv fondida diniy ilmiy ekspertizadan o‘tgan, turli talqinga o‘rin bermaydigan darajada ishonchli ma’lumotlarga asoslangan diniy-tasavvufiy, ilmiy-ma’rifiy, islomshunoslik va tarix, ajdodlar merosi kabi turkum teledasturlar, allomalar haqida hujjatli filmlar, ulamo va imom-xatiblarimizning ma’rifiy suhbatlari, shuningdek, hadis rivoyatlar asosida tayyorlangan maxsus filmlar, telenovella va ijtimoiy teleroliklarning son jihatdan salmoqli bazasi mavjud.

Shulardan kelib chiqqan holda, 2021-yil iyul oyidan boshlab MTRK OTT platformasida (Over the Top) yoshlarning madaniy-ma’rifiy, diniy bilimlarini oshirish maqsadida “Hidoyat sari” ilmiy-ma’rifiy onlayn telekanali tashkil etildi.

¹ <https://www.facebook.com/a.khadjaev/posts/859692241294239>

Tunu kun ishlaydigan “Hidoyat sari” ilmiy-ma’rifiy onlayn telekanalida O‘zbekiston MTRK tizimida ishlab chiqilgan va o‘rnatilgan tartibda tegishli ilmiy, diniy ekspertizalardan o‘tkazilgan, efirga uzatilgan va bugungi kunda MTRK arxiv fondida saqlanayotgan telemahsulotlar o‘rin olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 27-avgustdagi “Foreign Languages” xoriijiy tillar teleradiokanalini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida¹gi 546-sonli qaroriga¹ muvofiq ochilgan yangi telekanalini ham UZTV ilovasi orqali tomosha qilish imkonini berish uchun ushbu OTT platformasiga kiritildi.

“Foreign Languages” telekanalining tashkil etilishi o‘zida kelayotgan yosh avlod uchun yaratilgan katta bir qulaylik bo‘ldi. Aholining, ayniqsa, o‘zida kelayotgan yosh avlodning xoriijiy tillarni chuqurroq o‘rganishi uchun xoriijiy tillarda ilmiy-ommabop, hujjatli, badiiy filmlar namoyishi yo‘lga qo‘yilgan². Demak, OTT platformasi televidenyening ta’limiy funksiyasini o‘zida namoyon etmoqda.

MTRK OTT platformasining rivojlantirib borilishi natijasida bugungi kunda tomoshabinlar “O‘zbekiston”, “O‘zbekiston 24”, “Yoshlar”, “Navo”, “Bolajon”, “Toshkent”, “Sport”, “Sport 2” (onlayn telekanal), “Oilaviy”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Dunyo bo‘ylab”, “Kinoteatr”, “Kinoteatr.uz” (onlayn telekanal), “Mahalla”, “O‘zbekiston tarixi”, “Foreign Languages”, “Qaraqalpaqstan”, “Hidoyat sari” singari 18 ta telekanalni internetdagi www.uztv.tv elektron manzilida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki takroran tomosha qilishlari mumkin.

2023-yil 17-aprel kungi ma’lumotlarga qaraganda, “Sport” 43,73%, “O‘zbekiston 24” 30,92%, “Yoshlar” 29,81% telekanallari birinchi uchtalikni egallagan. Bizni tadqiqotimiz bo‘lgan obyektimiz “Qaraqalpaqstan” telekanali esa 17,37% ni tashkil etgan.

Tomoshabinlar www.uztv.tv elektron manzilidagi materiallar bilan tanishish jarayonida o‘ziga qulay o‘zbek, qaraqalpoq yoki rus tilidan, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi yoki kirill alifbosidan foydalanishi mumkin.

O‘tgan vaqt davomida ushbu platformaning dizayni va texnologik jihatlari yanada takomillashtirish, xususan, joriy etilgan mazkur qurilmaning mahalliy televideniya va videokontentlarni barcha mobil qurilmalariga va Smart-TVlarda O‘zbekiston hududi hamda undan tashqarida ham ko‘rish imkoniyatini yaratish ustida keng qamrovli ishlar olib borildi va bu tizim bugungi kunda samarali ishlamoqda.

Xo‘sh, OTT nima? Uning media olamida qanday afzalliklari bor? Ilk marta Hindistonda o‘ylab topilgan OTT texnologiyasi internet orqali videoxizmatlarini taqdim etish usulidir. Uning IPTV (INTERNET PROTOCOL TELEVISION) onlayn mediaxizmatidan farqli jihati shundaki, aloqa operatori bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilmasdan uzatiladi.³

OTT simsiz tarmoqlar orqali ovozli va videoxizmatlarini taqdim etadi. OTT, shuningdek, IPTV sifatida ham tanilgan Internet TV-ning tarqalishidagi vektori bo‘lib, bu internet orqali video va televideniy kontentning qonuniy taqsimoti hisoblanadi.

“Over the top” – “Topga chiqish” degan ma’noni anglatadi. Bu internet oqimining yuqori qismida kontentni taqdim etish usuli bo‘lib, kontentni uchinchi tomon operatorisiz tarqatiladi. OTT platformalari ovozli, xabar almashish va audio kabi turli xil kontent turlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. OTT TV internetga ulangan har qanday qurilmada kontentga kirish imkoniyati mavjud. Bu aqlli televizor (SMART TV), ofis kompyuterlari, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar va o‘yin pristavkalari bilan ham ishlashi mumkin. OTT platformasi tezda raqamli landshaftdagi eng muhim vositalardan biriga aylanmoqda.

OTT, ya’ni, “uzatish oqimi” – bu jonli videoalmashish shakli bo‘lib, unda kontent yaratuvchilar o‘z videolarini real vaqtda tanlangan muxlislar bilan baham ko‘rishadi. Bu atama, shuningdek, filmlar va tele-dasturlar kabi oldindan yozib olingan kontentni mijozlarga internet orqali etkazib berish san’atini ham anglatishi mumkin.⁴

Har yili teleradiokompaniyalarga Butunjahon Internet tarmog‘ida bo‘lish zarurati tobora ortib bormoqda. OTT ommaviy axborot vositalari va kino sanoati uchun ilgari kirish taqiqlangan oxirgi obunachiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish uchun istiqbollarni ochdi. OTT raqamli landshaftda eng zarur uskuna hisoblanadi.⁵

Ma’lumki, 2022-yil 25-yanvar kuni Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda elektr ta’minotida texnik uzilish sodir bo‘ldi. Ushbu favqulodda holat aholiga tezkor va ishonchli axborot yetkazish, ochiq-lik siyosati naqadar muhimligi amalda yana bir bor tasdiqladi. Ya’ni, O‘zbekiston Milliy teleradiokom-

¹ <https://lex.uz/docs/5607094>

² <https://lex.uz/docs/5607094>

³ <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/OTT>

⁴ <https://uz.eyewated.com/ott-nima-va-u-muloqotga-qanday-tasir-qiladi/>

⁵ <https://ecommerce-platforms.com/ru/glossary/what-is-an-ott-platform>

paniyasida OTT (“Over the top”) platformasi (internet tarmog‘i orqali teledasturlarni namoyish etish tizimi) ishga tushirilgani tomoshabinlarning ishonchli axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ma’lumotlarga qaraganda, blek aut vaqtida kuzatuvchilar soni 10 millionga etgan. Favqulodda vaziyat ro‘y bergan o‘sha kunlarda OTT platformasi orqali MTRK telekanallarini tomosha qilganlar soni rekord ko‘rsatkichga etgan.

Hozirgi kunda mazkur platforma orqali telekanallarni dunyoning 150 ga yaqin davlatida yuqori tiniqlikda kuzatib borish imkoniyati mavjud. Yana bir e’tiborli jihat shuki, O‘zbekiston MTRK OTT platformasi tomoshabinlarining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. MTRK OTT platformasi aynan raqamlashtirish va zamon bilan hamqadam, hamnafaslik mahsulidir.

O‘zMTRK tomonidan televideniya va internet tarmog‘ini birlashtirib integratsiya qilingan OTT platformasini kuzatish uchun uztv.uz ilovasini yuklab olib tegishli qurilmaga o‘rnatish orqali yoki shunchaki ilovani o‘rnatmasdan xam www.uztv.tv domeni orqali tomosha qilish mumkin. Platforma orqali ko‘rsatuvlarni ayni damda kuzatish, kechagi yoki bir oy oldingi efirmi qayta ko‘rish kabi ko‘plab imkoniyatlar mavjud.¹

Albatta, OTT IPTVga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega:

1. Kontentni uzatishda aniq bitta operatorga bog‘lanmaganligi.
2. OTT xizmatlaridan istalgan internet foydalanuvchisi qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, foydalaniishi mumkinligi.
3. Faqat abonent hisoblariga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish huquqiga ega IPTV yoki OTT operatori emas, balki deyarli har qanday kontent egasi OTTda translyatsiya qilish imkoniyatiga egaligi.
4. Tomoshabinga ekranga kirishning eng oson va tasdiqlangan usulning mavjudligi.
5. Nimani, qachon va qanday sifatda tomosha qilishni tanlash imkoniyatining borligi.
6. Uni ko‘rish uchun noyob sozlamalarga ega qo‘shimcha dasturiy ta’minotni o‘rnatish talab qilinmasligi.

OTT internetga kirish imkoni bo‘lgan dunyoning istalgan nuqtasida mavjud. Yuqori sifatli kontent, shuningdek, mobil qurilmalarda ko‘rish imkoniyati bilan ajralib turadi. OTT texnologiyasining kamchiliklariga kelsak, kontent boshqarilmaydigan tarmoq orqali uzatiladi. Bu degani, kontent egasi obunachi kanalining kengligini nazorat qila olmaydi.

Qurilmaning kengligi, integratsiya va foydalanishning qulayligi bilan izohlanadi. Shuningdek, kontentni nusxalashdan ishonchli himoya qilish mumkin va texnologiya samaradorligi tarmoq va boshqa resurslarga tejamkor texnik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi. Amerikalik marketologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, so‘nggi bir necha yil ichida OTT xizmatlaridan foydalanish doimiy ravishda o‘sib bormoqda.

www.uztv.tv ilovasi orqali OTT platformasida tomoshabinlar uchun biroz qulayliklar yaratilgan. Jumladan, unda “Главная” sahifasi “ТВ каналы”, “Фильмы”, “Сериалы и теленовеллы”, “Политика”, “Культурное наследие”, “Музыка”, “Для детей”, “Спектаклы”, “Спорт”, “Архив УзТВ” sahifalari joy olgan va ularga ko‘rsatuvlarning janriga qarab tegishli kontentlar joylashtirilgan. Menu sahifasida esa “TV”, “Фильмы”, “Политика”, “Культура”, “Для детей” sahifalari bilan birga “Загрузка”, “Настройки”, “Обратный связь”, “О программе” xizmatlari joylashtirilgan. “ТВ” yozuvining ustidan bosilsa, platformadagi 18 ta kanal ro‘yxati paydo bo‘ladi va tegishli kanalni tanlab efirmi tomosha qilish mumkin. Bu jarayonlar tez va qulay amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar, shuningdek, xalqimizning madaniyati, ma’naviy olami, ko‘hna tarixi va zamonaviy turmush tarzini audiovizual kontent shaklida istiqbolli Internet texnologiyalaridan foydalangan holda dunyoning istalgan nuqtasidagi iste’molchilarga zamonaviy usullar yordamida sifatli yetkazib berish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga:

- “hudud telekanali” degan chegaraning yuvilishi;
- teletomoshabinlar uchun o‘zlari xohlagan vaqtda va makonda sevimli teledasturlarini jonli ravishda yoki takroran tomosha qilishlari;
- telejurnalist maqomining kengayishiga, o‘z vatanidan uzoqda, xorijda yashayotgan vatandoshlar o‘z ona tilida teledasturlarni tomosha qilishlari uchun katta imkoniyatlar yaratildi.

¹ Ишончли, холис ва тезкор ахборот. М.Сафаров. “Янги Ўзбекистон”, 23-сон (545), 2022 йил 2 февраль.

Isroilova Ruhshona Sunnatovna (Navoiy davlat Pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD))

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

***Annotatsiya.** Maqolada kompetensiyaviy ta‘lim murakkab va ziddiyatli mavzu bo‘lib, bugungi kunda muammoga doir nashr ishlarining o‘sib borayotganligiga qaramay, yetarlicha o‘rganilmaganligi xususidagi fikrlar bayon etilgan. Ta‘limga kompetensiyaviy yondashuv bilimlar bazasi, ko‘nikmalar majmuvi, shuningdek, funksional savodxonlik elementlarini rivojlantirish zaruratini inkor etmaydi. Bu holatda integratsiyalangan natija, ya‘ni kompetentlikni rivojlantirish nazarda tutiladi.*

***Аннотация.** В статье выражено мнение о том, что компетентностное образование является сложной и дискуссионной темой и, несмотря на растущее количество публикаций по данной проблеме, недостаточно изучено. Компетентностный подход к обучению не отменяет необходимости развития базы знаний, навыков, а также элементов функциональной грамотности. В этом случае предполагается комплексный результат, т.е. развитие компетентности.*

***Annotation.** The article expresses the opinion that competence education is a complex and controversial topic, and despite the growing number of publications on the issue, it is not sufficiently studied. Competency approach to education does not negate the need to develop knowledge base, skill set, as well as elements of functional literacy. In this case, an integrated result, i.e. development of competence, is assumed.*

***Kalit so‘zlar:** kompetensiya, kasbiy malaka, fanlar bloki, tayanch kompetensiya, axborot, kompetent, o‘quv fani.*

***Ключевые слова:** компетентность, профессиональная квалификация, блок предметов, базовая компетентность, информация, компетентность, учебный предмет.*

***Key words:** competence, professional qualification, block of subjects, basic competence, information, competent, educational subject.*

Ta‘lim mazmunining o‘quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to‘plami uchun) va predmetli (ma‘lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e‘tirof etib o‘tamiz:

♦tayanch kompetentlik (ta‘limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko‘ra);

♦fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o‘quv fanlari va ta‘lim bloklarining ma‘lum doiriligiga ko‘ra);

♦bitta predmet(fan) bo‘yicha kompetentligi (maxsus o‘quv fani doirasida aniq va ma‘lum imkoniyatga egaligiga ko‘ra) [1].

Zamonaviy tadqiqotchilar xorijiy ta‘lim nazariyasi va amaliyotida kompetensiyaviy yondashuvning tarqalishida quyidagicha qator shart-sharoitlarni ajratadilar:

1) kompetensiyaviy ta‘limning rivojlanishiga kompyuterlashtirish ko‘maklashdi. Kompetensiyaviy ta‘lim axborot portlashi deb nomlangan jarayonda ayniqsa dolzarblashdi. Axborot portlashi an‘anaviy, bilimlarni yetkazishga asoslangan ta‘lim tizimi inqirozining sabablaridan biridir.

2) O‘zbekistonda kompetensiyaviy ta‘limga qiziqishlarning boshqa sababi – biznes-hamjamiyatning rivojlanishi va mehnat bozorida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar hisoblanadi. «Kompetentlik», «kompetensiya» tushunchalari biznes-ta‘lim, huquqshunoslik, boshquruv sohasida ko‘p vaqtlardan beri foydalaniladi.

Jumladan, jamiyatda an‘anaviy maktabning bolalar salomatligiga salbiy ta‘sirining anglanganligi, yangi mazmuni ta‘limning eski shakllariga kiritib bo‘lmazligi, pedagoglarning qadriyatli asoslarining o‘zgarganligi, bularning barchasi zamonaviy maktabning maqsadli doirasini qayta ko‘rib chiqish, butun ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish zaruratini tushunish uchun kerakli sharoitlarni yaratdi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi shakllanishi bosqichining yakunida ikki shaklda (talabaning tanlovi asosida) integratsiyalangan attestatsiya (pedagogika, yo‘nalish fanlari) o‘tkazildi: talaba kasbiy mustaqil ta‘limni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati (malakasi) bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy vazifalarni yechishda ijtimoiy-huquqiy, axborot-texnologik, tilga oid sohalaridagi asosiy kompetentliklarini ifodalaydigan ishlanmalarning himoyasi; imtihon birliklarining kredit tizimi asosidagi attestatsiya». Mazkur islohotlar respublika ta‘limi va iqtisodiyotini mehnatni taqsimlashning xalqaro tizimiga integratsiyasining ishtiqbollari mazmunida aks etadi. Bunda ko‘p yillardan buyon ta‘limning barcha darajalarida kompetensiyaviy (modulli-kompetensiyaviy) yondashuvni ishlab chiqish va joriy etish faol ishlari olib borilmoqda.

2000-yildan boshlab kompetensiyaviy yondashuv O'zbekistonning ta'lim sohasidagi strategik hujjatlarida umumiy va kasbiy ta'lim mazmunini yangilashning ahamiyatli konseptual asoslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning asosiy maqsadlari – ta'lim samaradorligi va sifatini ta'minlash ekanligi belgilangan. Shu tariqa, kompetensiyaviy yondashuv – ta'lim tizimining ijtimoiy buyurtmaga javoblaridan biridir. Kompetensiyalar ustida ishlash butun dunyo ta'lim tizimlarining ta'limiy natijalari va hayotning zamonaviy talablari o'rtasidagi uzilishlarni bartaraf etishga urinayotgan yo'nalishdir.

«Kompetentlik» toifasi yangi iqtisodiyot va insonning jadal sur'atlarda o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish ehtiyojidan yuzaga kelgan inson zaxiralariga yangicha yondashuvning natijasi hisoblanadi. «Kompetensiya» tushunchasini ta'lim amaliyotiga kiritish A.V.Xutorskoy ta'kidlaganidek, maktab uchun odatiy bo'lgan, o'quvchilar nazariy bilimlar majmuini egallab, ma'lum vazifalar yoki muammoli vaziyatlarni yechishda sezilarli qiyinchiliklarni his etishlari muammosini hal etish imkonini beradi [2].

I.A.Zimnyaya kompetensiyaviy yondashuv muammosi bo'yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, uning rivojlanishining uch bosqichlarini quyidagicha ajratgan:

◆birinchi bosqich (1960–1970) ilmiy apparatga «kompetensiya» toifasini kiritish bilan tavsiflanadi;

◆ikkinchi bosqich (1970–1990) ona tilini o'qitish nazariyasi va amaliyoti, boshqaruv sohasida «kompetentlik», «kompetensiya» toifalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi;

◆uchinchi bosqich (1990–2001) ta'limda «kompetentlik», «kompetensiya» toifalaridan faol foydalanish bilan tavsiflanadi [3].

1990-yillardan O'zbekistonda kompetensiyaviy yondashuvning talab etilganligi, undan foydalanish ta'lim tizimidagi kamchiliklarni hamda uning jamiyat ehtiyojlariga mos emasligini bartaraf etishning istiqbolli yo'li sifatida, ta'limning amaliyot bilan va jamiyatning haqiqiy ehtiyojlari bilan aloqadorligini kuchaytirish sifatida qaralgan (S.Y.Batishev, E.F.Zeyer, A.M.Novikov, I.D.Frumin va boshqalar).

1980–1990-yillarning kasbiy ta'lim nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar tahlillari mazkur davrlardagi yuzaga kelgan kasbiy kompetentlikning mohiyati va rolini aniqlash mazmunidagi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning uch yo'nalishlarini ajratish imkonini beradi.

Birinchi yo'nalish – texnologik bo'lib, uning doirasida mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, avvalo uning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, shuningdek, kasb yo'nalishiga mos va texnologik kompetentlik tarkibiga kiruvchi funksional kompetensiyalarni rivojlantirish sifatida qaralgan.

Ikkinchi yo'nalish – shaxsiy yo'nalgan bo'lib, unga ko'ra o'rta malakadagi bo'lajak mutaxassisni umumta'lim, avvalo gumanitar tayyorlash, shuningdek, uning asosiy, avvalo, mustaqil ta'lim, axborotli, kommunikativ kompetensiyalari birinchi o'ringa chiqadi. Mazkur yondashuv qarama-qarshi jihatni ifodalaydi, chunki mazkur holatda kasbiy tayyorgarlikning o'z mohiyati yo'qoladi va oliy ta'lim ta'lim umumiy ta'limning alohida yo'nalishiga (bitiruvchini bozor iqtisodiyoti sharoitidagi faoliyatga yo'naltiradigan “bozor iqtisodiyoti” ixtisosligiga, ammo qaysi faoliyat ekanligi noma'lum) aylanadi.

Ikki yo'nalishni birlashtiradigan majmuaviy yondashuv eng istiqbolli hisoblanadi; unga ko'ra kasbiy kompetent mutaxassisni tayyorlash bu barcha kompetentliklari bilan yaxlit shaxsni rivojlantirish hisoblanadi: maxsus kasbiy, texnologik, aktual, ijtimoiy, fuqarolik. Shunga ko'ra, ta'lim jarayoni kasbiy ta'lim muassasasida yuqorida sanab o'tilgan kompetentliklar tarkibiga kiruvchi butun universal va maxsus kompetensiyalar majmuini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak.

Kompetensiyaviy yondashuvning mazkur yo'nalishi nuqtayi nazaridan kasbiy kompetentlik kasbiy tayyorgarlik sifatining integrativ mezon sifatida va mehnat amallarini bajarishning, mehnat madaniyati va shaxslararo kommunikatsiyalarning yuqori darajasi, kasbiy muammolarni tashabbuskor va ijodiy yechishni bilish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, yangi ta'lim faoliyati sharoitlariga moslashishga tayyorlik xos bo'lgan shaxs sifatлари tariqasida tushuniladi.

«Kompetensiya» tushunchasi «malaka» tushunchasidan farqli ravishda, qat'iy kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlash qobiliyati, kommunikativ qobiliyatlar, o'qish, baholash, mantiqiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish qobiliyati kabi sifatleri kiritadi. «Kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalaridan foydalanish imkoniyati to'g'risidagi muzokaralar eng davomli va samarasiz bo'ldi.

O.Y.Lebedev ta'riflaganidek, ta'limda kompetensiyaviy yondashuv – bu «ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash umumiy prinsiplarining majmuyi» [4]. Kompetensiyaviy yondashuvning yetakchi g'oyasi – “natijadan” shakllantiriladigan ta'lim mazmunini tushunish.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim muassasasining (kengroq – ta'lim tizimining) uning buyurtmachilari, iste'molchilari bilan, avvalo, keng tushuniladigan ish beruvchi bilan ijtimoiy o'zaro aloqasi yuzaga kelganida talab etiladi.

Kompetensiyaviy yondashuvni ko'pincha u yoki bu mehnat, ko'pincha, oddiy harakatlarni o'rgatish va bajarish bilan bog'liq bo'lgan amaliy yo'naltirilgan mehnat tayyorgarligi bilan adashtiradilar. Kompetensiyaviy yondashuv kengroq bo'lib, masalan, uni amalga oshirish chuqur bilim egallashsiz mumkin emas, mazkur yondashuvning muhim belgisi ta'lim oluvchining, keyinchalik, mustaqil ta'lim olishi hisoblanadi [5].

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan, «tarbiyaviy ta'lim», o'quv masalalarida uchraydigan, shaxsiy va hayotiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan qiyinchiliklarni tizimli yengish orqali o'quvchining mobilligini (irodasini) rivojlantirish sifatida tushuniladi.

Ta'limning an'anaviy "bilim, ko'nikma, malakalar" natijalaridan farqli ravishda kompetentlik: birinchidan, integratsiyalangan hisoblanadi, ikkinchidan, faqat sun'iy yaratiladigan test vaziyatida (nazorat ishi, imtihon, kurs ishining himoyasi va h.k.) emas, balki vaziyatli va haqiqiy zarurat vaziyatlarida ifodalanadi; uchinchidan, vaqtning asosiy qismida ma'lum mazmunga kirib va ma'lum vaziyatda mos elementlardan "jamlanib", imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi.

Funksional savodxonlik elementidan farqli ravishda kompetentlik vazifalarning qator guruhlarini yechish imkonini beradi; malakadan farqli ravishda – anglangan bo'ladi, ko'nikmadan farqli ravishda – ko'chiriladi (ta'sir etish predmetlarining butun guruhi bilan bog'liq), avtomatizm va malakaga aylantirish yo'li bo'yicha emas, balki boshqa kompetentliklar bilan integratsiyalash yo'li bo'yicha takomillashadi: faoliyatning umumiy asosini anglash orqali kompetentlikning o'zi rivojlantiriladi, xatti-harakat usuli esa ichki resurslar bazasiga kiritiladi, bilimdan farqli ravishda, faoliyat ko'rinishida (haqiqiy yoki aqliy) mavjud bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – ta'sir etish subyekti mo'ljalladigan muayyan standartni nazarda tutuvchi ta'sir etish jarayoni; muayyan yakunlanganlik, standartning muayyan darajasiga erishishni ko'zda tutuvchi jarayon. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish – bu boshqariladigan professionallik shakllanadigan jarayon hisoblanadi, ya'ni bu mutaxassisning ta'limi va mustaqil ta'limidir.

Bu, ko'p jihatdan, «kompetentlik» tushunchasi o'z ichiga kasbiy, ijtimoiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik, huquqiy va boshqa tavsialarni integratsiyalaydigan murakkab, keng hajmli mazmunni kiritishi bilan bog'liq.

Kompetentlikni egallash ta'lim oluvchining faoliyat tajribasiga asoslanadi. Ta'lim nazariyasi yutuqlariga asoslangan mazkur nuqtayi nazarni (J.Piaje, L.S.Vigotskiy, P.Bryuner, P.Y.Galperin, N.F.Talizina va boshqalar), ko'pgina xorijiy va mahalliy olimlar qayd etadilar. Ishlashga o'rganish uchun ishlash kerak. Muloqotga o'rganish uchun muloqot qilish kerak. Ingliz tilida so'zlashmasdan, ingliz tilini o'rganib bo'lmaydi. Kasbiy kompetentliklarni egallash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning faolliklariga ham bog'liq. Mazkur qoidadan kelib chiqib, kasbiy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning universal (asosiy) va kasbiy kompetentlikni egallashlari bo'yicha vazifalarni yechishning muhim yo'llaridan biri faol o'qitish metodlarini izlash va o'quv jarayoniga joriy etish hisoblanadi. Kompetensiyalarni rivojlantirish asosi ta'lim oluvchilarning tajribalari, ya'ni darslarda loyihaviy faoliyat, rolli o'yinlar, psixologik treninglar. Bunda tajriba o'quvchining subyektiv holatining asosiga (mos ravishda asosiy kompetentlikka) o'z-o'zidan emas, balki uni anglash jarayonidagina aylanadi.

Demak, «kompetensiyaviy» shakl va metodlar qatoriga nafaqat «faoliyatli» (masalan, rolli va ish-bilarmonlik o'yinlari, loyihalar metodi, o'quv amaliyoti, malakaviy ishlarni bajarish), o'qitishning «faol» metodlariga kiritilishi mumkin bo'lgan «verbal» hisoblanganlari ham kiritilishi mumkin (o'quvchilarning avvalgi yoki endigina shakllantirilgan tajribalariga murojaat etish, yangi tushunchalarni ochiq muhokama qilish, ular davomida o'quvchining subyektiv vaziyati va vositali holda ularning avvalgi tajribalari amalga oshiriladi, muammoli vaziyatlarni ochiq muhokama qilish, munozara, subyektiv vaziyatlar to'qnashuvi).

Pedagogning kasbiy kompetentligi shakllanishi bosqichining yakunida ikki shaklda (talabaning tanlovi asosida) integratsiyalangan attestatsiya (pedagogika, yo'nalish fanlari) o'tkaziladi: talaba kasbiy mustaqil ta'limni loyihalash va amalga oshirish qobiliyati (malakasi) bilan bog'liq bo'lgan kasbiy vazifalarni yechishda ijtimoiy-huquqiy, axborot-texnologik, tilga oid sohalaridagi asosiy kompetentliklarini ifodalaydigan ishlanmalarning himoyasi, imtihon birliklarining kredit tizimi asosidagi attestatsiya» [7].

Ammo kompetensiyaviy yondashuv pedagogik ta'limda, avvalgidek, noaniq bo'lib qolmoqda va undan qator pedagogik ta'lim muassasalari o'z ish amaliyotida foydalanishni katta ehtiyotkorlik bilan amalga oshiradilar.

Amaliy tayyorgarlikni funtamental ta'lim bilan qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Jadal o'zgarib bo'rayotgan ijtimoiy-madaniy muhit sharoitlarida faqatgina mukammal ilmiy tayyorgarlik pedagogning kasbiy mobilligini ta'minlashi mumkin [8].

Kompetentlik faqatgina inson fundamental bilimlarga ega bo'lganida va ularni turli-tuman kasbiy vazifalarni yechishda amaliyotda qo'llashni bilganida namoyon bo'ladi.

Maqsad va natijalarni kasbiy kompetentlik tilida ifodalash ahamiyatli hisoblanadi va shuning uchun bu tayyorgarlikning amaliy yo'nalganligini kuchaytiradi, chunki bugungi kunda (bu DTSLarida va mazkur standartlarni amalga oshirishda o'z ifodasini topgan) biz ko'proq akademik tayyorgarlikka, bilimlarni baholashga yo'nalganmiz. Pedagogik kasb – bu, avvalo, amaliy faoliyat.

Ifodalangan qoidadan kelib chiqqan holda, kompetensiyaviy yondashuv an'naviy ravishda amaliy yo'nalganlikka ega bo'lgan oliy ta'lim hisoblanadi. Bu mazkur yondashuvdan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan oliy ta'lim muassasalarilarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish modelining konseptual asosi sifatida foydalanishga imkon berdi, o'z navbatida, dastlab, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligi modelini ishlab chiqishni talab etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. va b. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. T., "Fan va texnologiya", 2013, 128-bet.
2. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методологии дидактики. Электронный ресурс: <https://khutorskoy.ru/be/2016/0922/index.htm>. Дата обращения: 18.01.2020.
3. Зимняя И.А. Психология обучения родному языку (на материале русский язык как иностранный). Москва, "Русский язык", 1989, 219 с.
4. Данилова М.А. и др. Дидактика. Москва, Акад. пед. наук РСФСР, 1957, 518 с.
5. Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании. "Школьные технологии" 2004, № 5, с. 3–10.
6. Ладыженская Т.А. Методика развития речи. Москва, 2001, с. 234.
7. Safarova R. V–VI sinf ona tili darslarida lug'at boyligini oshirish asosida o'quvchilar nutqini o'stirish. – T., O'zPFITI, 1994, 32-bet.
8. Mahmudov N. Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar: Resp. ilmiy-amaliy konf. material. Jizzax, 2011, 162-bet.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006, 1-jild, 679 bet.

Oltiyev Temir Jonimboyevich (O'zDJTU, f.f.n., dotsent)

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA CHET TILLARNI O'RGANISHNING ROLI VA AHAMIYATI

Аннотация. *Мазкур мақола ривожланган хорижий давлатларда таълим сифатини таъминлашнинг назарий асосларини тадқиқ этган ҳолда олий таълим муассасаларида таълим жараёнини кенг қўламли ислоҳ этишида чет тилларнинг аҳамиятини ўрганиб чиқишга бағишланган. Жаҳон тажрибаси ҳамда Ўзбекистонда таълим сифати бўйича олиб борилаётган ўзгаришлар ёритилган.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению значения иностранных языков в масштабной реформе образовательного процесса в высших учебных заведениях при одновременном исследовании теоретических основ организации качества образования в развитых зарубежных странах. Освещен мировой опыт и изменения качества образования в Узбекистане.*

Annotation. *This article is dedicated to the study of the importance of foreign languages in the large-scale reform of the educational process in higher education institutions, while researching the theoretical foundations of the organization of the quality of education in developed foreign countries. World experience and changes in the quality of education in Uzbekistan are highlighted.*

Калим сўзлар: *таълим сифати, олий таълим, ўқитиш, таълим тизими.*

Ключевые слова: *качество образования, высшее образование, преподавание, система образования.*

Key words: *quality of education, higher education, teaching, education system.*

“Sifatli o'qitish” oliy ta'limda sifatni aniqlashning ko'plab usullari mavjud, chunki sifat ta'riflari “manfaatdor tomonlar”, shu jumladan, talabalar, ish beruvchilar, o'qituvchilar va o'qituvchilar bo'lmagan xodimlar, davlat va moliya agentliklari, kreditorlar, auditorlar, baholovchilar va boshqalar tomonidan berilgan.

Ta'lim – bu iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy turmush sohasida yuqori unumdorlikni ta'minlashga imkon beruvchi kapital qo'yilma bo'lib, inson hayot sifatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hi-

soblanadi. Jahon hamjamiyatining ko'pgina mamlakatlari aynan ta'lim jamiyatning rivojlanish istiqbol-larini ta'minlaydi, degan fikrga kelishgan. Bunda, asosan, bozor munosabatlari sharoitida oliy kasbiy ta'lim sifatini boshqarishga bo'lgan mavjud yondashuvlarni takomillashtirish muammosi paydo bo'ladi.

Bir qator olimlar oliy ta'lim sifatini oshirish jarayoni sifatida belgilaydilar. Oliy ma'lumot sifati va xususan sifatli o'qitish, kamchiliklarni kamaytirish va bartaraf etishning tugallanmagan jarayonidan kelib chiqadi. Oliy o'quv yurtlarida sifatni oshirish ikki bosqichli jarayon bo'lishi kerakligini aniqladi. Sifatni oshirishning birinchi bosqichi so'rovnomaga asosida olib boriladi: "biz to'g'ri ish qilyapmizmi?" Ammo bu savolning o'zi yetarli emas. Sifatni oshirish jarayoni ishlashi uchun "biz to'g'ri ish qilyapmizmi?" degan savolga javob beradigan ikkinchi halqani qo'shish kerak. Masalan, ma'ruzalar sifati yaxshi emasligiga ishonch hosil qilish. OTM o'zidan talabalarga ma'ruzalar bilan bir qatorda boshqa darslarni ham taklif qilishi kerakmi deb o'zidan so'rashi kerak.

"Sifat madaniyati" bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Taniqli mutaxassis Biggs J.¹ ta'kidlashicha, agar biz har doim ma'lum bir ma'noga ega bo'lsak, biz o'z ishimiz orqali o'qitish va o'qitishning muhim jarayonlarini kuchaytirmoqchi bo'lganlarga yordam bermaymiz.

Ta'lim muassasalarida ta'lim sifati muammosiga ikki xil nuqtayi nazardan qarashlari talab etiladi:

– ta'lim muassasasi nuqtayi nazaridan. Bunda marketing tadqiqotlar yo'nalishi;

– ta'lim jarayonini davlat ta'lim standartiga mosligi bilan belgilanadi;

– ta'lim tizimi iste'molchilari nuqtai nazaridan. Marketing tadqiqotlar yo'nalishi – ta'lim tizimi iste'molchilari talablarini qondirilish darajasi orqali baholanadi.

Ta'lim oluvchilar sifatining ko'rsatkichlarini baholashda o'qiyotgan yo'nalishi bo'yicha kasbiy bilim darajasi, axborot (kompyuter) texnologiyalarini bilish darajasi, chet tili bo'yicha bilimi, muayyan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'qishga ishtiyoqi, qiziqishi, intellekti (aql, idrok va zakovati), ma'naviyati, iqtidori, xotira qobiliyati, tartib-intizomi, talabchanligi, ish qobiliyati, kuzatuvchanligi, o'z mavqeyini rejalashtirishi kabi omillar muhim hisoblanadi.

Bitiruvchilarga bo'lgan talab, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligi va yutuqlari kabi omillar bevosita bir-biri bilan bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Shu sababli bitiruvchining bilim darajasi va malakasini belgilashda ishlab chiqarish korxonalarini rahbarlarining xulosalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasasi reytingini baholash maqsadida bitiruvchilarning ishlab chiqarishdagi mavqei bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va monitoringini yuritish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan istalgan mamlakatda ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb vazifa ekanligi, ushbu tizimni rivojlantirish masalalari xususida katta hajmda tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

O'qituvchilarning o'рни va mavqeyi sifatni oshirish uchun tashqi talablar sifatida baholanmoqda. Darhaqiqat, ta'lim tizimining sifati o'qituvchilarning darajasidan oshib ketmasligini tushunish oson. Bir nechta tadqiqotlarda ta'lim yuqori mavqega ega bo'lishi va zamonaviy akademik tomonidan olib boriladigan to'rt turdagi stipendiyalardan biri sifatida maxsus rolni olishi kerakligini ta'kidlagan. U akademiya madaniyatiga "o'qituvchilik stipendiyasini" kiritish zarurligi to'g'risida bahs yuritiladi.

Ammo o'qitishning mukammalligini oshirish va mukofotlash uchun, yaxshi ta'lim berish nimani anglatishini bilish kerak. Olimlar tomonidan "yaxshi o'qituvchi"ning bir qancha xususiyatlari bir necha bor aniqlangan. Yaxshi o'qituvchining asosiy xususiyatlari sifatida o'qituvchilarning sinf darajasi va rivojlanishiga befarqligi, kurs talablarining ravshanligi, tushunarli tushuntirishlar, talabalarga hurmat va mustaqil fikrni rag'batlantirishni sanab o'tilgan.

Yaxshi o'qitish – bu o'quv yurtining vazifasi bilan bog'liq bo'lgan o'qitish turi. Ayrim tadqiqotchilar o'z e'tiborini to'rt tarkibiy qismga qaratadi: darslarni tashkil qilish, darslarni aniqlashtirish, o'rganishga qiziqish va ijobiy sinf muhiti.

Sifatli o'qitish bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim masala – bu o'qitish va o'qitishning har xil turlari bo'lishi mumkin. O'quv materialini tushunishga qaratilgan "chuqur yondashish" va materialni yodlashga qaratilgan "sirtqi yondashuv". Bundan tashqari, talabalarning o'qishga bo'lgan munosabati talabalarning o'qish konsepsiyasiga ta'sir qiladi.

O'zbekistonda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni boshqarish siyosati, oliy ta'lim tizimida islohotlarni chuqurlashtirish, OTMlari raqobatbardoshligini va ularning ta'lim sifatini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlab, xalqimiz farovonligini va yoshlarimizning porloq kelajagini ta'minlash davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan bir davrda yuqori malakali bakalavrlar va magistrlar tayyorlash menejmentida talaba (magistrant)larga davlat ta'lim standartlari (DTSlari) va jahon andozalariga muvofiq

¹ Biggs J. Yangi muassasa: o'qitish sifatini ta'minlash va oshirish. "Oliy ta'lim", 2014, 214-bet.

bilim berish, ularni nazariy-amaliy, ilmiy va dunyoviy xarakterga ega bo'lgan qobiliyat, ko'nikma va tajribalarni o'zida mujassam etuvchi, raqobatbardosh kadr qilib tayyorlash, ta'lim tamoyillarining mazmun-mohiyatini chuqur tushunish va hayotga tadbiq qilish bugungi kunning muhim vazifasidir.

Ko'pincha, favqulodda professorlar—bu o'quvchilari bilan nosimmetrik va shaxsiy munosabatlarga ega bo'lganlar, bu esa talabalarga noaniqlik, shubha va xafagarchilikni kamaytirishga yordam beradi va ularga innovatsion g'oyalarni ko'tarishda jasorat beradi. Oliy ta'limdagi asosiy tajribalar “afsonaviy asosga ega”. Zo'r o'qituvchi, ko'pincha, bilimdon mutaxassisning timsoli sifatida qaralgan. “Yodda qolgan shaxslar o'zlarining mavzulariga ishtiyok bilan qarashgan; o'qituvchilik vazifalariga qarab; va eng avvalo ularning talabalariga nisbatan”, shuningdek, favqulodda o'qituvchilar, ko'pincha, qoidalar bilan cheklanmagan o'qituvchilar bo'lganligini payqadi. Shuning uchun u professorlarga yangilik yaratishga imkon beradigan ma'lum bir akademik erkinlik uchun bahs yuritadi. “O'sib borayotgan standartlashtirish, individuallikka xalaqit berishi mumkin va tayyor o'quv dasturlari tashabbuskorlik va ijodkorlikka xalaqit berishi mumkin”.¹

O'qituvchilik mahoratiga, asosan, shaxsiy harakatlar orqali erishiladi. Ammo bu individual mukammallik g'oyasi o'qitish va o'qishning asosiy moddiy shartlariga (masalan, xodimlar va o'quvchilar nisbati, o'qitish va o'qitish jarayonlari to'g'risida jiddiy o'ylash uchun yetarli vaqt) tegishli muhim masalalarni qamrab oladi. U, ko'pincha, o'qituvchilikka asoslangan o'qitishga asoslangan yondashuv tarafdorlaridan ogohlantiradi. Tadqiqotlar kamdan kam hollarda ba'zi o'qituvchilarni a'lo darajadagi mutaxassislar qatoriga qo'shadigan tanlov jarayonini sinchkovlik bilan o'rganib chiqadi. Siyosat matnlari ta'limdagi o'zgarishlarning sodda tushunchalarini qabul qilishni davom ettirmoqda, bu esa o'quv vaziyatlarining yuqori darajadagi kontekstiga ahamiyat bermaydi.

**Seytkasimov Dauletnazar Beknazarovich (QQDU Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)**
**TALABA-FILOLOGLARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
QADRIYATLI YONDASHUVDAN FOYDALANISH METODIKASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada akademik ma'ruza darslarida talabalarda lingvometodik kompetensiyalarni shakllarining ba'zi usullari haqida fikr yuritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые методы формирования лингвометодических компетенций у студентов на академических лекциях.*

***Annotation.** This article discusses some methods for the formation of linguo-methodological competencies in students at academic lectures.*

***Kalit so'zlar:** ma'ruza, muammoli ma'ruza, axborot ma'ruza, talaba-filolog, personifikatsiya, kasbiy kompetensiya, lingvometodik kompetensiya.*

***Ключевые слова:** лекция, проблемная лекция, познавательная лекция, студент-филолог, персонификация, профессиональная компетенция, лингвометодическая компетенция.*

***Key words:** lecture, problematic lecture, cognitive lecture, student-philologist, personification, professional competence, lingua-methodological competence.*

Oliy ta'limning zamonaviy didaktikasida oliy o'quv yurtining ta'lim jarayonini tashkil etishning dasturiy shakli bo'lgan ma'ruza keyingi o'n yilliklarda olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bir tomondan, ma'ruza materialining mazmuni masalalari doimo dolzarb bo'lib, boshqa tarafdin, ma'ruza metodologiyasida innovatsion izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda ma'ruzalarning tuzilishiga «ko'p hollarda zamonaviy talaba oddiy qanday o'qishni bilmasligi» ham sezilarli ta'sir etmoqda: u, «ko'pincha, o'qituvchining aytganlarini qanday yozishni bilmaydi yoki hamma narsani yozadi, yoki umuman, hech narsa yozmaydi. Talaba, ko'pchilik hollarda, ma'ruza materiali bilan ishlashni bilmaydi».² Shu sababli professor A.G.Kazakovaning fikri bo'yicha, «oliy o'quv yurti ma'ruzasini optimallashtirishning eng muhim usullaridan biri talabalarda ma'ruza materialini tuzatish, asosiy narsani belgilash, ta'lim materialining bo'limlarining o'zaro aloqasi va tushunishni sezish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi».³

Tarixiy nuqtayi nazardan, ma'ruza bu yaxshi tashkillashtirilgan tarkibga ega bo'lgan oliy o'quv yurtidagi ta'limning asosiy turi bo'lib, dasturiy asosda «mavzuni shakllantirish, reja va mustaqil ish uchun taklif etilgan adabiyotlarni yetkazish, taklif etilayotgan ish rejasiga qat'iy rioya etish».⁴

¹ Nurimbetov R.I. Oliy ta'lim sifati menejmenti. 2019, 157-bet.

² Попков В.А. Теория и практика высшего профессионального образования. Учеб, пособие для системы дополнительного педагогического образования, М., “Академический проект”, 2004, с. 70 – 71.

³ Казакова А.Г. Педагогика профессионального образования. Монография, М., “Экон-Информ”, 2007, с. 299.

⁴ Бордовская Н.В. Педагогика. Учебное пособие, СПб, “Питер”, 2006, с. 102.

XXI asr kasbiy ta'lim pedagogikasida turli sabablar bilan ma'ruzalarning har xil turlari ajratiladi: kirish, ma'ruza-axborot, kundalik, tematik, izohli, muammoli, vizual ma'ruza, binar, ma'ruza-konferensiya, ma'ruza-konsultatsiya, yakunlovchi, ma'ruza-provokatsiya, ma'ruza-tadqiqot, ma'ruza-dialog va boshqa.¹

Ma'ruzalarning samaradorligi o'qituvchi tomonidan ma'ruzalarni tayyorlash va o'tkazish jarayonida ijrosi zarur bo'lgan ba'zi shartlarga aloqador. Ilmiy ma'lumotlarning yuqori darajasiga bo'lgan talab birinchi galda olga suriladi, bu axborot davrida ayniqsa muhim, sababi, ko'pincha, talabalarning fan-ni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi bugungi kunda turli ilmiy va metodik adabiyotlarda taklif etilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan asossiz takrorlanishi sababli yo'qoladi. Ma'ruzaning ilmiy ma'lumotlarining mazmuniga ham uning hajmiga, materialni tizimlashtirishga, uni metodik qayta ishlashga, misollar, faktlar, hujjatlar va boshqa ko'rinishdagi illyustrativ bo'limga, shuningdek, taklif qilish mantiqiyiligiga alohida talablar qo'yiladi. Ilmiy bilimlarni muhokama qilishda pluralizm ma'ruzalarning ajralmas atributi hisoblanadi. Shartlarning alohida guruhi ma'ruza o'qish jarayonida o'qituvchining xatti-harakatlarining kommunikativ taktikasi hisoblanadi.²

Ma'ruza jarayonida talaba-filologlarning lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish olib boriladigan o'qish jarayonidagi yetakchi fan «Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi» hisoblanadi. So'nggi o'n yillikdagi kelajakdagi tilshunos o'qituvchining kasbiy ta'limidagi qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi bo'yicha oliy o'quv yurti ma'ruza kursini optimallashtirish ilmiy muammosi, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Bu, avvalambor, lingvometodikani turdosh fanlar – filologiya, pedagogika, psixologiya va boshqa yangi ilmiy ma'lumotlar bilan mahsuldor to'ldirish bilan aloqador.

Professor N.A.Ippolitova metodist olim M.T.Baranovning ma'ruza kursini ishlab chiqish tajribasiga tayanib ish olib borganini aytadi:

- ma'ruza mazmuni faqat ma'lumot berish emas, balki qiziqarli bo'lishi zarur;
- ma'ruza mazmuni optimal tuzilgan bo'lishi kerak;
- ma'ruza tuzilishi tinglovchilar tomonidan uning ma'nosini ochib berishning zaruriy komponenti sifatida tushinilishi kerak;
- ma'ruzadagi har bitta pozitsiya oldingisi asosida tuziladi va taklif etiladi va keyingisini tushunishga qaratilgan bo'ladi;
- ma'ruza kursidagi metodik tavsiyalar qisqa (kichik hajmli) semantik bloklar ko'rinishida, ularda oson takrorlanadigan va tushunarli kalit so'zlar bo'lishi zarur;
- aniq metodik konsepsiyani amalga oshirishda qo'yiladigan barcha talablar asosli, dalillarga tayangan, ishonchli bo'lishi kerak;
- nima aytasangiz ham, yodta tuting, faqat jonli so'z tinglovchilarni to'ldiradi: ma'ruzachining vazifasi kelganlarni tinglashga majbur qilish emas, balki ularni buni qilish zarurligiga ishontirish.³

Muammoli ma'ruzalar «leksiya o'qitishning dialog shakli»ni nazarda tutadi va uning predmeti «ma'ruzachi tomonidan kiritilgan material va mavzuning asosiy mazmunini aks ettiruvchi kognitiv vazifalar tizimi».⁴

Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi va lingvometodik kompetensiyani shakllantirish texnologiyasi amalga oshiriladigan lingvistik tsiklning fanlari bo'yicha muammoli ma'ruzalarni tuzish usullarini ko'rib chiqamiz.

Ma'ruza mazmunini tanlashda, eng avvalo, talaba-filologlarning shakllangan tushuncha doirasi ko'rsatiladi, bu vazifalar tizimi bilan konkretlashtiriladi. Shunday qilib, «Zamonaviy maktabda qoraqalpoq tili kursining maqsadi, mazmuni va tuzilishi» mavzusidagi metodologiya bo'yicha muammoli ma'ruza jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: 1) lingvometodik kompetensiyaning kognitiv komponenti – talaba-filologlar tomonidan «maqsad qo'yish», «pedagogikada maqsad», «qoraqalpoq tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv», «maktab o'quvchilarining kommunikativ, lingvistik va madaniy kompetensiyasi, «tillik yakkalik»; ona tilidagi umumiy ta'limning majburiy minimal mazmuni, qoraqal-

¹ Загвязинский В.И. Теория обучения. Современная интерпретация. Учеб, пособие для студ. высш. пед. учеб, заведений, М., «Академия», 2004, с. 149; Бордовская Н.В. Педагогика. Учебное пособие, СПб, «Питер», 2006, с. 104; Казакова А.Г. Педагогика профессионального образования. Монография, М., «Экон-Информ», 2007, с. 296 – 308.

² Морева Н.А. Технологии профессионального образования. Учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений, М., «Академия», 2007, с. 130–131; Осмоловская И.М. Словесные методы обучения. Учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений, М., «Академия», 2008, с. 67.

³ Ипполитова Н.А. Вспоминая профессора М.Т.Баранова. М., «Прометей», 2005, с. 31.

⁴ Морева Н.А. Технологии профессионального образования. Учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений, М., «Академия», 2007, с. 130.

poq tilining maktab kursi uchun bilim va ko'nikmalarni tanlash tamoyillari haqida g'oyalarni shakllantirish; 2) lingvometodik kompetensiyaning tezkor salohiyat komponenti: asosiy va o'rta maktablar uchun qoraqalpoq tilidagi o'quv dasturlari va darsliklarni lingvometodik talqin etish qobiliyatini shakllantirish; 3) lingvometodik kompetensiyaning aksiologik tarkibiy bo'limi: talaba-filologlarning ona tiliga qadriyatli yondoshuvini shakllantirish, zamonaviy pedagogik salohiyatning maqsad va mazmuniga yarasha pedagogik salohiyatni amalga oshirishga tayyorgarlik sifatida qadriyat yondoshuvini shakllantirish.

Muammoli ma'ruzaning maqsadiga erishish kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan matnlarni, shu jumladan, ma'ruza davomida o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan savollar va topshiriqlar tizimini tushinish jarayonida erishiladi.

Ma'ruza boshinda talaba-filologlarning diqqatini o'rganilayotgan mavzu muammolariga qaratish uchun savollar tuziladi. Maqsad nima ekanini qanday tushunasiz? Nima uchun ta'lim jarayonida maqsad qo'yish zarur? Qoraqalpoq tilini o'rgatish nimani bildiradi? Bundan tashqari, o'qituvchi ma'ruza darsining tarbiyaviy vazifasini amalga oshiradi: ma'ruzada talaba-filologlar qanday yangi narsalarni o'rganadi va qanday ko'nikmalarni egallaydi. Ma'ruzaning bu tarkibiy qismi talaba-filologlarni o'qish va bilish faoliyatini kuchaytirishga chorlaydi.

Muammoli ma'ruzalarda mavzuning konseptual apparatini talqin etish ayniqsa dolzarb ahamiyatga ega. Bu talqin turli ilm-fan yo'nalishlari, falsafa, pedagogika, psixologiya, lingvistika, qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi va boshqa tegishli axborot manbalari orqali amalga oshiriladi. Bitta terminning turli aniqlamalarni talqin qishi natijasida talaba-filologlar o'z fikrini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarining umumiy kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish muammosi yechilmoqda. Kelajakdagi pedagogik salohiyat uchun aniq bitta kontekst tuzish, o'qituvchi tomonidan atamalarni talqin qilish jarayonida qo'llaniladigan usullarni tushinishga yo'naltirish muhim: bu yerda talabalarga qandaydir terminning lingvometodik talqini bo'yicha topshiriq berish taklif etiladi. Shunday qilib, «tillik yakkalik» tushunchasi zamonaviy lingvometodikaning asosiy tushunchalaridan biri. O'rganilayotgan mavzu doirasida bu tushincha tilshunos olim Y.N.Karaulov (2004) tomonidan kasbiy pretsedent matnlarni talqin qilish jarayonida ko'rib chiqiladi. Zamonaviy maktab dasturlarida qoraqalpoq tilini o'qitishning maqsad va vazifalari prizmasi orqali tushintiriladigan bu konsepsiyaning mazmunini talqin etib, talaba-filologning til shaxsining uzviy mulki tilga bo'lgan muhabbat haqida fikr bildiradi: «Bu amor linguae tuyg'usi, deb yozadi Y.N. Karaulov, ona tilida so'zlovchi shaxsning qalbida ildiz otadi va ongsiz qolishi mumkin».¹ Talaba-filologlar tomonidan «til shaxsi» tushunchasining ma'nosini teranroq tushinish, shuningdek, o'z ona tiliga qadriyatni shakllantirish uchun vazifa qanday hollarda, nimaning ta'sirida ekanligini tushuntirishdan iborat.

Ma'ruza mavzusining konseptual apparatini tizimli talqin etish o'qituvchi tomonidan ma'ruzaning asosiy mazmunini taklif qilish jarayonida uni samarali tushinish uchun zarur shart-sharoitlarni keltirib chiqaradi. Muammoli ma'ruzaning dolzarb mazmuni pedagogik holatni hosil qiladigan shaklda ishlangan. Biz metodika bo'yicha tasvirlangan ma'ruza mavzusi doirasida pedagogik holat qoraqalpoq tilidagi zamonaviy dasturlar va darsliklarda ta'lim mazmunini tanlashda bor munosabatlarni lingvometodik talqin etish zarurati sifatida qo'yiladi. Buning uchun mavzu bo'yicha tegishli ma'lumotlar taklif etiladi, talaba-filologlarning vazifasi bo'lsa qoraqalpoq tilidagi bor dasturlar mualliflarning maqsadni belgilash va mazmunni tanlash masalasi bo'yicha pozitsiyalarini qiyoslash hisoblanadi. Ma'ruzaning bu bosqichida ta'lim muhitini moslashtirishga maktab amaliyotidan illustratsiyalar, masalan, turli darsliklardan foydalangan holda qoraqalpoq tili darslaridan parchalar, turli dasturdagi ish haqida filolog o'qituvchilarning interv'yuz - izohlari va boshqa yordam beradi. Turli mualliflar jamoasi tomonidan qoraqalpoq tilidagi dasturlar va darsliklarni ishlab chiqishga daxldor o'xshashlik va tafovutlarni jamoaviy talqin etish natijasida talaba-filologlar nazariy muammoga yangi qarashni ishlab chiqmoqda. Filolog o'qituvchining pedagogik faoliyatining ilmiy-metodik muammolarini hal etishga tayyorligi bo'lajak filolog o'qituvchining lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish ko'rsatkichlaridan biri.

Qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi bo'yicha muammoli ma'ruzalar mazmunida professional ahamiyatga ega matnlarni lingvometodik talqin etishning turli darajalari tizimli kirgiziladi; shu bilan birga, filolog o'qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyati konteksti ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, tilshunoslik fanlaridan muammoli ma'ruza kurslariga matnni lingvometodik talqin etish ham joriy qilinmoqda. Ushbu taktika lingvistik tsikl fanlarini o'rganish jarayonida lingvometodik kompetensiyani shakllantirishga asos bo'ladi. Masalan, sintaksis bo'yicha muammoli ma'ruzalarda talaba-filologlar oliy o'quv yurti va maktab darsliklaridagi «sintaksis», «so'z birikmasi», «gap», «matn» kabi kursning asosiy tushunchalarini aniqlashda turli yondoshuvlarni qiyoslaydi va ularni shakllantirishga harakat qiladi. Talabalarga maktabda sintaksisni o'rganishning XX asr boshidagi va XXI asrdagi sifatlovchi matnlarning pedagogik muammo-

¹ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М., 2004, с. 259.

siga bag'ishlangan matnlarni lingvometodik talqin etish taklif etiladi. Talqinni boshlab, talabalar hozirgi sintaksisda turli tushunchalar borligini biladi, matnlar bilan ishlash jarayonida talaba filologlar maktabda sintaksisni o'rganish muammolari va tilshunoslik tushunchalarini o'zlashtirishning qiyinligi, o'qituvchining metodik tayyorgarligining kamchiliklari bilan aloqadorligi haqida muhim xulosaga keladi. Shunday qilib, tilshunoslik tamoyillarini o'rganish jarayonida matnni lingvometodik talqin qilish fanlararo integratsiya va kasbiy yo'nalish tamoyillarini amalga oshirishga imkoniyat beradi.

Bo'lajak filolog o'qituvchilarning qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi va lingvistik tsikl distsiplinasini bo'yicha muammoli ma'ruzalarida lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish, shu jumladan, o'qish jarayoni subyektlari tomonidan madaniy pedagogik muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Talabalar va o'qituvchilarning madaniyat kontekstida o'zlarini sezish qobiliyatini ochib beradigan o'ziga xos taktika sifatida (bu qobiliyat insoniylik ta'limining asosiy qadriyat va hosilasi sifatida talqin qilinadi,¹ uning «qiziqishlari va imkoniyatlari bilan»² biz «fikrlash» deb nomlangan tushunchalarni taklif etamiz.

«Fikrlash» har bitta darsning tuzilishidagi majburiy komponent bo'lib, u mavzuni talqin qilishni qamrab oladi, mavzuni tanlash turli yo'llar bilan amalga oshiriladi. Bu, masalan, kun, hafta, oy voqeasi haqida gapirishni o'z ichiga olgan taqvim prinsipi bo'lishi mumkin. Shuningdek, asosiy e'tibor o'qituvchi yoki o'quvchini to'liqlandirgan muammolarga (masalan, kitob, film, spektakl) va boshqa qaratilishi mumkin. Bu ishning uzviy sharti maktabda qoraqalpoq tilini o'qitish imkoniyati yoki filolog o'qituvchining kasbiy faoliyati kontekstida ko'rinadi. Bo'lajak filologning lingvometodik kompetensiyasini shakllantirish uchun biz tuzgan pedagogik texnologiyada bu taktikaning paydo bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiramiz.

Metodika fani o'quvchilarni so'z orqali tarbiyalashda tajribaga ega. Biroq, bugungi kunda o'qituvchi suhbat mavzusini tanlash muammosiga ko'proq duch kelmoqda. Ularning ongining emas, balki ma'naviyatiga ham ta'sir etish uchun talabalar bilan nimani muhokama zarur? Maktablarda doimo taqozo etiladigan uy, oila va do'stlar mavzulari zamonaviy o'qituvchi uchun talqin qilishda qiyinchiliklarga olib keladi. Maktab o'quvchilariga zerikmaslik uchun bu mavzularni qanday aytish zarur? Shu bilan birga, esda tutish zarur, qoraqalpoq tili darsidagi har qanday suhbat faqat tarbiya va rivojlanishni emas, balki o'qitishni ham o'z ichiga oladi: o'qituvchi va o'qituvchining nutqi o'quvchilarda turli kompetensiyalarni shakllantiradigan namunaga aylanishi zarur – tildan kommunikativlikgacha. Shunday qilib, narasmiy fikr almashish ona tilini o'qitishning umumiy tizimiga organik turda mos keladi va bu holatda, biz badiiy asar sifatida qoraqalpoq tilidagi dars haqida aytishimiz mumkin. Ammo savol tug'iladi: o'qituvchi bunday ishga tayyormi? Buning uchun o'quvchilar uchun qiziqarli va foydali mavzuni tanlay olish, o'quv jarayonida qo'yiladigan psixologik, pedagogik va lingvometodik talablarni hisobga olgan holda bo'lajak suhbatni modellashtirish kerak. Ko'pincha, poradoksal holat bor: ona tilini o'rgatishda o'qituvchi o'zining kommunikativ qobiliyatining yetarli darajasini ko'rsata olmaydi, shu bilan birga, uning inson hayotining turli tomonlariga bo'lgan nuqtai nazar doimo aniq emas. Filolog o'qituvchini kasbiy tayyorlash tizimiga talaba-filologning pedagogik pozitsiyasini shakllantirish bilan birga uning lingvometodik va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradigan maxsus taktikani kiritish natijasida o'ziga xos xususiyatni belgilaydi.

Talaba filologning kasbiy tayyorgarligida «Aks ettirish» taktikasi bir-biri bilan aloqador bo'lgan bir nechta bosqichlar jarayonida amalga oshiriladi. «Aks ettirish»ning birinchi bosqichining maqsadi sinfda talqin qilish uchun material tanlashni o'rgatish, buning asosida maktab o'quvchilarining qadriyat yo'nalishlarini, shuning ichida o'z ona tilida qadriyat yondashuvlarini natijali shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu bosqichda o'qituvchining o'zi bu mavzularni ochib beradigan matnlari lingvometodik talqin uchun mavzular va vazifalar tizimini taklif etadi. Demak, taqvim prinsipiga rioya etgan holda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda davlat va diniy bayramlar, jahon va milliy madaniyatning tarixidagi muhim sanalar haqida fikr yuritadi.

Suhbat mavzusi har xil yo'llar bilan yuzaga keladi. Masalan, mart oyining oxirgi o'n kunligidagi dars quyidagicha boshlanishi mumkin: «Agar oylarning barcha nomlari alifbo tartibida bo'lsa, mart oyi qanday nomlanar edi? Bu savolga 10 sekund ichida javob bera olasizmi? Keyin biz asosiy so'zlar bo'yicha suhbat nima haqida bo'lishini chamalashga harakat qilamiz: mart, sentabr, quyosh, bahor, kuz. Shunday qilib, biz mavzuni tuzamiz: «21 mart – bahorgi kun tenglashgan kun». Shunday qilib, talabalar bu

¹ Галицких Е.О. Диалог в образовании как способ становления толерантности. Учебно-методическое пособие, М., «Академический проект», 2004, с. 34.

² Акулова О.В. Изменение целей педагогической деятельности: контекст связи образования и качества жизни человека. «Человек и образование», 2006, № 6, с. 28.

masaladan qay darajada xabardor ekanligini bilib olamiz. Shu bilan birga, biz filolog o'qituvchi nima uchun bu haqida umumiy bilish kerakligi haqida o'yalmiz va kerakli ma'lumotlarning taxminiy doirasini belgilaymiz. Bu yerda atlaslar, qomuslar, hatto globusni, ya'ni birinchidan, o'quvchilarga o'zlarining bo'shliqlarini to'ldirishga imkon beradigan, ikkinchidan, ularga aniqlik bilan ishlash mumkin bo'lgan variantini ko'rsatadigan hamma narsalarni berish maqsadga muvofiq. Keyin, biz qoraqalpoq tili maktab kursining turli bo'limlari bilan bog'liq savollar va topshiriqlarni shakllantiramiz, shu bilan birga, «Aks ettirish» mavzusiga mos keladigan o'qish ma'lumotlarining imkoniyatlarini aniqlash uchun qoraqalpoq tili darsliklaridan materiallarni foydalanamiz. Bahorgi kun tenglashishi mavzusidagi suhbatni yakunlab, talabalar «tabiat – inson» muammosi, bugungi maktab o'quvchilari insonning tabiatga aloqasi haqida qaygurishi, bu mavzuning mumkin bo'lgan axloqiy tomonlari haqida o'ylaydi. Yakunlab aytganda, maktabda qoraqalpoq tili darsida u qo'llagan metod va usullardan qaysi biri qo'llanilishi mumkinligini aniqlash uchun o'qituvchining texnikasi talqin qilinadi.

«Aks ettirishlar» mavzusidagi o'z ko'rinishini topgan g'oyalarning timsoli faqat qoraqalpoq tili darsining hamma bosqichlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish bo'ladi: oliy maktab pedagogikasi nuqtayi nazaridan, bu tamoyilni amalga oshirish haqida aytish zarur. Fanlararo integratsiya – lingvistik tsiklning o'rganilayotgan fanlari bo'limlari bilan qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi bo'limlari o'rtasidagi aloqalar. Bu aloqa talabalar e'tiborini qoraqalpoq tilini maktab o'quvchilariga o'qitish jarayonida pedagogik fikrlashish muammosiga qaratadi.

«Aks ettirishlar» taktikasini amalga oshirishning ikkinchi bosqichida talaba filologlar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan mavzu bo'yicha mustaqil holda savol va topshiriqlar tuzish ko'nikmasini rivojlantiradi. Oldingi darslarda «Aks ettirishlar» qanday o'tkazilganiga o'xshab, o'quvchilar qoraqalpoq tilidagi maktab darsliklaridan foydalangan holda o'zlarining versiyalarini ishlab chiqadi. Dastlabki tayyorgarlikda mumkin. Bu holatda talabalar qo'shimcha material tayyorlashi uchun taxminiy mavzu oldindan e'lon qilinadi.

Uchunchi bosqichda talabalar mustaqil shaklda o'quvchiga yo'naltirilgan «Aks ettirish» mavzuisini tanlaydi va uning lingvometodik talqinini amalga oshiradi. Bo'lajak filologlar tomonidan ishlab chiqilgan «Aks ettirish»larni jamoaviy talqin qilish jarayonida o'quvchilar hamma narsani oldindan ko'rishning iloji yo'qligiga ishonch hosil qiladi, sababi, qoida shaklida, talabalar bilan suhbat o'qituvchilarni oldindan rejalashtirilmagan savollarga olib keladi. Bu bosqichda o'qituvchi lingvodidakt olim A.A.Murashov tomonidan shakllantirilgan pedagogik ritorikaning muhim tarkibiy bo'laklarini ochib berishi maqsadga muvofiq: «Darsning kommunikativ tuzilishi modellarining mavjudligi (shuning ichida, dialogda qiyin holdardan shiqqa olish imkonini beradiganlar; tashkil topgan va stixiyaviy fikrlashishda (ixtirochilik) o'qituvchining ijodiy og'zaki va fikrlash faoliyatining imkoniyati».¹

Psixologiya va pedagogika, tilshunoslik va lingvometodikaning fundamental bilimlariga, filolog o'qituvchining umumiy bilimiga asoslangan improvizatsiya unga qoraqalpoq tili darsidagi pedagogik holatlarni talabalar bilan norasmiy muloqot jarayonida samarali yechish imkonini beradi. O'qituvchining o'z vaqtida muloqotda to'g'ri buriilish topishga tayyorligi o'quvchilarga o'qituvchida hayotga intiluvchi, maktab o'quvchilaridagi shaxsiyatni ko'radigan shaxsni ko'rishga yordam beradi.

Talaba filologning o'qish va anglash jarayonida ijtimoiy-madaniy muhitni hosil qilish bu kelajakdagi filolog o'qituvchi yuqori rivojlangan til shaxsi bo'ltshning samarador usuli, talabalar bilan keyingi muloqotga tayyor, sababi u dialogta. «Bolaning shaxsiyatini erkin ochib berish – o'z nuqtayi nazarini irodali, chin dildan aks ettirish. Dialogli o'zaro ta'sir, madaniyatlar dialogi, muloqot dialogi – bu talabaning o'zini-o'zi ko'rsatishining o'ziga xos usuli, aqliy, hissiy va ma'naviy layoqatning birligi...».²

«Aks ettirish» taktikasi bo'lajak filologlarga pedagogik ritorikaning ijodiy imkoniyatlarini, darsning ijodiy ahamiyatini ko'rsatadiki, bu esa «o'qituvchining kommunikativ yetakchi sifatidagi mahorat omiliga aylangan motivatston ketma-ketlik qonunlariga yarasha tuzilgan darsning tillik asarga aylanishida ishtrokchilarning xatti-harakati». Bo'lajak qoraqalpoq tili darslari uchun «Aks ettirish» ishlab chiqish va ularni ma'ruzalarda sinash orqali talaba-filologlar pedagogik salohiyat kontekstiga yuklanadi, kasbiy salohiyat motivlarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, filolog talaba bo'lajak filolog o'qituvchi qoraqalpoq tilini o'qitish metodikasi va lingvistik tsikl fanlari bo'yicha akademik va muammoli ma'ruzalarda lingvometodik kompetensiyani shakllantirish jarayonini ishlab chiqish natijasida bu jarayonning normativ modeli pedagogik texnologiya proyektiv ta'lim xususiyatlarini oldi, uning mohiyati «talabaning o'tmishdagi tajribasini uzatishda emas, u

¹ Мурашов А.А. Педагогическая риторика. М., Педагогическое общество России, 2001, с. 96.

² Любичева Е.В. Посредством слова творю я мир... Книга первая. О культуре слова, о тайнах звука и загадках буквы. 5 класс. Пособие по русскому языку для учителей-словесников. СПб, 2002, с. 7.

uning shaxsiy va umummadaniy rivojini ta'minlaydigan shaxsiy tajribasini kengaytirishdan iborat». Loyiha asoslangan ta'limning bu tushunchasi bo'yicha, uning maqsadi talabalarga «bilimlarni o'zlari ishlab chiqish, barcha fanlar bo'yicha o'qish materiallarini ishlab chiqish» imkonini berish, «muammolarni mustaqil hal etishga o'rgatish». Ko'p yillik amaliyot bilan tasdiqlangan loyiha faoliyatning unumdorligi olimdidaklarga loyiha ta'limini uzluksiz ta'lim turi sifatida ko'rib chiqishga asos bo'ladi. «Uning o'zi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish vositasi, u faqat tarbiyaviy emas, balki hayotiy ma'noni ham qamrab oladi».¹

Shuni belgilash zarur, muammoli ma'ruzalar «muammoli holatlarni yechishda mutaxassislarining faolligi uchun o'qish modeli bo'lib, kontekstli ta'limning nazariylik mazmunini ishlab chiqish va o'zlashtirishni ta'minlaydi».²

**Shasaidova Lola Shamaksudovna (Pedagogika fanlaridan falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti doktoranti; lshasaidova@gmail.com)**
**XITOIY TILINI O'QITISHDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMI MAZMUNINING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI**

Annatsiya. *Jahonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda talabalarning o'qitishdan o'rganish tizimiga o'tkazish, ularda mustaqil ta'lim faoliyati ko'rsatkichini oshirish tendensiyasi aniq kuzatilmoqda. Ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'tish bilan birga mustaqil ishlash tizimini optimallashtirish, talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini tarbiyalash muhimdir. Maqolada mustaqil ta'lim, mustaqil ish kabi tushunchalar va ular bilan bog'liq ko'plab nazariy qarashlar, turli konseptual yondashuvlar ko'rib chiqiladi.*

Аннотация. *В развитии системы высшего образования в мире отчетливо прослеживается тенденция переноса акцента с обучающей деятельности преподавателя на деятельность студента, повышения у них готовности к самостоятельной учебной деятельности. Наряду с переходом к компетентностному подходу, в образовании важна оптимизация системы самостоятельной работы, формирование готовности к самостоятельной работе студентов. В статье рассматриваются такие понятия, как “самобразование”, “самостоятельная работа” и связанные с ними понятия, различные концептуальные подходы.*

Annotation. *The tendency to transfer students from teaching to the learning system, and to increase the indicator of independent educational activity in them is clearly observed in the development of the higher education system in the world. Along with the transition to a competency-based approach in education, it is important to optimize the system of independent work, to elaborate the culture of independent work of students. The article examines concepts such as “independent learning”, “independent work” and many related ideas, various conceptual approaches.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy ta'lim, xitoy tili, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, talabalarning mustaqil ishlash faoliyati, pedagogik-psixologik aspektlar.*

Ключевые слова: *современное образование, китайский язык, самобразование, самостоятельная работа, самостоятельная деятельность студентов, педагогические и психологические аспекты.*

Key words: *modern education, Chinese language, independent education, independent work, independent work activities of students, pedagogical and psychological aspects.*

Kirish. Yangi ta'lim paradigmasida talaba passiv bilim iste'molchisidan muammolarni hal qila oladigan faol subyektga aylanishi va mustaqil ravishda, ularga erishishning samarali usullarini topishi kerak. Shunda talabalarning mustaqil ishi ta'lim jarayonining shakli bo'libgina qolmay, uning uzviy asosiga aylanadi.

Til ta'limida ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'lim asta-sekinlik bilan chet tilini o'qitishning yetakchi g'oyasiga aylandi. Tadqiqotimizning diqqat markazini “o'qituvchilar qanday o'rgatadi” masalasidan “ta'lim oluvchilar qanday o'rganishadi” masalasiga o'tkazsak, biz ikki muammoni maqsadli tarzda hal qilishimiz mumkin [8].

So'nggi yillarda “mustaqil ta'lim” bilan bog'liq bir nechta tushunchalar oliy ta'lim tizimida asosiy tushunchalarga aylandi. Bu keyinchalik mustaqil o'zini-o'zi nazorat qilish, mustaqil samaradorlikka eri-

¹ Колесникова И.А. Педагогическое проектирование. Учеб, пособие для высш. учеб, заведений, М., «Академия», 2007, с. 26 – 27.

²Вербицкий А.А. Контекстное обучение и становление новой образовательной парадигмы. Жуковский: МИМ ЛИНК, 2000, с. 31.

shish, mustaqil ta'lim strategiyalari, ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan ta'lim va o'z-o'zini mustaqil boshqaradigan ta'limga ko'proq e'tibor qaratilishiga olib keldi.

Asosiy qism. Shubhasiz, tadqiqotni, "mustaqil ta'lim" "mustaqil ish" kabi tushunchalarning ko'rib chiqish, mavzuga doir ilmiy qarash va fikrlarni tahlil qilish, turli konseptual yondashuvlarni ko'rib chiqishdan boshlash dardkor.

Mustaqil ta'lim o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. Shuningdek, mustaqil ta'lim olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi ta'lim shaklidir.

Mustaqil ish o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir [4].

Zamonaviy ta'limda mustaqil ish talabalarning zarur bo'lgan ma'lumotlarni mustaqil izlash, auditoriya mashg'ulotlarida o'quv materialini anglash, ijodiy idrok etish, ularning auditoriyada va undan tashqari kognitiv faoliyatini, analitik qobiliyatlarni, o'quv vaqtini rejalashtirish, nazorat qilish va oqilona tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan ta'lim shakli sifatida qaraladi. Mustaqil ta'lim olishga nisbatan berilgan ta'riflardan biri sifatida quyidagini keltirishimiz mumkin: faollik shaxsning shaxsiy sifati, insoniylikning o'ziga xos jihati, salohiyati, faol aqliy faoliyati, ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi mustaqilligi, bilim olish, anglashga nisbatan malakasi va harakatlaridir [1.325].

Shuningdek, mustaqil ta'lim universitet talabalariga oliy ta'limga moslashish imkonini beruvchi ta'lim usulidir [7] va shaxsning umrbod ta'limi uchun muhim bo'lgan kompetensiyadir [2].

Biz mustaqil ta'limga berilgan ta'riflar ichida quyidagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Mustaqil ta'lim bu insonlarning o'z ta'lim maqsadlarini ongli ravishda o'zlari belgilashlari, o'quv rejalarini shakllantirish, ta'lim usullarini tanlash, o'quv jarayonini nazorat qilish va ta'lim natijalarini baholash qobiliyatidir [9]. Demak, mustaqil ish talabalarning faollik, mustaqil va kognitiv qiziqishini rag'batlantiruvchi o'quv jarayoni tashkil etish shaklidir. Mustaqil bo'la olish shunday bir fenomenki, u ilmiy izlanishlarda turlicha talqin qilinib, ko'plab olimlar tadqiqotining predmeti sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik insonning ham shaxs sifatida, ham faoliyat subyekti sifatidagi eng muhim xususiyatidir. Mustaqil bo'lish u o'z xoxishiga ko'ra, tashqi yordamsiz, tashqi turtkisiz biror narsani bajarishdir. Shu ma'noda, mustaqillikni ham insonning xususiyati, ham ijtimoiy amaliyotning u yoki bu sohasi bo'yicha yetuklik mezonini sifatida tushunish mumkin.

"O'z ustida ishlab, mustaqil ta'lim olish faoliyati" tushunchasini ochib berishning nazariy ahamiyati sifatida o'z vatanimiz va xorij olimlarining ko'plab ilmiy ishlari, ilmiy muhokamalari muhim rol o'ynadi. Mustaqil ta'lim olishning dastlabki manbalari falsafa fanining rivojlanishida ro'y bergan, falasa-fanning rivojlanib borishi antik dunyo odamlarining tabiat, inson va jamiyat haqidagi barcha bilimlarini birlashtirib turgan. Suqrot, Konfutsiy, Demokrit, Platon, Aristotel va Geraklitning asarlarida insonning taraqqiy etib borishi uning o'z shaxsi ustida mustaqil ravishda ishlashi, o'z-o'zini anglashi va buni yanada takomillashtirib borishi evaziga amalga oshirilganligi haqidagi fikrlar ta'kidlanadi.

Jumladan, yunon faylasuflaridan Suqrot birinchilardan bo'lib o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi mustaqilligi va anglash faolligiga raxbarlik qilish, ularni boshqarib turish haqida o'z fikrlarini bayon etgan edi, bunga, albatta, oldindan tayyorgarlik ko'rish (topshiriqlar berish va savollar berishga tayyorgarlik ko'rish kerakligi) haqida fikrlar bildirgan edi. U o'z o'qitish uslubini ishlab chiqqib, o'z o'quvchilarida sinab ko'rgan edi. Bunda evristik suhbatlar yordamida o'quvchilarning anglash jarayonini faollashtirilib, induksiya usularidan foydalangan holda olib borilgan edi.

Ko'rib turganimizdek, Suqrot o'z o'quvchilarining faolligi pedagogik ta'sir etish va to'g'ri tashkil qilingan o'qitish jarayoniga bog'liq deb qaragan edi. Aytish mumkinki, ta'lim olishda, jumladan, mustaqil ta'limda o'qitishni to'g'ri tashkil qilish muhim hisoblanadi.

Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida gumanizm, tabiatga hamohang bo'lish, erkin fikrlash haqidagi g'oyalarini rivojlantirgan edi. U erkin va ijodiy faoliyat haqidagi va ta'limning individual va ijtimoiy rivojlanishi haqidagi fikrlarni ilgari surgan edi. XIX asrning o'rtalariga kelib, pedagoglar quyidagi xulosalarga kelgan edilar: oliy o'quv yurtidagi o'qitish jarayoni ko'p qirrali va bu jarayonda talabalarning mustaqil ta'lim olishlari muhim rol o'ynaydi, uni to'g'ri tashkil qila olish esa bilim olishdagi poydevorning mustahkam bo'lishi va bo'lg'usi kasb egasining chuqur bilimli bo'lishini ta'minlaydi, mutaxassisning faoliyati davomida uning murakaab vazifalarni amalga oshira olishiga imkon beradi.

Bu borada K.D.Ushinskiyning fikrlari juda namunalidir. U shunday degan edi: “Universitet qoshida faoliyat olib borayotgan professorlar, dotsentlar va nomzodlar ham talabalarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilishlari mumkin, bunda ular talabalarga manbalarni tavsiya etishlari, tushunarsiz bo‘lgan narsalarni izohlab berishlari, bajarilgan ishlarni ko‘rib berishlari kerak. Shundagina universitetda to‘rt yili o‘tirib, professorlarning qaydlaridan boshqa bilimga ega bo‘lmagan, to‘rt yil davomida o‘z fakulteti fanlari bo‘yicha birorta ham kitobni mustaqil ravishda o‘qib chiqmagan nomzodlar bo‘lmas edi”. K.D.Ushinskiyning fikricha, mustaqil ravishda ishlash mutaxassislarini tayyorlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi, bu jarayon nafaqat darsliklarni o‘rganishga asoslanishi, balki dastlabki manbalar va ilmiy ishlar bilan ta’minlashga ham asoslanishi kerak [13].

Olimlar talabalarning mustaqil ishlari haqida o‘zlarining ishlarida bu faoliyatning turli jihatlarini ta’kidlab o‘tadilar, ya’ni, oddiy axborot-qidiruv ishlaridan boshlab ijodiy ishlargacha, kasbga doir mashg‘ulotlardan tortib, ijodiy ishlargacha bo‘lgan faoliyat sanab o‘tiladi. Shunga qaramasdan, ko‘plab tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, mustaqil ishlar o‘qituvchining bevosita yordamisiz amalga oshiriladi, va’holanki, bu faoliyat ular tomonga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Biroq, axborotlarning tezkorlik bilan almashinayotgan hozirgi davrida ta’lim jarayonlarida talabaning o‘z-o‘zini anglashi, refleksiya, o‘quv faoliyatning natijalari uchun mas’uliyati, o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini nazoratga olishi kabi vazifalari ortib borishi zarur.

I.A.Zimnyayaning ta’kidlashicha, talabaning nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda aytish mumkin, mustaqil ishlar ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi, talaba o‘zi istagan holda tayyor bo‘lgan, bajarilishi lozim bo‘lgan harakatlarning barchasi subyekt tomonidan tuzib chiqilgan, rejalashtirilgan jarayonni boshqarish mumkin bo‘lgan va natijalarga olib keladigan bo‘lishi zarur [5.255].

O‘qishning boshidan oxirigacha bo‘lgan muddatda o‘zining mustaqil ta’limiga javobgarlikni anglatish mustaqil ta’limning muhim tamoyili hisoblanadi. O‘z-o‘zini boshqarishning asosiy tamoyillari bu o‘rinda faollik, tizimga amal qilish, anglay olish, ya’ni, maqsadlarni, shartlarni anglay olish, o‘z-o‘zini baholash mezonlari yordamida harakatlarning aniq bir dasturini ishlab chiqish, doimiy ravishda o‘zini boshqarib turishdan iborat. Mustaqil ishlarga tayyorgarlikni o‘qishning dastlabki oylaridayoq, ya’ni, uning tayanch tushunchalari bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan boshlash zarur.

Avtonomlashtirilgan holda o‘qitish T.Y.Ternovix tomonidan quyidagi jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi: “o‘z o‘quv faoliyatini tanlashda ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda qaror qabul qiladilar, ish usullarini, ularni bajarish muddatlarini, o‘z ishini nazorat qilish va baholashning usullarini belgilaydilar, yangi o‘quv kontekstlariga uning natijalarni olib o‘tadilar” [11].

Mustaqil ta’limni tashkillashtirish uchun avtonomlashtirilgan holatda o‘qitish asoslarini chet ellik olimlar ham tan oladilar. Shuni qayd etib o‘tishimiz zarurki, biz tadqiq etayotgan tushuncha pedagogik adabiyotlarda “ta’lim sifatida” aytilib o‘tiladi.

Androgogika tamoyillarini ishlab chiqqan amerikalik pedagog olim M.Noulz bunday ta’lim olish turiga birinchilardan bo‘lib ta’rif bergan edi. Uning fikricha, “insonlar birovlarining yordamisiz tashabbus ko‘rsatadigan jarayon, ya’ni, buning yordamida yoki bularsiz ta’limdagi o‘z ehtiyojlarini belgilash, o‘qishning maqsadlarini shakllantirish, o‘qish uchun zarur bo‘lgan jismoniy va aqliy imkoniyatlarni aniqlash, o‘qitish va uning natijalarini baholashda tegishli yo‘llarni tanlay olishdan iborat” [6].

Shuningdek, muallif bir narsani, ya’ni, faol talabalar tashabbus ko‘rsatmaydigan boshqa talabalardan ko‘ra ko‘p o‘qishlari va materialni yaxshi eslab qolishlari haqida ochiq aytilib o‘tadi. Noulzning kuza-tishlariga asoslangan holda, shuni taxmin qilish mumkin, mustaqil ravishda o‘zi alohida bilim olish malakasiga ega bo‘lgan talaba, o‘z vaqtini muvaffaqiyat bilan sarflay oladi, aniqrog‘i, katta ishonch bilan chet tilini o‘rganishda yutuqlarga erishadi.

Mustaqil ta’lim faoliyatining psixologik jihatlarini S.L.Rubinshteyn, I.S.Yakimanskaya, T.V.Napolnova [12] ishlarda yoritiladi. Didaktlar va psixologlar mustaqil ishning o‘zagi o‘quv muammosi yoki ma’lumot beruvchi vazifa ekanligini ta’kidlaydilar.

Psixologiya fanida esa ilm o‘rganishdagi mustaqillikni shaxsning mustaqil bo‘la olishi, shaxsning mustaqilligi sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiyaga hamda psixologiya asoslariga doir ko‘plab fundamental darsliklarning muallifi S.L.Rubinshteynning fikricha, mustaqillik faoliyatning subyekt sifatida shaxsning shakllanishi va voyaga yetishi jarayonida ro‘y beradi. Boshqa bir nuqtai nazarlarga ko‘ra esa, mustaqil ta’lim olish shakllangan bilimlar va ko‘nikmalarning yig‘indisidan, faoliyatga nisbatan shaxsning munosabatidan iborat (bizning holatimizda esa o‘quv jarayoni va uning natijalariga munosabat deyishimiz mumkin). Mustaqillik refleksiya sifatida bunday rakursi, ya’ni ko‘rinishi bu sifatni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi. [10.192].

Ta’lim jarayonidagi mustaqillikni shakllantirish va uni rivojlantirish esa shaxsning kasbiy sifatlaridan biri sifatida qaraladi va uni o‘quv jarayonining boshqa komponentlaridan ajratib bo‘lmaydi, jum-

ladan, anglangan mustaqillik psixologik-pedagogik adabiyotlarda barcha tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha haqida tan olinmagan ta'rif hisoblanadi.

A.Y. Bogoyavlenskayaning fikricha, anglangan mustaqillikning ma'nosi shundaki, ilm oluvchilar chetdan hech bir kishining yordamisiz bilim olishga harakat qiladilar, jumladan, ular turli manbalardan, refleksiya jarayonida, o'z-o'zini tushunib yetish, o'z-o'ziga baho berishni istaydilar [3.56].

Ayniqsa, o'qitishning dastlabki jarayonida o'quv materialiga nisbatan mustaqillik paydo bo'ladi. Aynan, mana shu bosqichdagi mustaqillikni shakllantirishda talabalar tomonidan odatdagidek bo'lmagan qarorlarning qabul qilinishi va ularning qabul qilinishida muammolarning hal qilinishi bilan bog'liq ijobiy natijalarni kuzatish mumkin, bu esa birinchi darajali ahamiyatga ega.

Tailandlik olimlar Dong Yang, Usaporn Swekwi, Xiao Dai va Chia Ching Tu [14] mustaqil ta'lim jarayonida talabalarining ruhiy salomatlikligi ularning yutuqlariga ijobiy hissa qo'shishi mumkinligini tadqiq etar ekanlar, optimizm mustaqil ta'lim jarayonida talaba boshidan kechirishi mumkin bo'lgan yolg'izlik xissi bilan bog'liq stressni engish va ruhiy sog'lig'ini himoya qilishda optimizm muhim omil bo'lishi mumkin ekan. Ruhiy salomatlik va ta'lim natijalari bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ruhiy salomatlikni zaiflashuvi talabalarining mustaqil o'rganish faoliyatiga to'sqinlik qilishi va ilmiy yutuqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak ruhiy salomatlik va optimizm ta'limning samarali tashkil etishning ikkita psixologik muhim omili sifatida ko'rsatish mumkin ekan.

Xitoyning Xanjou universiteti olimlari Fuhai An, Linjin Xi, Jingyi Yu and Mohan Zhang [2] mustaqil ta'limga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish samarasini tadqiq etar ekan, uning natijasida talabalarda yuzaga keladigan ijobiy xis tuyg'ular shaxsiy samaradorlikka katta ta'siri mavjudligini asoslaydilar.

Shanxay chet tillar universiteti tadqiqotchisi Shi Youjin (史又今) [15].

“Internet+” davri o'quv resurslarining vaqt va makon cheklovlarini yo'qqa chiqarib, yanada modulashgan hamda personalizatsiyalashgan shakldagi yangi media platformalarni taqdim eta boshladi. Bularga misol tariqasida MOOC (慕课), mikroma'ruza (微课), teskari dars (翻转课堂) va ta'limiy va ijtimoiy funksiyali APP ilovalarni kiritish mumkin. Ta'limiy ilovalarga lug'atlar, tarjima vositalari, nutqiy va lisoniy ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'zga til madaniyatini o'rgatishga hamda Xitoy tili bilim darajasini aniqlash test sinovlariga tayyorlashga va nazorat qilishga qaratilgan funksional ilovalar kirsam, ijtimoiy ilovalarga esa WeChat, QQ kabi muloqot ilovalari kiradi. Mazkur ilovalar talabalar mustaqil ta'limida nafaqat o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi masofani qisqartiruvchi vosita, balki samarali ijtimoiy dasturiy ta'minot hamdir.

Xulosa. Xitoy tili mustaqil ta'limi mazmuni talabalarining ta'lim faoliyatiga yo'naltirish, ularda ta'lim jarayonini mustaqil boshqarish, ta'lim usullari, vositalari, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri baholash, umuman olganda, ta'lim strategiyasi va uning istiqboliga oid oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi.

Bugungi kunda o'qituvchilarni o'quv jarayoni sifatini oshiruvchi, talabalarining bilish faoliyatini foydalandirishga, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or o'qitish usullarini ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy etish muhimligiga ishonitirishning hojati yo'q. Ushbu muammoni hal qilishda talabalarining mustaqil fikrlash va bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mustaqil aqliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish ham yanada muhimroq sanaladi, chunki ta'lim oluvchilar qay darajada bilim olishlaridan qat'iy nazar, bu bilimlar eskirishi, hayot ehtiyojlaridan orqada qolishdek tendensiyaga ega. Bundan chiqish yo'li esa talabalarni turli axborot manbalari-dan mustaqil ravishda bilim olishga o'rgatish, mustaqil ishning eng xilma-xil turlari va usullarini o'zlash-tirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреев В.И. Педагогика. Учебный курс для творческого саморазвития. 3-е изд, Казань, Центр инновационных технологий, 2003, с. 608.
2. An F., Xi L., Y. J., Zhang, M. Relationship between Technology Acceptance and Self-Directed Learning: Mediation Role of Positive Emotions and Technological Self-Efficacy. Sustainability, 2022.
3. Богоявленская А.Е. Развитие познавательной самостоятельности студентов. Монография, Тверь, 2004, с. 160.
4. Зарипов Л., Хайитов Л., Тохиров З. Талабалар мустақил таълимини ташкил этиш. Методик қўлланма, Тошкент, “Sano-Standart”, 2023, 32 бет.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. Москва, “Логос”, 2003, с. 383.
6. Knowles M.S. Self-Directed Learning. A Guide for Learners and Teachers. 2020, p. 135.
7. Morris T.H. Adaptively through self-directed learning to meet the challenges of our ever-changing world. Adult Learn. 2019, 30, p. 56 – 66.

8. M.Burns, E.Pierson and S.Reddy. Working together: how teachers teach and students learn in collaborative learning environments. International journal of Instruction. Vol 7, 1, 2014.
9. Pang W.G. Evaluation Methods of Autonomous Learning. Journal of Psychological Science (05). 2003, p. 882–884.
10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб., “Питер”, 2006, с. 713.
11. Терновых Т.Ю. Методика формирования стратегий автономной учебной деятельности у студентов-первокурсников в работе с иноязычным текстом. Автореф. дис. ...канд. пед. наук, Москва, 2007, с. 20.
12. Уразикова Ю.В. История развития понятия «самостоятельная работа». Педагогический журнал Башкортостана, № 1, 2021, с. 113.
13. Ушинский К.Д. О пользе педагогической литературы. https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_003672578
14. Yang D., Swekwi U., Dai X., Tu C.C. Potential Implications of Optimism and Mental Health for the Independent Learning of Chinese University Students. Sustainability.2022.
15. 史又今.“互联网+”引起的汉语国际教育硕士 自学模式思考. 2019年1月. 枣庄学院学报.

**Nigmanov Bori Botirovich (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti
Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi o‘qituvchisi)
YOSH FUTBOLCHILARNI TANLASHDA TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIKNING
AHAMIYATI**

***Annotatsiya.**Maqolada yosh futbolchilarni tanlashda texnik va taktik tayyorgarlikni ahamiyati, tanlashga doir ishlarni tashkil etish, yosh futbolchilarni futbol bo‘limiga qabul qilishda tanlash usuliyoti taxlil qilinib, nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация.** В статье раскрыто значение технико-тактической подготовки при отборе юных игроков. Проанализирована организация селекционной работы, методика отбора юных игроков на футбольное отделение, даны теоретические сведения и практические рекомендации.*

***Annotation.** In the article, the importance of technical and tactical training in the selection of young players. The organization of selection work, the selection method for accepting young players to the football department has been analyzed, theoretical information and practical recommendations have been given.*

***Kalit so‘zlar:** tanlash usuliyoti, sport faoliyati, iste’dod, mahorat, murabbiy, futbolchilar, jismoniy tayyorgarlik, texnik va taktik tayyorgarlik.*

***Ключевые слова:** метод отбора, спортивная деятельность, талант, мастерство, тренер, игроки, физическая подготовка, технико-тактическая подготовка.*

***Key words:** selection method, sports activity, talent, skills, coach, players, physical training, technical and tactical training.*

Kirish. Qobilyat istedoddan farqli o‘laroq, harakat va operatsiyalar usullaridan, ya’ni ko‘nikma va malakalardan iborat bo‘ladi. Biroq qobilyatning asosini ko‘nikma va malakalar tashkil etmaydi, balki bu ko‘nikmalarni yo‘lga solib turuvchi jarayonlar tashkil etildi. Futbolga yangi kelganlarni qobilyatini baholash qiyin masaladir. Shug‘ullanuvchilar asosiy texnik-taktik usullarni egallab, muayyan tayyorgarlik bosqichiga yetganliklaridagina, ularning qobilyatini baholash mumkin. Yuqori mahoratli jamoaga o‘yin-chilar qabul qilinadi ekan, asosiy mezon qilib aynan sportchining qobilyati olinadi [1].

Mezonlarni o‘lchash uchun qo‘llanadigan usul yoki moslamalar uslubiyatlar deyiladi. Tanlash amaliyotida ekspert uslubiyati, apparaturali uslubiyat va testli uslubiyatlardan foydalaniladi.

Ekspert uslubiyatlar mutaxassislarining (murabbiyning o‘zi ham mutaxassis bo‘lishi mumkin) bo‘lajak o‘yinchining iste’dod darajasi haqidagi funksiyalariga asoslangan bo‘ladi. Agar ko‘pchilik mutaxassislarda shunday fikr bo‘lsa, uning ishonchliligi ancha yuqori bo‘ladi.

Apparaturali uslubiyatlar baholarning aniqligi bilan afzallikka ega. Biroq bu baholarga qarab iste’dodlilik darajasi haqida umumiy taassurot hosil qilib bo‘lmaydi. Ayrim sifatlar hali iste’dodni xarakterlamaydi. Ular birlashishi va o‘ziga xos birikishda namoyon bo‘lishi kerak.

Turli sifatning birikib kelishini hisobga olib tuziladigan testlar (sinov) tanlashning eng samarali uslublaridir. Ko‘rsatkichlarning bilvositaligiga qaramay, testlar bir qator muhim afzallikka ega. Bu afzalliklarning asosiysi – futbol o‘yiniga istedodlilikning test modelini yaratishning mumkinligi.

Uslubiyatlardan maqsadga muvofiqroq foydalanishga qaratilgan tadbirlar kompleksi tanlashning tashkil etilishi deb ataladi. Shunday qilib, nomzodlar guruhidan bo‘lajak o‘yin faoliyatida yuqori va barqaror natijalarga erishishi mumkin bo‘lgan bolalarni tanlab olishga qaratilgan tashkiliy uslubiy tadbirlar kompleksini yosh futbolchilarni tanlash deb atash mumkin.

Bolalar o'rtasida futbol o'yini keng tarqalgan. Jumladan bolalar-o'smirlar sport maktablarining futbol bo'limlari barcha xohlovchilarni qabul qilishga qodir emasligi ham shu bilan izohlanadi. Chunki bu maktablarning asosiy vazifasi – tanlab olingan bolalar kontingenti bilan ishlab, yuksak mahoratli o'yinchilar tayyorlashdan iboratdir [2].

Tabiiy tanlash o'rinbosarlar (rezerv) tayyorlash muammosini hal qilmaydi. Bu holda qobilyatsiz bolalar bilan bir qatorda, qobilyatli, ya'ni, odatda, maxsus sifatlar bo'yicha yetarlicha tayyorlanmagan, lekin yuqori potensial (imkoniyat) larga ega bo'lgan bolalar ham futbol maktabini tashlab ketadi.

Ko'pgina murabbiylar eng qobilyatli bolalarni tanlab olish uchun turli mezonlardan foydalanadilar, biroq bu mezonlar ko'pgina holatlarda bir tomonlama yoki subyektiv holatlarda bo'ladi, shu bilan birga, tanlash ishi, umuman, stihiyali ravishda olib boriladi yoki, ko'pincha, murabbiylar bolalarning nazorat oyinlarida ko'rsatadigan va avvalda qaror topgan texnik-taktik malaka va ko'nikmalariga qarab ish yuritadilar. Bolalarning tezlik kuch sifatleri va harakatlar koordinatsiyasi, tez fikrlashi, irodaviy sifatlerining yuqori darajadagi, shuningdek, yangi materialni tez ozlashtirib olishiga asoslangan imkoniyatlari hisobga olinmaydi [3].

Yosh futbolchilarni tanlash ishi boshidan ohirigacha yahshi tashkil etilgan bo'lishi kerak. Dastlab, bolalarni jalb qilish va ularning sport maktablariga ommaviy ravishda kelishini ta'minlash choralarini ko'rish lozim. Eng avvalo, nomzodlarni yaqin orada joylashgan turar joy va maktabdan tanlash maqsadga muvofiqdir, shunday qilinganda, ko'p yillik tayyorlash jarayonini tashkil etish va tekshirib turish oson bo'ladi. Xohlovchilarni qabul boshlanishidan ancha oldin bu haqda habardor qilish kerak. Biroq faqat gazetada e'lon qilish yoki radio orqali axborot berish zarur samara bermaydi. Murabbiylarning maktablarga kelishi va tanlash ishi boshlanishidan 4–5 kun oldin bolalarni xabardor qilishi eng yahshi vositadir. Bolalar kirish imtixonlariga maktab shifokoridan o'z salomatliklari haqida ma'lumotnoma olib kelishlari kerak.

Tanlash ishi boshlanishiga qadar qabul komissiyasini tashkil etish va inventarlarni, mashg'ulot joylarini, nazorat sinov "stansiya"larini puhta tayyorlab qo'yish, shuningdek, natijalarni qayd qilish uchun bayonnomalar tuzish zarur.

Zamonaviy futbol sportchilarning jismoniy sifatlariga, sog'lig'iga ruhiyatiga turli va yuqori talablar qo'yadi. Yosh futbolchilarni tanlashda ularning umumiy va maxsus qobilyatiga ahamiyat beriladi. Texnik tayyorgarlik darajasiga, ya'ni "o'ynashni bilishiga" eng kam e'tibor qaratiladi. Bu mezon yosh futbolchining musobaqa tayyorgarligini hisobga olmaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shunday bolalar borki, futbol bo'limiga kirganda texnik va o'yin ko'rsatkichlari unchalik baland darajada bo'lmaydi, lekin jismoniy va psixologik omillari yuqori darajada bo'lganligi sababli, ularning texnik-taktik mahorati tez o'sadi.

Birinchi tanlovda qo'llash mumkin bo'lgan kompleks ko'rsatkichlar mavjud.

Bunga oltita test ko'rsatkichi kiradi.

1. Muhimi, ko'pincha, tug'ma hisoblangan yugurish tezligi. Tezkorlik sifatlarini baholash uchun 30 metrga yugurish tavsiya qilinadi.

2. Qobilyatni rivojlantirishda tezkorlik-kuch imkoniyatlari katta rol o'ynaydi. Buni yugurib kelib, ikki oyoqda depsingan holda yuqoriga sakrashning balandligi orqali baholash mumkin.

3. Muxim sifatlardan biri bu ephillikdir. Uning 12–13 yoshdan keyin rivojlanishi qiyin bo'ladi. Tanlashda umumiy va maxsus ephillikni hisobga olish kerak.

4. Maxsus koordinatsiya dribling orqali baholanadi (5 ta doirani aldab o'tish).

5. Eng muhim ruhuy sifatlardan biri o'yinni idrok eta bilish va mo'ljalga olishdir.

6. Tanlashning oxirgi bosqich ko'rsatkichi – bu "o'yin shiddati va jangovorlik sifati".

Shunday qilib, birinchi bosqichda 6 ta test va ko'rsatkichlar o'yin paytida baholanadi.

Bu tanlash dasturi 30-50 ta boladan kirish imtixonlarini qabul qilishga mo'ljallangan.

Buning uchun tanlash jarayonini yaxshi tashkil qilish kerak. Nazorat sinovlarini 4 ta stansiya bo'lib qabul qilish lozim. Birinchi stansiyada 30 metrga yugurish qabul qilinadi. Ikkinchisida – yuqoriga sakrash. Uchinchi stansiyada umumiy ephillik baholanadi. To'rtinchisida to'p olib o'tishda diqqatni taqsimlash qobilyati baholanadi. O'yinni idrok etish (yoki fikrlash) ikki taraflama mini futbol o'yinini jarayonida aniqlanadi.

Yosh futbolchilarning yiqqan ballari soni aniqlanib, ularning bahosi quyidagi baholash meyorlari jadvali orqali keltiriladi.

Qabul imtihonlari natijalari tahlil qilinganidan song baholar e'lon qilinadi [4].

Ijobiy baholarga erishgan bolalardan guruh tanlab olinadi. Ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lib, ammo sinovdan o'ta olmagan futbolchilar nomzodlar guruhiga olinishi mumkin. Ularga uy vazifasi yarim yilga

yoki bir yilga beriladi, so'ngra ular qayta ko'rikdan o'tishlari mumkin. Shuning bilan birinchi bosqich yakunlanadi.

Xulosa. Sportchilar tayyorgarlik tizimi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zamona-viy sportchilar natijalarini yanada oshirish ularning tayyorgarlik tizimini tubdan takomillashtirishni taqozo qiladi. Zamonaviy futbol bilan shug'ullanuvchilarning yuqori darajada jismoniy tayyorgarligini talab qiluvchi atletik sport o'yini hisoblanadi. Futbolchilarning zamonaviy sport tayyorgarligi ko'p komponentli tizimni nazarda tutadi. Tayyorgarlik ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ikki turga bo'linadi: tahliliy va integral.

Tahliliy tayyorgarlikka jismoniy, texnik, taktik, psixologik, nazariy tayyorgarlik, integralga esa o'yin, muammoli vaziyat va musobaqa tayyorgarligi kiradi. Boshlang'ich tayyorgarlik davrida o'yinchilar futbol uchun xos bo'lgan jismoniy qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerak. Tayyorgarlikning boshlang'ich bosqichida o'yinchilarning umumiy chidamliligi, tezkor-kuch va koordinatsiya qobiliyatlari va egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish vosita va uslublarini oqilona uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim[5].

Yosh futbolchilarni o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirishda futbol bo'yicha maxsus sinf o'quvchilarini harakatini mashg'ulotlarini rejalashtirishda o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамов Р.А. Талипджанов А.И. Подготовка футболистов высокой квалификации. Учебное пособие, Ташкент, 1994, с. 213.
2. Акрамов Р.А. Футбол. Ташкент, 2006, 317-бет.
3. Исеев Ш.Т. Футбол жамоаларининг галаба қозонишида футболчиларнинг стандарт вазиятларидан самарали фойдаланиш. "Педагогик таълим", 2-сон, 2003, 75-бет.
4. Исеев Ш.Т. Анализ атакующих действий футболистов высокой квалификации. "Наука-спорт", №1, 2004, с. 126.
5. Кошбахтиев И.А. Управление подготовкой футболистов высокой квалификации. Т., "Тротекс", 1998, с. 349.

Odilova Feruza Valijon kizi (Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat kafedrasini" assistenti) YOSH BASKETBOLCHILARNING JISMONIY VA FUNKSIONAL TAYYORGARLIK ASOSLARI

Аннотация. Ushbu maqolada yosh basketbolchilarning jismoniy va funksional tayyorgarlik asoslari, to'g'ri va o'z vaqtida qo'yilgan asosiy malaka va mahoratlarni shakllantirish jarayoni haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрены основы физической и функциональной подготовки юных баскетболистов. Описаны сведения о процессе формирования основных умений и навыков, которые задаются правильно и вовремя.

Annotation. In this article, the basics of physical and functional training of young basketball players were observed. The information about the process of formation of basic skills and skills, which are set correctly and on time, is described.

Kalit so'zlar: yosh basketbolchilar, sport tayyorgarligi, maxsus mashqlar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, texnik-taktik tayyorgarlik, funksional tayyorgarlik.

Ключевые слова: юные баскетболисты, спортивная подготовка, специальные упражнения, физическая подготовка, физические качества, технико-тактическая подготовка, функциональная подготовка.

Key words: young basketball players, sports training, special exercises, physical training, physical qualities, technical-tactical training, functional training.

Kirish. Ma'lumki, sport mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarni takomillashtirishda turli hajm va shiddatda qo'llaniladigan mashqlar yuklamasini nazorat qilish, umuman, sportchilarni takomillashtirishda shug'ullanuvchilarning fiziologik reaksiyasini e'tiborga olish juda zarur jarayondir. Chunki mashg'ulot jarayonida sportchilarning funksional imkoniyatlari doimiy nazoratda bo'lmasa, katta yuklamalar organizmni zo'riqishga, kichik hajmli va shiddatli yuklamalar esa uni shakllanishini susayishiga sabab bo'ladi. Binobarin, o'quv mashg'ulot jarayonida jismoniy sifatlarni takomillashtirish hamda texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantira borishda fiziologik reaksiyalar ko'rsatkichlariga e'tibor qaratish har bir mashqning fiziologik qiymatini bilgan holda undan foydalanish yuqori malakali sportchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir [1].

Sport mashg'uloti, xususan, tezlik-kuch sifatlarining fiziologik asoslari ko'pgina ilmiy va o'quv adabiyotlarida a'zaldan o'z ifodasini topib kelgan. Olimlar o'zlarining yirik ilmiy va o'quv asarlarida jismoniy sifatlarini, jumladan, tezlik-kuch sifatlarini takomillashtirishda organizmda ro'y beradigan holatlarni, barcha fiziologik o'zgarishlarni atroflicha tahlil qilib berganlar. Ularning fikriga ko'ra harakat malakalarning shakllanishi va jismoniy sifatning takomillanishi bilan bir qatorda, shug'ullanuvchilar organizmining funksional imkoniyatlari ham takomillashib boradi.

Yosh basketbolchilarni tayyorlashda, avvalambor, o'sayotgan organizmning fiziologik xususiyatlariga va tayyorlash vazifalarining ish xususiyatlariga mos kelishiga asoslanishi kerak. To'g'ri va o'z vaqtida qo'yilgan jismoniy va funksional tayyorgarlik asoslari asosiy malaka va mahoratlarni shakllantirish jarayoni bilan birgalikda kelgusida yuqori sport natijalariga erishish uchun yordam beradigan ishni olib borishga imkoniyat tug'diradi [2].

Quyidagi vaziyatlarni hisobga olish zarur:

1) yosh o'zgarishi bilan birga, bolaning organizmi ham o'zgaradi. Bu o'zgarishlar nafaqat son jihatdan (bo'y, vazn), balki sifat jihatdan ham egadirlar. Shuning uchun kattalarga qo'yiladigan talablarni, bolaning yoshiga mutanosib ravishda yuzaki tarzda kamaytirib, bolalarga qo'yish mumkin emas;

2) bola organizmining rivojlanishi uzluksiz, ammo notekis holda ketadi (kechadi). Ma'lum bir davrlarda muhim o'zgarishlar bo'lib o'tadi (bo'ynning mushak massasining o'sishi, organ va tizimlarining rivojlanishi har xil yoshga qarab bo'lingan davrlarda sur'at jihatdan ham, metabolik jarayonlar xarakteri jihatdan ham turlichadir). Masalan, qizlarning jinsiy yetilishi davri o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha ertadir, qizlar 11–13 yoshda bo'y va vazn jihatidan o'g'il bolalardan o'zib ketishadi, o'g'il bolalarda mushak kuchi 13–14 yoshda, ayniqsa, jadal ravishda o'sadi, qiz bolalarda esa 11–12 yoshda;

3) bolalarning jismoniy sifatning va boshqa qobiliyatlarning rivojlanish sur'atlari ma'lum bir davrlarga to'g'ri keladi. Natija ma'lum bir jismoniy sifatlarini va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulayroq shart-sharoitlar yaratiladi. Masalan, sezuvchanlik tezligi 15 yoshgacha rivojlanadi, yuqori tezlikning o'sishi 13–14 yoshlarga, ayniqsa, jadal ravishda bo'lib o'tadi. O'g'il bolalarda yuqoriga sakrash natijalarining eng yuqori o'sishi 9–13 yoshda kuzatiladi, keyinchalik, bu jarayon barqarorlashadi, qizlar esa ba'zan 15 yoshdan keyin vaqtinchalik yomonlashadi ham;

4) harakatning har xil turlarida qizlarning va o'g'il bolalarning ko'rsatkichlari yoshiga qarab bo'lingan guruhlariga qarab turlicha bo'ladi. Shuning uchun yosh o'sishi natijasida vujudga keladigan shart-sharoitlarni hisobga olish kerak;

5) har bir organizmning yakka tarzda rivojlantirishini yodda tutish zarur. Kalendar, pasport Yoshidan tashqari, jismoniy rivojlanish saviyasini, harakatlantiruvchi imkoniyatlarini, jinsiy yetilish va h.k. tasniflaydigan biologik yoshni ham hisobga olish tavsiya etiladi. Kalendar yoshi biologik yoshga to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Basketbol sport mashg'ulotlari jismoniy tayyorgarligida harakat (jismoniy) sifatlarini rivojlanishi tushuniladi: kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik. Sportda umumiy, yordamchi va maxsus jismoniy tayyorgarlik ajratiladi, ular sportchini musobaqaga tayyorlovchi vosita hisoblanadi. Sportchining jismoniy tayyorgarligini rivojlanishining baholanishini ko'rsatkichi nerv-muskul apparatining miqdoriy va sifat ko'rsatkichidir.

Har bir sport turning o'ziga xosligi mavjud buni yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin. Basketbol sport to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni bog'lovchi sifatida yordamchi jismoniy tayyorgarlikdan foydalanilish yuqori samara beradi [3].

Yosh basketbolchilarni tanlab olishda bir qator aniqlovchi tavsifnomalar ajralib turadi:

- a) bo'yining ko'satkichlari;
- b) jismoniy sifatning rivojlanish darajasi;
- d) texnik tayyorgarlik va harakatlarni tez o'rgatib olish qobiliyati;
- e) taktik fikrlash va mahoratni rivojlantiruvchi qobiliyatlar;
- f) ruhiy barqarorlik.

Bu qobiliyatga baho berish BO'SMga qabul qilish uchun tayyorlangan nazorat mashqlar va mezonlarga asos qilib olingan. O'quvchilar tanlash muvaffaqiyati oldindan, yaxshi tashkil etilgan ish bilan aniqlanadi. Uning asosiy mazmuni – bu BO'SM murabbiylarining umumiy ta'lim maktablari va ularning o'qituvchilari bilan uchrashuvlari, o'quvchilarni yig'ish, axborotlar, umumiy ta'lim maktablari negizida tayyorgarlik guruhlarini tashkil etish, musobaqalar va boshqa ommaviy tadbirlarga borib turishdadir. O'qitish natijalarini oldindan aytib berish ancha qiyin bo'lganligi uchun tanlov ikki bosqichga ajratiladi. Birinchi bosqichning maqsadi saralash tanlovining nomzodlarini aniqlash. Shuning uchun murabbiy maktabdagi jismoniy tarbiya darslariga, bayramlarga, musobaqalarga va boshqa tadbirlarga qatnab, oldindan katta miqdordagi bolalarni ko'rib chiqadi. O'quvchilarni tanlashdagi birlamchi mezonlar quyidagilardir:

sogʻligida nuqsonlarning yoʻqligi, harakatlarning muvofiqligi, umumiy harakatchanlik, oʻyinlar faoliyatiga moyilligi. Birlamchi koʻrikda tanlab olingan bolalar saralash tanloviga qoʻyiladi. U ismoniy sifatlar rivojlanishning boshlangʻich darajasi va maxsus qobiliyatlarini tavsiflovchi nazorat mashqlarning majmuasi boʻyicha oʻtkaziladi [4].

Bular tayyorlov guruhlarining oʻquv mashgʻulot ishlari jarayonida murabbiyning bundan keyingi kuzatuvlari uchun boshlangʻich koʻrsatkichlari boʻlib xizmat qiladi. Ikkinchi bosqich bolalarni oʻrganishda, ularning oʻqib-oʻrganish jarayoni va rivojlanishini kuzatishga qaratilgan. Bu davrda basketbol talablariga yakka qobiliyatlarining mos kelishi tekshiriladi. Bunda bolaning oʻzini tutishi, mustaqillik va jamoachilik hislarning namoyon boʻlishi, faolligi, dovyurakligi, maqsadga yiqilishi va sport-texnika koʻnikmalarini tez oʻrnashiga boʻlgan qobiliyati oʻrganiladi [5]. Oʻquvchilarni tanlash uslubiyati turli testlar majmuasini oʻz ichiga oladi. Ular qiziqtirayotgan omillar boʻyicha xolisona tavsifnomalar olish imkonini beradi: jismoniy sifatning rivojlanganlik darajasi, maxsus muvofiqlik, oʻyinga qobiliyatlar oliy asab faoliyatining xususiyatlari, ruhiy holatlari va shifokor koʻrsatmalari.

Xulosa. Yosh basketbolchilarni tarbiyalashda va ularning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda avvalo mahgʻulotni muntazam ravishda tashkillash talabi yuzaga keladi. Mazkur talabni bajarish uchun yosh basketbolchilarni mashgʻulot talablaridan bezitmasdan ishtiyoq bilan mashq bajarishlarini taʼminlash juda muhim hisoblanadi. Yuqorida taʼkidlangan yordamchi jismoniy tayyorgarlik shu vazifani amalga oshirishda juda ham yuqori samara berishi haqida maʼlumotlarni etiborga olgan holda tayyorgarlik turaridan oqilona va maqsadli foydalanish eng kerak vosita boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik, T., 2016, 410-bet.
2. Faxriddin Xoʻjayev. Basketbol. Uslubiy qoʻllanma, "Tafakkur", Toshkent, 2015, 96-bet.
3. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik, Toshkent, 2014, 284-bet.
4. F.A.Kerimov. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, "Zar qalam", 2014, 447-bet.
5. Portnov Y.M. Basketbol FvaS. 1997, 480-bet.

Boqiyev Xushrud (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti "Matematika va informatika" kafedrasini mudiri) PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ILMIY VA METODIK FAOLIYATNING MUHIM XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada taʼlim standartlari tahlili shuni koʻrsatdiki, informatika oʻqituvchilarini tayyorlash doirasida oliy taʼlimning davlat taʼlim standartlariga muvofiq va pedagogik yoʻnalishning turli yoʻnalishlari boʻyicha zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni taʼminlaydigan yagona fan mavjud yemas. Kompyuterni vizualizatsiya qilish texnologiyalari bilan bogʻliq fanlarning roʻyxati va koʻlami ham turlicha boʻladi.

Аннотация. Анализ образовательных стандартов в данной статье показал, что в рамках подготовки учителей информатики не существует единой науки, предусматривающей формирование необходимых профессиональных компетенций в соответствии с государственными образовательными стандартами высшего образования и по различным направлениям педагогического направления. Список и объем дисциплин, связанных с технологиями компьютерной визуализации, также будут варьироваться.

Annotation. The analysis of educational standards in this article has shown that within the framework of computer science teacher training there is no single science providing for the formation of the necessary professional competencies in accordance with state educational standards of higher education and in various areas of pedagogical direction. The list and scope of disciplines related to computer visualization technologies will also vary.

Kalit soʻzlar: kommunikatsiya, oʻquv jarayoni, bilim, koʻnikma, telekommunikatsiya.

Ключевые слова: общение, учебный процесс, знания, навыки, телекоммуникации.

Key words: communication, educational process, knowledge, skills, telecommunications.

Koʻp yillar davomida taʼlim tashkilotlarida metodik ishlar olimlar tomonidan faqat oʻquv jarayonini, yaʼni, oʻquv fanlarini oʻqitish metodlarini takomillashtirish, oʻqituvchilarning oʻquv ishlariga metodik tayyorgarlik darajasining oshishi bilan bogʻliq holda koʻrib chiqilgan. Oʻqituvchilarning fan va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bogʻliqligiga eʼtibor qaratilmagan. Tarixiy-pedagogik tahlil shuni koʻrsatdiki, 1980-yillarga qadar oliy taʼlim muassasalarida "ilmiy-metodik faoliyat" atamasi deyarli yoʻq edi va "metodik ish" tushunchasi bir maʼnoda umumeʼtirof etilgan. "Ilmiy-metodik faoliyat" tushunchasi nazariyasiga kirish pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi va oʻquv jarayoniga innovatsiyalarni keng joriy etish

zarurati, shuningdek, professor-o'qituvchining kasbiy faoliyati, ta'lim muassasalarining metodik funksiyalarini kengaytirish bilan bog'liq. Aynan 1980–90-yillar metodologiyani ilmiy va metodik faoliyat maqomiga o'tkazish davri bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ta'lim tizimining rivojlanishi bilan ta'lim muassasalarida metodik faoliyat shakllari va metodlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Shunday qilib, 1980–90-yillarda ta'limning ilmiy asoslarini shakl va metodlarda rivojlantirish munosabati bilan metodik ishning ilmiy komponentini mustahkamlash, uni bosqichma-bosqich ilmiy va metodik maqomga o'tkazish tendensiyasi mavjud. Ilmiy-amaliy seminarlar va konferensiyalar, ilmiy stajirovkalar, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish va boshqalar. tavsiya etilgan ish shakllarida kuchli o'rin egallashi lozim [1.223]. Y.K.Babanskiy asosiy vazifalarini tahlil qilib, ta'kidlaydi: "ta'lim muassasasi ichidagi metodik ishlarni, metodik birlashmalar faoliyatini, pedagogika fanining tavsiyalarini amalga oshirish, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar, o'qituvchilarning ochiq ijodiy hisobotlari, o'qituvchilarning hisobotlari va boshqalar amalga oshirilishi kerak" [2.30–31]. Uning bayonotlarida ilmiy va metodik ishlarga havolalar yo'qligiga qaramay, ular fanga e'tiborni aniq ko'rsatib turibdi. Ushbu e'tiborni A.Konarjevskiy, M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.I.Xudominskiy, T.I.Shamova va boshqalarning asarlarida topamiz.

Shunday qilib, 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida oliy ta'lim muassasalari kafedralarida ilmiy-metodik faoliyatni tashkil etishning quyidagi shakllari va metodlari qo'llanildi:

1. Tajribani bajarish va o'rganishda:

◆nazoratni tashkil etish va amalga oshirish;

◆metodik komissiyalar ishi;

◆dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarga qatnashish;

◆metodik tavsiyalar, pedagogik va axborot-texnik adabiyotlarni o'rganish, ilmiy jurnallar bilan tanishish;

◆seminarlar o'tkazish;

◆ko'rgazmalar tashkil etish va o'tkazish;

◆o'quv-uslubiy tavsifdagi hisobotlar va ishlanmalarni tinglash;

◆texnik axborot kunlarini o'tkazish;

◆boshqa ta'lim muassasalariga tashrif buyurish;

◆individual metodik ishlarni olib borish;

◆konferensiyalar tashkil etish va o'tkazish;

◆korxonalar innovatorlari bilan uchrashuvlar.

2. Tajribani targ'ib qilish va tarqatishda:

◆ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etish va o'tkazish;

◆tematik seminarlarni o'tkazish (ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-texnik, o'quv-uslubiy).

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkin, ilg'or pedagogik tajribani joriy etish jarayoni har yili kafeda professor-o'qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyati bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni, ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan tizimli nazoratni talab qiladi, pedagogik tajriba va o'quv jarayoniga pedagogik tajribani joriy etish jarayoni va natijalari ustidan nazorat funksiyalarini bajarish [2.61–64]. Nazoratning mavjud shakllari va metodlari orasida, masalan:

◆nazariy va ishlab chiqarish ta'limi darslarida qatnashish. Asosiy vazifa–amalga oshirilgan metodning samaradorligini tekshirish;

◆tajribani amalga oshirish natijalari bo'yicha metodik komissiyalar ma'lumotlarini eshitish.

Asosiy vazifa – ta'lim jarayonining sifati:

◆professor-o'qituvchilarning metodik faoliyati;

◆tajribani amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni aniqlash;

◆jurnallarni tekshirish va talabalar faoliyatini tahlil qilish.

Asosiy vazifa – fanni o'zlashtirish holatini, bilim, ko'nikma va malakalarning sifatinani aniqlash:

◆baholash vositalari va nazorat va o'lchash materiallari fondini ishlab chiqish [3.36–39].

Ilmiy-metodik faoliyatni tashkil etishga taqdim etilgan yondashuvda muallif faqat bitta muammo bo'yicha o'quv jarayoni subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etishga e'tibor qaratdi–ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etishda ilmiy va metodik faoliyat keng doiralarni o'z ichiga oladi. T.I.Shamova o'zining ilmiy-metodik ishida uchta komponentni ajratib ko'rsatdi, ularning integratsiyasi vazifalarga muvofiq professor-o'qituvchilarning kasbiy va intellektual o'sishini ta'minlashi mumkin:

◆metodik tayyorgarlik, bilim va madaniyat darajasini oshirish;

◆kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish;

◆umumiy anglab yetishni kengaytirish [4].

Butunittifoq davrida oliy ta'limda ilmiy-metodik markazlar uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan ilg'or pedagogik tajribaning yangiliklari haqidagi ma'lumotlarni markazlashtirilgan tarzda tarqatish bo'yi-

cha barcha muammolarni hal qila olmadi. Respublika va shahar o'quv-uslubiy boshqarmalari asta-sekin yo'q bo'lib ketdi. Ta'lim muassasalarida ish tartibsiz olib borildi, ko'plab uslubiy materiallar to'plandi, ular talab qilinmadi, yillar davomida bir necha nusxada saqlandi, xolos. Saqlash faqat uslubiy xizmat mutaxassislarining ishiga to'sqinlik qildi va o'qituvchilarning tashabbusi va mustaqilligini kamaytirdi. Amalda, o'z biznesini yaxshi biladigan va ish usullarini biladigan mutaxassis o'qituvchi pedagogik ish tajribasi natijalarini rasmiylashtirishda qiynaladigan holatlarga ham uchradi [5]. Professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ma'ruzalar va xabarlar tinglovchilarning ularning mazmunini tushunishining mohiyatini aks ettirmaydi. Sababi shundaki, ma'ruzachi va jamoa turli xil konseptual apparatlarga ega, xabar tinglovchilarning xarakteriga to'g'ri kelmaydi, bu esa muloqotni ancha qiyinlashtiradi. Bu biz psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida aniqlay olgan muammolarning to'liq ro'y-xati emas. Professor-o'qituvchilar uchun qiyinchiliklar ilmiy va metodik faoliyat funksiyalarini aniqlash darajasida ham yuzaga keladi.

1990-yillarning boshlarida ta'lim muassasalari yangi, tegishli ilmiy ma'lumotlarni olishda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirishda davom etishdi. Innovatsiya rejimida ishlaydigan ta'lim muassasalarida ushbu yillarda ilmiy va metodik faoliyat katta hajmi egallay boshladi. Ilmiy tadqiqotlarda, yangi o'quv va o'quv dasturlarini, didaktik va diagnostika materiallarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishda ishtirok etadigan o'qituvchilar ushbu davrda ilmiy xarakterga ega bo'lgan jarayonga tobora ko'proq jalb qilingan. Ilmiy va metodik faoliyat mohiyatini nazariy ta'riflashning birinchi urinishlari paydo bo'ladi. K.Y. Litkensning so'zlariga ko'ra, ilmiy va metodik faoliyat va an'anaviy metodik ish o'rtasidagi asosiy farq "fanda mavjud bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishda emas, balki mustaqil izlashda, yangi bilimlarni olishda" [6].

K.Y.Litkens quyidagi ta'rifni keltirdi: "ilmiy va metodik ish – bu ilmiy tadqiqot bo'lib, uning maqsadi ma'lum bir fanni o'qitish sohasida va tanlangan mavzu doirasida o'zlarining, ya'ni muallifning xulosalari va natijalarini (nazariy va amaliy) olishdir" [7]. Bugungi kunda bu zamonaviy ilmiy nashrlarda mavjud bo'lgan ushbu turdagi ilmiy va metodik faoliyatning yagona ta'rifidir. Bu ta'rif, bizning fikrimizcha, haqiqatga yaqinroq. Ammo bu konsepsiyaning mohiyatini to'liq ochib bermaydi, chunki ilmiy va metodik faoliyatni faqat tadqiqot ustida ishlash uchun qisqartirish noto'g'ri bo'ladi.

Bizning konsepsiyamizga ko'ra, ilmiy-metodik faoliyat–bu o'quv jarayoni to'g'risida yangi bilimlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan kasbiy va pedagogik faoliyat sohasi bo'lib, uning natijasi professor-o'qituvchining ilmiy-metodik kompetensiyasining ijodiy darajasi, shu jumladan, bilim, ko'nikma, kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, shuningdek, o'qituvchining ilmiy-metodik malakasi, o'quv jarayoniga o'zlarining ilmiy va metodik mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Computer networking: a top-down approach. James F.Kurose, Keith W. Ross. 6th ed. 2013, by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite. Behrouz A.Forouzan. 4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright, 2010.
3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. М., «Народное образование», 2007, № 2, с. 54 – 55.
4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliotte Rusty Harold. 2014.
5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014.
6. Karimov Q.M., Razzoqov I.D. Mathcad va Matlab muhitida ishlash. O'quv-uslubiy qo'llanma, "Nasaf", 2014.
7. Djo'rayev M. Fizika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma, T, 2015, 280-bet.

Matyakubova Gulnoza (UrDu stajyor-tadqiqotchisi)

SHARQ PEDAGOGIKASIDA NOSRIDIN TUSIYNING TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALARINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tusi merosi butun Yaqin va O'rta Sharqning qomusiy bilimlar xazinasi bo'lib, butun Sharq olamidagi ilmiy ishlarini o'rganganligi tufayli Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hamid Al-Xo'jandiy kabi mashhur olimga aylanganligi ochib beriladi. O'rta va O'rta Sharq maktablarida axloqiy darslik sifatida mashhur bo'lganini tushuntiradi.

Аннотация. В данной статье раскрывается наследие Тусий, которое является сокровищницей энциклопедических знаний всего Ближнего и Среднего Востока благодаря изучению его научных работ во всем Восточном мире. Это объясняет его популярность в качестве учебника морали в школах Ближнего и Среднего Востока.

Annotation. In this article, it is revealed that Tusi's heritage is a treasure of encyclopedic know-

ledge of the entire Near and Middle East, and he became a famous scientist such as Abu Ali ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, Hamid Al-Khojandidee to his study of his scientific works in the entire Eastern world. It explains why it became popular as a moral textbook in Middle and Middle Eastern schools.

Kalit so'zlar: qomusiy bilimlar, sharqona tafakkur, ilmiy-badiiy meros, madaniyat, Uyg'onish davri, huquq, umuminsoniylik, milliy tafakkur, taraqqiyot, ishonch, ilm-fan, maorif, pedagogik g'oyalar, axloq.

Ключевые слова: энциклопедическое знание, восточная мысль, научно-художественное наследие, культура, Возрождение, право, всеобщность, национальная мысль, развитие, вера, наука, образование, педагогические идеи, этика.

Key words: encyclopedic knowledge, Eastern thought, scientific and artistic heritage, culture, Renaissance, law, universality, national thought, development, faith, science, education, pedagogical ideas, ethics.

Tusiy merosi butun Yaqin va O'rta Sharqning qomusiy bilimlar xazinasini bo'lib, sharqona tafakkur tarzining shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Biz uning ilmiy-badiiy merosini madaniy tariximizning Uyg'onish davriga mansub ma'naviy boyligimizning bir qismi deb bilishga va qonuniy meros huquqini e'lon qilishga haqlimiz. Tusinning boy ilmiy-badiiy merosining umuminsoniylik bilan bir qatorida milliy tafakkur tariximizga ham tegishliligi va uning keyingi taraqqiyot manbalaridan biri ekanligi, kelib chiqishi o'g'uzlarga tegishli ekanligi buni asoslab beruvchi asosiy omildir.

Nosiriddin Tusiy butun Sharq olamidagi ilmiy ishlarini o'rganganligi tufayli Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hamid al-Xo'jandiy kabi mashhur va mashhur olimga aylandi. Ko'p jildli «Kebrijning Eron tarixi» (ingliz tilida) ensiklopediyasi mualliflari Tusin merosi haqida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi. B.Beyl (Manchester universiteti), A.Bauza (Neapol Sharqshunoslik instituti), Y.Rypka va boshqa olimlarning maqolalarida N.Tusining serqirra ilmiy faoliyati, Marog'a rasadxonasining ilmiy yutuqlari yuksak baholangan. Uning entsiklopedik bilimga ega ekanligi o'z davrida ham hamma ma'lum edi.

1235-yilda Nosiriddin Tusiy va'dasini bajarib, butun Sharqda katta shuhrat qozongan «Axloqi-Nosiriy» asarini tayyorlab, hukmdorga taqdim etadi. Asarning nusxalari qisqa vaqt ichida Kavkaz, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston va boshqa mamlakatlarda tarqalib, Hulakuxon uning nusxasi bilan uchrashib, natijada Tusiyga hurmat va ishonch bildiradilar. Nosiriddin Tusiy «Axloqi-Nosiriy» asari bilan Sharq xalqlarining ilm-fan, ma'orif va pedagogik g'oyalari tarixiga Sharq xalqlarining axloq nazariyotchisi sifatida kirib keldi. N.M.Abdusamadov ta'kidlashicha, «Falsafiy tadqiqotlar va tarixnavislik bazasini kengaytirish uchun mashhur tojik faylasufi, akademik M.Dinorshoyevning «Nosiriddin Tusiy falsafasi» monografiyasi katta ahamiyatga ega. Asarda Tusiy hayotidan bir qancha rivoyat yoki hikoyatlar keltirilib, uning hayotligida Xoja ham Ibn Sino kabi xalq orasida katta nufuzga ega bo'lganidan dalolat beradi. M.Dinorshoev Tusiy nafaqat Ibn Sino falsafasini G'azzoliy va Roziyning shiddatli hujumlaridan himoya qilgan, balki uni rivojlantirishga ham erishgan, deb ta'kidlagan. Binobarin, Dinorshoev M.ning xulosalari M. Boltaevning fikrlariga ziddir. M. Dinorshoev Tusiyning «Asas-ul-iktibas», «Ravzat-ut-taslim», «Sharx-ul-ishorat», «Isboti vojib», «Axloqi Nosiriy» asarlarini o'rganib, shunday xulosaga keladi: Nosiriddin Tusiy materializm va idealizm o'rtasida o'zgarib turdi. Bu uning metafizik bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq, M. Dinorshoev tojik olimlari oldiga qator vazifalarni qo'yadi. U, eng avvalo, Tusiy falsafasini o'zidan oldingilar bilan bir qatorda zamondoshlari bilan ham qiyoslaydi. M.Dinorshoyev shunday xulosaga keldiki, faqat Nosiriddin Tusiyning so'z erkinligi nazariyasi asosida uning ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarini o'rganish, shuningdek, aniq fanlar va tabiatshunoslikka oid asarlarini har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega».¹

Adolat uchun shuni aytish kerakki, aynan Nosiriddin Tusiyga matematika va munajjimlikka oid bitilgan «Zic Elxoniy» kabi asarlari jahon miqyosida shuhrat keltirgan, «Axloqiy-Nosiriy» esa uni xalqning mehrini qozongan. Sharq, agar u Marog'aa rasadxonasi bo'lsa. Bu asar o'z mazmunining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, falsafiy-tarbiyaviy xarakteri jihatidan alohida ahamiyatga ega. Bu nima uchun u 700 yildan ortiq vaqt davomida O'rta va O'rta Sharq maktablarida axloqiy darslik sifatida mashhur bo'lganini tushuntiradi. Bu kitob xalq orasida keng tarqaldi. «Axloqiy-Nosiriy» o'zidan oldin Yaqin va O'rta Sharqda hukm surgan axloqiy-falsafiy va pedagogik g'oyalarning o'ziga xos sarhisobidir. Tadqiqotchilarning fikricha, so'nggi 700 yil ichida fors tilida «Axloqiy-Nosiriy»dek ikkinchi asl asar hali paydo bo'lmagan. O'sha asarida Nosiriddin Tusiy mohir muallim, ajoyib tarbiyachi ekanligini ko'rsatdi. Insonning tug'ma qobiliyat va iste'dodi, muhit va sharoitning insonga ta'siri haqida keng to'xtalib o'tgan muallif bu asarida ta'lim va tarbiyaning nihoyatda muhim o'rin tutishini hayotiy misralar bilan ko'rsatib ber-

¹ Абдухамидов Н.М. Вклад Ходжа Насируддина Туси в развитие науки и образование таджикского народа. Диссертация ... кандидата исторических наук, Душанбе, 2021, с. 162.


gan.¹

Nosiriddin Tusiy qadimgi falsafaning Sharq dunyoqarashiga asoslangan qarashlariga murojaat qilib, borliqning asosi olov, suv, tuproq va havo kabi to'rt unsur ekanligini ta'kidlagan. Nosiriddin Tusiy dunyoqarashiga ko'ra, materiya hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi, u shunchaki bir shakldan ikkinchi shaklga o'tadi.

Nosiriddin Tusiy ilk ta'limni otasi Muhammad ibn Hasandan oladi. Yoshligida u bilimni oshirish maqsadida Yaqin va O'rta Sharqning bir qator yirik shaharlarida bo'lgan. Sharqning ko'plab shaharlarida bo'lgan Tusiy Nishopur shahrida o'sha davrning bir qancha ko'zga ko'ringan allomalari, jumladan Fari-duddin Damadla, Qutbiddin Misriylar bilan uchrashib, ulardan saboq olgan. Nosiriddin Tusiy hayotligida bosqinchi hukmdorlarning nohaqliklariga duchor bo'lib, ko'p marotaba o'z shahri va qishlog'ini tark etgan.

1259-yilda Tusiy taklifi bilan Janubiy O'zbekning Marog'aa shahri yaqinida rasadxona quriladi. Rasadxonaning joylashuvi shu qadar aniq tanlanganki, u yerda hamon rasadxona faoliyat yuritmoqda. O'sha paytda Marog'aa astronomik rasadxonasining qiziqishi teng emas edi. Sharqda keyinroq qurilgan rasadxonalar aynan Marog'aa rasadxonasi rejasi asosida qurilgan. Bu rasadxonada eng murakkab asboblardan, eng nodir kitoblardan jamlangan. Bu yerga butun dunyodan mashhur olimlar taklif qilingan. Darhaqiqat, rasadxona matematika va astronomiyaning yirik ilmiy markaziga aylandi. Hulakuxon Tusiyga bu akademi-yaga olimlar va bilimdon kishilarni jalb qilishni buyuradi. Ayni paytda Nosiriddin Tusiy Marog'aa rasadxonasida katta kutubxona ham yaratgan. Nosiriddin Tusiy Bag'dod, Damashq, Mosul, Xuroson va boshqa shaharlarda bo'lib, qimmatli kitoblarni to'plab, Marog'aga olib kelgan. Bir qator tarixiy hujjatlardan ma'lumki, Nosiriddin Tusiy Marog'aa rasadxonasida o'quv mashg'ulotlari bilan ham shug'ullangan. Uning «Evklidning geometrik usullari kitobi» uzoq vaqt davomida o'quv qo'llanma sifatida ishlatilgan.

$$a/b = 2$$



Tusi juftligi radiusli doirani radiusli aylana ichiga aylantirish natijasida olingan 2 burchakli giposikloiddir. Natijada Tusiy ta'kidlaganidek, a2a chiziq segmenti hosil bo'ladi.

Nosiriddin Tusiy buyuk daholardan biri va ilm-fan tarixidagi eng yorqin yulduzlardan biri edi. U XII asr fanlarining barcha sohaları – astronomiya, matematika, fizika, trigonometriya, geometriya, tarix, falsafa, huquqshunoslik, mantiq, geologiya va nihoyat, ilohiyot fanini o'z ichiga olgan nodir qomusiy bilimga ega mutafakkir edi. Tusiy nafaqat bu fanlarning bilimdoni, balki ijodkor va tadqiqotchi ham bo'lgan, bu sohalarda fundamental ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarning har biri fan tariximizning yorqin sahifalaridir. Olimning «Evklid sharhi», «Harakatdagi Yer», «Almagest tahlili», «Kecha va kunduz», «Teleskop haqida», «Ikki samoviy jism», «Quyosh chiqishi va botishi», «Koinot jismlarining ko'rinishi», «Globus» va silindr», «Konuslar», «Ayra kvadrati», «Nurning yo'nalishi va aksi», «Soxta tong», «Yulduzlar tasvirlari», «Mantiqdagi asosiy iqtibos», «Kalom ilmi», «Axloqiy nasr», «Boshlanishi va oxiri», «Taqvim va yulduzcha qarash», «Astronomiya ilmiga oid 30 bob», «Musiqha haqida», «Ramal (she'r vazni) haqida» va boshqalar. 100 ga yaqin boshqa asarlar sakkiz asr davomida dunyoning eng yirik olimlari tomonidan o'rganilgan, tahlil qilingan va tadqiq etilgan.²

Nosiriddin Tusiy O'rta asrlar Sharqida ham buyuk qomusiy olim, ham atoqli faylasuf sifatida shuhrat qozongan. U matematika, astronomiya, mineralogiya va boshqa fan sohalariga oid qimmatli asarlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa, axloqqa oid asl risolalar ham yozgan. Ilk ta'limni otasidan olgan Nosiriddin Ibn Sino falsafiy maktabiga mansub, Abu Abbas Logariyning shogirdi Sadriddin Saraxsiy, Abulhasan Bahmanyorning shogirdi Qutbiddin Misriydan tahsil olgan. Olingan har tomonlama va chuqur bilim

¹ Лейн Д. Краткая история. Монголы. Перевод с английского Тимура Сафина. Москва, КоЛибри, «Азбука-Аттикус», 2020, с. 302.

² Очерки истории исламской цивилизации. В 2-х т., Ю.М.Кобищанов и др., под общ. ред. Ю.М.Кобищанова, Москва, «РОССПЭН», 2008, с. 934.

Tusiyini qisqa vaqt ichida ilmiy muhitda mashhur qildi. Kuhiston ismoiliylarining yetakchisi Nosiriddin Mohtasham o'ttiz yoshida uni o'z saroyiga taklif qiladi va yosh olimdan odob-axloq haqida kitob yozishni so'radi. Nosiriddin Tusiy 1235-yilda o'ziga jahon shuhratini keltirgan mashhur «Axlagi Nosiriy» asarini yozib tugatdi va ko'plab tillarga tarjima qilindi. Biroq oradan ma'lum vaqt o'tgach, Tusiy qandaydir norozilik tufayli hibsga olinib, ismoiliylarning yetib bo'lmas tog' cho'qqilarida joylashgan «Alamut» («Burgut uyasi») qal'asiga olib ketiladi. U qamoqda o'tirganida ham ijod va izlanishlarini davom ettirdi. Bu davrda Evklid, Ptolemey, Arximed, «Axloqiy-Nosiriy», «Sharh al-Ishorat», «Tahririy-Euglidis» va boshqalar asarlariga sharhlar yozgan.

Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna (UrDU dotsenti),

Saparboyeva Gulnoza (UrDU magistri)

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga bag'ishlanadi. Unda nutqiy kompetensiya o'z ichiga tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozishni olishi ta'kidlanib, bu ko'nikmalarining “Ona tili va o'qish savodxonligi” darslarida rivojlantirilish jarayoni tahlil qilinadi.

Аннотация. Данная статья посвящена развитию речевой компетенции учащихся начальных классов. Подчеркивается, что речевая компетентность включает в себя аудирование, говорение, чтение, письмо, и анализируется процесс развития этих навыков на занятиях «Родной язык и грамотность чтения».

Annotation. This article is dedicated to the development of students' speech competence in primary education. It emphasizes that speech competence includes listening, speaking, reading, writing and the process of development of these skills in “Mother language and reading literacy” classes is analyzed.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish tamoyillari, savol-javob, qayta hikoyalash, hikoya yozish.

Ключевые слова: начальное образование, компетентность, речевая компетентность, принципы обучения родному языку и грамоте чтения, вопрос-ответ, пересказ, сочинение рассказа.

Key words: primary education, competence, speech competence, principles of teaching mother tongue and reading literacy, question and answer, retelling, story writing.

O'zbekiston taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'lishi hamda iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi milliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimi oldiga zamonaviy milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish uchun zarur bo'lgan bir qator muhim vazifalar qo'yilgan. Bu vazifalar “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topish”¹ lariga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini hisoblanib, unda ona tilini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish belgilangan.

Kompetensiya tushunchasi lotincha *competentia* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, izohli lug'atda qonunan ega, haqdor degan ma'noni anglatadi, umumiste'molda keng ishlatiladigan qobiliyat, ko'nikma, iqtidor tushunchalariga yaqin turadi.² O.I.Okulovskiy kompetensiyalar va kompetensiyali ta'lim xususida fikr yuritib, “Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy fazilatlariga asoslangan holda muayyan yo'nalishda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish ko'nikmasi” ekanligini ta'kidlaydi.³

Kommunikativ kompetensiya – shaxs tomonidan til va nutq madaniyatini bilish asosida shakllantirilgan turli kommunikativ hodisa va vaziyatlardagi nutqiy axloq tizimidir. “Bu tizim tarkibiga kommunikativ rollarni (so'zlovchi va tinglovchi), shuningdek, ijtimoiy rollarni, nutq strategiya va taktikalarini, eti-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T., “O'zbekiston”, 2017.

² Словарь иностранных слов. Москва, “Русский язык”, 1988, с. 91.

³ Окуловский О.И. Компетенции и компетентностный подход в обучении. “Молодой ученый”, Москва, 2012, № 12, с. 499 – 500.

ka va odoq-axloq qoidalarini egallash kiradi, ularda ushbu madaniyatni qabul qilgan shaxsning turli ijtimoiy guruh vakillari bilan har xil sabab va vaziyatlarda aloqada bo'lish usullari orqali ifodalanadi".¹

Boshlang'ich ta'lim DTSda ona tili uchun tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar tizimida *kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi* kabilar belgilab berilgan.² Bu kompetensiyalar o'quvchilarga ona tili va o'qish savodxonligi fani orqali singdirib beriladi.

Boshlang'ich ta'limda esohiy e'tibor nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratiladi. Nutqiy kompetensiya o'z ichiga tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozishni oladi.

O'quvchi bu kompetensiyani hali maktabga kelmasdan oldin – go'daklik chog'idayoq egallashni boshlaydi. Bola hali maktabga kelmay turib ham til imkoniyatlaridan amalda muayyan darajada foydalanish malakasiga ega bo'ladi. Xususan, o'ziga berilgan so'roqlarga javob beradi, o'z ehtiyojlarini bildiradi, atrofidagi voqeliklarga munosabatini ifoda eta oladi. Boshlang'ich ta'limda, umuman, umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida nutqiy kompetensiyani mukamallashtirish va rivoj toptirish muhim sanaladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

1. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, onglik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi.

3. Grammatik savodxonlik doirasida o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgaralar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishga e'tibor qaratiladi.

4. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

5. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

6. O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunishi va his eta olishi, "so'zni hazm qila olish" imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

8. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

9. Yozma nutq bilan bog'liq beriladigan topshiriqlarda yozish strategiyalari taqdim etiladi.³

Aytish joizki, odatda, bolaning bog'lanishli nutqini o'stirish, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berib boriladi, ammo bu jarayonda qanday qilib yozish masalasi e'tibordan chetda qoladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim uchun yaratilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida mazkur jihatlarga e'tibor qaratilgan. Ya'ni, noto'liq matnni to'ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar

¹ Матвеева Т.В. Учебный словарь: русский язык, культура речи, стилистика, риторика. М., "Наука", 2003, с. 414

² Umumiy o'rta ta'limning davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi (boshlang'ich ta'lim). T., 2017, 15-bet.

³ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2021, 6-bet.

asosida yozish; savollarga ketma-ketlikda javob yozish; sujetli rasmlar asosida matn yozish kabi kabilar o'quvchilarning yozish malakalarini hamda bog'lanishli nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi "Mening oilam" bo'limi oila a'zolari, qavm-qarindoshlarning nomlarini bilish bilan boshlanadi.¹ Bola endi tilni o'rgana boshlagan paytda eng ko'p ishlatadigan so'zlari ham "ota", "ona", "aka", "opa" kabi qarindoshlik so'zlari bo'ladi. Atrof-olam haqida bolaga ilk taassurot va bilimlarni beradigan kishilar ham qarindoshlari hisoblanadi. Bola o'ziga ilk davrlardan tanish so'zlarni o'qib:

- 1) o'zi uchun anchayin tanish va qadrlil so'zlarni o'qiydi;
- 2) ma'lum sabalarga ko'ra o'rgangan sheva so'zlarini me'yorlashtiradi;
- 3) ularning qiladigan ishalri bilan tanishib, bilimi oshadi;
- 4) o'z oila a'zolariga nisbatan yaqinlik oshadi.

Bu bo'limda "Hoshimjonning oilasi" matni ham berilgan bo'lib, bu matn tahlili orqali X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romani qahramonlari bilan qisman tanishadilar. Ushbu asar asosida ishlangan badiiy film o'quvchilar o'rtasida muhokama qilinib, savol-javob o'tkazilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Filmdagi qiziqarli voqealar, sarguzashtlar o'quvchilarnig aytib berish istagini kuchaytirish, ularda tasavvurlarida qolgan voqealarni bo'lishishni xohlashlari va aytib berishlari nutqiy imkoniyatlari hamda ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, darslikdagi matn asosida berilgan savollarga javob topish orqali o'quvchilar asar haqida yanada to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishadi. O'qituvchi yordamida o'quvchilar traktorchilik, shifokorlik va boshqa bir qancha kasblar yuzasidan ham suhbat tashkil qilishlari mumkin. Suhbat o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, yuqorida aytilgan kasblarning foydali, qiziqarli tomonlari haqida bo'lishi kerak.

"Ular sizga kim?" mavzusidagi topshiriq turida o'quvchilar dastlab, rasmda ko'rsatilgan kishilarning qarindoshlik nuqtayi nazaridan nomini topishadi, so'ng o'zlari bilan bog'liq kishilarni ham xuddi shunday tartib asosida aytib berishlari mumkin

"Ular haqida nimalarni bilasiz?" topshirig'ida o'quvchilar asar qahramonlari haqida ikkitadan ma'lumot aytadilar. Albatta, o'quvchilarning ma'lumotlari bir xil bo'lmaydi. Bu usul o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish bilan birga ularni tanqidiy fikrlashga ham o'rgatadi. Shuningdek, asar qahramonlari haqida yanada ko'proq bilimga ega bo'lishlariga yordam beradi.

"Qoida bilan tanishning" belgisi ostida kishilarning ism va familiyasi har doim bosh harf bilan yozilishi haqidagi ma'lumot o'quvchilarning grammatik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi va savodli yozish ko'nikmasini rivojlantiradi. Ushbu grammatik qoidani mustahkamlash uchun bo'limning 4-topshirig'ida Hoshimjonning hikoyasidan yuqoridagi qoidaga mos keluvchi so'zlarni topib yozish aytiladi. O'quvchilar matn asosida ishlash bilan birga bosh harf bilan boshlanadigan so'zlarni ajratadilar. O'quvchilarning xotirasida kishilarning nomlari doimo bosh harf bilan yozilishi xususidagi ma'lumot saqlanib qoladi.

X.Komilov qalamiga mansub "Mehribon kelinoyi" she'ri orqali o'quvchilar dangasa o'quvchining maqtanchoqligi va dangasaligi sabablarini bilib olishadi. Bu she'r dastlab o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Keyin biror o'quvchiga o'qitiladi. She'rning mazmuni qayta hikoya qilinishi bilan o'quvchilarning eshitganlarini anglash ko'nikmasi rivojlantiriladi. Savollardan foydalanib suhbat tashkil qilinadi. Suhbatda darslikdagi berilgan savollarga javob topiladi.

1. Bu she'rda qanday voqea haqida so'z boradi?
2. She'rdagi voqealarni so'zlab berayotgan bolani tasvirlab bering.

Bu savollarga har bir o'quvchining o'z qarashlari bo'ladi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning har biridan fikrini ayta olishiga imkoniyat yaratib berishidir.

Savol-javob asosida tashkil etilgan suhbatda mavzuni ko'proq o'quvchilarni o'ylantiradigan, fikrlashga majbur qiladigan savollarga qaratish ularning mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Quyidagi savollar berilishi mumkin:

1. Sizningcha, bu bola maktabda qanday bahoga o'qiydi?
2. O'zining uy vazifasini boshqalarga bajartirishiga qanday qaraysiz?
3. Kelinoyisi bolaga yaxshilik qilyaptimi? Nima uchun?

Bu kabi o'quvchilarning hayot tarzi bilan bog'liq savollar atrofida ko'proq muhokama uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹ Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'limning 1-sinfi uchun darslik, 1-qism, Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2021, 6 – 16-betlar.

Bo'lim so'ngida rasmga qarab kichik hikoya tuzish topshirig'i berilgan bo'lib, bu vazifa o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmasligi uchun rasm asosida savol-javob suhbat tashkil qilib olish zarur. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini bilganlaricha aytib berishlari lozim. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchining fikrini qabul qilishdan iborat bo'ladi. Biror o'quvchiga bildirgan fikrining noto'g'riligini aytish uning boshqa fikr bildirmasligiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Suhbatning mazmuni hikoya tuzishga qanday yondashish lozimligini fikr bildirgan o'quvchilar misolida ko'rsatib berish hisoblanadi. Barcha o'quvchilarning hikoyasi bir fikr qolipida bo'lib qolishiga aslo yo'l qo'yimaslik kerak bo'ladi.

Suhbat oxirida fikrlar umumlashtiriladi va o'quvchilarga hikoya yozishga vaqt beriladi. O'quvchilar bir necha gapdan iborat hikoyalarni o'z oila a'zolarini ishtirok qildirib yozib, partadoshiga o'qish uchun beradi. O'z o'rnida o'zi ham partadoshining hikoyasini o'qib fikr bildiradi. Bu jarayonda o'quvchilar partadoshining fikr bildirishi, xato kamchiliklari ustidan kulmasligi uqtiriladi.¹

Ko'rinidiki, boshlang'ich sinf o'quvchisining nutqiy kompetensiyasi notanish matnni uning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib ifodali o'qiy olish, boshqalar fikrini va tanishgan matn mazmunini tushunish va qayta og'zaki bayon qila olish, fikrini yozma ravishda izchil ifodalashda namoyon bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi nutqiy kompetensiyalarni har bir darsda o'rganilayotgan mavzu doirasida rivojlantirib borishi lozim. U darslikdagi savol-topshiriqlar bilan cheklanib qolmasdan qo'shimcha didaktik materiallardan foydalanishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sanoqulov Furqat (TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Matematika va tabiiy fanlar" kafedrasida assistenti)
KREDIT-MODUL TIZIMIDA FIZIKADAN EKSPERIMENT OLIB BORISH METODIKASI

***Annotatsiya.** Fizika o'quv fani, birinshi navbatda, fundamental fan ekanligi asosida "Dasturiy injiniring" o'quv rejasida muhim o'rin tutadi. Uning asosiy vazifasi fizika o'qitish metodikasini mazmunan ishlab chiqishga ko'maklashishdan iborat.*

***Аннотация.** Данная статья заняла важное место в учебной программе "Разработка программного обеспечения", в ней дается обоснование того факта, что физика – это прежде всего фундаментальная наука. Основная задача – способствовать разработке содержания методики преподавания физики.*

***Annotation.** This article has taken an important place in the curriculum "Software Development", based on the fact that physics is primarily a fundamental science. Its main task is to contribute to the development of the content of the methodology of teaching physics.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion, elektron resurs, animatsiya, texnologiyalar, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, transfer, loyihalash, konstruktorlik.*

***Ключевые слова:** программные средства, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирование, конструкторский.*

***Key words:** software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.*


Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalarini tadqiqotchilik faoliyatining yagona jarayonida singdiriladi. Laboratoriya lotincha "labor"– mehnat, ish so'zlaridan kelib chiqqan. Qadim zamonlardan beri uning ma'nosi yuzaga kelgan ilmiy va hayotiy muammolarni hal qilish uchun aqliy faoliyat va fizikaviy harakatlardan foydalanish bilan bog'liq [2.120]. Fizikaviy eksperimentni tashkil etish aqliy va kasbiy faoliyat elementlari bilan chambarchas bog'liq [1].

Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlari bir qator kasbiy muammolarni, nostandart masalalarni, muhandislik muammolarni hal qilish imkonini beradi, fizikaviy kattaliklarni o'lchash usullari bilan tanishtiradi, xususan, fizik hodisalar dunyosiga yanada chuqurroq kirib borish imkoniyatini beradi; fizikaviy stendlar bilan ishlash, virtual yoki simulatsion dasturlar, dasturlash tillari bilan ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkonini beradi [3].

Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar o'z oldiga qo'yilgan maqsadni aniq tushunishlari lozim. Faqat aniq shakllantirilgan kasbiy kompetensiyalar kerakli natijaga erishishga imkon beradi [4. 109].

¹ Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi. T., "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 80-bet.

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar ishni yakunlashdan oldin, natijaga erishish yo'llari, kirish va chiqish diagnostikasi amalga oshiriladi, laboratoriya ishini himoya qiladi. 1-rasmda fizika fanidan laboratoriyaning mazmunli tuzilmasi ko'rsatilgan.



1-rasm. Fizikadan laboratoriya mashg'ulotining mazmunli blok-sxemasi.

Birinshi bosqichda laboratoriya ishi mavzusi bo'yicha o'qituvchi tomonidan nazariy yo'riqnoma tayyorlanadi. Laboratoriya ishi uchun quyidagicha hisobot tuziladi:

1. Ishning maqsadi.
2. Kerakli asbob va uskunalar.
3. Stendlar.
4. Fizik kattaliklarni aniqlash.
5. Fizik kattaliklarni o'lchash.
6. O'lchash xatoliklarini aniqlash.
7. Hisobot.

Ikkinchi bosqichda talaba laboratoriya professor-o'qituvchidan ruxsat oladi, ishni bajarishga ruxsat olgach, uni laborant ishtirokida bajarishga kirishadi. Tajriba natijalari jadvallarga kiritiladi.

Uchinchi bosqichda o'lchash natijalari qayta ishlanadi, kerakli qiymat aniqlanadi va o'lchash xatolari baholanadi, shundan so'ng ishni professor-o'qituvchiga ko'rsatadi [2].

Natijaning ishonchligini refleksiya qiluvchi xulosa bilan yakunlangach laboratoriya ishi maqsadiga erishiladi. Laboratoriya mashg'uloti uchun bir semestrga 30 soat, ya'ni 1 kredit ajratilgan.

So'nggi bosqichda talaba jadvalni to'ldiradi, xatoliklarni aniqlaydi va laboratoriya ishini o'qituvchiga topshiradi. Laboratoriya ishlari uchun kredit olish professor-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan savollarga javob berishi va hisobotni topshirish orqali ta'minlanadi.

Talabalarga uy vazifasi sifatida dasturlash tilida dasturiy mahsulot ishlab chiqish topshiriladi. Topshiriqni bajargan talabalar rag'batlantiriladi.

Laboratoriya ishini shunday loyihalash kerakki, ularni amalga oshirish jarayonida talabalar tajriba-niing tipik qiyinchiliklarini muvotqil bajaral olsun, fizik hodisa va jarayonlarni dasturlash tillaridan foydalanib vizuallashtirish [5].

Fizikadan laboratoriya ishi ma'lum bir fizikaviy hodisa va jarayonni aniqlashtiribgina qolmay, muvotqil ishlarini tahlil qilishi kerak.

Tajriba maqsadini ongli ravishda bayon etish uchun talaba tavsiya etilgan adabiyotlar va elektron qo'llanmalar bo'yicha nazariy materialni muvotqil o'zi o'rganishi, mavzuda keltirilgan savollarga javob berishi kerak. Talabaga gipotezani ilgari surish, tajriba usullarini tanlash, tadqiqot vazifalarini belgilash, fizikaviy stendlarni tanlash, dasturlash tilini tanlash va tartiblashtirish, nazariy egallangan bilimlarni ongli ravishda tahlil qilish, muvotqil ravishda qaror qabul qilish va yakuniy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ta'lim metodlarini maqsadli qo'llash tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishga, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, dasturlash tilidan foydalanib dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi [4.28].

Laboratoriya mashg'ulotlarini yuqorida keltirib o'tilganidek tashkil etish fizika kursining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun laboratoriya ishlarini individual tarzda bajarish qulay hisoblanadi.

To'g'ri tashkil etilgan laboratoriya mashg'ulotlari talabalarda fizikaviy bilimlar tizimini shakllantirishga va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalar kelajakda dasturlash tillaridan foydalanib virtual laboratoriyalar ishlab chiqishi hamda ular uchun foydali bo'lishi shubhasiz bo'lgan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'ladi.

Shunday qilib, mazmun jihatdan aniq va to'g'ri tashkil etilgan laboratoriya mashg'ulotlari fizikani o'rganishda ahamiyatli vositaga aylanadi; ta'limda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga yordam beradi; fizika va muhandislik sohalari o'rtasidagi aloqani yanada rivojlanishiga imkon beradi; talabalarda texnik tafakkurni shakllanishiga hissa qo'shadi, fizik tajribalar o'tkazish, fizikaviy qurilmalarni boshqarish ko'nikmalarini egallash; mustahkamlash va kengaytirish, formallashtirish va sintezlash, olingan fizikaviy bilimlarni mustahkamlash, fizikaviy bilimlar tizimini shakllantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mazmunli va yaxshi tashkil etilgan laboratoriya mashg'uloti talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Computer networking: a top-down approach. James F. Kurose, Keith W. Ross. 6th ed. 2013. by Pearson Education, Inc., publishing as Addison-Wesley.
2. TCP/IP protocol suite. Behrouz A. Forouzan. 4th ed. Published by McGraw-Hill, a business unit of The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY 10020. Copyright, 2010.
3. Беспалько В.П. Бумажная версия электронного учебника. Школьные технологии. М., «Народное образование», 2007, № 2, с. 54 – 55.
4. Java Network Programming, Fourth Edition by Elliotte Rusty Harold. 2014.
5. Mariano Martin Martin. Introduction to software for Chemical engineers. CRC Press, 2014;

Rajapova Aziza Ibragimovna (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti tutori)

TALABALARNING TASAVVURI VA MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA ASTRONOMIYADAN KUZATISH OLIB BORISH VA SAYOHAT UYUSHTIRISHNING ROLI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy fanlarda darsdan tashqari o'tkaziladigan ishlar, jumladan, kuzatish va sayohat uyushtirishlar talabalarning fanni o'zlashtirishdagi muammolarga yechim bo'ladi. Auditoriyadan tashqari bajariladigan ishlar talabalarning muvotqil fikrlashga undaydi va turli savollariga o'zlari javob topishga intilishadi.*

***Аннотация.** В статье внеклассные занятия по естественным наукам, включая наблюдение и организацию путешествий, станут решением проблем учащихся в освоении предмета. Работа, выполняемая вне аудитории, направлена на то, чтобы учащиеся могли самостоятельно мыслить и находить ответы на различные вопросы самостоятельно.*

***Annotation.** In this article, extracurricular activities in the natural sciences, including observation and travel organizing, will be the solution to students' problems in mastering the subject. Work performed outside the auditorium directs students to think independently and find answers to various questions themselves.*

***Kalit so'zlar:** astronomik kuzatish, pedagogik faoliyat, sayohat o'tkazish, auditoriyadan tashqari ishlar, kirish kuzatuvlar, ko'rgazmali kuzatuvlar.*

***Ключевые слова:** астрономические наблюдения, педагогическая деятельность, путешествия, работа вне аудитории, вводные наблюдения, визуальные наблюдения.*

Key words: *astronomical observations, pedagogical activity, travel, extra-audience work, introductory observations, visual observations.*

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishini talab etadi. O'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to'playdi va tahlil qiladi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanishi jarayonida hozirgi zamon o'qituvchi uchun zarur bo'lgan shu muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra, ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchi talaba va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi turli savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Bundan tashqari, ularni bilimni oshirishda turli sayohatlar uyushtirish ham maqsadga muvofiqdir.

Auditoriyadan tashqari kuzatishlar va tajribalar tabiatda, uyda, ishlab chiqarishda yoki ilmiy laboratoriyalarda, ilmiy kuzatish ishxonalarda o'tkazish mumkin. Ular o'qituvchilarning topshirig'i bo'yicha, yoki mustaqil holda amalga oshiriladi. Bunday ishlarning turlarini o'ziga xos tarzda o'quvchilarning qobiliyatiga, eksperiment o'tkazishga, olgan bilimlarini mustahkamlashga ularning qiziqishlariga yarasha tanlab olinadi va ayrim o'quvchilarga shaxsiy topshiriqlar berishi mumkin. Bunday ishlarni bajarish o'quvchilarning kuzata olish qobiliyatini, mustaqilligini va texnik madaniyatini oshirishga yordam beradi.

Fizika va astronomiyadan o'tkaziluvchi auditoriyadan tashqari ishlarni mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. O'quv materialiga bevosita bog'liq bo'lgan auditoriyadan tashqari ishlar. Ular darsning mazmuni bilan mustahkam bog'langan bo'lib, o'quvchilarni muhim bo'lgan dastur materiallarini o'zlashtirib olishga hamda mustahkam bilim va ko'nikmalarni egallashga xizmat qiladi.

2. Dars bilan bog'liq, ammo o'quvchilarning fizika va astronomiya to'g'risidagi bilimlarini, malaka va ko'nikmalarni chuqurlashtirish maqsadida dasturdan tashqari bajariluvchi ishlar. Bunday ishlarning asosiy maqsadi – o'quvchilarning fikrlashini yanada kengaytirish, fanga oid bo'lgan qiziqishini oshirishga va ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat [1.45].

Ta'lim muassasalarida astronomik kuzatuvlarni tashkil etishlarning maqsadi, avvalambor, o'quvchilarga nazariy jihatdan bayon etilgan astronomik hodisa va jarayonlar bilan amalda tanishtirish va holatlarini tabiiy ravishda tushuntirishdan iborat. Tabiiy kuzatuvlarsiz astronomik jarayonlarni nazariy jihatdan tushuntirish, astronomik ta'limni faqatgina formal holatda olib borish bilan bog'liq bo'lib qoladi.

Astronomik kuzatuvlardan o'quvchilar osmon yoritgichlariga qarab orientir olish hamda astronomik o'lchashlar olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Bunday ko'nikmalar kursning amaliy astronomiya qismini xalq xo'jaligida, aviatsiya hamda daryolarda suzishda qo'llanilishini tushuntirib berish kerak. Shuningdek, astronomik kuzatishlar o'quvchilarda kuzatuvchanlik, xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi va tarbiyalaydi. Astronomik kuzatuvlar keyingi holatlarda amaliy ishlar deb ham nomlanadi. Amaliy kuzatuvlar o'quvchilarda, shuningdek, bilimlarni mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi [2.26].



1-rasm. Teleskop yordamida Oy kuzatilmoqda.

Amaliy kuzatuv ishlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: 1) kirish kuzatuvlari – unda o'quvchilarga astronomik hodisalar haqida umumlashtirilgan, asosiy tushunchalar beriladi. Bu kabi tushunchalar o'quvchilarga nazariy jihatdan olgan bilimlari haqida xulosalar chiqarish va umumiy tushunchalar hosil qilishga yordam beradi; 2) ko'rgazmaviy (illustrativ) kuzatishlar – kuzatilayotgan obyekt haqida qo'shimcha va to'laroq ma'lumotlar olish imkonini beradi. Kirish kuzatuvlari, odatda, biror bolimni o'tishdan avval o'tkaziladi. Ko'rgazmaviy kuzatuvlar esa, odatda, bo'lim yakunlanganidan keyin, olingan bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va xulosalar chiqarish maqsadida tashkil etiladi [3.36].

Kuzatuvlar vaqtida bir obyektning o'zi ham kirish ham illustrativ kuzatuvlarni tashkil etishda o'rganilishi mumkin. Astronomiya kursining sferik astronomiyani bo'limini o'rganishda kuzatuv ishlarini tashkil etish, ayniqsa ahamiyatlidir [4.63].

Kechki kuzatuvlarni tashkil etganda, aynan o'tilayotgan mavzu yuzasidan masalalarni o'rganibgina qolmasdan, keyingi o'tiladigan mavzular yuzasidan ham tahlillar olib borish ham tavsiya etiladi. O'rganilgan tahlillar keyingi mavzularda batafsil tushuntirib o'tilishi kerak bo'ladi.

Kirish kuzatuvlarida quyidagi mazmundagi masalalarni ko'rish va tahlil qilish tavsiya etiladi: 1) yulduzlar osmoni bilan umumiy holda tinnishtirish – yulduz turkumlari hamda yulduzlarning sutkaviy harakatini o'rganish; 2) Quyoshning ko'rinma harakati; 3) sayyoralarning ko'rinma harakati; 4) Oyning ko'rinma harakati va Oy fazalarini; 5) Yupiter yo'ldoshlari va ularning harakati; 6) Quyoshning aylanishi va dog'larning siljishi; 7) yulduzlar rangi va spektri; 8) qo'shaloq yulduzlar; 9) o'zgaravchi yulduzlar vor-qinligining o'zgarishi; 10) yulduz to'dalari va tumanliklar; 11) Somon yo'li [5.58].

Ushbu kuzatuvlarning barchasini ham bir kunda o'tkazib bo'lmaydi. Kuzatishlarning bir qismini kechki kuzatuv ko'rinishida, bir qismini kunduzgi kuzatuv, qolganlarini esa mustaqil ravishda kuzatish uchun vazifa berish ham mumkin bo'ladi. Zamonaviy, ma'lumotli inson insoniyat oldida turgan muammolarni ko'ra bilishi, ularning yechimini topish yo'llarini bilishi, kelgusida taraqqiyotning rivojlanish yo'llarini topish masalalarini bilishi kerak.

Yana boshqa vazifalardan bin kosmik sivilizatsiyaga erishishdir. Ta'lim berishda o'quvchilar ongida ekologik muammolar yechimini izlash, yangi g'oyalar ishlab chiqish masalalarini o'quvchilarda shakllantirish uchun esa sinfdan tashqari astronomik kechalar hamda tadbirlarni ahamiyati kattadir. Astronomik kechalar hamda tadbirlar davomida o'quvchilarda fanlar bilan aloqadorlik tushunchalari, Yerning zamonaviy ahvoli hamda uning kelajagi haqidagi tushunchalarning shakllanishini kuzatish mumkin [6].

Astronomik tadbirlarga tayyorlanish vaqtida o'qituvchi hamda o'quvchilar fiziki, kimyo, biologiya, ekologiya, tabiat, atrofimizdagi olam fanlaridan olingan bilimlarga tayanishlari va ularga doir materiallardan foydalanishlari mumkin. Shuningdek, "Sayyoraviy jismlar va sayyoraviy sistemalar", "Yer", "Yerning yaralish tarixi", "Quyosh sistemasi. Quyosh sistemasi sayyoralari", "Quyosh Aktivligi", "Koinot", "Kosmogoniya asoslari" mavzularidagi ma'lumotlardan, bir qator shu mavzulardagi ilmiy-ommabop jurnallarda nashr etilgan maqolalardan foydalanishlari mumkin bo'ladi [8.28].



2-rasm. Kitob kenglik stansiyasida o'tkazilgan sayohat.

Tadbir mavzusi avvaldan o'qituvchi tomonidan e'lon qilinadi. O'quvchilar esa mavzuni ixtiyoriy ravishda tanlaydilar. Tadbirga o'quvchilar tomonidan qisqa 5–10 daqiqalik ma'ruzalar tayyorlanadi, bir nechta o'quvchilar tomonidan mavzuga oid qisqa ma'lumotlar va tarixiy ocherklar tayyorlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga adabiyotlarni topishga, ularni to'g'ri yo'naltirishga, tadbir rejasini tuzishga ko'maklashadi. Tadbirga tayyorgarlik jarayoni qo'yidagi mazmunga ega bo'lishi kerak:

1. Muammoni qo'yish.
2. Mavzuga oid tushunchalarni aniqlash.

3. Muammoni aniqlash yo‘larini topish.

4. Konsepsiyani ishlab chiqish.

5. Rollarni taqsimlash.

Umumlashtirish. Xulosalar chiqarish. Muhokama qilish.

Astronomiyada sinfdan tashqari tadbirlar o‘tkazish uchun taklif etiladigan taxminiy mavzular ro‘yxati:

1. Sivilizatsiya – bu nima?

2. Biz qanday yashamoqdamiz va kelgusida qanday yashaymiz: sivilizatsiya modellari, Ekologik tanqislik, Energetik tanqislik.

3. Astronomiya inson uchun.

4. Astronomik sivilizatsiya bizga nima berdi va nima beradi?

5. Hayot – bu nima?

6. Yer yuzida hayotning yaralishi va evolutsiyasi.

7. Koinotda hayotni qayerdan izlash mumkin?

8. Marsda hayot bormi? va h.k.

Bu kabi mavzulami tanlashda, avvalambor, o‘qituvchi bugungi kunda ekologik, energetik, xomashyo tanqisliklari haqida muammolarni o‘quvchilarga tushuntiradi. O‘quvchilar tomonidan qilingan ma‘ruzalar tahlil etiladi, “sivilizatsiya” hamda “kosmik sivilizatsiya” tushunchalariga aniqliklar kiritiladi. Undan keyin o‘quvchilar bugungi kun muammolari, rivojlanishdagi ekologik va boshqa muammolarni yechimi haqida fikr yuritadilar va bir yechimga kelinadi hamda xulosalar chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Djorayev, B.Sattarova. Fizika va astronomiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi. T., “Fan va texnologiya”, 2015.

2. Mamadazimov M., Tillaboyev A. va boshqalar. Astronomiya kursi (Umumiy astronomiya)dan laboratoriya ishlari. T., TDPU, 2015.

3. Sattarov I.S. Astrofizika, Toshkent, 2007.

4. Ziyahonov R.F., Astrometriya va kosmik dasturlar, UzMU, 2005.

5. Nuritdinov S.N. Somon yo‘li, Toshkent, “Fan”, 1989.

6. Физика космоса. Маленькая энциклопедия. М., “Наука”, 1986.

7. Климишин И.А. Астрономия наших дней. М., “Наука”, 1980.

8. Аллен К.У. Астрофизические величины, М. ИЛ, 1977.

9. Nuritdinov S.N. Umumiy astronomiya kursi. O‘zMU, 2000.

Inoyatov Ikrom Shaxrilloevich (“TIQXMMF” Milliy tadqiqot universiteti

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti sirtqi bo‘lim boshlig‘i)

KASBIY TA’LIM YO‘NALISHLARI TALABALARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik shartlar pedagogik omillar yuzaga chiqadigan muhit holatlardir. Pedagogik shart-sharoitlar talabi o‘quv-tarbiya jarayonidagi kasbiy tarzda ijodiy fikrlash darajasiga yetishini taminlovchi choralar majmuyi sifatida qarash mumkin. Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqozo etadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические условия-условия среды, в которых возникают педагогические факторы. Требование педагогических условий можно рассматривать как комплекс мер, обеспечивающих достижение профессионально-творческого уровня мышления в процессе обучения. Сегодня проблема формирования свободной личности требует перевода учебной работы в образовательных учреждениях на современные педагогические технологии.

Annotation. This article discusses pedagogical conditions – the conditions of the environment in which pedagogical factors arise. The requirement of pedagogical conditions can be considered as a set of measures to ensure the achievement of a professional and creative level of thinking in the learning process. Today, the problem of the formation of a free personality requires the transfer of educational work in educational institutions to modern pedagogical technologies.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, agronomiya, gidroenergetika, sug‘orish, melioratsiya, innovatsiya, itxisoslashuv, gidromelioratsiya, pedagogik, modifikatsiya, boshqaruv, obyektiv, professional, tsivilizatsiyapedagogik, modifikatsiya, menejer, obyektiv, professional, sivilizatsiya.

Ключевые слова: модернизация, агрономия, гидроэнергетика, ирригация, мелиорация, инновации, специализация, гидромелиорация, педагогический, модификационный, управленческий, объективный, профессиональный, цивилизационный.

Key words: modernization, agronomy, hydropower, irrigation, land reclamation, innovation, specialization, hydro-reclamation, pedagogical, modification, managerial, objective, professional, civilizational.

Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, liberilizatsiyalashni tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning extiyoji bo'lmog'i lozim. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini qat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta'rifi-ga ko'ra, «pedagogik tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir». Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa mavjud tizim ham o'zgarishi muqarrardir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'ydi. Chunonchi, milliy dastur ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy mafkuraning mohiyat-mazmuniga to'liq mos keladi. Faqat davlat buyurtmasigina ta'limtarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi ta'lim texnologiyasining asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Endilikda ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos holda mazmun ham, pedagogik jarayon ham yangilanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyaga o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar (sanoat, elektron, axborot) kirib kelmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy, ilmiy-texnikaviy va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish har qanday tur, bosqich yoki darajadagi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Zotan, bugungi kun yoshlari texnika va texnologiya, iqtisodiyot asoslari borasidagi bilimlardan xabardor bo'lsa-yu, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasa, ular ko'zlagan maqsadga erisha olmaydi. O'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari va vositalarini bilishgina ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi texnika, mehnat qurollari va yangi texnologiyalar yaratish imkonini beradi. Keng ko'lamlil va mustahkam bilim, ko'nikma, malaka, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, muammolarni mustaqil hal etishda aniq maqsadga intilish va shaxsiy faoliyatga nisbatan talabchanlik bo'lajak mutaxassislar ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishining zaminidir.

Bo'lajak mutaxassislar ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning muhim sharti – bu faoliyat. Demak, kadrlarning asosiy vazifasi ushbu faoliyatni tashkil etish shakl, metod, usul, vosita va yo'nalishlarini belgilab beruvchi zarur axborotlar bilan ta'minlash hisoblanadi. Shu sababli axborot ta'minotini pedagogik jihatdan boshqarish, ularning ilg'or texnika va texnologiya yutuqlari bilan boyitilganligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-texnik taraqqiyot va ijodkorlikka erishish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarishning predmeti inson omili bo'lib, u o'ziga xos ta'limtarbiya ishlari va uni boshqarish, ijodiy masalalarni yechish metodikasi va algoritmini o'rganishni ko'zda tutadi. Bo'lajak mutaxassislar ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil etish, tayyorlash jarayoniga nisbatan pedagogik yondashuv tizimi shaxs ijodkorligi va yaratuvchanligini boshqarishning bosh masalalaridan biri hisoblanadi va u o'z ichiga zaruriy axborotlarni yig'ish, tahlil qilish, uni qayta ishlash, maqsadni aniqlash, maqsadga erishish rejasini ishlab chiqish, reja bo'yicha ijodkorlik ishlarini tashkil qilish, uning amalga oshirishini nazorat qilish, ushbu tizim faoliyatini tartibli olib borish va maxsus yechimlar qabul qilish kabi bosqichlarni oladi. Shunday qilib, ta'lim texnologiyasi bo'lajak mutaxassislarda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga imkon beruvchi axborotlar yig'ish hamda ulardan mashg'ulot jarayonida foydalanish yo'lida ma'lum imkoniyatlarni yarata-di. Ushbu ma'lumotlar esa fan asoslarining axborot ta'minoti mazmuni va ijodkorlik metodlarini boshqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Iqtisodchi mutaxassislarining kasbiy mahoratini shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining samarasi ko'p jihatdan uning axborot ta'minoti pedagogik jihatdan boshqarish yo'nalishlarining tizimli va uzluksiz bo'lishini taqozo etadi. Ta'lim pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi talaba bilan o'qituvchining shaxsiga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi: Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalar-ni tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi: o'quv-

chi-talabani yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni, o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi; bilimning assosiativ statistik modelidan aqliy harakatning tarkibiy tizimlariga o'tish, o'quvchi vaqtining samaradorligini oshirish, pedagogik kuch-g'ayrat va ta'limning didaktik vositalari "tejamligi" va optimalligini ta'minlash.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, uning sifat ko'rsatkichlarini optimal amalga oshirishga tayanib, maqsad sari yo'naltirilgan holda ishlab chiqish, metodik tizim, ya'ni, yaxlit ta'lim jarayoni umumiy tuzilishining uzviy qismi o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchi faoliyatining shakllari, o'qituvchining kasbiy-pedagogik mahorati, ta'lim jarayonini boshqarish, unga tashhis qo'yish, isloh qilish kerakligini shart qilib qo'yadi. Dars jarayoniga innovatsion yondashgan holda, o'qituvchi-talaba pozitsiyalarini o'zgartirish, ya'ni, o'qituvchining mutlaq hokimligidan voz kechish, talabani mustaqil fikrlashiga imkon berish, uni har bir mavzu yuzasidan beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish, qiyoslash, tahlil qilish va tatbiq etish darajasiga yetkazishga qaratilgan usullarni ishlab chiqish kun talabiga aylangan. Buni esa zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fan jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil hamda muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. Pedagogik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, jadallashtirish faqat ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitishning har xil usullari va shakllari bilan bog'liqligina bo'lib qolmay, balki fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitishning didaktik vositalari bilan o'quv muassasasining qanchalik ta'minlanganligiga bilan ham bog'liq muammodir. Chunki dasturdagi mavzularni o'zlashtirish qanchalik ushbu mavzu uchun zarur bo'lgan o'qitish vositalarining imkoniyatlarini, funksiyalarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi o'qitish vositalarining imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur. Bu kabi sharoitlar talabalarning ishlab chiqarish va kasbiy faoliyatlariga tayyorlanishlarida yaxshi imkoniyat bo'ladi. O'qitishning didaktik vositalari nima? Didaktik vositalar—o'quv muassasasining material – texnik ta'minlanishining tarkibiy qismi bo'lib, talabalarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularning ta'limiy bilish, o'rganish, ilg'ash faoliyatini boshqarish, barkamol rivojlantirish, tarbiyalash uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonida foydalaniladigan materiallar tizimidir. Didaktik vositalar o'quv ma'lumotini (axborotli) uzatish uchun, o'qitish jarayonini boshqarish, nazorat qilish hamda ta'lim mazmunini o'rgatuvchi va o'rganuvchi faoliyatida muhim o'ringa ega bo'lib, ularni o'z o'rnida ishlatishni talab qiladi. Didaktik vositalarni ingliz tilini o'qilish jarayonida asosli qo'llash uchun avvalambor ularning turlarni, funksional imkoniyatlarini bilish kerak. Shuning uchun ham har bitta o'qitish vositasining funksional (xizmat vazifasi) nimadan iborat ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lmoq kerak.

Ta'sir etishi xarakteriga qarab, vizual (ko'rinishli) diagrammalar demonstratsiya priborlari, audioalombom, magnitafonlar, radio) ovozi ko'rinishli (televizorlar, videofilmlar); Axborotlarni tashishi yoki berishi bo'yicha qog'ozli (darsliklar kartotekalar), magnit optimli (filmlar), elektronli (kompyuter dasturlari), lazerli (SD – ROM). ta'lim mazmuni bo'yicha dars darajasidagi o'qitish vositalari (matnlar va boshqalar) fan darajasidagi (darsliklar) o'qitish jarayoni darajasida (o'quv kabinetlari), texnologik taraqqiyotga nisbatan bo'yicha an'anaviy (ko'rgazmali qo'llanamalar muzeylar, bibliotekalar), hozirgi davrda ko'plab ishlatiladigan (axborot vositalari, o'qitishning multimediyali o'qitish vositalari, kompyuterlar, veb-saytlar, lokal va global kompyuterlar setlari va boshqalar. Ta'lim jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy tariqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatiga ega. Ayniqsa, XXI asrda ta'limga bo'lgan talab misli qurilmagan darajada o'sib bormoqda. Yosh avlodning yangi bilimlarni, g'oya va ko'nikmalarini egallashida, ijtimoiy, madaniy hamda iqtisodiy taraqqiy etishda ta'lim hal qiluvchi omil bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тураев С.Ж. Повышение качества профессиональной деятельности студентов с привлечением к научному проекту. Материалы XII Международной научно-практической конференции «Инновация в технологиях и образовании», 21–22 март 2019 г. Филиал КузГТУ в г. Белово. Белово, изд-во филиала КузГТУ в г. Белово, Россия, 2019, ч. 4, с. 240 – 242.
2. С.Л.Ибрагимов. Талабаларда математик моделлаштириш усули ёрдамида касбий кўникмаларни шакллантиришнинг психологик педагогик асослари. Таълим, фан ва инновация (маънавий-марифий, илмий-услубий журнал), Тошкент, 2019, 4-сон, 112 – 115
3. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. М., "Азбуковник", 2006, с. 944.
4. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Москва, "Педагогика", 1986, с. 240.
5. Пологрудов В.А. Вопросы методики преподавания физики в ВУЗе. Кемерово. КГУ, 1979, с. 122.
6. Советский энциклопедический словарь. Москва, "Советская энциклопедия", 1981, с. 1600.
7. Ismoilov D.M. Methods of scientific knowledge and research in the content of secondary educations on physics – European Journal of Research and Reflection in ..., 2020.

**Raxmonov Sherzod Tolibovich (Toshkent davlat Texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi),
Temirov Farrux Faxriddinovich (Toshkent davlat Texnika universiteti stajori)**
**TABIY FANLAR SOHASIDA 9-SINF IXTISOSLASHGAN MAKTAB O‘QUVCHILARI
UCHUN “KIMYO” FANIDAN PISA TADQIQOTINING AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Tabiiy fanlar sohasida “Kimyo” fanini o‘qitishda Xalqaro PISA tadqiqolaridan va testlaridan foydalanish va yuqori natijalarga erishishda interfaol metodlarning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. Maktablaridagi kimyo o‘qitish metodikasi o‘rganilgan, xulosalar va tavsiyalar keltirilgan. Ixtisoslashgan maktablarda kimyo darslarida o‘quvchilarni PISA testi bilan baholash usuli keltirilgan, hamda interfaol mashg‘ulotlarning afzalliklari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Аннотация.** В статье обсуждается использование международных исследований и тестов PISA в преподавании химии в области естественных наук и важность интерактивных методов в достижении высоких результатов. Изучена методика преподавания химии в школах, представлены выводы и рекомендации. На уроках химии в профильных школах представлена методика оценивания учащихся с помощью теста PISA, а также информация о преимуществах интерактивных занятий.*

***Annotation.** The article discusses the use of international studies and PISA tests in the teaching of chemistry in the sciences and the importance of interactive methods in achieving high results. The methodology of teaching chemistry in schools is studied, conclusions and recommendations are presented. Chemistry classes in specialized schools present the methodology for assessing students using the PISA test, as well as information about the benefits of interactive classes.*

***Kalit so‘zlar:** tabiiy savodxonlik, PISA testi, azot, individual topshiriq, rag‘batlantirish, ko‘zga ko‘rinmas ixtiro.*

***Ключевые слова:** естественная грамотность, тест PISA, азот, индивидуальное задание, мотивация, невидимое изобретение.*

***Key words:** natural literacy, PISA test, nitrogen, individual task, motivation, invisible inventio.*

Kirish. PISA bu 15 yoshli o‘quvchilarning maktabda egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini hayotiy muammoli vaziyatlarni hal qilishda qo‘llay olishlari, ya‘ni kompetensiyalarini baholaydi. PISA tadqiqotlari har bir mamlakatga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini dunyo ta‘lim tizimi bilan qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etadi, ya‘ni investorlar mamlakatda bilimli, malakali kadrlar bormi, degan savolga bu tadqiqot natijalari orqali javob topadi. 2021-yildagi PISA tadqiqotida matematik savodxonlik darajasini tekshirish ustuvorlik kasb etadi. Bu borada jahon tajribasida e‘tibor qaratsak, PISA tahlillari: Estoniya eng yuqori reytingga erishgan mamlakatlardan biri bo‘lib, Estoniya PISA-2015 tadqiqotida matematika, o‘qish va tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha eng yuqori reytingga ega bo‘lgan o‘nta mamlakatning biri edi. Bu muvaffaqiyat uchun kichkina Boltiqbo‘yi davlati “Yangi Finlyandiya” deya atala boshlandi. Chunonchi, 2015-yilda Estoniya matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha Finlyandiyadan o‘zib ketdi. Finlyandiyalik ekspertlar 1990-yillardagi ta‘lim islohotlari masalalari bo‘yicha estoniyalik hamkasblariga maslahatlar berdi. Darhaqiqat, bu mamlakatlar muvaffaqiyatida qandaydir umumiylik bor: har ikki mamlakatda, ongli ravishda qilingan niyat bo‘ladimi yoki madaniy xususiyatmi, ta‘limdagi tenglik katta qadriyat sifatida tan olinadi.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta e‘tibor qaratish lozim.¹ Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta‘lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi Yangi O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoniga muvofiq umumiy o‘rta ta‘lim va maktabdan tashqari ta‘limni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘zib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yan-

¹ Qurbonova L.M. Pisa xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati. Pedagogikal education Problems and solutions International conference. Chirchik, 2022.

gi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limning innovatsion yondashuvlar asosida tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.¹

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi.² Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi (rasm).


Tabiiy fanlardan, asosan, kimyo darslarida kimyoviy o‘yin va analogiyalardan ham foydalanish ijobiy natijalarni beradi, ayniqsa, didaktik o‘yinlar texnologiyalari o‘quvchi faoliyatining faollashtirish va jaddallashtirishga asoslangan. Ular o‘quvchiga ijobiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq-odob o‘rgatish, nutq o‘stirish til o‘rgatish, yangi bilimlar o‘rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo‘rdam beradi.³

Tabiiy yo‘nalishdagi fanlar mazmuniga oid bilimlar



A)

Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantiruvchi metodika qanday bo‘lishi zarur?



¹ “Kimyo” fanini o‘qitish metodikasi moduli. Uslubiy qo‘llanma, Toshkent, 2017.

² Tolipova J.O., G‘ofurov A.T. Biologiya o‘qitish metodikasi (akademik litsey va kasb-hunar kolleji biologiya o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). T., “Bilim”, 2004.

³ Raxmonov Sh.T., Ixtiyarova G.A. Kimyo darslarida didaktik o‘yin va analogiyadan foydalanishning samaradorligi. “Kimё-технология соҳасида фан ва таълимни ривожлантириш тенденциялари” мавзусидаги илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. Тошкент, 2022, 185 – 187-бетлар.

B)

Tabiiy fanlarni o'rganishga ijobiy munosabatda bo'ling!

Yodda tuting:


	Qiziquvchan bo'ling. Nima uchun shunday ekanligini aniqlash uchun savollar bering.	Ijodkor bo'ling. Muammoni hal qilishning yangi yo'llarini taklif qiling.	
	Rostgo'y bo'ling. Kuzatish va natijalarni o'zgartirmasdan qayd eting.	Xolis bo'ling. Aniqlaganlaringizni isbotlash uchun ma'lumot yoki dalillarni qidiring.	
	Mas'uliyatli bo'ling. Atrof-muhit haqida qayg'uring.	Qat'iyatli bo'ling. Muammoning yechimini topmaguncha, uning ustida ishlang.	
	Ochiq fikrleydigan bo'ling. Boshqalarning fikrini qabul qiling. Agar biror narsa siz o'ylaganingizdan boshqacharoq ekanligi aniqlansa, o'z fikringizni o'zgartirishga tayyor turing.		

S)

Rasm. A) tabiiy yo'nalishdagi fanlar mazmuniga oid bilimlar; B) tabiiy savodxonlik metodikasi; S) tabiiy fanlarni o'rganishga munosabat.

Maktab kimyo ta'limida zamonaviy PISA testlarining vazifasi ham o'quvchilarni tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.¹

PISA testlarining namunalari. "Ko'zga ko'rinmas ixtiro". Ingliz olimi E.Rezerfort bu elementni ozmi, ko'pmi aniq tasvirlab bera oldi. Bu voqea aslida quyidagicha sodir bo'lgan, tajriba uchun olingan berk idishda joylashgan hayvon halok bo'lgan (hozir biz buning sababini yaxshi bilamiz nafas olish jarayonida havodagi kislorod sarf bo'lgan, kislorod yetishmasligi sababli hayvon halok bo'lgan). Idishda qolgan havo xossalarini D.Rezerfort quyidagicha ta'riflagan "Havoning qolgan qismi so'ndirilgan ohak eritmasi bilan cho'kma hosil qilmasa-da, alangani o'chiradi, hayotni so'ndiradi deb birinchi marta bu elementga shunday ta'rif berilgan.




1-savol. So'ndirilgan ohak eritmasi bilan cho'kma hosil qilishda qaysi gazga murojaat qilinadi. Reaksiya tenglamalarini yozing va tajribani bajarib kerakli xulosa chiqaring.

2-savol. Havoning foiz tarkibini qaysi gazlar tashkil qilishini esga oling va hayotni inkor etuvchi gazni aniqlang.

¹Raxmonov Sh.T. O'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda PISA tadqiqotlaridan foydalanish NamDU ilmiy axborotnomasi, 2022, 8-son, 601 – 608-betlar.



3-savol. Rezerford tajribasi orqali olingan gazdan nima sababdan hayvon halok bo‘lganligini isbotlang va bu tajribani siz ham bajraib ko‘rib, kerakli xulosalar chiqaring.



Demak, “Kimyo” o‘qituvchilari hozirgi paytda o‘quvchilarining qanday ehtiyojlari borligini tushunishlari kerak va ularga motivatsiya berishlari zarur. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, o‘quv jarayoni hamda ta’lim sifat samaradorligini ham oshirishi mumkin. Kimyoviy bilimlarga oid ilmiy izlanishlar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’limga qo‘llashga oid amaliy ishlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**Sattorov Asliddin Boytemirovich (Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani
Miraki Pedagogika kolleji direktori)**

INFORMATIKA DARSLARIDA KOLLEJ O‘QUVCHILARIDA TADQIQOT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quv mashg‘uloti davomida o‘quvchilar maxsus bilim va ilmiy izlanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ushbu ishning chastotasi siz ishlashingiz kerak bo‘lgan o‘quvchilarning individual xususiyatlariga e’tibor qaratgan holda aniqlanishi kerak. An’anaviy pedagogikada eng keng tarqalgan o‘qitishning ikki turi: dogmatik va muammoli. Ularni tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Аннотация. В статье речь идет о том, как во время учебных занятий студенты приобретают специальные знания и навыки в области научных исследований. Частота выполнения этой работы должна определяться исходя из индивидуальных особенностей студентов, с которыми вам необходимо работать. Двумя наиболее распространенными типами обучения в традиционной педагогике являются: догматический и проблемный. Мы рассмотрим их с точки зрения формирования исследовательских навыков.

Annotation. In this article, during the training sessions, students acquire special knowledge and skills in the field of scientific research. The frequency of this work should be determined based on the individual characteristics of the students with whom you need to work. The two most common types of teaching in traditional pedagogy are: dogmatic and problematic. We will consider them from the point of view of the formation of research skills.

Kalıt so‘zlar: kibernetika, algoritmlar nazariyasi, matematik modellashtirish, subyekt-obyekt, subyekt-subyekt, hodisa, kompilatsiya, kasbiy faoliyat, integratsiya, distant, konseptual.

Ключевые слова: кибернетика, теория алгоритмов, математическое моделирование, субъект-объект, субъект-субъект, феномен, компиляция, профессиональная деятельность, интеграция, дистанционный, концептуальный.

Key words: *cybernetics, theory of algorithms, mathematical modeling, subject-object, subject-subject, phenomenon, compilation, professional activity, integration, remote, conceptual.*

O'qitishning dogmatik turi rivojlanishning reproduktiv darajasini ta'minlaydi, algoritmik o'rganishdan foydalanadi. Shu bilan birga, olingan bilimlarni tipik masalalar va ularning ayrim variantlarini yechishda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi; ilgari o'rganilganlarga o'xshashlikni o'rnatish; individual omillarni umumlashtirish va eng oddiy tasniflarni amalga oshirish. Tashkiliy ko'nikmalardan o'qituvchi ko'rsatmasi bo'yicha o'quvchilarning ishlay olish ko'nikmasi shakllanadi.

O'qitishning dogmatik turidan foydalanganda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish deyarli mumkin emas, garchi algoritmik o'rganishga bo'lgan ehtiyojni asos sifatida inkor etib bo'lmaydi, buning asosida, keyinchalik, tadqiqotchilik ko'nikmalarining komponentlari shakllanadi.

Muammoli ta'lim tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy metodi hisoblanadi. Uning mohiyati ko'nikmalarni rivojlantirishda hal qilish uchun qo'yilgan vazifa va o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalar darajasi o'rtasidagi ziddiyatdan foydalanishdir. Bu yo'l o'quvchilarda mustaqillikni singdiradi, tafakkurini faollashtiradi, bilishda tashabbuskorlikni rivojlantiradi, jarayon va hodisalarning mohiyatini, ularning o'zaro munosabatlarini tushunishga yordam beradi. M.A.Danilov qarama-qarshilik paydo bo'lishining asosiy shartlarini quyidagicha ko'rsatadi:

- o'quvchilarning qiyinchilik va uni bartaraf etish zarurligini tushunishi;
- qiyinchilikning o'quvchilarning bilimiga mutanosibligi;
- o'quv jarayonining borishi bo'yicha qarama-qarshilikka tayyorligi;
- o'quvchining muammoning yechimini izlashdan chalg'imasligi [1].

Faol bilish faoliyati uchun boshlang'ich nuqtasi muammoli vaziyatdan chiqish yo'lini topish istagidir. O'quvchining o'quv jarayonidagi yondashuvining o'zgarishi bilan o'qitish turi ham o'zgaradi: dogmatikdan evristik, tadqiqotga aylanadi, bunda o'quvchi mustaqil ravishda yoki o'qituvchi bilan birgalikda izlanishda yangi bilimlarni egallaydi.

O'quvchilar uchun mustaqil tadqiqot olib borishida o'quv maqsadlarida mavjud muammoni hal qilishga zamonaviy yondashuv bir tomonlamalikdan qutqaradi. Shunday qilib, tadqiqot o'qitish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalarining aksariyati faqat o'quvchini o'z tadqiqot amaliyotiga qo'shishning turli xil variantlarini o'z ichiga oladi. Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilar o'quvchiga o'z tadqiqotini bajarish yoki ijodiy loyihani amalga oshirish vazifasini yuklashi bilanoq, ish to'liq tezlikda borishiga va tadqiqot o'rganish vazifalari amalga oshirilishiga ishonch hosil qiladi. Hisobotlar, tezislar, kurs ishlari yoki bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlashda o'zlarining o'quv tadqiqotlarini olib borish imkoniyatiga ega bo'lgan o'quvchi buni o'zi bajarishni o'rganadi deb taxmin qilinadi. Darhaqiqat, u maxsus tayyorgarlik ko'rmasa, hech qanday tadqiqot o'tkazmaydi.

Biz A.I.Savenkov va P.V.Seredenkoning o'quv jarayonida o'quvchilarning o'quv va ilmiy tadqiqot faoliyati dasturi uchun yo'nalishda amalga oshirilishi kerak, degan fikrga qo'shilamiz:

1. "O'quv mashg'ulotlari" – o'quvchilarning maxsus bilimlarni o'zlashtirishi va ularda tadqiqotchilik va izlanish ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus mashg'ulotlardir. Bunday mashg'ulotlar o'quvchiga tadqiqotchilik va izlanuvchianlik vaziyatlarida zarur bo'lgan ko'plab maxsus bilimlarni olishga imkon beradi, instrumental tadqiqotchilik ko'nikmalarini mashq qilish va takomillashtirish uchun sharoit yaratadi.

O'quv faoliyatining ushbu turini amalga oshirishning asosiy metodlaridan biri bu V.M.Korotov bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydigan o'rganishda yetakchi deb hisoblangan mashqlar metodi sanaladi. Uning fikricha, ta'lim jarayonining turli bosqichlarida mashqlar turli muammolarni hal qiladi va kirish, tizimlashtirish va kompleksga bo'linadi [2]. Mashqlarni tashkil qilishda o'quvchilarda ularga ijobiy munosabatni shakllantirish muhimdir.

Tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv jarayoni quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- o'quvchilarni o'z fikr va g'oyalarni shakllantirishga, ularni aniq ifodalashga undash;
- o'quvchilarni mavjud g'oyalarga zid bo'lgan hodisalar bilan to'qnashtirish;
- takliflar, taxminlar, muqobil tushuntirishlar berishni rag'batlantirish;
- o'quvchilarga erkin va qulay muhitda o'z takliflarini o'rganish imkoniyatini berish;
- o'quvchilarga yangi g'oyalarni keng ko'lamlı hodisalar va jarayonlarga qo'llash imkoniyatini berish, ular o'zlarining qo'llaniladigan qiymatini baholashlari mumkin [3].

Informatika darslarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni quyidagi tamoyillar bo'yicha guruhlash mumkin:

- informatika darslarida o'rganiladigan mavzular yoki bo'limlar;
- tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Informatika darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan quyidagicha foydalaniladi:

Muammolarni ko'ra olish ko'nikmasi. Insonning muammolarni ko'ra olish ko'nikmasi uning produktiv fikrlash qobiliyatini tavsiflovchi integral xususiyatdir. Muammoli vaziyat faol izlanuvchanlikning namoyon bo'lishini talab qiladi

Gipotezalarni ilgari surish ko'nikmasi. Muammo bilan har qanday to'qnashuv bizni uni hal qilish yo'llarini izlashga – gipoteza va farazlarni o'ylab topishga majbur qiladi. Bu, albatta, mahsuldorlikni, o'ziga xoslikni va fikrlashning moslashuvchanligini talab qiladi.

Savol berish ko'nikmasi. Savol o'quvchi tafakkurini javob izlashga yo'naltiradi, bilimga bo'lgan ehtiyojni uyg'otadi. Bu ko'nikma tadqiqotchining eng muhim qobiliyatlaridan biridir.

Tushunchalarni aniqlash ko'nikmasi. Konseptual tafakkur tafakkurning eng murakkab turlaridan biridir. Ko'pgina o'quvchilar tushunchalarni aniqlash bilan birga muammolarini hal qilishda qiynaladi.

Kuzatuv olib borish ko'nikmasi. Kuzatish ong va fikrlash bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy-badiiy ijodda mushohada qilish ko'nikmasi muammolarni ko'rish ko'nikmasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tajriba o'tkazish ko'nikmasi. Har qanday tajriba tekshirish va taqqoslash uchun amaliy harakatlar-ni o'z ichiga oladi.

Tasniflash ko'nikmasi. Tasniflash ma'lum tartibni o'rnatadi: ko'rib chiqilayotgan obyektlarni ko'rib chiqilayotgan hududni tartibga solish, uni ko'rinadigan qilish uchun guruhlariga ajratadi. Maqsadlar ko'p bo'lishi mumkin va bir xil obyektlar guruhi turli sabablarga ko'ra tasniflanishi ham mumkin.

Xulosalash ko'nikmasi. Xulosalash (obyektlar yoki hodisalar haqidagi bayonot) mantiqiy fikrlashning asosiy shakllaridan biridir. Xulosa – bu fikrlash shakli bo'lib, u orqali odamlarning bilimlari va tajribasi asosida yangi bilimlar egallanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli qarori.
2. Tuychiyev T.T., Djumaboyev D.X. Matematik analiz fanidan 1-kurs talabalari uchun laboratoriya ishlari. T., M.Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2003.
3. Xolmatov T.X., Toyloqov N.I. Amaliy matematika, dasturlash va kompyuterning dasturiy ta'minoti. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2000.
4. Ostonov Q. Matematika va informatika o'qitish uslubi. O'quv-uslubiy majmua (bakalavriat bosqichi o'quvchilari uchun), Samarqand, SamDU, .2011, 338-bet.
5. Тураев С.Ж. Повышение качества профессиональной деятельности студентов с привлечением к научному проекту. Материалы XII Международной научно-практической конференции «Инновации в технологиях и образовании», 21–22 марта 2019 г., Филиал КузГТУ в г. Белово. Белово, 2019, ч. 4, с. 240 – 241.
6. Turaev S.J. (2019). "Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics" Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1, Iss. 10, Article 55, p. 292–297.

Xo'jamkeldiyev G'afur Sulton o'g'li (O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Paralimpiya fakulteti "Yengil atletika nazariyasi va uslubi" kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)) O'RTA VA UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNI MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rta va uzoq masofalarga yuguvchi sportchilarni psixologik tayyorgarligini o'rni va ahamiyati va uni rivojlantirish asosida musobaqalarga tayyorlashda samaradorligi bo'yicha fikrlar berib o'tilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение психологической подготовки бегунов на средние и длинные дистанции и ее эффективность при подготовке к соревнованиям на основе ее развития.

Annotation. This article discusses the role and importance of psychological preparation of middle- and long-distance runners and its effectiveness in preparing for competitions based on its development.

Kalit so'zlar: o'rta va uzoq masofaga yuguvchi sportchilar, psixologik tayyorgarlik, musobaqaoldi erta psixologik tayyorgarlik, start chiqishi.

Ключевые слова: бегуны на средние и длинные дистанции, психологическая подготовка, ранняя предсоревновательная психологическая подготовка, стартовое выступление.

Key words: Middle- and long-distance runners, psychological preparation, early pre-competition psychological preparation, start performance.

Sportchilar o'zini boshqara olishga erishish uchun har xil musobaqalarda muntazam qatnashish, o'z ustida qat'iyat bilan ishlash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha doimiy ravishda tayyorgalik ko'rib borish sportchidan talab etiladi. Sportchini o'zi va raqiblari texnik-taktik harakatlarini tahlil qilishga, to'g'ri va xato bajarilgan harakatni aniq farqlashga, texnika va taktikani takomillashtirishning yangi-yangi yo'llarini ko'rib chiqish shu bilan birga psixologik tayyorgarlikka e'tibor qaratib borish zarur. Biz bilamizki psixologik tayyorgarliksiz yuqori sport natijalariga erishib bo'lmaydi, bu esa sport tayyorgarligida katta ahamiyat kasb etib, sportchining musobaqa faoliyatida samarali ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'ziga bo'lgan ishonch, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik hissiyotlarini yuksaltirish barobarida, bu sohada dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ishning maqsadi. O'rta va uzoq masofaga yuguvchi sportchilarni psixologik tayyorgarligini rivojlantirish asosida musobaqalarga tayyorlashda samaradorligi.

Tadqiqot vazifalari:

- o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni psixologik tayyorgarligi bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili va ularni umumlashtirish;

- o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni psixologik xususiyatlarini aniqlash;

- o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni psixologik tayyorgarligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Muayyan musobaqalarga psixologik tayyorgarlik musobaqaga, taxminan, bir oy qolganda boshlanadigan erta hamda musobaqa oldidan va uning davomidagi bevosita tayyorgarlik turlariga bo'linadi.

Musobaqaoldi erta psixologik tayyorgarlik quyidagilarni nazarda tutadi:

- bo'lajak bellashuvlar sharoiti va asosiy raqiblar to'g'risida ma'lumot olish;

- sportchining shug'ullanganlik darajasi to'g'risidagi tashxisiy ma'lumotlarga, uning shaxsiga xos xususiyatlari, tayyorgarlikning hozirgi bosqichidagi psixik holatiga oid axborotlarga ega bo'lish;

- olingan ma'lumotlar asosida bo'lajak musobaqalarga mo'ljallangan faoliyat dasturini, undagi chiqishlarning maqsadini (sportchi bilan birgalikda) aniqlab olish;

- bo'lajak musobaqa bellashuvlarini batafsil dasturini ishlab chiqish;

- sportchini irodaviy fazilatlarini, ishonch va tezkor fikrlash qobiliyatini takomillashtirishga yo'naltirgan holda musobaqa faoliyatini modellovchi sharoitlarda qiyinchiliklar va kutilmagan to'siqlarning yengib o'tilishini tashkil etish;

- sportchining musobaqalarga tayyorlanish jarayonida haddan ortiq psixik zo'riqishni susaytiradigan sharoitlarni yaratish hamda usullardan foydalanish;

- belgilangan tayyorgarlik dasturiga muvofiq ravishda musobaqalarda ishtirok etishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan to'g'ri sabablarini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir

Musobaqa arafasida va ular davomidagi bevosita psixologik tayyorgarlik quyidagilardir:

- bevosita har bir start chiqishi oldidan oldidan psixologik moyillikni yaratish va psixik holatni boshqarish;

- startlarga chiqishlar orasidagi tanaffuslarda psixologik ta'sir ko'rsatish va asabiy-psixik tiklanish uchun sharoit yaratish;

- navbatdagi start paytida va u tugaganidan so'ng psixologik ta'sir ko'rsatish.

Tajriba guruhi sinaluvchilarining musobaqalarda ko'rsatgan natijalar qaydnomasi

№	F.I.Sh.	Musobaqa nomi	Tur	Natija
1	Aziz Samadov	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000–2001-y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22–25.01. 2019	800 m	2:01.691 o'rin
		1997-1999 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zb. Chempionati 30-01.02.2019	800 m	1:58.254 o'rin
		G.Gosanov 29 memorial chempionati	800 m	1:52.856 o'rin
		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	800m	1:53.354 o'rin
2	Mirsaid Buxarov	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000-2001-y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01.2019	800 m	2:02.063 o'rin
			1500 m	4:05.883 o'rin
		1997-1999 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zb. Chempionati 30-	800m	1:57.133

		01.02.2019		o'rin
			1500m	4:05.431 o'rin
		G.Gosanov 29 memorial chempionati	800 m	1:53.778 o'rin
		G.Gosanov 29 memorial chempionati	1500m	3:55.618 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997-1999-y.t. yoshlar o'rtasida va 2000-2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	1500 m	4:02.224 o'rin
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	800 m	1:53.832 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997-1999 -y.t. yoshlar o'rtasida va 2000-2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	5000m	15:20.892 o'rin
		T.Kalpakova xotirasiga Xalqaro turnir 14.07.2019	800m	1:54.077 o'rin
		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	800 m	1:52.923 o'rin
			1500 m	3:57.382 o'rin
3	Jahongir Raxmatullayev	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000-2001-y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01. 2019	800m	2:02.814 o'rin
		1997-1999 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zb. chempionati 30-01.02. 2019	800 m	1:59.626 o'rin
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	800 m	1:57.364 o'rin
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	1500 m	4:06.247 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997-1999-y.t. yoshlar o'rtasida va 2000-2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	800 m	1:53.971 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997-1999 y.t. yoshlar o'rtasida va 2000-2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	1500 m	4:04.426 o'rin
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	800m	1:55.673 o'rin
		T.Kalpakova xotirasiga 22 Xalqaro turnir 14.07.2019	800 m	1:55.319 o'rin
		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	800 m	1:55.647 o'rin
				G.Arzumanov xotirasiga bag'ishlangan 2 xalqaro memoriali
1500m	4:03.621 o'rin			
4	Avazbek Raxmatov	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000-2001-y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01.2019	800m	2:03.289 o'rin
		1997-1999 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zb. chempionati 30-01.02.2019	800 m	2:03.289 o'rin
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	800 m	1:54.153 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997-1999-y.t. yoshlar o'rtasida va 2000-2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	800 m	1:54.262 o'rin
5	Ko'paysin Xudoyorov	2002-2003 y.t.o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 9-12.02.2019	800 m	2:03.362 o'rin

			1500 m	4:14.621 o'rin
		O'zbekiston ochiq kubogi va 2000–2001-y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01. 2019	800 m	2:06.652 o'rin
			1500 m	4:10.935 o'rin
		2002-2003-y.t. o'smirlar o'rtasida O'rta osiyo chempionati 2-3.03.2019	800 m	2:03.641 o'rin
			1500 m	4:10.931 o'rin
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	800m	2:00.95
			1500m	4:05.446 o'rin
		2002-2003 y.t. o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 16-17.05.2019	800m	DNS
			1500m	4:13.312 o'rin
		G.Arzumanov xotirasiga bag'ishlangan 2 xalqaro memoralari	800m	1:59.544 o'rin
			1500 m	4:08.311 o'rin
6	Xasan Mirsoatov			
7	Muxsinjon Abdulatifov	1997-1999 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zb. Chempionati 30-01.02. 2019	1500 m	4:30.4113 o'rin
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	800 m	2:04.2711 o'rin
			1500 m	4:20.172 o'rin
		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	800 m	1:58.0110 o'rin
			1500 m	4:03.47
8	Fayzullo Pulatxo'jayev	Yengil atletika bo'yicha 2002-2003 y.t.o'smirlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 9-12.02.2019	800 m	2:05.703 o'rin
			1500 m	4:23.215 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997–1999-y.t. yoshlar o'rtasida va 2000–2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	5000 m	15:57.289 o'rin
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	800 m	2:02.42
			1500 m	4:17.7812 o'rin
9	Azim Abdullayev	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000-2001-y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01.2019	800 m	NT
		1997–1999 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zb. chempionati 30-01.02.2019	800 m	2:06.0910 o'rin
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	800 m	2:03.539 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997-1999 y.t. yoshlar o'rtasida va 2000-2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	800m	2:01.29
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	800m	2:01.00
			1500 m	4:19.5313 o'rin

		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	800 m	2:00.3811 o'rin
		G.Arzumanov xotirasiga bag'ishlangan 2 xalqaro memoriali	800m	2:01.745 o'rin
			1500m	4:18.685 o'rin
10	Xusnimardon Uskenov	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000-2001 y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01. 2019	1500 m	4:40.69
		1 xalqaro navro'z marafoni	42.195 m	1:20:27
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	3000 m	9:40.079 o'rin
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	1500 m	17:06.80
		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	10000 m	35:29.59
11	Sherzod Madiyarov	O'zbekiston ochiq kubogi va 2000-2001 y.t. o'smirlar o'rtasida O'zb. Chempionati 22-25.01.2019	1500 m	4:26.72
		O'zDJTSU ochiq chempionati 10-11.04.2019	1500 m	4:21.143 o'rin
			3000 m	9:14.135 o'rin
		O'zbekiston ochiq chempionati, 1997–1999 y.t. yoshlar o'rtasida va 2000–2001 y.t. o'spirinlar o'rtasida O'zbekiston chempionati 11-13.10.2019	1500m	4:12.7010 o'rin
			5000 m	16:41.4214 o'rin
		O'zbekistn ochiq kubogi 17-18.08.2019	1500 m	4:10.5010 o'rin
		O'zbekiston shaharlararo kubogi 11-12.06.2019	1500 m	4:13.818 o'rin
G.Arzumanov xotirasiga bag'ishlangan 2 xalqaro memoriali	1500 m	4:15.914 o'rin		
12	Usmanov			

Pedagogik tajribada ishtirok etgan sportchilarizdan Xurshid Axmadaliyev 2014-yil 29–30-may kunlari o'tkazilgan O'zbekiston ochiq kubogi musobaqasida 800 m masofaga 1:54.0 sek natijani qayd etgan bo'lsa, navbatdagi xalqaro musobaqada XXIV memorial Gusman Kasanov xotira turniri musobaqasida Olmaota (Qozog'iston) shahrida 800 m masofaga yugurishda 1:52.0 sek natija bilan 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Yana bir sportchimiz Roman Shtukan 1500 m masofa bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston ochiq kubogida 4:00.05 natija bilan 2-o'rinni egallagan bo'lsa, 20–22-avgust kunlari o'tkazilgan O'zbekiston ochiq chempionatida 800 m masofaga 1:56.26 sek natijasi bilan 2-o'rinni, 1500 m masofaga yugurishda esa 3:54.89 sek. natija bilan 1-o'rinni egalladi. 7-8 iyun kunlari Bishkek (Qirg'isiston) shahrida o'tkazilgan XVII olimpiada chempioni Tatyana Kalpakova Xotira turnirida 1500m masofaga yugurishda 3:58.22 sek natija ko'rsatib, 2-o'rinni egalladi. Yana bir sportchimiz Sohob Rizayev 29–30-may kunlari o'tkazilgan O'zbekiston ochiq kubogida 800 m masofaga yugurishda 1:54.35 sek natijani ko'rsatib, 4-o'rinni egalladi. 1500 m masofaga esa 4:02.52 sek natija bilan 3-o'rinni egalladi. Sportchilarimizdan yana biri Vladislav Mamedov 26–28-fevral kunlari o'tkazilgan qishki O'zbekiston ochiq chempionatida 1500 m masofaga 4:07.16 sek natijani qayd etib, 4-o'rinni egalladi. O'zoq masofaga yuguruvchi sportchimiz Zikirillo Mamatkulov 20–22-avgust kunlari o'tkazilgan O'zbekiston ochiq chempionatida 5000 m masofaga 15:31.53 sek natijani qayd etib, 2-o'rinni egallagan.

2019-yilda o'tkazilgan musobalardagi natijalardan ko'rishimiz mumkinki, biz tajriba guruhi sportchilariga qo'llagan vosita va usullar o'z samarasini berganligi sportchilarning musobaqalardagi natijalarida ko'rishimiz mumkin.

8. Sarsenbaeva Z., Uteshova Z. Principles of Teaching Karakalpak Students English Speech Etiquette. *Humanising Language Teaching*. 2022, №. 4.

Madaminov Azimbek Egamberganovich (Lecturer, Department of Theory and Methods of Physical Culture, Urgench State University; e-mail: azimbekmadaminov66@gmail.com),

Botirov Anvar (Lecturer, Department of Theory and Methods of Physical Culture, Urgench State University)

CRITERIA OF SCIENTIFIC ACTIVITY IMPLEMENTATION OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION STUDENTS

Annatsiya. *Mazkur maqolada jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarining ilmiy faoliyat ishlarini tashkil etishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan mezonlarga bag'ishlangan bo'lib, unda talaba va uning ilmiy rahbari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена критериям, которые должны быть реализованы при организации научной деятельности студентов физкультурного образования, и даны рекомендации, которые должны быть реализованы студентом и его научным руководителем при проведении научно-исследовательской работы.*

Annotation. *This article is dedicated to the criteria that should be implemented in the organization of scientific activities of physical culture education students and recommendations that should be implemented by a student and his scientific supervisor in conducting given scientific research.*

Kalit so'zlar: *jismoniy madaniyat, eksperiment, ilmiy tadqiqot, talaba, tarbiya, oliy ta'lim, pedagogika, ilmiy rahbar, sport, ta'lim, tizim, standart.*

Ключевые слова: *физическая культура, эксперимент, исследования, студент, воспитание, высшее образование, педагогика, научный руководитель, спорт, образование, система, стандарт.*

Key words: *physical culture, experiment, research, student, upbringing, higher education, pedagogics, supervisor, sports, education, system, standard.*

The final state certification of graduates in obtaining a bachelor's degree in physical culture and a master's degree in theory and methods of physical culture and sports in the higher education system of the Republic of Uzbekistan is determined by their final research. It is also recognized as a wall of dissertation work, preparing students for future careers and obtaining an academic degree.

The current normative and legal documents of education provide a systematic list of higher education in the field of education and master's specialties, the state educational standard of higher education – qualification requirements for a particular field of education (content), the content of education, the necessary and adequate level of general training of graduates, a benchmark level that determines the level of assessment of the quality of training is being developed and improved.

The purpose of the national model of training is to radically reform the education system, to raise it to the level of developed countries, to create a system of training highly qualified personnel that meets the highest moral and ethical requirements [1].

At present, a number of scientific researches in the field of physical culture and sports are carried out not only by researchers, but also by other physical culture and sports coaches of educational institutions. Creative approach to their work Research work, which involves the search for new, original and effective ways to solve pedagogical problems, is a topical issue today to provide insights and guidance on how to positively affect the future activities of students. To do this, it is possible to train highly qualified, competitive personnel in the future by directing students to this process and teaching them its specific requirements.

In the implementation of research work carried out by students in the field of physical culture, first of all, it is necessary to accurately and clearly teach and direct the stages of research work. Its types include:

- methodical work;
- scientific and methodological;
- research.

The scientific nature of any research in the field of physical culture is determined not by the type of research itself, but by the fulfillment of the proposed requirements for the scientific work. According to this generalization of pedagogical experience, it is necessary to include in the full scientific work who and to what extent the studied mamma is studied. For example, the concepts of ‘methodical’ and ‘scientific-methodological’ work define the specific features of research. This is characterized by a preference for addressing issues of teaching and learning methods. It is also intended to be used as a software application in scientific research in the field of physical culture and sports, i.e. as a set of resources.

The difference between methodological work and scientific-methodological work is the presence of elements of innovation in it. If a student conducts research on a topic, the student's activities, procedures, research, are limited to acquaintance with their experience to determine the characteristics of the topic, and there is no specific approach to solving the problem, unknown (novelty to develop) research methods can not be found. If an experiment is found with the same generalization, then new patterns of teaching and education will be multiplied in an experimental setting, for such a study it will be necessary to study scientific and methodological materials as well as to make a comparative analysis.

In the research conducted by the student in the field of physical culture, scientific-methodical work is essentially a process of special importance of scientific research. In this regard, it covers not only issues of teaching and educational methodology, but also a wide range of issues in the field of physical culture. This applies to the concepts of research methodology and research methods. A research methodology is a type of research program for a study that is recognized as the result of a comprehensive pre-development of a specific research topic or problem. Research methods are a set of techniques or a set of methods used in research.

In conducting research on a problem identified by a student in the field of physical culture, it is required to pay special attention to its stages and follow the instructions of the supervising teacher. Any specific research must be presented in several stages. These are:

- choice of research topic;
- description of the object and subject of research;
- definition of goals and objectives;
- volume of research;
- development of hypotheses;
- Development of a research plan;
- work with literature;
- The degree of study of the topic;
- choice of research methods;
- organization of research conditions;
- analysis (collection of materials);
- processing of research results;
- statement of results;
- Formation of research work.

Each stage has its own tasks, which are often solved sequentially, and sometimes simultaneously.

Selection of research topic: The whole scientific research involves solving any scientific problem. Scientific shortcomings, facts, inconsistencies of scientific research create the basis for scientific research. The formulation of a scientific problem includes:

- to determine the abstractness of the chosen topic in practice;
- substantiate the need to eliminate ambiguity;
- goal setting.

It is preferable for the student to explore more competent issues and how they relate to his or her practical activities (sports, education, organization, teaching, or coaching) [3]. However, the proposed topic should be evaluated in terms of the feasibility of the experiment. That is, research teams (experiment and control), the formation of research methods, the availability of a sufficient number of sociological tests to create appropriate conditions for conducting experimental tests should be ensured.

In the field of physical culture, research work on a particular topic by a student is required to be performed independently. In doing so, the student is required to strictly adhere to the rules of professional ethics (do not allow plagiarism, falsification of statistics and other information, as well as false citations). At the same time, there are certain requirements for the student's supervisor.

The responsibilities of the supervisor include:

- create a schedule of consultations to provide systematic assistance on issues that may arise within the research topic;
- Participate in the selection of research methods and assist the student in their application in research;
- control over the implementation of the student's work on the established calendar work plan and the timely preparation of research work in the conduct of research work;
- Summarize the research work before the first defense.

Based on the above, the head of the department and the scientific head are assigned specific responsibilities.

There will be an opportunity to participate in various competitions or to study this research work on a larger scale.

In conclusion, the organization of research work of students in the field of physical culture, as well as the possibility of achieving positive results in this process is carried out in accordance with the above guidelines.

References:

1. National training program. The dream of a harmoniously developed generation. Tashkent, 1997.
2. Abdullaev A.A. Problems of scientific research in the field of physical culture and sports. Problems in the field of physical culture and physical education. Proceedings of the scientific-practical conference. T., 2016, p. 89–93.
3. Radjabov A. Fundamentals of Scientific Research: A Textbook. Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, “Tafakkur bostoni”, 2012, p. 208.
4. Makhmudov B.A. Organization of independent research work in the preparation of future physical education teachers for professional activities. Teacher and Knowledge Journal. № 2, Nukus, 2021, p. 135–139.
5. Makhmudov B.A. Methodological bases of professional training of physical education teachers. “Molodoy uchony”, International scientific journal. Kazan, 2021, p. 459.

**Salomova Nigina Muzaffarovna (Buxoro shahar tibbiyot birlashmasi
“Salomatlik” markazining metodist shifokori-ilmii izlanuvchi)
SUV VA SALOMATLIK**

***Annotatsiya.** Maqolada eng noyob ekologik komponentlardan biri suv, suvning xillari va uning organizm salomatligi uchun nechog‘li jiddiy ahamiyati borasidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

***Аннотация.** Данная статья посвящается одному из важных экологических компонентов воды, его видам и его место в человеческой жизни. Вода – главный жидкий компонент биоты. Качество воды сильно влияет на здоровье человека.*

***Annotation.** The article is dedicated to water – one of the most important ecological component, its types and place in the humans life. Water is the main liquid and its quality impacts to the health of people.*

Kalit so‘zlar: suv, salomatlik, suvning iqtisodiy va ekologik qiymati.

Ключевые слова: вода, здоровье, экологическая и экономическая ценность воды.

Key words: water, health, ecological and economical value of water.

22-mart kuni – Butunjahon suv kuni sanaladi. Yer yuzida ekologik toza suv atigi 3%ni tashkil etadi. Hozirgi kunda dunyo aholisining 2 milliardi suv taqchil hududlarda yashamoqda. Jahonda 8 milliard aholi bo‘lsa, shularning yarmi o‘z uyida suvga ega emas. Suv zaxiralarining kamayishi, aholi soni va ehtiyojini o‘shishi esa suv qimmatini vaqt o‘tgan sayin oshiraveradi. Kelasi 20 yil ichida jahondagi suvga bo‘lgan ehtiyoj mavjud chuchuk suvdan 40%ga oshib ketdi.

Inson salomatligi u iste‘mol etayotgan suv sifatiga bog‘liq. Bu aloqadorlikni juda ko‘p allomalar o‘z asarlarida qayd etishgan. Uch kishilik oilada bir oyda 160 litr suv faqatgina iste‘mol uchun sarflanadi.

Hammaga ma‘lumki, inson tanasining 60%ni suv tashkil etadi. Miyaning 75% – 80% suv tashkil etadi. Qonning 92% suv, muskullarda 75% suv, suyaklarda 22% suv, jigarda 86%, yurakda 79% suv, buyrakda 83%, limfa tomirlarida 94% suv bo‘ladi. 65 yoshli inson tanasida o‘rta hisobda 40 litr suv bo‘ladi. Suv ko‘pgina fizik-kimyoviy-biologik jarayonlar kechadigan asosiy muhit hisoblanadi. Erkaklar bir kunda 3 litr, ayollar esa 2 litr suv ichishi kerak. 50% suyuqliklar ovqatlanish payti olinadi.

Tana ichki muhitining doimiyliigi va uning ma‘lum miqdorda saqlanishi yashash uchun asosiy sharoit bo‘lib hisoblanadi. Suv poliz ekinlari va ho‘l mevalarda, ularning sharbatlarida ko‘p bo‘ladi. Me‘yoriy harorat va jismoniy yuklama sharoitida inson uchun salat va mevalardagi suvning iste‘mol qilinishi yetarli bo‘ladi.

Yoshi ulg‘ayib borgan sari organizm fiziologik jihatdan qariy boshlaydi, ovqat hazm qilish tizimi jiddiy funktsional va organik qayta qurila boshlaydi. Suv, suyuqliklarni kam iste‘mol qilishi tufayli, jismoniy faollik kamligi tufayli tushkunlik va ruhiy zo‘riqishlar paydo bo‘ladi. Shu sababli ham yoshi ulug‘ kishilar ko‘proq suv qabul qilishi lozim.

Statistik mu‘lumotlarga ko‘ra, 75% keksa odamlardan 20%dan ortig‘i me‘yoridan ortiq taom iste‘mol qiladilar. Bu ularni taomnomasida yuqori darajada yog‘ saqlagan go‘sht va unli mahsulotlar, shirinliklar ko‘p miqdorda bo‘lib, suv, sut va baliq mahsulotlari hamda meva-sabzavotlar yetarlicha emasligidan dalolat beradi. Bu ularning oqilona-sog‘lom ovqatlanish me‘yori buzilganidan dalolat beradi.

Ibn Sinoning tibbiy asarlarini mutolaa qilar ekansiz, uning amaliyotida suvni sifati keng va har tomonlama tahlilining guvohi bo‘lamiz. Diqqat qiling: “To‘rt unurning biri – suv haqida (Tib qonunlari. Birinchi kitob. O‘n oltinchi fasl). Suvlarning ahvoli haqida”.

“Suvlarning eng yaxshisi buloq suvidir. Lekin hamma buloqning emas, balki yeri toza va tuprog‘ida bironta chet xususiyat va kayfiyat (sifat –S.N.) bo‘lmagan buloqning suvidir yoki (suv oqadigan joy) toshli bo‘lishi kerak, chunki u balchiqqa o‘xshab sasimaydi, ammo toza tuproqli yer toshli yerdan yaxshiroq”.¹ Buloq suvi, avvalo, oqadigan bo‘lishi, quyosh nuri tushadigan ochiq yerda oqishi va o‘zani loylik bo‘lishi, lekin loy toza bo‘lib, unga sho‘rxok va boshqa narsalar aralashmasligi kerak.

Chuchuk suv haqida fikr yuritar ekan, alloma, bunday yozadi: “Hamma toza tuproqli buloqning (suvi yaxshi) bo‘lavermaydi, u suv yana oqar suv bo‘lishi kerak, oqqanda ham quyosh va shamollar uchun ochiq joyda oqishi kerak, chunki bular oqar suvga fazilat beradigan narsalardir”,² deb uqdiradi. Pokiza, latif, ichimlik suvi deb ataladigan suvning 14 ta zarur sharti borligi haqida XIX asrning oxiri – XX asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan Bositxon ibn Zohidxonning “Qonuni Bositiy” yoki Mir Mu-

¹ Абу Али ибн Сино. Тиб конунлари. I китоб. “Фан”, Т., 1983; Иккинчи нашри. 192 бет.

² Ўша китоб. 192-бет.

hammad Muhammad Husayn al-Oqiliyning “Maxzan al-advayya” kitobida keltirilgan. Ular ham suv sifatiga ko‘ra:

1. Buloq suvi.
2. Yomg‘ir suvi.
3. Quduq suvi.
4. Zax va sizot suvi.
5. Ko‘l suvi.

6. Qor va muz suvlari kabi turlarni tasniflaganlar. Ammo ulardan o‘n asr ilgari Ibn Sino bu haqda to‘liq ilmiy aniq ma’lumotlar berganlar.

Qarama-qarshi sifatlarini taqqoslab, inson tanasi uchun qay biri foydali-yu, qay biri zararli ekanligini uqdiradi.

Ibn Sino suvlarni sifat jihatdan bir-biridan juda yaxshi farqlay olib, ularni quyidagi xillarga ajratgan:

1. Buloq suvi.
2. Ko‘lmak suvi.
3. Quduq suvi.
4. Yer osti suvi.
5. Muz va qor suvlari.
6. Loyqa suv.
7. Sho‘r suv.
8. Achchiqtoshli suv.
9. Oltigugurtli suv.
10. Temirli suv.
11. Qaynatilgan suv va h.k.

Mazkur suvlarning har biriga ta‘rif berib, foyda hamda zararli tomonlari haqida keng ma’lumot beradi. Ibn Sino o‘zining “Tadbirda yo‘l qo‘yilgan har xil xatolarga qarshi chora ko‘rish” risolalarida achchiqtoshli, neft va oltigugurtli, temirli suv haqida so‘z yuritib, har birining nimaga davo ekani haqida fikrlarini bayon etgan. Qo‘rg‘oshinli quvurlardan oqqan suvning xavfli ekanligini jiddiy ta‘kidlagan. Ibn Sino har bir sifatni saqlash, ushbu sifatlarini tekshirish yo‘llarini ko‘rsatgan olimdir. Suv sifatini aniqlashning eng oson yo‘li o‘lchovdir. Bir xil vazndagi paxta ikki joydan olingan suvga botiriladi va paxtalar quritiladi, so‘ng o‘lchanadi, qaysi paxta o‘zining avvalgi og‘irligidan kamroq o‘zgarsa, o‘sha joydan olingan suv toza. Boshqacha so‘zlar bilan aytganda, unday suvda erigan tuzlar kamroq bo‘lib, u ichishga yaroqli deb hisoblanadi. Bir kilogramm suv 1 grammdan (ya‘ni 1000 mg) ortiq mineral tuzlarni saqlamasa, bunday suvga chuchuk suv deyiladi. Aqliy va mantiqiy bilishning barcha qirralarini tibda sinagan faylasuf alloma ilmiy bilishning barcha usullarini amaliyotda qo‘llab, salomatlik sirlarini ochdi.

Olmon olimi doktor Knut Pfayffer – Dr. Knut Pfeiffer zam-zam suvi ustida tadqiqotlar olib bordi. Ren (Ren) daryosi suvidan ichgan kishining kuch-quvvati kamayganini hujjatlar bilan tasdiqladi. doktor Knut Pfayffer Zam-zam suvini tadqiqi etish natijasida bu suvdan ichgan kishining 35 daqiqadan so‘ng rohatlanishi boshlanganini isbotladi. Zam-zam suvining bir piyolasi 1 paqir suvni tozalaydi. Doktor Knut Pfayffer “Zamzam suvi har qanday sharoitda asl holatini o‘zgartirmaydi, ammo boshqa narsalarni o‘zgartiradi”, deb ta‘kidlaydi. U o‘z tajribalari haqida bunday yozadi: “Bir tomchi zamzam suviga 100 tomchi oddiy suv aralashtirdim. Qarasam, bu suv butunlay zamzam suviga aylanibdi. Keyin bir tomchi zamzam suviga 1000 tomchi oddiy suv aralashtirdim. Buning ham hammasi zamzam suviga aylandi, buni ko‘rdim”. Haj ziyoratiga borib zamzam suvi olib kelgan Hoji ota-onalarimiz haj suviga toza suvni qo‘shib, kelgan barcha mehmonlarga ulashish sabablari ma‘lum bo‘ldi.

Ichimlik suvi eng qimmat bo‘lgan davlat bu – Amerika.

Davlatlar	Mazkur davlatdagi 1.5 litr suvning narxi dollar hisobida
Los-Anjelos	90 dollar
Amerika	1,59 dollar
Urugvay	1,47 dollar
Shvetsiya	1,8 dollar
Lyuksenburg	1,8 dollar
Singapur	1,43 dollar
Irlandiyada	1,05 dollar
Finlandiyada	0,96 dollar
Gretsiyada	0,25 dollar
O‘zbekistonda	0,23 dollar

Kanadada eng toza suvning bir litri 58 dollar turadi, u eng qadimiy muzliklardan olinadi.

Insonning suv ichish tartibi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) atrof-muhitning haroratiga;
- 2) bajarayotgan ishining xususiyatiga hamda ishning og'ir-yengilligiga;
- 3) yoshiga;
- 4) salomatlik holatiga;

5) ovqat ratsioni va tarkibiga bog'liq bo'ladi. O'ta issiq kunlar ba'zida 3–4 litr suv ichiladi. Aksincha, shishlar bilan kechuvchi buyrakning surunkali kasalliklari va surunkali yurak yetishmovchiligida suv ichish keskin chegaralanadi.

Hozirgi paytda jahon okeaniga tabiiy fondan 6 baravar ko'p simob birikmalari tushmoqda. Shu kunlarda jahon okeanidagi simob "zaxirasi" 100–200 mln. Tonnaga yetib qoldi. Simob eng nozik suv o'tlarining fotosintez jarayoniga zararli ta'sir ko'rsatadi. Yaponiyadagi "Minimata" kasalligi ham aynan simob birikmalarining oziq zanjir orqali inson organizmiga o'tishi tufayli kelib chiqqanini eslaylik.¹

Har yili 10 mln. kishi ifloslangan va zararlangan suv ichgani tufayli olamdan ko'z yummoqda. Hozirgi paytda rivojlanayotgan mamlakatlardagi 80% kasalliklar ildizi suvlarning ifloslanishiga borib taqaladi. Bir inson uchun bir yilda 1000 litr suvning to'g'ri kelishi sanitariya normasining eng pastki xavfli chizig'ini bildiradi. Suriya va Livan davlatlari bu o'ta xavfli chiziqqa yaqin kelishmoqda. Hozirgi kunda jahon suv bozorini tashkil etish uchun aktiv faoliyatlar boshlangan.

**Ismoilova Gulhayo Kamol qizi (Qarshi davlat universiteti tayanch
doktoranti; Ismoilovagulhayo93@gmail.com)**

IQTISODIY ISLOHOTLAR VA MA'NAVIY HAYOT UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Maqolada iqtisodiy islohotlar va uning shaxs ma'naviy qiyofasiga ta'siri bilan bog'liq ayrim qarashlar tahlil etilgan. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoni va ma'naviy hayotga ta'siri o'rganilgan. Zamonaviy tendensiyalarning inson ma'naviy qiyofasiga ziddiyatli ta'siri va uni oldini olish borasidagi qarashlar asoslangan.

Аннотация. В статье анализируются некоторые взгляды, связанные с экономическими реформами и их влиянием на духовный облик человека. Изучается процесс осуществления экономических реформ и их влияние на духовную жизнь. Противоречивое влияние современных тенденций на духовный облик человека и его профилактика основаны на взглядах.

Annotation. The article analyzes some views related to economic reforms and their impact on the spiritual image of a person. The process of implementation of economic reforms and their impact on spiritual life are studied. The conflicting influence of modern trends on the spiritual image of a person and its prevention are based on views.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, globalashuv, qadriyat, jamiyat, ma'naviyat, shaxs ma'naviyati, ma'naviy etuklik, integratsiya, moliyaviy madaniyat.

Ключевые слова: экономика, глобализация, ценность, общество, духовность, духовность личности, духовная зрелость, интеграция, финансовая культура.

Key words: economy, globalization, value, society, spirituality, personal spirituality, spiritual maturity, integration, financial culture.

Kirish. XX asrning oxiri–XXI asr boshlariga kelib, milliy taraqqiyotimizda o'ziga xos yangi tendentsiyalar vujudga keldi. Xalqimiz mustaqillikni qo'lga kiritdi va o'zining rivjolanish yo'lini belgilab oldi. Mamlakatimizda iqtisodiyot bilan bir qatorda, ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviyat iqtisodiyot kabi huquqiy-demokratik, fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etildi. Ma'naviy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashdir. Ma'naviy etuklik insoning o'z shaxsiy manfaatlarini, jamoa, el-ulus, yurt manfaatlariga moslashtira olishidir. Bu esa kishidan o'z manfaatlarini ham, jamiyat manfaatlarini to'g'ri tushunishni, soxta qadriyatlarga, jozibali, ammo puch va g'arazli chaqiriqlarga uchmaslikni, aldanmaslikni talab qiladi. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlarning asosiy maqsadi – milliy madaniy qadriyatlar va ajdodlar merosini qayta tiklash, ularning asl mazmunini kelgusi avlodga etkazish, insonparvarlik, bag'rikenglik tamoyillari asosida barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu kabi maqsadlarga erishish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun ma'naviyat bilan bir qatorda katta iqtisodiy imkoniyatlar ham talab etiladi. O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini, yuksak orzu-umidlari, ezgu niyatlari va buyuk ishlarni amalga oshirish butun xalqimiz ayniqsa, yosh av-

¹ Саломова Х.Ю. Экология ва яшил иқтисодиёт. Бухоро, "Дурдона" нашриёти, 2023.

lodga bog'liq. Shuni nazarda tutgan holda davlat rahbari: "Iste'dodli va bilimli yoshlarimizni tadbirkorlikka keng jalb etish muhim ahamiyatga ega," deb ta'kidlagandi (1).

Iqtisodiyot va ma'naviyat bilan bog'liq muammolar bir necha asrdan buyon faylasuflarning e'tiborini o'ziga jalb qilib keladi. Erix Fromm, Maks Veber, E.Dyurkgey, E.Toffler P.Draker, M.Kastels kabilarning asarlarida masalaning falsafiy muammo va yechimlari bilan bog'liq qarashlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada iqtisodiyot va ma'naviyat va uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyat masalasi muhokma qilingan. Shaxs ma'naviy qiyofasidagi o'garishlar bilan bog'liq jarayonlar va ularning oqibatlarini bilan bog'liq tahlil qilingan. Maqolada ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, taqqoslash, analiz va sintez, kabi usullar qo'llanilgan.

Tahlillar va natijalar. Iqtisodiyot va ma'naviyatning aloqalari juda rang-barang va murakkab jarayon bo'lib ular o'zaro aloqadorlikni talab qiladi va biri ikkinchisini doimo taqazo etadi. Iqtisodiyot ma'naviyat rivojlanishi uchun moddiy shart-sharoitlar yaratadi. "Iqtisodiyot ehtiyojlari, talablari ma'naviyatga nisbatan «buyurtmachi» vazifasini o'taydi. Masalan, yangi texnologiyalar yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va shu kabililar ilm-fanni, texnik ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining murakkablashuviga, ilmtalabligining oshishi ishchi va mutaxassislarda yangi mehnat ko'nikmalari hosil bo'lishini, ularning malakasi muttasil o'sib borishini taqazo etadi. Bu esa jamiyatda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, umuman, tarbiya va ta'lim tizimi rivojlanishiga, ma'naviy-psixologik muhit o'zgarishiga, ishlab chiqarishda va turmushda ratsionalizatorlik, ixtirochilik, texnik ijodkorlikka moyillik kuchayishiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, turli tovarlarni, mahsulotlarni va xizmat turlarini xaridorlarga yetkazish ehtiyoji har xil ko'rgazmalar, shou-tomoshalar, konkurslar, lotereyalar va nihoyat reklama-axborot industriyasini vujudga keltirdi (2).

O'z navbatida, ma'naviyatning o'sishi; ilmiy-texnika kashfiyotlari, aholi bilimlarining va malakasi-ning oshishi, iqtisodiy tafakkurning o'zgarishi, yuksak ijtimoiy marralarni ko'zlash, yangiliklarga intilish iqtisodiyotni rivojlantiradi. Insonparvar jamiyatni faqat iqtisodiyot va texnologiyani rivojlantirib yaratish mumkin emas. Chunki faqat iqtisodiyot va texnologiya haqida qayg'urilsa, insonni o'z ayniyatini yo'qotib, iqtisodiyotning oddiy murvatiga aylantirib qo'yadigan texnokratik jamiyat qaror topish ehtimoli kuchayadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, shunchaki iqtisodiy o'sishlar inson va jamiyat hayotiga farovonlik olib kelmaydi. Resurslardan oqilona foydalanish ehtiyojlar va imkoniyatlar biriligini aniqlashda moliyaviy madaniyatga ham ega bo'lish talab etiladi. Moliyaviy madaniyat – shaxs moliyaviy ongi va faoliyati birligini ifodalovchi tushunchadir. U, bir tomondan, shaxsning moliyaviy xabardorligi, bilimlari va tasavvurlari, ikkinchi tomondan, uning moliyaviy faoliyati normalari va modellari, uchinchi tomondan esa, moliyaviy maqsad-muddaolari, qadriyatlarini negizida tarkib topadi (3).

Moliyaviy madaniyat past bo'lgan sharoitda hech qanday iqtisodiy imkoniyat ma'naviy yuksalishga olib kelmaydi. Ta'kidlash lozimki, moliyaviy madaniyat insonning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini va jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi, ijtimoiy pillapoyalardan ko'tarila borish imkonini beradi, kasbiy karyeraning jadal rivojlanishiga, o'z shaxsini namoyon qilish, o'z-o'zini rivojlantirish cho'qqilarini egallashga zamin yaratadi. Shaxsning yuksak moliyaviy madaniyatga ega bo'lishining ijtimoiy ahamiyati ham katta: kishilar moliyaviy madaniyati yuksalgani sayin jamiyatdagi moliyaviy munosabatlar ham takomillashib boradi, moliyaviy xizmatlar sifati oshadi.

Shaxsning moliyaviy madaniyati mahdud ravishda takomil topmaydi. U turfa omillar ta'sirida mazmunan va shaklan o'zgaradi. Masalan, uning shakllanishi jamiyatning iqtisodiy ahvoli, mehnat bilan mashg'ul kishilarning maoshi miqdori, turli investitsion va sug'urtaviy dasturlar kabi iqtisodiy omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Uning moliyaviy bilimlari va qadriyatlarini mavjud iqtisodiy-moliyaviy voqelikdan "rang oladi", moliyaviy faoliyati esa aynan ana shu voqelik kontekstida amalga oshiriladi. Iqtisodiy omillar o'zgarishi shaxs moliyaviy madaniyatining o'zgarishiga olib keladi.

O'zbekistonda uzoq yillar davomida moliyaviy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladigan choralarda aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar doirasida amalga oshirildi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi qaroriga muvofiq "O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish" loyihasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo'yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo'yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha dastur" hayotga tatbiq etildi (3). Keyingi yillarda aynan yoshlarning moliyaviy madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli loyiha va dasturlar ham paydo bo'ldi.

Ko'zlangan oliyjanob maqsadlarga erishish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Chunki islohotlar bilan bir vaqtda taraqqiyot sur'ati ham sezilarli darajada tezlashdi. Bugungi kunda dunyoda axborot tarqatish

kuchaydi, universal axborot texnologiyalari paydo bo'ldi. Bu esa g'oyaviy ta'sir o'tkazish ko'lamini kengaytirmoqda. Dunyoning biron nuqtasida sodir bo'lgan voqealar haqida xabar har xil ta'hdidlarda bir zumda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamlar ma'lum davlatlar va siyosiy kuchlarning, turli mafkuraviy markazlarning doimiy bosimini sezib yashashga majbur bo'lmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligiga erishish borasida ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiy mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berildi. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar o'zaro mutanosiblik kasb etmoqda. Olib borilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlarning pirovardida ma'nau yetuk, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga etkazish masalasi turibdi. Iqtisodiy islohotlarimiz esa xalqimizni farovon yashashini ta'minlashdek olijanob vazifaga qaratilgan. Ma'naviyat iqtisodiyotning rinojlanishiga, uning qayishqoqlik yoki inertlik darajasiga, yangiliklarga va yangilanishga ochiqlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyatning meyoriy-baholash xususiyati iqtisodiyot kun tartibiga qo'ygan talablarni bajarishga yoki ularga nisbatan jamiyatni beparvo bo'lishga undaydi.

Xulosa. Xulosa shuki, chinakam bilimni shakllantirish, ma'naviy tarbiya jarayonini izchil va uzluksiz amalga oshirish orqali har qanday tahdid va tazyiqning oldini olish va bartaraf etish mumkin. Buning uchun esa jamiyatimizning har bir a'zosi islohot va o'zgarishlarning nimaga qaratilganini, qanday amalga oshirilishi va uning natijasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i va faoliyatini shu asosda tashkil etishi muhimdir. Xalqimiz ko'ngilidagi mustahkam ishonch, tilidagi cheksiz shukronalik tuyg'usi, minnatdorchilik kayfiyatining asosiy boisi olib borilayotgan islohotlarning xalqchil ekanligidan ularning barchasi inson omiliga, uning manfaatlariga xizmat qilishidir. Bu jarayonda ma'naviyat insonga kuch bag'ishlaydi, uni harakatga undaydi va uning mustahkam ishonchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston – turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining teng huquqli a'zosi. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. T., "O'zbekiston", 2020, 260-bet.
2. A.Erkayev. Ma'naviyatshunoslik. T., "Ma'naviyat", 2018, 93-bet.
3. Сирина С.Н., Ступин В.Ю. От финансовой грамотности к финансовой культуре. Вестник Балтийского федерального университета им. И.Канта. Серия: Филология, педагогика, психология, 2017, № 4, с.72.
4. Obilov M.R. Aholining moliyaviy savodxonligi: mazmuni, ahamiyati va asosiy jihatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2019, 1-son, 7-bet.

Xudaybergonova Anabibi Qurbanbayevna (TTA Urganch filiali Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i) SOG'LOM OILA – SOG'LOM MA'NAVIYAT GAROVI

Annotatsiya. Maqolada sog'lom oila – sog'lom ma'naviyat garovi ekanligi atroflicha tahlil qilingan. Sog'lom turmush tarzi, oilaviy muhitning barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli ochib berilgan.

Аннотация. В статье проанализирована здоровая семья, как гарант здоровой духовности. Раскрыта роль здорового образа жизни и семейная среда в воспитании подрастающего поколения.

Annotation. The article thoroughly analyzes the fact that a healthy family is a pledge of a healthy spirituality. The role of a healthy lifestyle and family environment in raising a well-rounded generation is revealed.

Kalit so'zlar: sog'lom oila, sog'lom turmush tarzi, oilaviy muhit, ma'naviy mezonlar, oilaviy tarbiya, sog'lom ma'naviyat, jamiyat taraqqiyoti.

Ключевые слова: здоровая семья, здоровый образ жизни, семейная среда, критерий духовности, семейное воспитание, здоровая духовность, развитое общество.

Key words: healthy family, healthy lifestyle, family environment, spiritual criteria, family education, healthy spirituality, community development.

Biz qaysi mutaxassislik egasi bo'lishimizdan qat'iy nazar, oilada yashaymiz, muayyan oila a'zosisimiz. "Oila, deyiladi ma'naviyatning izohli lug'atida, er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvislar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai" [1.451]. Darhaqiqat, mamlakatimizda 1998-yil – Oila yili, 1999-yil – Ayollar yili, 2000 yil – sog'lom avlod yili, 2001 yil – Onalar va bolalar yili deb e'lon qilinishi, 1998 yil 30 aprelda Oliy Majlis tomonidan "Oila kodeksi"ning qabul qilinishi, O'zR Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida "Oila" ilmiy-amaliy markazining tuzilishi, 2000-yil 15-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Sog'lom avlod davlat dasturi to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi, 2001-yil 5-fevralda Vazirlar Mahkamasining "Ona va

bola” davlat dasturi to’g’risida qaror qabul qilishi, birinchilardan bo’lib mamlakatimizda 1993-yil 4-martda “Sog’lom avlod uchun” ordeni ta’sis etilishi va shu yili “Sog’lom avlod uchun” Xalqaro xayriya jamg’armasining tashkil etilish bejiz emas [2]. Bundan maqsad – oilani hartaraflama qo’llab-quvvatlash, oilada sog’lom ma’naviy-ruhiy muhitni shakllantirish, privordida, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish.

Oila – bu vatan ichra vatan. Oila – ma’naviy-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri. Sog’lom oila deganda, jismonan sog’, ma’nan barkamol, zararli ta’sirlardan, salbiy illat va shu kabilardan xoli, toza, pok, sog’lom fikrli kishilarning ijtimoiy birligini tushunamiz. Sog’lom oila sog’lom naslli, jismoniy bakuvvat, ruhi tetik, fikri tiniq, iymon-e’tiqodli, ma’naviyatli, mard va jasur, vatanparvar shaxslarni yetkazib beradi. Sog’lom bolaning tug’ilishi, eng avvalo, ota-onaning sog’ligiga bog’liq. Sog’lom oila bo’lmasa, barkamol avlod ham, yuksak ma’naviyat ham, istiqboli porloq millat ham, farovon jamiyat ham bo’lmaydi. Oila “ma’naviyat qo’rg’oni” deb atalar ekan, uni mustaxkamlash barchaning insoniy burchidir. Sharqona tarbiya masalasiga to’xtalar ekanmiz, albatta, farzandga mehr qo’yish, ularning qornini to’q, ustini but qilish bilan birga, bolalarimizni yoshlik chog’idan boshlab milliy tarbiya, ahloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Oila inson uchun muqaddas dargoh bo’lib, u insonlarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma’naviy munosabatlari zamirida yuzaga kelgan. Oila taqdiri uning rasmiy tus olish lahzasidan boshlanadi, shundagina er xotin oldida, xotin er oldida, ular ota-ona sifatida farzandlari qavmu qarindoshlar, mahalla-ko’y, qisqasi, jamiyat oldida, o’z navbatida, farzandlar ham o’z ota-onalari va el-yurti oldida mas’uliyat sezadilar va burchli ekanliklarini his qilib yashaydilar.

Oila jamiyat ichidagi kishilar birligi sifatida shu jamiyat nizomlari asosida yashasa-da, oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisadir, uning ichki ishlari unda yashovchilarning o’z shaxsiy yumushlari hisoblanadi, oila ishlariga birovning aralashuviga haqqi yo’q, shu ma’noda oila jamiyatning muqaddas va daxlsiz uyidir yoxud boshqacha qilib obrazli ifodalaganda, oila mustaqil muxtoriyatdan iborat saltanatdir. Oiladagi ma’naviy-axloqiy muhit mohiyatini belgilashda er-xotinning o’z farzandlariyu qaynona va qaynatariga, kelin-kuyovlariga, qo’ni-qo’shnilariga, quda-andalariga munosabatlari, shuningdek, har birlarining o’z vazifalarini, burch va mas’uliyatlarini nechog’liq anglab ado etishlari, ayniqsa, ayricha ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu jarayonda o’zbek oilalarida insonparvarlikning oliy jilolari – bolalarga shafqatlilik, keksalarni hurmat qilish, farzandparvarlik yoki serfarzandlik, qo’ni-qo’shni yoki mahalla-ko’y bilan, demakki, jamoatchilik fikri bilan hisoblashib yashash, yosh avlodni ajdodlarimiz yaratgan ezgu an’analar ruhida odobli va axloqli qilib tarbiyalash, bunda, avvalo, ularda mehnatsevarlik, halollik, to’g’rilik, rostgo’ylik, kamtarlik, samimiylik, o’zgalarga hurmat, moddiy-ma’naviy boyliklarini asrab-avaylash, yaratish va ko’paytirishga rag’bat, tabiatni sevish va muhofaza etishga shaylik to’yg’ularini shakllantirish muhimdir.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, eng qimmatli an’analar: halollik, rostgo’ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do’stlik kabi insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanganligini ko’ramiz. Bunga yorqin misol, qadimiy yozma yodgorligimiz “Avesto”dir. Bugun mamlakatimizda oilaviy vrachlarning tayinlanishi, reproduktiv salomatlik davlat dasturining joriy etilishi tarixiy o’zanlarimizga mos davlat siyosatidir.

Akademik Y.Lisisin uzoq yillardagi ilmiy izlanishlar hamda bu sohadagi mavjud fikr va mulohazalarni umumlashtirib, kishilar sog’ligi 50–55 foiz ularning turmush tarziga, 20–25 foiz irsiy omillarga, 15–20 foiz atrof-muhitga bog’liq, tibbiy xizmat esa, kishilar sog’ligini atigi 8–10 foizgina ta’minlay olishi mumkin, degan qarorga keladi [3.36].

Ushbu raqamlardan ko’rinadiki, sog’lom turmush tarzini shakllantirish XXI asrning asosiy muammolaridan biridir. Sog’lom turmush tarzi deganda nimani tushunamiz? Sog’lom turmush tarzi – shunday yashash tarziki, unda inson faol mehnat qilib yashashi, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, ehtirolarni yengib o’tishi, salomatligini asrash uchun foydali bo’lgan odatlarga o’rganishi va zararli bo’lgan barcha omillardan voz kechish.

Sog’lom turmush tarzining o’zagini oilaviy muhit tashkil etishi shubhasizdir. Oilaviy muhit – bu oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar kechadigan ijtimoiy-ma’naviy va axloqiy muhitdir. Sog’lom turmush tarzini shakllantirish, avvalo, oilaviy muhitni sog’lomashtirishdan boshlanadi. Chunki yuksak ma’naviy fazilatlar oilaviy muhitda kamol topadi.

Jahon Sog’likni Saqlash Tashkiloti (JSST) sog’lom turmush tarzining yo’nalishlarini quyidagicha belgilagan: 1. To’g’ri ovqatlanish. 2. Kashandalikka chek qo’yish. 3. Faol turmush tarzi. 4. Ruhiy salomatlik. 5. Toza suv. 6. Toza atmosfera havosi. 7. Samarali sanitariya. 8. Shaxsiy sanitariya. 9. Ovqatni giyiyenik tayyorlash. 10. Sariq kasalini oldini olish. 11. Sil kasalini oldini olish. 12. O’z joniga qasd qilishni unitish. 13. OITS yuqtirmaslik. 14. Irsiy maslahatlar va boshqalarga ahamiyat berish [3.38].

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, jamiyatda sog'lom oilani shakllantirish yuksak ma'naviyat garovi ekan. Keltirilgan statistikadan ma'lumki, kelajakda oilaviy tibbiy xizmat darajasini oshirmasdan turib, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalab bo'lmaydi. Demak, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqaror rivojlanadi.

Bolaning dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezonlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha, ota-onaga hurmat va vatan tuyg'usi kabi muqaddas tushunchalarning poydevori bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali oila sharoitida qaror topadi. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash – oilaviy tarbiyaning ustivor vazifalari.

Oilaviy muhitning nosog'lomligi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til topisha olmaslik kabi holatlar bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning fe'l-atvorida yolg'onchilik, qadriyatlarga bepisandlilik, xiyonatkorlik, bevafoqlik, jamoadan begonalashuv, kosmopolitizm, virtual olam ta'siriga tushib qolish, marginallik kabi salbiy illatlar namoyon bo'ladi. Bunday holat jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan, e'tiqodsiz, diyonatsiz, maqsad-maslaksiz insonlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Oilaning tarbiyaviy vazifasini to'g'ri olib borish uchun, avvalo, har bir xonadondagi muhitni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish lozim.

Sog'lom oilaviy muhit nafaqat er-xotinning xarakterili xususiyati, balki shu oilaga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi qariyalar, katta avlodlar tomonidan saqlanib kelgan an'analar asosida ham shakllanadi. Ana shunday muhitda tarbiyalangan shaxs individual tajriba bilan birga ijtimoiy muhit talablarini ham o'zlashtirib boradi. Bunday maqbul tizimni shakllantirishda ota-onadan bilim, uquv, aqliy salohiyat va zukkolik talab qilinadi. Oiladagi tarbiya jarayoniga ta'sir qiluvchi omillardan biri – oiladagi bolalar soni, ular yoshi o'rtasidagi farq, o'g'il yoki qiz farzandlar nisbatidir. Bunda har bir oiladagi o'ziga xoslikni inobatga olish o'ta muhim.

Sog'lom oilada–sog'lom ma'naviyat. Sog'lom ma'naviyat deganda, umuminsoniylikning ustivorligi tamoyiliga tayanadigan, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlovchi ezgu va bunyodkor g'oyalar tizimiga asoslanadigan ma'naviyatni tushunamiz. Sog'lom ma'naviyat jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi. U jamiyat tizimida bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, toifa va guruhlarning intilish va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g'oyalar tizimidir.

Sog'lom ma'naviyatning ustivor belgilari: milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, plyuralizm, tolerantlik, ko'ppartiyaviylik, gumanizm, tinchliksevarlik, xalq farovonligi, vatan ravnaqi, birdamlik, ijtimoiy hamkorlik, konsessium, kreativ tafakkur, pragmatizm. Sog'lom ma'naviyat bor joyda barkamol avlodni shakllantirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, birinchidan, sog'lom oilaning asosi – sog'lom turmush tarzi. Ikkinchidan, sog'lom turmush tarzining o'zagini sog'lom oilaviy muhit tashkil etadi. Uchinchidan, sog'lom oila – barkamol avlodni tarbiyalashning asosiy omili. To'rtinchidan, sog'lom ma'naviyat jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining garovidir. Beshinchidan, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish davlatimizning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi bosh maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
2. Oila – fuqarolik jamiyatining tayanchi.// <https://parliament.gov.uz/upload/iblosk>.
3. Otoboyev Sh., Haydarova O. va b. Ekologiya, oila, reproduktiv salomatlik. T., 2011.
4. O.Safarov, M.Mahmudov. Oila ma'naviyati. Toshkent, "Ma'naviyat", 2009.

Boymurodova Nazokat (UrDU mustaqil tadqiqotchisi) ABULG'OZI BAHODIRXON FAOLIYATI VA ASARLARINING XORIJIY SHARQSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI

Annottatsiya. Abulg'ozu Bahodirxon asarlari XIX asr boshlaridanoq rus va G'arbiy Yevropa olimlarining diqqatini o'ziga jalb qila boshladi. Abulg'ozu Bahodirxon o'zidan keyin qoldirgan ikkita muhim asarning biri "Shajarayi tarokima" bo'lib, 1658–1661-yillarda yozilgan deb taxmin qilinadi. Unda turkman xalqining kelib chiqishi afsonaviy O'g'uzxondan boshlanib, turli turkman qabilalar (taka, chovdur, yovmut, xizreli, alieli, tuyachi, solur, soruq va boshqalar)ning kelib chiqishi bayon qilinadi. Asar muallifi ta'kidlashicha, "Shajarayi tarokima" turkman mullalari, shayxlari, umuman, turkman ziyolili ommasining iltimosiga ko'ra yozilgan. Markaziy Osiyo tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar Ablug'ozixonning

“Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlariga tayanch manbai sifatida murojaat qilganlar. “O‘zbekiston tarixi”, “Turkmaniston tarixi” va “Tojikiston tarixi” asarlarining birinchi tomalaridagi materiallar va mualliflar jamoasining Abulg‘ozi asarlari xususidagi mulohazalari buning dalilidir.

Аннотация. Произведения Абулгази Бахадирхана с начала XIX века стали привлекать внимание русских и западноевропейских учёных. Одним из двух важных произведений, оставленных Абулгази Бахадир ханом, является «Шаджарайи тарокима», написанная, как полагают, между 1658 и 1661 годами. В ней описывается происхождение туркменского народа, начиная с легендарного Огузхана, и происхождение различных туркменских племен (така, човдур, йовмут, хизрели, алиэли, туючи, солур, сорук и др.). Автор произведения заявил, что «Шаджарай тарокима» написана по просьбе туркменских мулл, шейхов и туркменской интеллигенции. Ученые, занимающиеся историей Средней Азии, в качестве источника обращались к трудам Абулгази-хана «Шаджарай тюрк» и «Шаджарайи тарокима». Об этом свидетельствуют материалы на первых страницах произведений «История Узбекистана», «История Туркменистана» и «История Таджикистана».

Annotation. Abulghazi Bahadirkhan’s works began to attract the attention of Russian and Western European scientists from the beginning of the 19th century. One of the two important works left behind by Abulghazi Bahadir Khan is “Shajarayi Tarokima”, which is believed to have been written in 1658–1661. It describes the origin of the Turkomen people, starting with the legendary Oguz Khan, and the origin of various Turkomen tribes (Taka, Chovdur, Yovmut, Khizreli, Alieli, Tuyachi, Solur, Soruq, etc.). The author of the work stated that “Shajarayi Tarokima” was written at the request of Turkmen mullahs, sheikhs, and Turkmen intelligentsia in general. Scholars dealing with the history of Central Asia have turned to the works of Abulghazi Khan “Shajarayi Turk” and “Shajarayi Tarokima” as a source of support. This is evidenced by the materials in the first pages of the works “History of Uzbekistan”, “History of Turkmenistan” and “History of Tajikistan” and the comments of the author team about the works of Abulghazi.

Kalit so‘zlar: Abulg‘ozi Bahodirxon, G‘arbiy Yevropa, “Shajarayi tarokima”, taka, chovdur, yovmut, xizreli, alieli, tuyachi, solur, soruq, “Shajarayi turk”, Markaziy Osiyo tarixi.

Ключевые слова: Абулгази Бахадирхан, Западная Европа, “Shajarayi tarokima”, така, човдур, йовмут, хизрели, алиэли, туючи, солур, сорук, “Shajarayi turk”, история Центральной Азии

Key words: Abulghazi Bahadirkhan, Western Europe, “Shajarayi tarokima”, taka, chovdur, yovmut, khizreli, alieli, tuyachi, solur, soruq, “Shajarayi Turk”, history of Central Asia.

Abulg‘ozi Bahodirxon asarlari XIX asr boshlaridanoq rus va G‘arbiy Yevropa olimlarining diqqatini o‘ziga jalb qila boshladi. XIX asrda Rossiyada “Shajarayi turk”ning quyidagi nashrlari amalga oshirilgan:

1. Qozonda 1825-yilda Rummyatsev nashri.
2. 1854-yil Qozonda Sablukov nashri.
3. 1871-yil Qozonda P.I.Demozon nashri.

“Shajarai tarokima” esa 1898 va 1906 yillar davomida bir necha bor nashr qilingan.¹

Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zidan keyin qoldirgan ikkita muhim asarning biri “Shajarayi tarokima” bo‘lib, 1658–1661-yillarda yozilgan deb taxmin qilinadi. Unda turkman xalqining kelib chiqishi afsonaviy O‘g‘uzxondan boshlanib, turli turkman qabilalar (taka, chovdur, yovmut, xizreli, alieli, tuyachi, solur, soruq va boshqalar)ining kelib chiqishi bayon qilinadi. Asar muallifi ta’kidlashicha, “Shajarayi tarokima” turkman mullalari, shayxlari, umuman turkman ziyolili ommasining iltimosiga ko‘ra yozilgan.

“Shajarayi turk”ning rus tiliga tarjimai Rossiya oliy o‘quv yurtlarida Sharq xalqlari tarixi va tilini o‘qitish ishiga ham ijobiy ta’sir etdi. Qozon universitetining professori I.N.Brezin turkiy xalqlar tarixini o‘qitishda Abulg‘ozixonning asarlariga ham tayangan. “Turk majmuasi” nomli kitobi va universitet talabalariga o‘qitgan leksiyalarida “Shajarayi turk” tayanch manba bo‘lib xizmat qilgan. “Shajarayi turk” chet ellik olimlarning ham diqqatini torta boshlaydi. Abulg‘ozining ijodi bilan 1870-yillardan boshlab qiziqib kelgan P.N.Demozon 1871–74-yillar orasida “Shajarayi turk”ni fransuz tiliga tarjima qiladi. “Shajarayi turk” tarjimai unga katta shuhrat keltiradi va nafaqat Frantsiya, balki Angliya va Amerika xalqlari orasida ham keng tarqaladi. Demakki, Abulg‘ozining “Shajarayi turk” asari o‘tmishda Sharq tarixchilari, Rus va G‘arbiy Yevropa sharqshunoslarining noyob asarlaridan biridir. U uch asrdan buyon turkiy xalqlar tarixi bo‘yicha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. “Shajarai tarokima” va “Shajarayi turk” asarlarining tarixshunoslik fanida tutgan o‘rni haqida juda ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. 1938-yilda yaratilgan “XVI–XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida munozaralar” hamda 1958-yilda nashr etilgan “Markaziy Osiyo tarixidan ocherklar” nomli kitoblar Abulg‘ozining tarixchilik faoliyati haqida

¹ Худойназаров Х. ”Шажарай турк” ва унинг ўрганилиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1993, 7-бет.

ko'plab ilmiy ma'lumotlar taqdim etadi. "Abulg'ozining asarlari yana shuning uchun ham muhimki, mazkur muallifdan oldin bunday asarlar yaratilmagan edi, shuningdek, ular vujudga kelgan asri va keyingi asrlar uchun ham xarakterli bo'lib qolavergan Xiva-turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro va Eron bilan o'sha asrlardagi aloqasini to'g'ri yoritish uchun juda boy materiallar beradi" deb ta'kidlaydi ushbu kitobda mashhur arxivshunos P.P.Ivanov.¹

"Abulg'ozini Bahodirxon o'zining muarrixligi bilan mo'g'ul, turk tarixchilari orasida shuhrat qozongan va shu bilan bir vaqtda Xiva xoni (1643–1663) bo'lib, uning asarlari Rossiya va chet el tillariga ham tarjima qilingandir",² deb yozadi tarixchi olim A.Semenov. Markaziy Osiyo tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar Ablug'ozixonning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlariga tayanch manbai sifatida murojaat qilganlar. "O'zbekiston tarixi", "Turkmaniston tarixi" va "Tojikiston tarixi" asarlarining birinchi tomlaridagi materiallar va mualliflar jamoasining Abulg'ozini asarlari xususidagi mulohazalari buning dalilidir. "O'zbekiston tarixi" kitoblarining barcha nashrlari, 1967-yil va 1970-yillarda mualliflar jamoasi tomonidan rus va o'zbek tillarida nashr etilgan "O'zbekiston tarixi" nomli kitobning birinchi tomida Xiva xonligi va Abulg'ozini Bahodirxonning faoliyati haqida keng ma'lumotlar berilgan.³ Taniqli tarixchi olimlarimiz B.Ahmedov, Q.Munirov, A.Ziyo asarlarida ham Abulg'ozining tarixiy asarlaridan juda unumli foydalanilgan.⁴ Tarix ilmida Abulg'ozixonning faoliyati alohida tarzda o'rganilgan va K.Yusupov 1950-yilda "XVII asrning birinchi yarmida Xiva xonligi va Abulg'ozini" mavzusida tarix fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Akademik Yahyo G'ulomov ham o'zining "Xorazmning sug'orilishi tarixi" (eng qadimgi davrlardan shu kungacha) nomli fundamental asarida Abulg'ozini asarlaridan keng foydalanish bilan birga uning o'z faoliyati davomida sug'orish sohasida olib borgan ishlari, uning nomi bilan bog'liq suv inshootlari (Shovot, G'azovot kabilar), davlat boshqaruvi tizimida olib borgan islohotlari haqida ko'plab ma'lumotlar beradi.⁵ Xususan, olimning "Yangi Urganchni barpo etish, Urganch kanalini qurish, Gurlandan shimolda Vazir istehkomini solish kabi tadbirlar xon Abulg'ozini davrida tugatiladi. Shunday qilib, uning davrida chap qirg'oq Xorazmning janubiy yerlarini ikkinchi marta o'zlashtirish boshlangan. Xorazmning bu ma'rifatli hukmroni o'z ota-bobolarining ko'chmanchilik odatlaridan voz kechib, shahar va dehqonchilik vohasining madaniyatini o'zlashtirdi. G'ozibod kanali va undagi istehkom ham Abulg'ozini nomi bilan bog'langandir" degan fikrlari diqqatga sazovordir.⁶

Akademik M.I.Yo'ldoshev Xorazmdagi urug'larning tarkibi va tuzilishini o'rganishda Abulg'ozini olib borgan tadbirlarni bayon etib: "Abulg'ozixon tomonidan ko'rilgan tadbirlar to'g'risida Shermuhammad Munis asarida keltirilgan ma'lumotlar urug'larning tarkibi va tuzilishini o'rganish uchun diqqatga sazovordir", degan edi.⁷

XX asrning boshlaridan boshlab, Abulg'ozini asarlari tilshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda. Bir necha mashhur turkshunoslar o'zbek adabiy tili tarixiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy ishlarida Abulg'ozini asarlaridan unumli foydalanganlar. Uning asarlarini o'rganish, xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyin avj oldi. 1957-yilning 4–11-iyungun kunlarida Toshkentda o'tkazilgan mamlakat sharqshunoslarining birinchi ilmiy-nazariy konferensiyasida "Xivalik Abulg'ozixon asarlari–o'zbek adabiyoti va tilining yodgorligi sifatida" degan mavzuda ma'ruza qilindi. Ma'ruzada Abulg'ozixon adabiy merosini to'plash, sistemalashtirish va ular ustida har tomonlama chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, filologlarning eng muhim va mashuliyatli vazifalaridavn biri ekanligi alohida ta'kidlandi. 1958-yilda esa A.N.Kononov tomonidan Abulg'ozixonning "Shajarayi tarokima" asari rus tiliga tarjima qilinib, tanqidiy matni nashr etildi.⁸ Bu asarga tarjimon qisqacha so'zboshi yozgan bo'lib, unda "Shajarayi tarokima"ning o'rganilish tarixi umumiy tarzda bayon qilingan va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'zbek tili tarixida tutgan o'rni va ahamiyatiga baho berilgan.

Abulg'ozixonning "Shajarayi tarokima" nomli kitobining tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarixshunoslikdagi ahamiyati haqida A.N.Kononov bunday degan edi: "Turk tilida o'z vaqtida yozilgan "Sha-

¹ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. Москва, 1958, с. 31.

² Семенов А.А. Собрания восточных рукописей. Том 1. Ташкент, 1952, с. 72.

³ Ўзбекистон тарихи 1-том, Т., 1970.

⁴ Ахмедов Б. Кўчманчи ўзбеклар давлати. Т., 1968; Муниров Қ. Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Т., 1960; Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., 2001.

⁵ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. Т., 1959.

⁶ Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. Т., 1959, 303-бет.

⁷ Йўлдошев М.И. Хива хонлигида ер эғалиги ва давлат тузилиши. Т., 1959, 81-бет.

⁸ Кононов А.Н. Родославная туркмен. Л., 1958.

jarayi tarokima” asari ham tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, u faqat til yodgorligi emas, asosan, ishlab chiqarish jarayoniga tarixshunoslik va balletistik adabiyotga ham taalluqli edi”.¹

A.M.Shcherbakning 1959-yilda Moskadagi Sharq adabiyoti nashriyotida “O‘g‘uznoma” va “Muhabbatnoma” nomli kitobi nashr etiladi. Bu kitob qadimgi uyg‘ur va eski o‘zbek yozuvlari yodgorliklariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda “O‘g‘uznoma” munosabati bilan Abulg‘ozixonning “Shajarai turk” asariga ham anchagina orin ajratilgan. Bu ikki asar tadqiqotchi tomonidan taqqoslanadi va ular asosida nazariy va ilmiy xulosalar bayon qilinadi. A.M.Shcherbak O‘g‘uzxonning afsonaviy tarixini yorituvchi qo‘l-yozmalarning turli xil variantlarini bir-biriga qiyoslab ko‘rib, shular orasidagi eng ko‘p tarqalgani va mashhuri, shu bilan birga, qadimiyroq i Abulg‘ozixonning “Shajarayi turk”ida keltirilgan variant degan xulosaga keladi. U uyg‘ur varianti bilan “Shajarayi turk”dagi ba’zi epizodlarni, jumladan yoy va oltin o‘qlarni qo‘llash o‘rinlarini qiyolash orqali ham Abulg‘ozixonning qo‘lida bizgacha yetib kelmagan “O‘g‘uznoma”ning qadimiyroq nusxasi bo‘lgan, degan xulosaga keladi. Ayrim tarixchilarning fikricha, Abulg‘ozixon O‘g‘uzxon haqidagi dalillarni Rashiddinning “Jome’ ut-tavorix” asaridan olgan. Lekin A.M.Shcherbak esa bu fikrlarga qarshi munosabat bildirib, quyidagilarni yozadi : “Umuman, Abulg‘ozixonning qo‘lida O‘g‘uzxon haqida bizgacha yetib kelmagan, ishonchli, qadimiy nusxaning bo‘lgani haqiqatdir. Rashiddinning “Jome’ ut-tavorix”idan o‘zlashtirilgan bir qancha faktlarni Abulg‘ozixon Eronda bo‘lgan vaqtida boshqa fors adiblarining tarixiy solnomalaridan ham o‘rgangan”.²

A.M.Shcherbakning ushbu fikrini quvvatlagan holda tadqiqotchi X.Xudoynazarov yozadi: “Darhaqiqat, Rizo Nurning “Abulg‘ozixon O‘g‘uz haqidagi afsonani butunicha Rashiddindan o‘zlashtirgan” degan da’vosi asosli emas. Abulg‘ozixonning O‘g‘uz haqidagi bayoniga va umuman, “Shajarai turk”ka til nuqtayi nazaridan turli xil belgilarning aralash ishlatilishi xarakterli xususiyatdir.³ G‘arbiy va janubiy til qatlamlarining mavjudligi hamda muallifning ijtimoiy kelib chiqishi uning Xiva shevasiga yaqinligidan dalolat beradi. A.M.Shcherbakning mazkur kitobidagi “O‘g‘uznoma” variantlari”, “O‘g‘uznoma”ning mazmuni haqida”, “Afsonaning tili va yozilgan joyi”, “Afsonaning tili va qadimgi o‘zbek qorluq-uyg‘ur tillarining o‘zaro aloqadorlik muammosi” nomli bo‘limlarda ham Abulg‘ozixonning “Shajarai turk” asarining tiliga oid muhim fikrlar bayon etilgan.

Atoqli turkshunos S.I.Ivanov Abulg‘ozixonning “Shajarayi turk” asari bo‘yicha ko‘p yillar davomida tadqiqot ishi olib borib, ushbu mashshaqatli mehnatining mahsuli sifatida “Abulg‘ozixon “Shajarai turk” asari” (“Rodoslovnoe drevo tyurok” Abulgazixana”) nomli monografiyasini yozdi.⁴ Mashhur turkshunos olim 1970-yilda “Abulg‘uzi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida fe‘l va ism” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. “Shajarayi turk” haqidagi monografiyada asar tilining grammatik qurilishi, hozirgi zamon turkshunoslik fanining yutuqlari hisobga olingan holda yangicha metod asosida tahlil qilingan. Ko‘rinib turibdiki, tilshunosligimizda ham tarixshunosligimizdagidek, Abulg‘ozixonning “Shajarayi turk” asari har tomonlama va keng o‘rganilmoqda. Biroq, adabiyotshunosligimizda bu yodgorlik keng va har tomonlama atroflicha o‘rganilgan deb aytolmaymiz. Bu asarga Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari qatori munosabat bildirish vaqti keldi, bizningcha. Lekin ilg‘or adabiyotshunoslarimiz bu asarning adabiy manba sifatidagi o‘rni va ahamiyatini yetarlicha belgilanganlar. Jumladan, o‘tgan asrning birinchi yarmidayoq “O‘zbek adabiyoti xrostomatiyasi”ni yaratgan adabiyotshunos olimimiz Olim Sharofuddinov Abulg‘ozixonning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni va uning “Shajarayi turk” asari haqida yozadi: “Abulg‘uzi Bahodirxon binni Arabmuhammadxon o‘zbek xonlari ichida Boburdan keyingi muhim shaxsdir. Uning madaniyat tarixida qilgan ishlari ulug‘.⁵”

A.I.Abrajeev 1944-yilda “Abulg‘uzi Bahodirxon “Shajarayi turk” asarining adabiy ahamiyati” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. A.I.Abrajeev o‘z tadqiqotida birinchilardan biri sifatida asarning adabiy ahamiyatini o‘rganadi va asarda Abulg‘ozixonni bosh qahramon sifatida tasvirlash bilan birga asarning badiiy tizimi va asoslarini yoritib beradi.

Adabiyotshunoslikda Abulg‘ozixonning mazkur asarini bevosita bo‘lmasa ham, ayrim tadqiqotlar bilan birga munosabat bildirilgan ishlar ham mavjud. M.Yunusovning “XIX asr adabiyoti va Komil Xorazmiy ijodi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, shuningdek, H.Ko‘ro‘g‘lining 1969-yilda himoya qilingan “O‘g‘uzlarning qahramonlik eposlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarida ham Abulg‘ozixonning “Shajarayi turk” asari tayanch manbaa sifatida xizmat qilgan.

¹ Кононов А.Н. Родославная туркмен. Л., 1958, с. 7.

² Щербак А.М. «Угузнаме» и «Мухаббатнаме». М., издательство Восточной литературы, 1959, с. 76.

³ Худойназаров Х. “Шажарай турк” ва унинг ўрганилиши. Т., “Ўқитувчи”, 1993. 10-бет.

⁴ Иванов С.И. Родославное древо тюрок Абулгазихана. М., 1969.

⁵ Шарофуддинов О. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Т., 2-том, 1945, 531-бет.

Atoqli o'zbek adabiyotshunosi V. Abdullayev o'zining "O'zbek adabiyoti tarixi" (2-kitob) asarida ham Abulg'ozixon ijodiga katta e'tibor qaratgan. Ayniqsa, olimning "Abulg'ozixonning asarlaridagi qarama-qarshiliklarni, tendentsiyasizlikni inkor etmagan holda, uni XVII asr madaniyati tarixiga sezilarli hissa qo'shgan bir arbob sifatida tilga olish mumkin", degan fikrlari muhimdir.¹ Albatta, olim yashagan muhit va unda hukmron bo'lgan mafkura sharoitida shoh va adib xususida bunday fikrni bildirish uchun katta ilmiy jasorat talab qilinadi.

Bugungi kunda Abulg'ozixon asarlarini fanning turli sohalarida puxta o'rganish tariximiz, til tarixi, tarixiy geografiya kabi sohalar uchun g'oyat muhimdir.

Yusupova Gulxumor (Urganch davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o'qituvchisi; e-mail: gulhumor.yusupova94@mail.ru),

Sobirova Shohsanam Sobirjonovna (Urganch davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi)

ZOONIMLAR MISOLIDA JINSNI IFODALOVCHI SO'ZLAR TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zoonimlarning tilshunoslikda o'rganilishi haqida bayon qilingan. Tilda shunday zooleksemalar borki, ular yordamida faqat ayol tasviri berilsa, ayrim zooleksemalar faqat erkak obrazini gavdalantirish maqsadida qo'llaniladi. Nemis va o'zbek tillarida zooleksemalarning gender xususiyati bir-biridan farq qilish holatlari kuzatildi va buning natijalari mazkur maqolada muhokama qilingan. Zooleksemalar har ikki tilda ham turg'un birikmalar va antroponimlar tarkibida kelib, o'zida genderlik xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin.

Аннотация. В данной статье рассказывается об изучении зоонимов в языкознании. В языке есть зоолексемы, которые используются для обозначения только женщины, а некоторые зоолексемы используются только с целью воплощения мужского образа. В немецком и узбекском языках гендерные характеристики зоолексем отличались друг от друга, и результаты этого обсуждаются в данной статье. Зоолексемы могут появляться в составе устойчивых соединений в обоих языках и проявлять гендерные признаки. Немецкие и узбекские антропонимы также имеют зоолексемы.

Annotation. This article describes the study of zoonyms in linguistics. There are zoolexemes in the language that are used to designate only a woman, and some zoolexemes are used only to embody a male image. In the German and Uzbek languages, the gender characteristics of zoolexemes differed from each other, and the results of this are discussed in this article. Zoolexemes can appear as stable compounds in both languages and show gender characteristics. German and Uzbek anthroponyms also have zoolexemes.

Kalit so'zlar: zoonim, zooleksema, gender, jins, erkak, ayol, urg'ochi, hayvon komponentli turg'un birikma, maqol, ibora.

Ключевые слова: зооним, зоолексема, род, пол, самец, самка, самка, устойчивое соединение с анимальным компонентом, пословица, словосочетание.

Key words: zoonym, zoolexema, gender, sex, male, female, female, stable compound with animal complement, proverb, phrase.

Tilshunoslikda tillardagi kategoriyalar, jumladan, jins kategoriyasiga bo'lgan qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. Zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri til va jins masalasidir. Zoonimlar til leksikasida salmoqli o'rinni egallaydi. Zoonimlarda gender xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zoonimlar tilda hayvonot olamini ifodalovchi leksemalardir. "Zoonim" termini tilshunoslikda ilk bor XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. Hayvonlarning nomlari ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Xususan, jahon tilshunosligida P.Steen, Chjen Inkuy, G.B.Novyuxova, E.M.Dorogaykina, A.S. Marudova, E.A.Katsitadze, L.F.Mironyuk, G.Y.Yusifov kabi olimlar tomonidan zoonimlar lingvistik jihatdan tadqiq qilingan.

Zoonimlar, asosan, didaktik adabiyot janri masallarda insonlar timsolini aks ettirish uchun qo'llaniladi. Masallarda insondagi xarakter-xususiyatlar hayvonlarga ko'chiriladi. Masalan, *chumoli va asalari – mehnatkash va halol, ayiq – yalqov, oq qush – go'zal, tulki – ayyor, burgut – kuchli, it – vafodor, mushuk – ayyor, ikkiyuzlamachi, tovus – mag'rur, qurbaqa – xunuk, echki – mehribon* kabi insonga xos bo'lgan xarakter xususiyatlar hayvonlar vositalida ifodalaydi. *Chumoli, ohu, kiyik, echki, tulki, mushuk, oq qush, tovus* kabi hayvonlar timsolida, ko'pincha, ayol obrazi va *ayiq, burgut, bulbul, it, eshak, qurbaqa* kabi zoonimlarda erkak obrazi tasvirlanadi.

¹ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Т., 1964, 17-бет.

Mumtoz adabiyotda insonlarni tasvirlash uchun ham zoonimlar qo'llaniladi. Bunda ayolning ya'ni ma'shuqaning husni jamoli, nozikligi, go'zalligi, tana tuzilishini chiroyli tasvirlash ushuncha hayvon obrazidan foydalaniladi. Ayolning ko'zlarini, tana harakatlarini tavsiflashda *ohu, jayron, kiyik*, yorning sochlarini ifodalashda *ilon* kabi, ma'shuqni, ya'ni, erkakni tasvirlashda *bulbul, lochin, burgut, arslon* kabi zooleksemalar qo'llaniladi.

O'zbek tilida jinsni aniq ko'rsatuvchi zooleksemalar son jihatidan kamchilikni tashkil qiladi. Nemis tili leksikasida ko'pchilik zooleksemalarda jinslarni farqlanishi aniq namoyon bo'ladi. Nemis va o'zbek tilidagi zoonimlarda jinsning ifodalanishini quyidagi jadval yordamida ko'rish mumkin.

1-jadval

Tierart/Hayvon turi	Männchen/erkak	Weibchen/urg'ochi
Der Affe – maymun	Der Affe – erkak maymun	Die Äffin – urg'ochi maymun
Der Biene – asalari	Der Drohne – erkak asalari	Die Bienenkönigin – urg'ochi asalari
Der Bär – ayiq	Der Bär – erkak ayiq	Die Bärin – urg'ochi ayiq
Der Esel – eshak	Der Hengst erkak eshak	Die Stute – urg'ochi eshak
Der Fuchs – tulki	Der Rüde – erkak tulki	Die Fähe – urg'ochi tulki
Der Hund – it	Der Rüde – erkak it	Die Hündin – urg'ochi it
Der Ziege – echki	Der Bock – taka	Die Geiß – urg'ochi echki
Das Wildschwein – yovvoyi cho'chqa	Der Keiler – erkak yovvoyi cho'chqa	Die Bache – urg'ochi yovvoyi cho'chqa
Das Schaf – qo'y	Der Widder – qo'chqor	Die Aue – urg'ochi qo'y
Der Löwe – sher	Der Löwe – erkak sher	Die Löwin – urg'ochi sher
Die Ratte – kalamush	Der Bocke – erkak kalamush	Die Rätin – urg'ochi kalamush
Das Huhn – tovuq	Der Hahn – xo'roz	Die Henne – tovuq
Der Entenvogel – o'rdak	Der Erpel – erkak o'rdak	Die Ente – urg'ochi o'rdak
Die Katze – mushuk	Der Kater – erkak mushuk	Die Katze urg'ochi mushuk
Reh – kiyik	Der Rehbock – erkak kiyik	Die Kitz, Ricke – urg'ochi kiyik
Der Truthahn – kurka	Der Puter – erkak kurka	Die Pute – urg'ochi kurka
Das Rind – qoramol – (mol) ¹	Der Stier, Ochse, Bulle – buqa	Die Kuh, Kalbin, Färse – sigir
Das Schwein – cho'chqa	Der Eber, Saubär – erkak cho'chqa	Die Sau – urg'ochi cho'chqa
Der Wolf – bo'ri	Der Wolf – erkak bo'ri	Die Wühlpin, Wölfin – urg'ochi bo'ri
Die Taube – kabutar	Der Tauber – erkak kabutar	Die Taube – urg'ochi kabutar
Das Pferd – ot	Der Wallach – ayg'ir	Die Stute – biya

Yuqoridagi jadvalda ko'rish mumkinki, nemis tilida hayvonlar jinsini aniq ko'rsatuvchi leksemalar mavjud. O'zbek tilida hayvon jinsini aniq ko'rsatuvchi leksemalar son jihatdan juda kam. Hayvon nomi oldiga faqat *erkak* yoki *urg'ochi* so'zlarini qo'yish yordamida hayvon qaysi jinsga tegishli ekanligini aniqlash mumkin.

Zoonimlar til leksikasida salmoqli o'ringa ega bo'lgan turg'un birliklar tarkibida ham kelishi mumkin. 1. Fil tushida Hindistonni ko'rar. 2. Yurtda odam bo'lmasa, to'ng'iz tepaga chiqar. 3. Qush ham ketsa keladi, o'z elini sevadi.

Hayvon komponentli frazeologizmlarda gender xususiyatlari namoyon bo'lishi kuzatiladi. Bunday frazeologik birliklar tarkibida keluvchi zooleksemalarda insonlarga xos xususiyatlar xarakterlar o'z aksini topadi yoki insonlar shu hayvonga qiyoslanishi mumkin.

1. Gender xususiyatli vatan va vatanparvarlik haqidagi maqollar.

Sigirming suti – tilida, **Erning** quti – elida,

2. Gender xususiyatli jamoatchilik va xudbinlik haqidagi maqollar.

Baliqning kuni ko'l bilan, **Botirning** kuni el bilan, Yolg'iz **g'ozning** uni chiqmas, Yolg'iz **qizning** mungi chiqmas, **Otangning** oti o'zguncha, Ovulingning **toyi** o'zsin,

3. Gender xususiyatli mehnatvevarlik va ishyoqmaslik haqidagi maqollar;

Xotin-qizning ishini **tovuq** cho'qib bitirolmas,

4. Gender xususiyatli to'g'rilik va egrilik haqidagi maqollar;

Bir **xotinning** hiylasi, qirg **eshakka** yuk bo'lar.

5. Gender xususiyatli yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollar.

Otning yomoni – ola, **Xotinning** yomoni – balo, Yaxshi **ot** erniki, **er** – elniki.

6. Gender xususiyatli mardlik haqidagi maqollar;

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy entiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, T., 2021, 610-bet.

Arslon izidan qaytmas, **yigit** – so‘zidan, **Itni** ovga borganda sina, **yigitni** – yovga borganda, **Yigit** ishi bichuvda bilinar, **tuya** suv kechuvda, **Ot** hurkkan yeridan o‘tmas, er – qo‘rqan, **Erga** navbat – **sher**-ga navbat, **Erning** yuragi **sherning** yuragi, **Qo‘rqmas kelin qo‘y** boshidan qo‘rqar,

7. *Gender xususiyatli tenglik va tengsizlik haqidagi maqollar.*

Pashsha bolga yopishar, **Kampir** – **cholga**, **Tuya** tuzni sevar, **Yigit** – **qizni**.

8. *Gender xususiyatli donolik va nodonlik haqidagi maqollar.*

Aqlli otini maqtar, **Ahmoq** – **xotinini**.

9. *Gender xususiyatli tarbiya va odob-axloq haqidagi maqollar.*

Tulpor biyadan – mard **enadan**, **Er** bolasi – **er**, **Sher** bolasi – **sher**, **Qo‘zi qo‘chqordan** nishon, **o‘g‘il** – **otadan**, **Qizning** erkasi – **echkining** serkasi, **Qobil o‘g‘il** otga mindirar, **Noqobil og‘il** – **otdan** tushirar.

10. *Gender xususiyatli saxiylik va baxillik haqidagi maqollar.*¹

Qo‘y bergan kishi ipidan qochmas, **qiz** bergan kishi sepidan, **Qush** – qanoti bilan, **Er** – himmati bilan, **Ming qo‘y** beradigan **yigitning** peshonasida bir **qo‘yning** izi bo‘ladi kabi maqollar tarkibida **sigir**, **g‘oz**, **ot**, **tuya**, **qarg‘a**, **eshshak**, **qo‘y**, **qo‘chqor**, **qush**, **arslon**, **sher**, **tovuq**, **toy** kabi zooleksemalar va **xotin**, **yigit**, **qiz**, **er**, **kampir**, **chol**, **kelin**, **ota** kabi gender leksemalar yonma yon kelishi kuzatiladi.

Tub Amerika madaniyatida har bir insonda totem mavjud. Bu o‘simlik yoki hayvon bo‘lishi mumkin. Ularning e‘tiqodiga ko‘ra, shu inson bu hayvon yoki o‘simlikka sirli ravishda bog‘langan va u shu insonni himoya qiladi deb ishonilgan. Shuning uchun ham ismlar hayvonot dunyosidan olingan. Zoonimlar ayrim tillarning antroponimlarida ham aks etishi mumkin. Nemis va o‘zbek tillari antroponimlarida ham zoonimlar mavjudligi kuzatiladi. **Erkaklar ismi:** Arslon Sherbek, Sherali Bo‘riboev Qo‘chqor Qo‘ziboy Lochin; **Ayollar ismi:** Qumri Qunduz Olmaxon To‘ti, Qaldirg‘och, Kiyik, Jayron (a).

Nemis tilida ko‘p sonli familiyalar zoonimlardan tashkil topganligi kuzatildi.²

2-jadval

Erkak familiyasi	Ayol familiyasi
Herr Fuchs	Frau Fuchs
Herr Wolf	Frau Wolf
Herr Wachtel	Frau Wachtel

Nemis tilida ko‘plab ismlar zoonimik ma‘noni anglatadi.³

3-jadval

Ayol ismi	Zoonimik ma‘nosi	Erkak ismi	Zoonimik ma‘nosi
Leonie	Löwin	Leon	Löwe
Tabea	Gazelle	Artur	Bär
Zamira	Nachtigall	Cori	Rabe
Lea(h)	Kuh	Torben	Bär
Jara/Yara	kleiner Schmetterling	Canon	Jagdhund
Melissa	Biene	Ebbo	Eber
Jael/Yaelle	Bergziege	Yon	Hase
Feline	Katze	Leo	Löwe
Mina	Fisch	Erno	Adler
Suna	Ente	Leonid	Sohn des Löwen
Ylve	Wölfin	Fox	Fuchs
Ursula	Bärin	Ralf	Wolf
Ebba	Eber (weibl. Form von Ebbo)	Osman	Trappe (Vogelart)
Rachel	Mutterschaf	Bruno	Bär
Rebekka	Rind	Korbinian	Rabe
Rana	Frosch	Lionel	Löwe ⁴

Quyidagi jadvalda ayolni anglatuvchi ko‘pchilik antroponimlar ma‘nosi **Löwin**, **Wölfin**, **Ebba**, **Mutterschaf**, **Kuh**, **Bärin**, **Katze** kabi urg‘ochi hayvon nomlarini anglatganligini kuzatish mumkin. Bundan tashqari ayol ismlarida asosan erkakni ifodalovchi **Adler**, **Rind**, **Bergziege** zoonimlar ma‘nosini ifodalovchi ismlar ham mavjudligi aniqlandi.

¹ O‘zbek xalq maqollari. T., “Sharq”, 2005, 512 bet.

² <https://www.deutsche-nachnamen.de/index.php/tier-und-tierisches/tierisches?start=2>

³ <https://mutterinstinkte.de/vornamen/vornamen-bedeutung-tier/>

⁴ <https://mutterinstinkte.de/vornamen/vornamen-bedeutung-tier/>

Erkakni anglatuvchi antroponimlarda, asosan, *Bär, Löwe, Adler, Rabe, Wolf* kabi zoonimlar ma'nosi ifodalangan. Buning asosiy sababi, erkaklardagi kuchlilik, mardlik kabi xislatlar ushbu hayvonlarga xosligidir, Shuning uchun o'g'il bolalarga, asosan, shunday zoonimik mazmunga ega ismlar tanlangan.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilib aytish mumkin, zoonimlar til leksikasida salmoqli o'ringa ega. Zoonimlarda genderlik xususiyatlarining namoyon bo'lishi nemis va o'zbek tillarida tahlil qilinganida har ikki tilning til imkoniyatlari bir biridan farq qilishi kuzatildi. Bunda nemis tilida hayvonlar jinsini aniq ko'rsatuvchi zooleksemalar mavjudligi va bunday zooleksemalar o'zbek tilida juda kamligi aniqlandi. Zooleksemalar turg'un birlikmlalar va antroponimlarda ham qo'llanib, o'zida genderlik xususiyatlarini ifodalaydi.

**Artikova Dildora Egamberganovna (Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti;
e-mail: dildora.artikova21@gmail.com)**

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ER-XOTIN MUNOSABATLARINI IFODALAGAN MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Аннотация. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq maqollarida aks etgan er-xotin munosabatlari, ular orasidagi oilaviy nizolar lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Chog'ishtirma tahlil har ikkala madaniyat mentalitetining ayrim o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Аннотация. В данной статье лингвистически анализируются супружеские отношения и семейные конфликты, отраженные в английских и узбекских народных пословицах. Сопоставительный анализ позволяет выявить некоторые специфические черты менталитета обеих культур.

Annotation. This article linguistically analyzes marital relations and family conflicts between them, reflected in English and Uzbek folk proverbs. Contrastive analysis reveals some specific features of the mentality of both cultures.

Калит so'zlar: maqol, madaniyat, oila, er, xotin, qiyinchilik, kelishmovchilik.

Ключевые слова: пословица, культура, семья, муж, жена, трудности, разногласия.

Key words: proverb, culture, family, husband, wife, difficulty, disagreement.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar bo'lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Til madaniyatni o'zida mujassamlashtiribgina qolmay, uni avloddan avlodga yetkazib beradi. Amerikalik olim E.Sepir til madaniyatsiz yashay olmasligini va muhim ko'rsatkich sifatida ma'lum bir xalq madaniyatini aniq tasvirlashini ta'kidlaydi.¹ Darhaqiqat, til madaniyatning ko'zgusi hisoblanadi, chunki unda insonlarning dunyoqarashi, urf-odat va an'analari aks etadi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanib, u avlodlar davomiyligini ta'minlash bilan birga, milliy urf-odatlarimiz, muqaddas an'alarimizni o'zida mujassam qilgan maskan, barkamol avlodni voyaga yetkazadigan qo'rg'ondir. Butun bir jamiyatning istiqboli oilaning mustahkamligi, undagi sog'lom turmush tarzi ma'naviy farovonlik bilan bog'liq. Zero, "zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari, shaxslararo munosabatlarni, boy madaniy tarixiy meros va an'anaviy oilaviy qadriyatlar mumamlari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish" zarurligi ta'kidlangan.²

Oilada doimiy ravishda tinchlik va xotirjamlikning saqlanishi, undagi muvaffaqiyat va farovonlik muhim, albatta. Biroq har doim ham hayot bir tekis bo'lmaganidek, oilada ham qiyinchiliklar va kelishmovchiliklar bo'lib turadi va bu narsa ingliz va o'zbek tillarining maqol fondida o'z ifodasini topgan.

Maqollar o'zida xalq donishmandligini ifodalovchi til birliklari sifatida madaniy tarixiy haqiqatlarni o'zida mujassamlashtiradi va insonlar nutqida ham tez-tez qo'llaniladigan iboralar hisoblanadi.

Oilaviy munosabatlarni ifodalovchi maqollar orasida ijobiy ma'noni ifodalovchi maqollarni ko'plab uchratish mumkin. Jumladan,

Marriage is a quick solution to many problems.

Wives must be had, be they good or bad, and so must be husbands.

Uylangan – o'g'il qiziga quvongan.

Er – quyosh yo'ldoshi, xotin – umr yo'ldoshi.

Bunga qo'shimcha ravishda, turmushning farovonligi har ikkala jins vakillariga birday bog'liq ekanligi, er va xotin bir-birini to'ldirib turishi, ikkalovi birdek mas'uliyatli ekanligini hamda birgalikda harakat qilishlari lozimligini ham ko'rishimiz mumkin:

¹ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. М., 1993, с. 20 – 203.

² [https://lex.uz/docs/3546742/O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.](https://lex.uz/docs/3546742/O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-sonli)

In the husband wisdom, in the wife gentleness.

The husband sings, the wife accompanies.

Men make houses, women make homes.

The family that prays together stays together.

Er – bosh, xotin – bo‘yin.

Er qoplar, xotin saqlar.

Er vaziri – xotin, ro‘zg‘or og‘iri – o‘tin.

O‘zbek madaniyatida ko‘p asrlardan beri davom etib kelayotgan an‘analardan biri bu oilada erkak kishining oila boshlig‘i ekanligi hisoblanib, u xo‘jayin va boquvchi sifatida gavdalanadi, ayoli va farzandlari esa oila boshlig‘iga itoatkor sifatida aks ettiriladi:

Yangamning sho‘rvasini shirin qilgan – akamning masallig‘i.

Erdan – sadoqat, xotindan – itoat.

Erdan – xato, xotindan – uzr, xotindan – xato, erdan – jazo.

Ko‘plab musulmon madaniyatida bo‘lgani kabi ayolning ijtimoiy roli erkakning ijtimoiy rolga nisbatan doimo sezilarli darajada past bo‘lgan, diniy aqidalar ayollarning majburiyat va huquqlarini qat‘iy chegaralab qo‘ygan edi.¹

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘zbek oilalarida uy ishlari ko‘p hollarda ayollar tomonidan amalga oshiriladi, ya‘ni, erkak kishi pul topish uchun mas‘ul bo‘lsa, ayollar ro‘zg‘or yumushlariga mas‘ul sifatida qaraladi:

O‘tinsiz qozon qaynamas, xotinsiz uy yayramas.

Xotin-qizning ishini – tovuq cho‘qib bitirolmas.

Ingliz madaniyatida bu narsa kamroq ko‘zga tashlanadi:

A woman’s place is in the home.

The wife that expects to have a good name, is always at home as if she were lame; and the maid that is honest, her chiefest delight is still to be doing from morning to night.

Yana bir e‘tiborli jihat shundaki, o‘zbek maqolida uy ayol bilan uy bo‘la olishi, ayolning uyda bo‘lishi muhimligi ifodalansa, ingliz maqolida erkaksiz uy emasligi ta‘kidlanadi:

Xotinsiz uyni ko‘r, qaro yerni ko‘r.

If the husband be not at home, there is nobody.

Har ikkala madaniyatda ham oilaviy hayotda uchraydigan qiyinchiliklar va kelishmovchiliklar ularning maqol fondida aks etadi. Bunday qiyinchiliklarga er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xiyonat, moliyaviy nizolar, ma‘naviy-maishiy muammolarni kiritish mumkin.

Er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarda birgalikda umr kechirish davomida turli kelishmovchiliklarning sodir bo‘lishi tabiiy hol bo‘lib, bu fikrlashdagi farqlar, o‘z nuqtayi nazarini o‘tkazishga urinish, manfaatlarning ustun kelishi kabi masalalardan kelib chiqadi. Jumladan:

Accidents will happen in the best-regulated families.

Oshsiz uy bor-u, janjalsiz uy yo‘q.

Bunda janjal chiqishiga ikkala jins vakillari ham birdek aybdor sanaladi:

It takes two to make a quarrel.

Qars ikki qo‘ldan chiqadi.

Maqollarni tahlil qilish mobaynida turmushdagi kelishmovchiliklarga ham ijobiy ham salbiy baho berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, bu kabi nizolar bo‘lib turadi va tezda o‘tib ketadi degan yondashuv quyidagi maqollarda o‘z ifodasini topgan:

The falling out of lovers is the renewing of love.

Woe to the house where there is no chiding.

Er-xotinning urushi – yoz kunining yog‘ishi.

Er-xotin urushar, o‘rtaga nodon tushar.

Salbiy ma‘noda esa oiladagi janjallar yomon oqibatlariga olib kelishi aytiladi:

A bad compromise is better than a good lawsuit.

Bir kun janjal bo‘lgan uydin qirq kun baraka ketadi.

Janjalli uy – azobli go‘r.

Urushlik uy – mo‘zor.

O‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida oilaviy nizolar yuzaga kelganda ular o‘zaro sir bo‘lib qolishi lozimligi, boshqalarga bildirilmasdan, tashqariga chiqmasdan uyda hal qilinishi zarurligi ta‘kidlanadi:

¹ Chutpulatov M.Ch. Ingliz, rus va o‘zbek tillari gender leksikasining semantik va lingvostatistik xususiyatlarining qiyosiy tahlili. Fil.fan. bo‘yicha falsafa dok. diss. avtoref., 16-bet.

Uy siri – yopiqlik qozon.

Uydagi siri ko'chaga aytma, ko'chada aytib g'amini tortma.

Uydagi gap ko'chaga to'g'ri kelmaydi.

Don't wash your dirty linen in public.

You must grin and bear it.

Oilaviy munosabatlarda nizolarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holat moliyaviy masalalarga bo'rib taqaladi. Bunda oiladagi moddiy yetishmovchilik, kambag'allik, muhtojlikning ta'siri har ikkala xalq maqollarida ko'zga tashlanadi:

When poverty comes in at the door love flies out at the window.

Love lasts as long as money endures.

Borlik yumush keltirar, yo'qlik – urush.

Bor yarashtiradi, yo'q talashtiradi.

Xiyonat, bevafoqlik, sadoqatsizlik mavzulari ham ikkala xalqning til madaniyatida keng tarqalgan bo'lib, katta gunoh sanaladi va turmushning parchalanishiga sabab bo'ladi:

Never kiss a man's wife, nor wipe his knife, for he will be likely to do both after you.

A proud eye, an open purse, and a light wife, bring mischief to the first, misery to the second, and horns to the third.

If you make your wife an ass, she will make you an ox.

Ko'cha sevgisi uyni barbod etar.

Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo'l.

Oqboshdan o'tin bo'lmas, o'ynashdan xotin.

O'zbek madaniyatida qo'shxotinlikka ruxsat etilmagan bo'lsa-da, bu illatning mavjudligini maqolalarda aks etganligini guvohi bo'lamiz:

Ikki xotin olibsan, bir baloga qolibsan.

Ikki sigir olganning ayroni bor, ikki xotin olganning vayroni bor.

O'zbek va ingliz tillaridagi xalq maqollarini tahlil qilish davomida ikkala madaniyatning oilalarida, er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda o'xshashlik borligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, maqollar nafaqat insonlarning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida kelib chiqqan xulosalarini ifodalaydi, balki so'zlardagi ma'naviy va shakliy xilma-xillikni ham o'zida mujassamlashtirgan bebaho durdonalardir. Qiyoslanayotgan tillarda maqollarning muqobil variantlarini izlab topish va chog'ishtirish nihoyatda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash chuqur o'rganishni talab qiladi.

Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li (Toshkent davlat Transport universiteti

“Chet tillar” kafedrasida assistenti; e-mail: isroilataboyev2@gmail.com)

TA'NA-DASHNOM KONSEPTI: SUBYEKT VA OBYEKTNING O'ZARO MUNOSABATI

Annotatsiya. Maqolamizda ta'na-dashnomni nutq tajovuzi sohasidagi boshqa lingvistik voqeliklardan tubdan ajratib turadigan haqoratning asosiy farqlovchi xususiyati bu mavzu tomonidan zaiflik ma'nosi bilan uzatiladigan hissiy komponentning mavjudligini tilshunoslar o'rgangan ilmiy ishlar misolida ko'rib chiqiladi va qiyosiy tahlil qilinadi.

Аннотация. В нашей статье рассмотрена и сравнительно проанализирована на примере научных работ, изученных лингвистами, главная отличительная черта оскорбительной лексики, принципиально отличающая выговор от других языковых реалий в области речевой агрессии – наличие эмоционального компонента, передающегося субъектом в значении уязвимости.

Annotation. Our article examines and analyzes comparatively, using the example of scientific works studied by linguists, the main distinguishing feature of an insult, which fundamentally distinguishes a reference from other linguistic realities in the field of linguistic aggression – the presence of a transferred emotional component by the subject in the sense of vulnerability.

Kalit so'zlar: ta'na-dashnom, tanbeh, tanbeh berish, koyish, qoralash, kodlash, dekodlash, intersubektivlik, subyekt-obyekt, passiv-akseptor.

Ключевые слова: упрек, выговор, упрекать, осуждение, осуждение, кодирование, расшифровка, интерсубъективность, субъект-объект, пассивный акцептор.

Key words: reproach, reprimand, reproach, condemnation, condemnation, coding, decoding, intersubjectivity, subject-object, passive acceptor.

Kirish. Zamonaviy tadqiqotlarning tanbehga yondashuvi aniq xususiyatga ega. Tilshunoslar tanbehni pragmalingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, adabiy, madaniy yondashuvlarga muvofiq deb

hisoblashadi. Tadqiqotda tendensiyaning kuchayishi lingvistik komponent ulushining pasayishiga va haqoratning rasmiy tomoniga e'tiborning pasayishiga olib keladi. P.O.Jakobsonning ta'kidlashicha, «Ikki nuqtayi nazar, kodlash va dekodlash, yoki boshqacha qilib aytganda, jo'natuvchining roli va xabarlarini qabul qiluvchining roli juda aniq ajratilishi kerak» [1]. So'zning sub'ekti manzili va ob'ekti manzili o'rtasidagi munosabatlar keng ma'noda kontekstning bir qismidir, u turli xil lingvistik yo'nalishlar doirasida o'rganiladi va bizning fikrimizcha, nutq tajovuzining turli hodisalari orasida tanbehni lingvistik hodisa sifatida ajratishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Subyekt va obyektning o'zaro bog'liqligi muammosi falsafaning savollaridan biri bo'lib, u psixologiya va sotsiologiya, so'ngra tilshunoslik tomonidan o'rganilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tilshunoslikda falsafiy an'ana ta'siri ostida so'zlashda faol rol, odatda, subyektga passiv esa obyektga beriladi. Biroq, gumanitar bilimlarning turli sohalari vakillari yaqinda yana bir turdagi munosabatlar – mavzu imkoniyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratdilar. Tilshunoslar sub'ekt-ob'ekt munosabatlarini ta'riflashda «Intersubektivlik» atamasiga murojaat qilishadi, shuning uchun ular ikkala ishtirokchining teng rolini ta'kidlaydi. «Intersubektivlik» g'oyasiga asoslangan tanbeh tadqiqotlari istiqboliga ega, chunki ular so'z obyektini «Ikkilamchi» mavzu sifatida tan olishga va uni «Klassik» mavzu bilan teng ravishda tahlil qilishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, so'z subyektining pozitsiyasi faol, dominant va bir tomonlama deb tan olingan va tanbeh obyektiga jim qabul qiluvchining passiv roli, subyekt-obyekt munosabatlari tushunchasi berilgan ta'nada sub'ykt-obyekt munosabatlarining an'anaviy tushunchasidan farqli o'laroq, o'zaro faoliyatni nazarda tutadi.

Subyektivlikning ajralmas xususiyatlari bu tanbehni ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi [2]. Shunday qilib, ta'na-dashnomni lisoniy hodisa sifatida belgilashda, «Tanbeh berish» va «Ta'na qilish» leksemalarini izohlashda tadqiqotchilar muntazam ravishda gapning predmeti va obyektiga murojaat qiladilar. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy lingvistik adabiyotda mavzu va ob'ekt pozitsiyalarini ko'rib chiqish, odatda, ikki jihatdan amalga oshiriladi:

1. Subyektning roli hisobga olinadi, obyektning roli passiv-akseptor sifatida tan olinadi.

2. Subyekt va obyekt «Ikkinchi darajali» subyekt so'zlashuvdagi rollarining murakkab o'zaro ta'sirida baholanadi.

Ikkinchi «Intersubektiv» yo'nalishning salohiyatiga qaramay, tanbehga bag'ishlangan lingvistik asarlarda birinchi (subyekt-obyekt) yondashuv ustunlik qilib, so'zlash predmetining belgilovchi rolini e'lon qiladi. Shunday qilib, Y.D.Apresyan va M.Y.Glovinskaya, ta'na dashnom fe'l sinonimini sharhlab, ularning subyektlari dominant tabiatini anglashdi: «Qoralash va ayblash uchun harakatlar asosiy umumiy mulki ularning subyektlari o'sha kamchiliklar o'zlarini tez-tez obyekt ustida ma'naviy ustunlik hissini ko'rishadi» [3]. Bizningcha, qoralash va ayblash harakatlarining o'ziga xos xususiyati emas, balki u lisoniy hodisa sifatida tanbeh berish uchun ham qo'llaniladi. Bayonot mavzusi rolining ustuvorligini L.P.Krysin «Ishtirokchilarning ijtimoiy rollarining assimetriyasi» haqida gapirganda shuni ta'kidlaydi:

Nutq aktining yaratuvchisi sifatida so'zlovchining mavqei alohida bo'ladi. So'zdagi hamma narsa ma'ruzachiga, uning niyatlariga, baholariga va hokazolarga tegishlidir, ma'lum ma'noda tinglovchi yoki uchinchi shaxslarning shaxsiyati, nutq obyektining xususiyatlari yoki aloqa shartlari va boshqalar bilan bog'liq bo'lganidan yuqori darajaga ega bo'ladi. [4]. T.A.Vorontsova ham ushbu nuqtayi nazar bilan o'rtog'lashib, nutq tajovuzkorligi sohasida dominant rol so'z subyektiga yuklanganligini, obyekt subyektning o'zi tomonidan «irodasiz» akseptor sifatida qabul qilinishini, uning roli passiv idrokka kamaytirilishini ta'kidladi [5]. Obyektning ikkinchi darajali roli haqidagi ayblov obyektini butunlay yo'q qilingan « ritorik » tanbehlar misollari ham tasdiqlaydi.

Muhokama va natijalar. Lingvistik hodisa sifatida tanbeh berishning ikkinchi «subyektlararo» yondashuvi hozirgi kungacha keng tarqalmagan va faqat bir nechta tadqiqotlarda keltirilgan. Ta'na qilish uchun «subyektlararo» yondashuv haqida gapirganda, ayniqsa, T.V.Bulygina va A.D.Shmelevning «Dunyoni lingvistik konseptualizatsiya qilish asarida ifodalangan nuqtayi nazarini eslatib o'tish kerak. «Ta'na», «dashnom», «tanbeh», «koyish» leksemalari va ularning semantikasini baholovchi nutq aktlari sifatini hisobga olib, mualliflar kommunikativ holatning yana bir ishtirokchisi – kuzatuvchini (tarjimonni) tanishtiradilar. Tarjimonning harakatlari monografiyada ikkita strategiya bilan tasvirlangan. T.V.Bulygina va A.D.Shmelev ta'na-dashnomning paradoksal semantikasini ta'kidlaydilar. Bir tomondan, uning kommunikativ maqsadini faqat subyektning o'zi bilishi mumkin, ya'ni faqat tanbehlar bu tanbeh bor yoki yo'qligini hal qilish huquqiga ega. Boshqa tomondan, faqat tashqaridan kuzatuvchi habarni ta'na-dashnomning ichki holati haqidagi taxminlariga asoslanib, tanbeh sifatida talqin qilishi mumkin. T.V.Bulygina va A.D.Shmelevning so'zlariga ko'ra, tanbeh va tanbeh berish, ashnom nutq aktining to'g'ri nomi emas, balki mumkin bo'lgan talqinlardan, biridir, deydi [6]. Mualliflarning fikricha, haqoratda subyekt-obyekt munosabatlarining ikki turi mavjud:

1. Bayonot mavzusi obyektini qoralaydi.

2. Soʻz kuzatuvchi bir taʼna sifatida mavzu nutq xatti-harakatini fahmlaydi.

Tanbehga mavzu yondashuvi nuqtai nazaridan ushbu maʼlumot qiziqish uygʻotadi va muhokama qilish uchun katta imkoniyatlarga ega. Birinchidan, «taʼna», «dashnom» va tanbeh berish leksemalarini ushbu maqolaning argumentatsiyasida mavjud boʻlgan lingvistik hodisa sifatida ajratishdagi qiyinchiliklarga eʼtibor qaratish lozim. Bizning fikrimizcha, ular oʻrtasida aniq chiziqni chiza olmaslik pragmatik nuqtai nazaridan tanbehni koʻrib chiqiladigan asarlarning oʻziga xos xususiyatlaridan biridir [6]. Ikkinchidan, tarjimonning fikri «ikkilamchi» mavzu bizga kommunikativ vaziyatning mustaqil birligi sifatida emas, balki soʻz obyektining uchta modifikatsiyasidan biri sifatida koʻrinadi.

1) tarjimon oʻzi bevosita tanbeh objekti hisoblanadi, chunki u, albatta, unga murojaat qilingan bayonotning «tarjimoni»dir;

2) tarjimon – bu haqoratning bevosita objekti boʻlmas-da, uni hali ham idrok eta oladigan tashqi kuzatuvchi, xuddi maʼlum bir shaxsga qaratilgan ibora kichik xonada boʻlgan har bir kishining mulkiga aylanadi. Tanbehda hozir boʻlgan odamlar buni tabiiy ravishda talqin qilishlari mumkin, shuningdek, umuman olganda, ularga emas, balki ularning huzurida aytilgan har qanday bayonot boʻladi;

3) tarjimon «sunʼiy» uchinchi tomon kuzatuvchisi, tilshunos boʻlib, u taʼna-dashnomni til bilimi prizmasi orqali qaraydi. Uchinchidan, faqat tanbehchi gapning taʼna ekanligini hal qilish huquqiga ega degan fikr soʻzni obyekt sifatida talqin qilish gʻoyasiga zid keladi, shuningdek, izchil tanbehlar mavjudligining koʻplab misollari asosida har qanday kontekstdan tashqarida ishlashi mumkin boʻlgan til biz koʻrib chiqadigan alohida namoyon mavzu – obyekt munosabatlari munozarali koʻrinadi.

Bizning fikrimizcha, taʼna-dashnomni nutq tajovuzi sohasiga kiritilgan boshqa lingvistik voqelikdan tubdan ajratib turadigan haqoratning asosiy ajralib turadigan xususiyati bu mavzu tomonidan «zaiflik» maʼnosi bilan uzatiladigan hissiy komponentning mavjudligidir. Aynan shu mavzuning zaifligi tanbehli ayblov, qoralash, ayblash, koyish va hokazo kabi tegishli lingvistik hodisalardan farqlash imkonini beradi.

1. Agar ayb va ayblash diqqatni obyektga sodir boʻlgan voqea uchun subyekt javobgar boʻlgan shaxsga qaratsa, unda «tanbeh, tanbeh berish va dashnom konseptlari eʼtiborni haqorat yoki boshqa ruhiy holatlarga qaratadi.

2. Tanbeh holatida, mavzu, koʻpincha, vaziyatni shaxsan oʻzi uchun nomaqbul deb baholaydi; boshqa barcha sinonimlar vaziyatni subyekt uchun ham, qabul qiluvchi uchun ham, uchinchi shaxslar uchun ham nomaqbul deb ifodalashi mumkin.

3. Haqorat qilish feʼli mavzuning «Aldangan taxminlar mavjudligini» anglatadi.

4. Tanbeh, dashnom va tanbeh berish boʻlsa, «mavzu bilan bogʻliq vaziyatning hissiy tajribasi» bilan bogʻliq boʻladi.

5. «Taʼna, dashnom va tanbeh berish boʻlsa, bevosita maqsad qabul qiluvchining subyektning hissiy ularini tushinishi va notoʻgʻri ish qilganini anglashidir...».

6. Mavzu va adresatning yosh yoki ijtimoiy iyerarxiyadagi holatlari hisobga olinishi kerak [3].

T.I.Steksova haqoratni nutq janri sifatida belgilashda mavzuning hissiy «zaifligi»ni ham muhim mezon sifatida eslatib oʻtadi: qabul qiluvchiga nisbatan salbiy hissiy, baholovchi munosabat bor. Tanbehda mavzuning hal qiluvchi roli haqida yuqorida aytilganlarga asoslanib, amaliy tadqiqot materialini tahlil uchun muhim boʻlgan ikkita xulosa chiqarish mumkin:

1. Tanbeh va tegishli lingvistik hodisalarni farqlash uchun asosiy rolda soʻz mavzusi boʻladi. Taʼna dashnom objekti, qoida tariqasida, ovoz bermaydigan, gapning passiv ishtirokchisi sifatida harakat qiladi. Taʼna dashnom objekti toʻgʻridan toʻgʻri boʻlishi shart emas, u yoʻq boʻlishi ham mumkin, obyektning turli xil modifikatsiyalari ham boʻlishi mumkin.

2. Mavzuning hissiyotlari tanbeh kontekstiga qarab turli yoʻllar bilan namoyon boʻladi, ammo mavzuning hissiy zaifligi holati oʻzgarishsiz qoladi, bu holda u tanbeh, qoralash, dashnom qilish, ayblash, tanbeh berish va hokazolarga aylanadi. Tanbeh lingvistik hodisa sifatida va haqoratning semantik maydoni bilan ozmi-koʻpmi bogʻliq boʻlgan leksemalar (birinchi navbatda, haqiqiy “tanbeh” va “tanbeh berish”) bir xil emasligini aniqladik. Albatta, bu kontekstlarning maʼnosi hodisa sifatida tanbeh haqida maʼlumotlarga ega, ammo tanbeh sohasiga kirmaydi, odatda, uni oʻzbek tilida ifodalash vositasi sifatida ishlatib boʻlmaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni taʼkidlaymizki, nazariy jihatlariga bagʻishlangan maqolamizda biz lingvistik materialni ajratib koʻrsatish mezonlari foydasiga tanlov qilib, hodisaning semantikasiga asoslangan tanbehning muallifning taʼrifini yaratishdan ongli ravishda voz kechdik. Bizning pozitsiyamizning sabablari va uni himoya qilishdagi dalillar maqolaning oʻzida bayon etilgan, ammo rasmiy

umumlashtiruvchi ta'rif ishning keyingi uslubiy va amaliy boblari uchun asos bo'lgan nazariy qismning intuitiv ravishda kutilgan atributi bo'lganligi sababli, bu yerda biz bunga qaytish zarur, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Якобсон Р. Выступление на первом медицинском симпозиуме. «Знак и система языка». Р.Якобсон, Звягинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и исследованиях, изд.3-е, доп. М., “Просвещение”, 1965, 4.2, с. 400–401.
2. Ataboyev I.M. (2022). Tanbehning lingvistik chegaralari haqida va til hodisasi sifatida tanbehga lug'at tomondan yondashuv. Journal of new century innovations, 8(1), p. 982 – 987.
3. Апресян Я.Д. Новый объяснительный словарь синонимов русского языка. Под общим рук.академ. Я.Д.Апресяна. изд.2-е, исправл. и дополн, М., Школа «Языки славянской культуры», 2003, с. 1488.
4. Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. М., “Наука”, 1989, с. 188.
5. Воронцова Т.А. Речевая агрессия: коммуникативно-дискурсивный подход. Диссерт. на соискание ученой степ. доктора фил.наук, 10.02.19. Воронцова Татьяна Александровна. Челябинск, 2006, с. 296.
6. Ataboyev I. (2022). isroilataboyev2@ gmail. com ingliz va ozbek tillarida “tana-dashnom” konseptining vazifalari (badiiy materialda): ingliz va o'zbek tillarida "ta'na-dashnom" konseptining vazifalari (badiiy materialda). Журнал иностранных языков и лингвистики, 4 (4).

**Turg'unova Fazilat Rustam qizi (Toshkent davlat Transport universiteti
“Chet tillar” kafedrasi assistenti; e-mail: fazilatturgunova05@gmail.com)**

INGLIZ TILIDAGI GAZETA MAQOLALARIDA SARLAVHALARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda ingliz gazeta maqolalaridagi sarlavhalarning funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning materiali ingliz tilidagi gazeta nutqining matnlari, ya'ni, Ingliz va Amerika gazetalarini “The Guardian”, «The times», «New York times», “The Wall Street journal”, “USA Today”larda joylashtirilgan ingliz tilidagi maqolalarning sarlavhalari bo'lib, ular o'ziga xos semantik salohiyati, nostandard dizayni va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sarlavhani o'rganishda muhim jihat uning funksiyalarini aniqlashdir chunki «Sarlavha» tushunchasining aniq ta'rifini faqat uning funksiyalarini to'liq tasniflash orqali bilish mumkin.

Аннотация. В статье мы разберем функциональные особенности заголовков в английских газетных статьях. Материалом исследования послужили тексты англоязычной газетной речи, то есть заголовки англоязычных статей, размещенных в английских и американских газетах The Guardian, The Times, New York Times, The Wall Street Journal, USA Today, отличающиеся своеобразным смысловым потенциалом, нестандартным оформлением и многообразием различают. Важным аспектом при изучении заголовка является определение его функций поскольку точное определение понятия «заголовок» можно узнать только путем полной классификации его функций.

Annotation. In this article, we analyze the functional characteristics of headlines in English newspaper articles. The texts of English-language newspaper speeches served as research material, i.e. the headlines of English-language articles published in the English and American newspapers The Guardian, The Times, New York Times, The Wall Street Journal, USA Today, distinguished by a kind of semantic potential, non-Distinguishing Standard Design and Variety: An important aspect when examining the title is the definition of its functions, since the precise definition of the term header can only be found through a complete classification of its functions.

Kalit so'zlar: sarlavha, gazeta nutqi, funksional xususiyatlar, maqola, nutq, lug'at, predikat, ekspressiv, grafik-ekskretator.

Ключевые слова: заголовок, газетная речь, функциональные особенности, статья, речь, словарь, сказуемое, выразительное, графически-выделительное.

Key words: headline, newspaper speech, functional features, article, speech, dictionary, predicate, expressive, graphic-excretory.

Kirish. Gazeta, axborot vositasi va ishontirish vositasi sifatida, ommaviy va xilma-xil auditoriyani jalb qilishi va ushlab turishga harakat qilishi, o'zini o'qishga majbur qilishi kerak. Qoida tariqasida, gazetalar diqqatni jamlash juda qiyin bo'lgan sharoitda o'qiladi: tramvayda, poezdida, nonushta paytida, ish kunidan keyin va hokazo. U qabul qiluvchiga ma'lum bir hissiy ta'sir ko'rsatishi kerak. Gazeta maqolalaridagi materiallar, iloji boricha, taqdim etilishi va kontekstga bog'liqlik minimal bo'lishi kerak shundagina o'quvchidan hech qanday tayyorgarlik talab qilinmaydi. Har qanday gazeta maqolasining uslubini shakllantirish omillari haqida unutmazlik kerak. Ko'pincha, odatiy, doimiy ravishda uchraydigan mavzu-

lar bilan birgalikda deyarli har qanday mavzu o'xshash bo'ladi, chunki ular bir biriga tegishli bo'lib chiqadi. Keyinchalik, bunday yangi vaziyatlar va dalillar ham takrorlanishi o'ziga xosdir. Mavzularning bunday takrorlanishi, shuningdek, jurnalist, qoida tariqasida, materialni sinchkovlik bilan qayta ishlashga vaqt topolmasligi, shtamlardan tez-tez foydalanishga olib keladi.

Gazeta sarlavhasining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) sarlavhaning siqilishi va tejamkorligi, ma'lumotlarning to'yinganligi bilan qisqacha mazmuni;
- 2) aniq tushunish uchun til vositalarini tanlash (gazeta eng mashhur ommaviy axborot vositalaridan biridir);
- 3) ijtimoiy-siyosiy lug'at va frazeologiyani qo'llash, uni tushunish uchun terminologik lug'atni o'zgartirish;
- 4) ushbu uslubga xos bo'lgan nutq stereotiplari, barqaror kombinatsiyalardan foydalanish;
- 5) janrlarning xilma-xilligi va shu munosabat bilan til vositalaridan stilistik foydalanish: so'zning noaniqligi, so'zlarni shakllantirish manbalari (muallif neologizmlari), hissiy ekspressiv lug'at;
- 6) turli mavzular va janrlar tufayli boshqa uslublarning xususiyatlari (ilmiy, rasmiy-biznes, adabiy-badiiy, so'zlashuv) bilan jurnalistik uslubning xususiyatlaridan foydalanish;
- 7) sarlavhaning tasviriy va ifodali vositalaridan foydalanish, masalan, stilistik sintaksis vositalari (ritorik savollar va undovlar, qurilishning parallelligi, takrorlash, inversiya va boshqalar). Gazetaning eng muhim vazifalari axborot va ta'sirdir. Gazetaning axborot vazifasi shundan iboratki, bunday maqolalar mualliflari, iloji boricha, kengroq o'quvchilarni jamiyat uchun muhim bo'lgan muammolar va mualliflarning ushbu muammolarga bo'lgan qarashlari to'g'risida xabardor qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bugungi kunda zamonaviy yuqori sifatli gazetalarning sarlavhasi ko'proq ma'lumot mazmunini ifoda etishga moyil. Gazeta janrlari tizimining uzluksiz o'sishi va evolutsiyasi shundan dalolat beradi, shuningdek, ushbu tendensiyani gazeta maqolalarining sarlavhalarida ham ko'rish mumkin. Sarlavha – bu chiqish varag'i, har qanday asar yoki kompozitsiyaning boshlanishi. Sarlavha, shuningdek, bo'lim nomi, kitob bo'limi deb ataladi. Bunday holda, sarlavha keng ma'noda aniqlanadi. S.Ozhegov bu tushunchani biroz torroq ko'rib chiqadi. Sarlavha – bu biron-bir asarning (adabiy, musiqiy) yoki uning qismlari bo'limining nomi. Gazeta sarlavhasi ushbu turdagi nashrning o'ziga xos xususiyatlarini yetkazadigan o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Uning samaradorligi, jurnalistikasi, janrga bog'liq. Gazeta sarlavhasi kommunikativ yo'nalishga ega: o'quvchi sarlavha tufayli maqolada nima muhokama qilinishini osongina tushunishi mumkin, bu esa qabul qiluvchiga nashrdagi voqealarning tabiati va ahamiyati to'g'risida ma'lumot beradi, bunda radio va televidion ko'rsatuvlarning sarlavhalariga mutlaqo xos emas. Shuni ta'kidlash kerakki, bu o'quvchi e'tibor beradigan sarlavhaning muhim tarkibiy qismidir. Sarlavhalarning informatsion funktsiyasi ko'plab tilshunoslardan tomonidan ko'rib chiqiladi, ammo u tadqiqotchi E.A.Lazarevaning «Gazetadagi sarlavha» asarida batafsil bayon etilgan bo'lib, unda gazeta sarlavhalarining quyidagi tasniflari taklif etiladi [3].

Sarlavhalarning ikkinchi tasnifi matnning u yoki bu elementi ularda to'liq yoki qisman aks etmasligiga bog'liq. Matn bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tezislar tizimidir. Har qanday tezis, o'z navbatida, ikki qismli tuzilishga ega bo'lsa, mavzu va uning xususiyatini (predikat) o'z ichiga oladi. Matnni joylashtirish – bu fikr mavzularini ketma-ket bashorat qilish. Sarlavha mahsulotining biron bir semantik elementini ifodalashning to'liqligi asosida uni to'liq ma'lumotli (matnning semantik tarkibiy qismini to'liq aktuallashtiradigan) va to'liq bo'lmagan ma'lumotli, nuqta (matnning semantik tarkibiy qismini to'liq aktuallashtirmaydigan)ga bo'lish mumkin [10]. Sarlavhani o'rganayotganda uning funktsiyalarini aniqlashga e'tibor qaratish lozim. Gazeta maqolalari sarlavhalarining funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda, «sarlavha» tushunchasini aniqlash mumkin deb hisoblanadi. Biroq, tilshunoslarning ko'plab asarlarini ko'rib chiqib, biz sarlavha funktsiyalarining aniq, aniq ta'riflarini topa olmaymiz, ba'zida funktsiyalar ularni ifodalash vositalari bilan aralashtiriladi yoki bir nechta turli funktsiyalarga birlashtiriladi. Gazeta sarlavhalari bajaradigan funktsiyalar bo'yicha turli tilshunoslarning nuqtai nazarini ko'rib chiqamiz.

G.O.Vinokur o'z tadqiqotida «fe'l yoki sarlavha?»: a) belgilash; b) indeks. d) sarlavhalarning reklama funktsiyalari haqida gapiradi. Ushbu asar sarlavhaning mohiyati haqida gapiradi, ya'ni, voqeani ko'rsatish va uni belgilash. G.O.Vinokur reklama funktsiyasiga e'tibor qaratadi, uning vazifalari tashqi ko'ngil ochish muammosini hal qilish, o'quvchini o'ziga jalb qilish, jozibali sujet bilan qiziqishdir [2].

A.S.Popovning fikricha, har bir sarlavha uchta asosiy funktsiyaga ega: a) nominativ; b) axborot; d) reklama. Muallif har bir funktsiyani batafsil tahlil qiladi. Bundan tashqari, A.S.Popov informatsion funktsiyani boshqa mualliflarga qaraganda kengroq ko'rib chiqadi va unga sarlavhalarning direktivligi va hissiyotlilik, ya'ni, sarlavha tinglovchiga-o'quvchiga ta'sir qiladigan ixtiyoriy va hissiy ta'sir» [6].

S.P. Suvorov sarlavhalarning funktsiyalarini quyidagicha ko'rib chiqadi: a) bitta xabarni yoki bitta materialni keyingi xabardan ajratish; b) ma'lum bir materialga e'tiborni jalb qilish; d) materialning asosiy

mazmunini qisqacha yetkazish; e) o'quvchini qiziqtirish; f) unga ma'lum bir hissiy ta'sir ko'rsatish. Birinchi funktsiya ajratuvchi bo'lib, muallifning fikriga ko'ra, sarlavhasiz, grafik vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, ikkinchisini amalga oshirish uchun manba vositalari qo'llaniladi: shriftning o'lchami va shakli yoki rangi [7]. Ammo, V.S.Muzheva fikriga ko'ra, ikkinchi va to'rtinchi funktsiyalar bir-biriga to'g'ri keladi, ularni birlashtirish kerak, chunki bu holda S.P.Suvorov funktsiyalar va ularni ifodalash vositalarini aralashtiradi [4]. Olimning fikricha, tilshunoslar sarlavhada funktsiyalarni ajratib ko'rsatishadi, ularning ba'zilar yetarli darajada asoslanmagan. Uning fikricha, bu funktsiyalar asosiy va muhim, ammo ularning tasnifi to'liq o'ylanmagan va aniq belgilanmagan, ko'plab kamchiliklar qayd etilgan. Ushbu funktsiyalarning nutq uslublari va nashr turlari bilan bog'liqligini tahlil qilish uchun juda muhim ko'rsatkich mavjud emas.

Sarlavhalar quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi: a) nominativ; b) axborot; d) ekspressiv-amaliy; e) reklama; f) V.S.Muzhevaning nuqtayi nazariga ko'ra ajratish. Uning gipotezalari u batafsil o'rgangan ingliz, rus va fransuz tillaridan olingan misollarga asoslangan edi. U yuqoridagi sarlavha funktsiyalarining har birini ko'rib chiqdi, buning asosida olim sarlavhaning barcha funktsiyalari o'zaro ta'sirda ekanligini va ular ma'lum bir munosabatlar bilan ajralib turishini aniqladi. Agar bitta funktsiya ustunlik qilsa, boshqasi o'z ustunligini yo'qotadi yoki butunlay yo'qoladi. Bundan tashqari, sarlavhada ushbu funktsiyalarning mavjudligi va ahamiyati darajasi nutq uslubi va nashr turiga bog'liqligi qayd etilgan [11]. L.A. Nozdrina quyidagilarni ta'kidlaydi: a) nominativ; b) informatsion; d) ekspressiv; e) amaliy; f) reklama; g) ishonitirish funktsiyasi; h) konspektiv; i) ajratuvchi yoki ajratuvchi funktsiya va boshqalar [5].

Muhokama va natijalar. Asosiy funktsiyalari xabar va ta'sir ko'rsatadigan gazeta va jurnalistik uslubda ham E.I.Turchinskiyning so'zlariga ko'ra, sarlavhaning tabiati nashr janriga bog'liq. Axborot maqolalarida xabar funktsiyasi ustunlik qiladi. Qarama-qarshi vaziyat tahririyat maqolalarida, hatto undan ham ko'proq felyetonlar va risolalar bilan yuzaga keladi axborot ishonchli va tashkiliy xarakterga ega bo'ladi, bu yerda ta'sir qilish funktsiyasi birinchi o'ringa chiqadi, ammo har qanday sarlavha, sarlavhali matnning janri va uslubidan qat'iy nazar, muallifning fikriga ko'ra, uchta funktsiyaga ega:

- a) o'quvchiga matnning xarakteri va janri haqida ma'lumot berish;
- b) haqida ma'lumot berish matn mazmuni;
- d) o'quvchini matn bilan tanishishga undash.

Birinchi va ikkinchi funktsiyalar, albatta, informatsion funktsiyani kengaytirilgan tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, unda sarlavha nafaqat obyektiv mantiqiy ma'lumotlarni uzatadi, uning mazmuni bilan bog'liq, balki matnning mohiyati to'g'risida ham ma'lumot beradi.

Biz «The Guardian»dan gazeta maqolalarining ba'zi sarlavhalarni ko'rib chiqib, quyidagi funktsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin, degan xulosaga keldik.

1. Ba'zi sarlavhalar ma'lumot mazmunini qisqacha yetkazadi. O'ziga xos xususiyat – bu faqat qisqalik: fe'lni tashlab yuborish, harf qisqartmasidan foydalanish. O'quvchiga vaziyat haqida hech qanday ma'lumot kerak emas. Bunday holda, sarlavhaning informatsion funktsiyasi haqida gapirish mumkin deb hisoblaymiz. Masalan: *Lamont Peterson's comeback highlights boxing's sterility over steroids* [11].

2. Grafik-chiqarish funktsiyasi gazeta maqolalarining aksariyat sarlavhalariga xosdir. Bundan tashqari, qofiya va aniq ritm tufayli ko'plab sarlavhalar yaxshi esga olinadi.

Masalan: *A Team Is Born, but Not All Cheer* [8].

3. Hissiy funktsiya sarlavhalarga xosdir, ulardan maqolada nima muhokama qilinishini tushunish qiyin. Biroq, ular o'quvchini tasvirlangan faktlarga munosabat, ularni baholash ma'nosida yo'naltiradi.

Masalan: *1,500 Manchester United games is 'incredible'* [10].

4. Sarlavhalar ta'sir qiluvchi funktsiyani ham o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu turdagi sarlavhalar shov-shuvli materialni yaxshi ko'radigan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Asosiy g'oya bitta jumlada keltirilgan aniq va qisqa, ammo juda sirli tarzda ochib berilgan va sizni eslatmani o'qishga majbur qiladi.

Masalan: *I want to win. It's all about me winning* [9].

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, ko'rib chiqilgan ingliz tilidagi maqolalarning sarlavhalari informatsion va ta'sirchan funktsiyalar bilan ajralib turadi, ammo, ko'pincha, ular hissiy va grafik jihatdan ajralib turadi. Gazeta sarlavhalarining asosiy funktsiyalari ta'sir qiluvchi va informatsiondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Большая советская энциклопедия в 30 т. Гл.ред.А.М.Прохоров, 3-е изд. Москва, Сов. энцикл., 1969–1978, с. 30.
2. Винокур Ж.О. Глагол или имя? (опыт стилистической интерпретации). “Русская речь”, 1928, №3.
3. Лазарева Е.А. Заголовок в газете. Свердловск, 1989.
4. Муджев С.В. О функциях заголовков. Учёные записки, М., Вопросы романо-германской филологии. Москва, 1970, №. 55, с. 86 – 94.

5. Ноздрин Л.А. Заглавие текста. Грамматика и смысловые категории текста: Сб. научных тр. им. М. Горького. Москва, 1982, № 189, с. 18
6. Попов А.С. Синтаксическая структура современных газетных заглавий и развитие синтаксиса современного русского языка. Москва, 1966, с. 95 – 126.
7. Суворов С.П. Особенности стиля английских газетных заголовков. Язык и стиль. Москва, “Мысль”, 1965.
8. Bagli Charles V., Belson Ken. About [elektronniy resurs]. London: The Guardian, 2013, Rejim dostupa.
9. Hattenstone S. About [elektronniy resurs] Simon Hattenstone. London, The Guardian, 2009.
10. Jaskson J. About [elektronniy resurs]. Jamie Jaskson. London, The Guardian, 2013, Rejim dostupa, 11. Mitchell, K. Mitchell: about [elektronniy resurs]. London: The Guardian, 2013, Rejim dostupa.
11. Turgunova F. (2022). Usage of interactive games in teaching language as a second language. Академические исследования в современной науке, 1(19), p. 349 – 351.

**Yunusova Durdona Axtamovna (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi)
SHE'RIY MATNLARDA METAFORANING IFODALANISHI**

***Annotatsiya.** Maqolada metaforaning fan va poeziyadagi o'rni, uning she'riyatda obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaralishi, poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya'ni badiiy obraz sifatida qabul qilinishi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, Shavkat Rahmon ijodida metaforalarning ifodalanishi shoir she'rlari misolida tahlil qilingan.*

***Аннотация.** В статье рассматривается роль метафоры в науке и поэзии, ее создание в результате образного мышления в поэзии и ее принятие в качестве художественного образа только в поэтической речи. Также на примере стихотворений поэта анализируется экспрессия метафор в творчестве Шавката Рахмана.*

***Annotation.** The article discusses the role of metaphor in science and poetry, its creation as a result of figurative thinking in poetry, and its acceptance as an artistic image only in poetic speech. Also, the expression of metaphors in Shavkat Rahman's work is analyzed on the example of the poet's poems.*

***Kalit so'zlar:** metafora, poeziya, obraz, mifologik tafakkur, lisoniy manzara, poetik nutq, romantizm.*

***Ключевые слова:** метафора, поэзия, образ, мифологическое мышление, языковой ландшафт, поэтическая речь, романтизм.*

***Key words:** metaphor, poetry, image, mythological thinking, linguistic landscape, poetic speech, romanticism.*

Jahon tilshunosligida metaforalarning kognitiv funksiyasi, kommunikativ, hissiy, volyuntativ, poetik xususiyatlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida birdek xizmat qiluvchi, fikrni yorqin va ta'sirchan ifodalovchi faol tasviriy vosita ekanligini o'rganish yuqori darajaga ko'tarildi. Shuningdek, metaforalarning tegishli madaniyat doirasida ramz bo'lib xizmat qilishi, milliy-mental qiymati, she'riy va nasriy asarlar matnida metaforalar olamning lisoniy manzarasi to'g'risidagi axborotni tashuvchi konseptual hodisa ekanligini asoslash bilan bog'liqdir. Shu o'rinda badiiy matnda qo'llanilgan metaforalar muammosini tadqiq etish, bundan, o'z navbatida, dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini taqozo etmoqda. Metaforalar o'zaro muloqotni tushunarli bo'lishiga katta xizmat qiladi. Doim noma'lumni ma'lum qilishda ishtirok etadi. Metafora she'riyatda obrazli tafakkur natijasi bo'lib yaraladi. Metafora til hodisasi bo'lsa ham, o'zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to'la namoyon etadi. Boshqacha aytganda, metafora poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya'ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo'yamaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi. Aytish kerakki, bu obraz poetik nutqdagina asl holicha, ya'ni obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko'rinishlari doirasida esa uning pirovard maqsadi nominatsiya bo'lib qolaveradi va tushuncha sifatida qabul qilinadi. Yunon faylasufi Arastu “Poetika” asarida: “...faqat shunigina o'zgalardan o'zlashtirib bo'lmaydi, bu qobiliyat iste'dodning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish – o'xshashlikni ko'ra olish demakdir”,¹ deb ta'kidlaydi. Arastu metafora yaratish qobiliyatini tug'ma iste'dod bilan bog'liq holda tushunadi, shuning uchun ham buni boshqalardan o'zlashtirib bo'lmaydi deydi. To'g'ri, faylasufning “o'xshashlikni ko'ra olish”ga urg'u berishi ham bejiz emas. Sababi buning uchun san'atkorona nigoh kerak, o'xshashlikni ko'ra olish obrazli tafakkur etishning eng muhim shartidir. Ya'ni, garchi Arastu ta'kidlab aytmagan bo'lsa ham, bu yerda poeziyaga xos obrazli tafakkur nazarda tutilayotganini bilish mumkin.

¹ Аристотель. Риторика. Поэтика. М., “Лабиринт”, 2000, с. 173.

Nemis faylasufi Y.Kassirer mif, til va san'atning genezisini bitta ibtidoğa – ruhğa bog'laydi, ular azaldan bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan va shu sabab ularning genezisini bir butunlikda o'rganish lozim deb uqtiradi. Keyin esa insonda mavhum tafakkur qilish imkonining ortishi barobarida, ularning orasidagi bog'liqlik susayib borgan. Natijada so'z o'zining obrazli tabiatini yo'qotib, narsa-hodisaning abstrakt nomiga aylangan. Biroq olimning fikricha, ruhning bir sohasi borki, unda so'zning obrazlilik (tasviriyli) saqlanadigina emas, balki muttasil yangilanib turadi va bu soha poeziyadir. Sababi poeziyaning qadim il-dizi – mif bilan aloqani uzmagani, aksincha, uning eng sara namunalari mif bilan mudom aloqada, unda olamga mifologik nazar tashlash orqali qayta tug'iladi. Faqat endi poeziyada yashovchi ruh so'z va mifologik obrazni boshqaradi, endi ular ilohlar yo iblislarining mifologik olamini ham, abstrakt tushuncha yo munosabatlarning mantiqiy haqiqatini ham ifodalamaydi. Aksincha, poeziya ulardan forig' bo'lib, xayol olamiga aylanadi, bu olamda esa ruh erkin parvoz qiladi va shuning uchun ham konkretlashgan sof hislar o'z ifodasini topadi. Zero, badiiy ifoda uchun qo'llanuvchi so'z poeziyada o'zining yangi, estetik hayotini boshlaydi.¹

Ko'ryapmizki, Y.Kassirer poeziyani ruh bilan bog'lar ekan, unda so'zning obrazli tabiati va olamga mifologik nazar qayta tug'ilishini, shular tufayli so'zning estetik hayoti boshlanishini ta'kidlamogda. Aslida, Y.Kassirerning poeziyada olamga metaforik nazar qayta tug'iladi deyishida ham asos bor, chunki bu o'rinda mifologik tafakkur o'rnini egallagan poetik tafakkur nazarda tutiladi.²

Mifologik tafakkur o'rnini metaforik tafakkur egallashi inson ongining o'sishi bilan bog'liq hodisaga aylanib bordi. Poeziyaning metaforaga moyilligi esa unda obyektiv olam – real voqelik bilan subyektiv olam – inson shaxsining to'qnash kelishi tufayli bo'lib, ularni oradagi o'xshashlik orqali anglashga intilish metaforani taqozo etadi. Metaforaning keng tarqalgan asosiy ko'rinishlari jonlantirish yoki predmetlashtirish asosida amalga oshadi. Xususan, jonlantirish asosidagi metaforaning qadimiyroq ekani uning ildizlari mifologik tafakkurdan suv ichishidan dalolat beradi. Bu esa metafora mifologik tafakkur o'rnini egalladi degani bo'lib, poeziyada olamga mifologik nazar qayta tug'iladi degan fikrni shu ma'noda tushunish kerak. Akademik V.M.Jirmunskiy esa butun boshli adabiy yo'nalish – romantizmning asosiy xususiyatini metaforiklikda ko'radi, chunki romantizm uchun “metafora voqelikni romantik qayta yaratish usulidir”.³ Shuningdek, ko'p hollarda metafora, metaforiklik alohida shoir uslubining asosiy belgisi sifatida ham ko'rsatiladi. Masalan, V.M.Jirmunskiy A.Blokni, R.Yakobson esa V.Mayakovskiyning “metafora shoiri” deb ataydi.⁴ Bu esa metaforaning uslub belgilovchi xususiyati haqida gapirishga asos beradi. Shuning uchun ham V.M.Jirmunskiy metaforaga har doim bajarayotgan funksiyasi nuqtayi nazaridan qarash kerak, chunki metaforaning qanday ishlatilayotgani shoir uslubi va dunyoqarashining o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq deb yozadi.⁵ X.O.Gasset metaforaning fan va poeziyadagi o'rnini haqida to'xtalib, metafora ilmda yordamchi maqomida bo'lsa, poeziyada mohiyatni tashkil qilishini aytadi. Biroq uning yozishicha, estetika metaforada faqat “go'zallikning joziba jilvasinigina ko'radi”, shu sababli unga haqiqat kategoriyasini tatbiq etmay, bilish quroli deb hisoblamay kelinadi. Bu esa poeziyaga tadqiqotchilik maqsadlari yot emasligini, uning ham fan kabi pozitiv faktlarni ochib berishga qodirligini sezishga xalaqit beradi. Holbuki, poeziyaning olamni bilishda o'rnini juda katta, biroq uning bu boradagi ahamiyatini juda kam odam ta-savvur qila oladi.⁶

Darhaqiqat, avvaliga poeziyaga xos hodisa, shunda ham nutq bezagi sifatida tushunilgan metafora endilikda fikriy faoliyatning barcha ko'rinishlariga ham birdek xos ekanligi e'tirof etilishi ayon bo'lib bormogda. X.O.Gassetning fikridan shunday xulosa kelib chiqadiki, metaforani poeziyada ham faqat nutq bezagi emas, balki badiiy tafakkur asosi sifatida tushunilsa, to'g'ri bo'ladi. Chunki metafora shoirga o'zining ichki olamini (tashqi olamga qiyosan) va o'zidan tashqaridagi olamni (ichki olamga qiyosan) anglashga yordam beruvchi tengi yo'q vositadir.⁷

Yaxshi ma'lumki, hozirgi vaqtda metafora atamasi nafaqat nutq vositasida amalga oshuvchi badiiy kommunikatsiyaga, balki badiiy informatsiya yetkazishning boshqa turlari (masalan, raqs, kino, rassomlik)ga nisbatan ham qo'llanadi. Shuning uchun ham X.O.Gasset yuqorida tilga olingan maqolasida agar masalaga chuqurroq yondashilsa, ehtimol, “metafora” atamasidan voz kechishimizga to'g'ri kelgan bo'lur edi, chunki u bizni chalg'itib qo'yishi mumkin, degan fikrni bildiradi.⁸ Albatta, faylasufning bu fikrida

¹ Кассирер Э. Сила метафоры. Теория метафоры. М., 1990, с. 41–42.

² Каримов О. Метафора – поэтик тафаккур асоси. “Жаҳон адабиёти”, 2014, 8-сон, 187-бет.

³ Жирмунский В.М. Введение в литературоведение. Курс лекций. М., 2004, “Эдит”, с. 335.

⁴ Shu manba. 426–432-betlar; Яковсон Р. Работы по поэтике. М., “Прогресс”, 1987, с. 356.

⁵ Ўша манба. 441-бет.

⁶ Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры. Метафоры. Теория. М., 1990, с. 72.

⁷ Каримов О. Метафора – поэтик тафаккур асоси. “Жаҳон адабиёти”, 2014, 8-сон, 190-бет.

⁸ Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры. Метафоры. Теория. М., 1990, с. 72.

jon bor. Birinchidan, yunoncha «metafora» soʻzining lugʻaviy maʼnosi «koʻchirish» boʻlib, u dastlab umuman, koʻchma maʼnoli soʻz (trop) sifatida ishlatilgan. Hozirda bu termin bilan faqat oʻxshashlik asosidagi koʻchim yuritilishi maʼno torayishi natijasidir.

Demak, poeziyada metafora terminining qoʻllanilish doirasi kengaydi, bu esa uning maʼno doirasi ham kengayganini bildiradi. Yaʼni, agar avvaliga metafora terminida maʼno torayishi (umuman, koʻchma maʼnodagi soʻz – oʻxshashlik asosidagi koʻchma maʼnoli soʻz) yuz bergan boʻlsa, yangi davrdan boshlab unda maʼno kengayishi jarayoni kuzatiladi. Natijada endi metaforani juda keng, yaʼni poeziyada (umuman, sanʼatda)gi bir narsa-hodisa mohiyatini ikkinchi bir narsa-hodisa orqali ochish deb tushunila boshlandi.¹

R.Mullaxoʻjayeva “Shavkat Rahmonning soʻzga munosabati va sheʼrlarining boshqa ijodkorlar sheʼrlaridan ajratib turuvchi jihatlaridan biri, bu shoirning – badiiy obraz va sanʼatlarni qoʻllashdagi mahoratida aniq namoyon boʻladi. Shoirning oʻxshatish va metaforalari u aytmoqchi boʻlgan fikr-gʻoyalarning badiiy ifodasi sifatida oʻquvchini oʻzining badiiy olamiga birdan olib kiradi. Shoir dardi, koʻngil armonlari va orzulariga oshno etadi. Uni bevosita favqulodda noodatiy oʻxshatish va metaforalar olamiga roʻbaroʻ qiladi. Shavkat Rahmon sheʼrlaridagi oʻxshatish va metaforalar tavsifiy xarakterga ega. Ular ikki komponentli shakldan chiqib, favqulodda izohli ifoda oladi”, deb taʼkidlaydi.² Masalan, *Bir odam izladim... izladim gʻarib, jufti yoʻq burgutday xunuk qishladim.*³ Oʻxshatilayotgan obraz “*jufti yoʻq burgut*” lirik qahramonning gʻarib holatiga oʻxshatilmoqda. Yoki: *Bir qoʻshiq boʻlaman daryoday yurakning eng chuqur yerida boqaman dunyoga dunyoday ajoyib kunlarning birida...*⁴ Daryoga oʻxshatilayotgan qoʻshiq muqobilida dunyoga dunyo oʻxshatish boʻlmoqda. Bir qarashda shoir *dunyoga dunyoni* qiyoslab takrorga yoʻl qoʻyayotgandek tuyuladi. Lekin dunyodan boshqa dunyoni izohlovchi oʻxshatishni topish mushkul. Shoir shu sababli ham takrordan qochmagan. Shuningdek, sheʼrlardagi “*Tolgʻun qush galasi – xoʻrsiniqlarim*”, “*Koʻzlari chilparchin, itday qaytarman*”, “*Qum koʻynagin kiyar-u holsiz, sochturmagin sohilga yozar...*”, “*Boshlanadi singan suvlarda, Yalangoyoq oylarning sayli*”, “*Oy gulladi. Osmon toqiga, Yulduzlarni kimdir qoqadi*”, “*...Hamon suzar qizil olmalar, Xayolimiz yoyilmasida...*” kabi anʼanaviy va noanʼanaviy usuldagi obrazli ifodalari ularning yuksak badiiy maqomdagi ijod namunasi ekanligini koʻrsatib turibdi. Poetik matn tarkibidagi har bir soʻz muayyan badiiy maʼno tashiydi.

R.Mullaxoʻjayeva masalaga adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qarab, quyidagicha yondashadi: “Adabiyotning boshqa janrlaridan farqli oʻlaroq, soʻzning poetik maʼno olishi sheʼriy asarda toʻlaqonli amalga oshadi. Ayni paytda, muayyan soʻzlar guruhi mavjudki, ularni faol poetik soʻzlar sifatida ajratib koʻrsatish mumkin. Adabiyotshunoslikda bu xil soʻzlar anʼanaviy obrazlar deb ham ataladi. Lekin bu anʼanaviylik umumiy xarakterga ega va har bir shoir ijodida u yoki bu poetik obraz individual mazmunda namoyon boʻlib, izchil semantik koʻrinish oladi”.⁵ Har bir ijodkorning sheʼriyati izchillik bilan kuzatilsa, maʼlum poetik soʻzlarning nisbatan faol qoʻllanilganligi ajralib koʻrinadi. Lekin har qanday holatda takrorlar kelmaydi. Badiiy asarda ijodkor soʻzga alohida maʼno yuklaydi. Ijodkorning individual mahorati ana shu nuqtada ochiladi, oʻz kuch-qudratini koʻrsatadi. Aslida, tildagi har bir soʻzning cheklanmagan darajada poetik imkoniyati mavjud. Faqat bu yashirin imkoniyatni ochish ijodkor isteʼdodiga bogʻliq.

Shu oʻrinda, I.Gʻaniyev, N.Afoqovalar: “Shavkat Rahmonning har bir sheʼri, undagi haqiqatlar va iztirob haqida bashorat haqida oʻnlab, yuzlab sahifa sharhlar yozish mumkin. Chunki Shavkat Rahmon – chin maʼnoda soʻz sehri, soʻz qudrati, soʻzning ilohiyligini his etgan shoir... Qalb va ruhning suvratini tasavvur qilish qiyin. Ammo soʻzning nodir sanʼatkorlariga inson ruhini chizish nasib etgani, shubhasiz. Shavkat Rahmon sheʼrlarida ham shoirning qaysar va oʻjar feʼli, qalbi koʻzgudagidek koʻrinib turadi. Uning sheʼrlarida fikr ham, tuygʻular ham, favqulodda xulosalar ham kutilmagan, oʻziga xos oʻjar. Uning sheʼrlari shu qadar tabiiyki, oʻqisangiz, koʻz oldingizda xuddi kino lentasidek yaxlit bir manzara – goʻzallik, ruhiy sokinlik jonlanadi. Shavkat Rahmon uchun soʻz – ilohiy, soʻz – muqaddas, soʻzda ruh, hikmat, isyon bor, xosiyat va shafolat bor. Soʻzlarni shunchaki qalastirish yoki qofiyalab, ohangdor, jarangdor qilib vaznga solish – hali bu shoirlik emas”,⁶ deb taʼkidlaydilar.

Shavkat Rahmon sheʼrlarida ham faol qoʻllanuvchi poetik obrazlar talaygina va ularning aksariyati

¹ Каримов О. Shu manba. 191-bet.

² Муллахўжаева Р. 80-йиллар ўзбек шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши ва Шавкат Раҳмон ижоди. Фил.фан.бўйича фал.д-ри (PhD) диссерацияси автореферати, Тошкент, 2020, 26-бет.

³ Раҳмон Шавкат. Сайланма. Тошкент, “Шарк”, 1997, 5-бет (келтирилган барча шеърлар шу тўпламдан олинди).

⁴ Раҳмон Шавкат. Ўша манба. 9-бет.

⁵ Муллахўжаева Р. 80-йиллар ўзбек шеърлятида поэтик тафаккурнинг янгиланиши ва Шавкат Раҳмон ижоди. Фил.фан.бўйича фал.д-ри (PhD) диссерацияси автореферати, Тошкент, 2020, 26 бет.

⁶ Ганиев И., Афоқова Н., Ганиева А. Шавкат Раҳмон олами. Тошкент, “Akademnashr”, 2013, 5, 90-бет.

shoir ijodida an'anaviy xarakterga ega. Jumladan, *quyosh, yulduz, oy, tog', tosh, daryo, yo'l, bulut, daxxt, shamol, shabboda, sukunat, oq, kapalak, yurak, ko'z, ko'ngil, so'z* kabi. Keltirilgan obrazlarning ko'pchiligi boshqa davr she'riyatida, xususan, mumtoz adabiyotda ham qo'llanilgan. Bu o'rinda, so'z o'zgarmaydi. Faqat so'zning poetik ma'no qamrovi kengayadi, so'z qayta kashf etilib yangilanadi. Albat, an'anaviylik, izchillik hech qachon yo'qolib ketmaydi. Shavkat Rahmon she'riyatida faol poetik obrazlar biri ikkinchisi bilan, mazmunan, mantiqiy bog'liq holda keladi. Bu holat quyosh, sukunat va tog' obrazlari qiyosida yanada yorqin namoyon bo'ladi. Shoirning "Gullayotgan tosh" she'rida esa tosh obraziga yuklangan poetik ma'noning mutlaqo yangi talqinda taqdim etishi kuzatiladi:

*...Tosh ham gullarmi deb,
minglab kaltabin
gurzisin do'layib yig'ilgan paytda,
mardona iljayib, ko'rasiz, dedim,
bir kuni gullaydi bu tosh, albatta* (Sh.Rahmon. Saylanma. 240-bet)

Shavkat Rahmon she'rlarida ijtimoiy mavzuning yetakchi o'ringa chiqishi an'anaviy obrazlarga ham ijtimoiy mazmun yuklanganligi bilan ajralib turadi. Ozodlik, erk, xalq dardi va uning qismati bilan bog'liq o'y-kechinmalar turli ko'rinishlarda badiiy ifodalansa-da, ularni yagona maxrajga keltirish mumkin.

*Oy gulladi. Osmon toqiga
Yulduzlarni kimdir qoqadi.
O'zanlarda sokin to'lg'anib
Tag'in quyuq kunduz oqadi* (Sh.Rahmon, Saylanma. 33-bet)

She'rda o'yning gullashi, yulduzlarni qoqishi, quyuq kunduz oqishi kabi birikmalaridan betakror metaforalarni yarata olgan. Oy haqida she'riyatda yuzlab metaforalar bor. Ko'z o'ngimizda mevali daxxtning gullari yulduzday sochilgani namoyon bo'ladi.

*Osmonlarda o'tlagan bulut
podasini shamollar haydar.
Suronlarda horigan dala
ibtidoiy jimlikka qaytar* (Sh.Rahmon. Saylanma. 33-bet)

"Osmonlarda o'tlagan bulut podasi"ni shamollar haydaydi. Metaforada hayotiy mezon buzilmagan. Metaforalar tahlili davomida Shavkat Rahmon she'riyatidagi ijtimoiy ma'no va mazmun aniq namoyon bo'ladi. Shoir she'rlaridagi yirtilgan shamol, gullayotgan tosh, yalang'och cho'l, jinni tollar, yovvoyi tuproq, joduli sukun, cho'l qitiqlar tovonlarimni, adashgan dunyo, qattol davr, bahaybat suv, osmonni yirtmoq, ko'hna zamin tulladi, kunlar pisha boshladi kabi ifodalar boshqa ijodkorlarning asarlarida deyarli uchramaydigan original namunalarini ko'rish mumkin.

Sabirov Maxtumquli Ataboyevich (O'zDJTU tadqiqotchisi) O'XSHATISH: ASOSIY MOHIYATI VA O'RGANILISHI

Annotatsiya. Maqolada turli olimlarning mamlakatshunoslik, adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazardan o'xshatishning tutgan o'rni va lingvistik tadqiqotlar konteksti doirasida turli davr va ilmiy an'analarda mahalliy hamda xorijiy mutaxassis-tadqiqotchilarining o'xshatish haqidagi qarashlarini taqqoslash va o'rganish yo'llari yoritib berilgan.

Аннотация. В статье освещается роль сравнения в следующих направлениях как страноведение, литературоведение, приводится обзор взглядов в контексте лингвистических исследований, пути сравнения и изучения отечественных и зарубежных специалистов-исследователей на аналогии в различных эпох и научных традиций.

Annotation. The article highlights the role of comparison with the following areas as country studies, literary studies and a review of views in the context of linguistic research ways of comparing and studying domestic and foreign research specialists on analogies in different eras and scientific traditions.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mintaqashunoslik, o'xshatish-qiyoslash, taqqoslash, ekstralingvistik xususiyatlar.

Ключевые слова: лингвистика, литературоведение, страноведение, сравнение-сопоставление, обобщение, экстралингвистические особенности.

Key words: linguistics, literary studies, country studies, comparison, generalization, extra linguistic features.

Ma'lumki, tilda tabiatdagi biror obyektни boshqa bir obyektga nisbatan qiyoslash, taqqoslash orqali yozma yoki og'zaki nutqni ifodali, ta'sirli qilishga erishiladi.

Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi.¹ Bundan anglashiladiki, o‘xshatish, qiyoslash hodisalari nafaqat tilshunoslik va adabiyotshunoslikda, balki mantiq, falsafa kabi sohalarda ham o‘z nazariy asoslariga ega.

Mantiqshunoslik nuqtayi nazardan, M.Xayrullayevning fikriga ko‘ra, “analogiya deb o‘xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o‘xshash belgilarga ega ekani ni ko‘rsatishga aytiladi. Birinchi narsa yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba’zi bir belgilarinigina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o‘xshatamiz”.²

Tilshunoslikda, odatda, qiyoslashning maqsadidan kelib chiqib, uning ikki turi farqlanadi. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish maqsadida qiyoslangan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshdan qattiq), qiyoslash o‘xshatish maqsadini ko‘zda tutganda esa o‘xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq).³

Dunyoning deyarli barcha tillarida ikki obyekt yoki fenomenni o‘zaro taqqoslash, birini ikkinchisiga qiyoslash uchun o‘xshatish stilistik vositasi qo‘llanadi. Ushbu stilistik usulning qo‘llashdan maqsad muallif o‘z o‘quvchisini o‘zi ta’kidlamochi bo‘lgan masalaga e’tiborni yanada kuchaytirishni maqsad qiladi.

O‘xshatish lotincha (“similis”, ya’ni, “similar – bir xil”, “like – o‘xshash”) “o‘xshashlik” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘xshashlik va analogiya” degan ma’nolarni anglatadi.⁴ O‘xshatish ikki obyekttni ayrim o‘xshashliklari bilan solishtirish hisoblanadi. Ushbu stilistik vosita ikki narsaning bir yoki ikkita sifatidagi o‘xshashligini ifodalovchi lisoniy birlik, stilistik vositadir.

O‘xshatish dunyoni tushunishning eng muhim usullaridan biridir. O‘xshatish stilistik usuli o‘quvchiga hayot jarayonlari va hodisalari haqida yangi, obyektiv ma’lumot olish uchun dunyo haqiqatidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Adabiyotda o‘xshatishdan foydalanish ham assotsiyativ ta’siriga ega. Olamni to‘liqroq idrok etish uchun mavzuni turli assotsiatsiyalar yordamida tasvirlashga yordam beradi. Shu sabablarga ko‘ra, yuzlab yillar davomida o‘xshatish eng ommabop adabiy uslub bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, yetakchi faylasuf va tilshunos olimlarning o‘xshatishning mohiyati va funksiyalari muammosiga katta qiziqish bildirishlariga qaramay, bir qator jihatlar haligacha o‘rganilmoqda.

Yurtimizda o‘xshatish til hodisasi tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Tilshunoslik sohasida o‘xshatishlarning lingvistik: semantik, struktur jihatlarini, ekstralingvistik: lingvomadaniy, kognitiv jihatlarini tadqiq qilingan bo‘lsa, adabiyotshunoslikda o‘xshatishni she’riy san’at turi sifatida keng monografik tadqiq qilingan. Jumladan, M.Mukarramov o‘zbek tilida o‘xshatishlarning umumiy xususiyatlari, komponentlari va turlari, shuningdek, o‘xshatishni affikslar, yordamchi so‘zlar, leksik vositalar hamda morfologik-leksik vositalar bilan ifodalanish masalalarini keng tadqiq qilgan.⁵ Shuningdek, M.Yoqubbekova o‘zining “O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish” nomli monografiyasida o‘zbek xalq qo‘shiqlaridagi eng faol badiiy tasviriy vositalardan biri – o‘xshatishning xalq qo‘shiqlaridagi lisoniy badiyatni tashkil etuvchi unsur sifatidagi tabiatini o‘rgangan bo‘lib, olimda o‘xshatish va uning komponentlari tarkibi, qurilishi, leksik, semantik, grammatik, poetik xususiyatlari bir butunlikda tahlil etadi hamda shu uzviylik nuqtayi nazaridan o‘xshatishlarni talqin etadi.⁶

O‘xshatishlarning ekstralingvistik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishi F.Usmo-nov tomonidan olib borilgan bo‘lib, muallif o‘z ilmiy izlanishida o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar semantikasida milliy-madaniy konnotatsiyaning o‘rnini aniqlash, etalon vazifasini bajaruvchi obrazlarni lingvomadaniy yondashuvda guruhlashtirish, etalonlarni lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazardan yoritish,

¹ Н.Махмудов. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Дисс... док-ра филол. наук, Ташкент, 1984, с. 259.

² Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. Предмети ва қисқа тарихи. Ташкент, «Ўқитувчи», 1984, 247-бет.

³ Н.Махмудов. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. Ташкент, «Ўқитувчи», 1984, 68-бет.

⁴ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/simile#:~:text=Simile%20comes%20from%20the%20Latin,the%20words%20as%20or%20like>.

⁵ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Ташкент, 1976, 88-бет.

⁶ Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларида ўхшатиш. Ташкент, 2003, “Фан”, 95-бет.

turg'un o'xshatishlarni subyektiga ko'ra tasniflash hamda turg'un o'xshatishlarning tahlili asosida o'zbek millatining madaniy me'yorlarini aniqlash masalalarini tadqiq qilgan.¹

Yurtimizda xorijiy tillardagi o'xshatishlarning lingvistik, qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar ham olib borilgan bo'lib, ulardan biri G.Mustayevaning tadqiqot ishidir. Muallif o'z ilmiy ishida *homme*, *femme* va *enfant* spontan obrazli o'xshatishlarning shakllanish qonuniyatlarini semantik va kognitiv aspektlarda aniqlash hamda ularning mazmunini tizimlashtirish masalalarini tadqiq qilgan.²

Umuman olganda, xorijda o'xshatishlarning stilistik funksiyasi, o'xshatishni ifodalashning grammatik usullari, turli darajadagi til birliklarini semantik, funksional va strukturaviy tahlil qilish orqali o'xshatishning funksional-semantik maydonini qurish, ularning shakli va semantik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatni yoritish, shuningdek, har xil turdagi qiyosiy o'xshatishlarning o'rni va ma'nosini aniqlash, o'xshatish va yonga yondosh stilistik vositalarning o'xshash va farqli jihatlari kabi masalalar ham keng o'rganilgan bo'lib, ular N.T.Malipkova,³ A.G.Rubnev,⁴ A.V.Tregubchak,⁵ U.Jarkova,⁶ X.Bredin,⁷ E.Fadaye,⁸ G.Miller⁹ kabilarning ishlarida aks etadi.

O'xshatishlar alohida til hodisasi sifatida qadimgi davrlardan boshlab badiiy yoki so'zlashuv uslubida ham qo'llanilib kelmoqda. S.Nevelova xulosasiga ko'ra, "Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsuridan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, 2) unga o'xshash bo'lgan narsa yoki ob'yekt, 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi va 4) o'xshatishning formasi ko'rsatkichi."¹⁰ N.Maxmudov, D.Xudoyberganovanning ta'kidicha, "o'zbek tilida ham, boshka barcha tillarda bo'lgani kabi, o'xshatishlar to'rt unsuridan tarkib topadi va ular o'xshatish subyektini, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidan iborat".¹¹

Ingliz tilida ham o'xshatishning to'rt unsuri mavjud bo'lib, ular o'xshatiladigan subyekt yoki mavzu, o'xshatiladigan obyekt, o'xshatish harakati yoki holati, o'xshatish ko'rsatkichlari yoki shakllari ("as", "like", "as though").¹² Masalan, "the room feels like Antarctica" (xonada o'zingni Antarktida turgandek his qilasan) o'xshatishli birkmasida "the room"—o'xshatish subyektini, "feels"—o'xshatish holati, "Antarctica"—o'xshatish obyektini va "like"—o'xshatish ko'rsatkichi. O'xshatishning tarkibiy unsurlari borasida o'zbek va ingliz tillari o'zaro izomorfik xususiyatlarga ega.

O'zbek tilining izohli lug'atida "o'xshatish — ikki narsa yoki voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, bo'rttiribrog ko'rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko'chimning sodda turi",¹³ deya ta'rif berilgan.

Aristotel o'xshatish borasida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "o'xshatish metafora bilan bir xil, u metaforadan o'z qo'shimcha shakllariga egaligi bilan farq qiladi. Shuning uchun uning ifoda shakli metaforaga qaraganda uzunroq. U odatda metaforachalik insonni o'ylashga majbur qilmaydi".¹

¹ Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Т., 2020, 150-бет.

² Мустаева Г.С. Нутқ муҳитида шаклланувчи француз тили образли ўхшатишларининг семантик-когнитив механизмлари (*home, femme, enfant* отлари мисолида). Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Т., 2019, 137-бет.

³ Мальпакова Н.Т. Сравнительные обороты с союзом «как». «Русский язык в школе», 1953, № 6.

⁴ Руднев А.Г. Сравнительные обороты в современном литературном языке. Учёные записки Ленинградского педагогического института, 1948.

⁵ Трегубчак А.В. Семантика сравнения и способы ее выражения. Автореф. дис. ...канд. фил. наук, М., :2008, с. 23.

⁶ Жаркова У.А. Синтаксис сравнения. логико-лингвистический подход. Автореф. дис. ...канд. фил. наук, Пермь, :2004, с. 20.

⁷ Bredin H. (1998). Comparisons and Simile. *Lingua*, 105, p. 67 – 78.

⁸ Fadaee E. (2011). Symbols, Metaphors and Similes in Literature: A Case Study of *Animal Farm*. *Journal of English and Literature* Vol. 2(2), p. 19 – 27.

⁹ Miller G. (1993). Images and Models, Similes and Metaphor. *Metaphor and Thought*. Cambridge: CUP, p. 357–400.

¹⁰ С.Невелова. К вопросу поэтики древнеиндийского эпоса. Эпитет и сравнение. М., «Наука», 1979, с. 38.

¹¹ Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. Т., «Маънавият», 2013, 320-бет.

¹² Vlad Niculae and Cristian Danescu-Niculescu-Mizil. 2014. Brighter than Gold: Figurative Language in User Generated Comparisons. In *Proceedings of the 2014 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing (EMNLP)*, pages 2008–2018, Doha, Qatar. Association for Computational Linguistics.

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5-жилд, Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007, 571-бет.

Metafora va o'xshatishni bir xil tushunchalar deb hisoblaydigan zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar (B.Boudi, D.Djenter, D.Kennedi, D.Miller, P.Chippe) ham mavjud bo'lib, ularning o'xshatishga yondashuvlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Mazkur olimlar metaforani taqqoslashning qisqartirilgan shakli deb hisoblashadi, chunki metafora va o'xshatish o'xshashlikning konseptual jarayonidir. Fikrimizcha, bu kabi qarashlar metafora va o'xshatishning mohiyatiga bir tomonlama yondashish natijasidir. Bu masalalarga oydinlik kiritish borasida tadqiqot ishimizning keyingi faslida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Adabiy tilning tasviriy vositasi bo'lgan o'xshatishda leksik birliklar ifodalangan ikki narsa, hodisa yoki tushuncha o'zining ma'lum bir belgi, xususiyati asosida bir-biriga obrazli chog'ishtiriladi. O'xshatishda narsa va hodisalarni ifodalagan leksik birliklar o'zining to'g'ri ma'nosi bilan solishtiriladi. O'xshatish mana shu to'g'ri ma'noda qo'llanishi bilan metafora va metaforik sifatlashdan farq qiladi.²

I.V.Arnoldning ta'kidlashicha, o'xshatish til hodisasi bo'lib, unda ma'lum bir narsa yoki hodisaning ma'nosi boshqa tushunchalar yoki hodisalar yordamida ularning umumiy xususiyatini qiyoslash orqali kengaytiriladi, chuqurlashadi yoki takomillashtiriladi.³ I.R.Galperin o'xshatishni stilistik vosita sifati deya e'tirof etadi. Uning ta'biricha, "o'xshatishda odatda turli xil hodisalar sinflari bilan bog'liq bo'lgan ikkita tushuncha qandaydir umumiy xususiyatga ko'ra bir-biri bilan taqqoslanadi. Ko'rib chiqilayotgan konsepsiyaning xususiyatlaridan birini mustahkamlash o'xshatish yordamida amalga oshiriladi".⁴

Y.M.Skrebnnev o'zining "Основы стилистики английского языка" nomli monografiyasida "o'xshatishni ikki obyektning qisman o'xshashligining aniq ifodasi bo'lgan majoziy taqqoslash sifatida tavsiflaydi. Shunday qilib, o'xshati – bu tasvirlangan shaxslar, qahramonlar, voqealar, rasmlarni ko'p hollarda o'quvchiga yaxshi tanish bo'lgan tasvirlar bilan taqqoslash. Bunday qo'shimcha ifodalash natijasida tasvirlangan narsa konkretlashadi, ravshanroq va ifodali bo'ladi",⁵ degan xulosani ilgari suradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, o'xshatish tabiatda ikki obyekt yoki hodisaning turli xil sifatleri yoki belgilarining umumiy xususiyatlarini o'zaro taqqoslash hisoblanadi.

L.Boxonova esa o'xshatish borasida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "o'xshatishda hodisa yoki voqelikning har xil bo'lagiga tegishli ikki tushuncha bir-biri bilan biron-bir xususiyatiga ko'ra taqqoslanadi. Bunday o'xshatishlar -day (gulday), -dek (togdek), -larcha (bolalarcha) kabi o'xshatish ma'nosini ifodalovchi maxsus vositalar orqali yuzaga keladi. Ba'zan bu vositalarni o'xshatish shakllari deb ham atashadi. Bundan tashqari, leksik vositalar ham qo'llaniladi. Bular o'rnida (kabi, o'xshash, misoli, xuddi, singari, bamisoli) ko'makchilar, bog'lovchilar (go'yo, go'yoki), ravish (aynan) ko'proq qo'llanadi".⁶ Quyidagi misollarda o'xshatish stilistik vositasini o'zbek badiiy matnlarida qo'llanishini ko'rishimiz mumkin: Akbarali mushukdek sapchib yo'lakka borib koldi. Orkasiga o'girilib karadi (S.Axmad. "Qirq besh kun"). Oyog'idagi jigarrang etigining nayzadek uchli poshnasi toshlarga tegib tak-tak ovoz chikazib kelardi (S. Ahmad. "Jim-jitlik").

Ingliz tilida o'xshatishni ifoda shakllariga ko'ra metaforadan ajratib turadigan qo'shimcha shakllari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: like, as...though, as, as like, such as, as...as. Bu kabi lisoniy birliklar tilda o'xshatish shakllaridan tashqari lisoniy vazifalarga ham ega. Jumladan, "as" o'xshatish shakli ingliz tilida bog'lovchi vazifasini ham bajaradi. Masalan, She arrived early, as I expected. Ushbu o'xshatish qo'shimchasi bundan tashqari predlog va ravish vazifasida ham kelishi mumkin.

"O'xshatish asosan manba va solishtirilgan ob'yektlarga ochiq ma'lumotni va ularni bog'laydigan aniq konstruksiyani talab qiladigan nutq shaklidir".

O'xshatish eng muhim lingvofalsafiy kategoriyalardan biridir. Yozuvchi va shoirlarni badiiy diskursda o'xshatishdan foydalanishning o'ziga xos maqsadlari mavjud. O'xshatish olamni badiiy manzarasini anglash jarayonida katta rol o'ynaydi. U orqali yangi bilimlar obyektiv voqelikning bilish va tushunchalari haqidagi ma'lum ma'lumotlar va fikrlar bilan taqqoslash orqali to'ldiriladi, ob'nyektlarni bir-biri bilan taqqoslash hodisalarni anglash, yaxshiroq tushunish va aniqlashtirishga yordam beradi. Hodisalar. A.A.Potebnya o'xshatishni olamni anglash usullaridan biri deb atagan.

¹ Гаспаров, М.Л. Аристотель и античная литература [электронный ресурс]. Режим доступа: <http://veleggio.ru/r4/item70021.html>.

² Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. Тошкент, 1976. 88-бе

³ Арнольд И.В. Стилистика. Лексикология современного английского языка. Учебное пособие, М., "Флинта", 2012, с. 376.

⁴ Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. Опыт систематизации выразительных средств. Монография, М., Едиториал УРСС, 2012, с. 376.

⁵ Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. Учебное пособие, М., АСТ, 2003, с. 221

⁶ Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. Т., "Ўқитувчи", 1995, 47-бет.

O'xshatish natijasida shaxs obyektlarning o'xshashligi va farqini ochib beradi, buning natijasida o'xshatish obyektlarida subyekt uchun yangi, muhim xususiyatlar ochiladi. O'xshatish badiiy matnda muhim rol o'ynaydi. U badiiy adabiyotda nafaqat badiiy usul sifatida, balki muallifning so'zdan moxirona foydalanish, dunyoqarash tizimining ifodasi ham hisoblanadi.

O'xshatish dunyoni bilishning eng muhim vositasi bo'lib, u xalqning o'z ona tilida olamning lisoniy manzarasini ifodalovchi lisoniy hodisadir. O'xshatish orqali hodisalar, ob'yektlar idrok etuvchi subyekt tomonidan uning amaliy faoliyatida dolzarb bo'lgan turli sifatlariga ko'ra taqqoslanadi. O'xshatish keng tarqalgan umumiy ilmiy kategoriya sifatida barcha ilmiy sohalarida ham qo'llaniladi. A.Spirkin bu borada quyidagilarni bayon etadi: "O'xshatish – bu obyektlarning farqlari va o'xshashliklarini aniqlash bo'lib, u tushuntirish emas, balki aniqlashtirishga yordam beradi. O'xshatish aniqlashning eng muhim shakli bo'lib, turli fanlarda, masalan, qiyosiy anatomiya, qiyosiy fiziologiya, qiyosiy tilshunoslik va boshqalarda o'ziga xos shakllarda qo'llaniladi".¹

S.Fromilxagining ta'kidicha, "o'xshatishlar turli funksiyalarga ega: Birinchidan, ular qisqa va samarali muloqot qilish uchun xizmat qiladi. Ular mavjud til resurslarini kengaytiruvchi lingvistik vositalar to'plamidan biridir. Ikkinchidan, ular fikrlash uchun kognitiv vositalar sifatida xizmat qilishi mumkin, chunki ular bizga dunyoni yangi, muqobil usullarda o'ylashga imkon beradi. Nutqda ular o'zlari sodir bo'lgan matn janriga qarab aniqroq funksiyalarni ham bajarishlari mumkin. Ilmiy matnlarda taqqoslash va analogik fikrlashda muhim o'rin tutadi".²

O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalk yoki turgun (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.³ Muallif o'xshatishlar odatda har bir yozuvchi yoki shoir o'z asarida o'zining olamni badiiy manzarasidan kelib chiqib, o'xshatishdan foydalanadi. Masalan, "Tomirlarim olov kabi qaynagan, qonlarini kechmishlardan olmishdir". O'zbek shoiri Abdulhamid Cho'lponning "Yurt yo'li" nomli she'ridagi ushbu satrlari orqali inson tomirlarini qaynayotgan suvga o'xshatmoqda. Muallif bu ifodaga o'ziga xos individual yondashgan holda, insondagi ichki kechinmasini kuchaytirib ifodalamoqda. Ushbu tadqiqot ishimizda o'xshatishning mazkur ikki turining ingliz va o'zbek tillarida lingvomadaniy xususiyatlari va o'zbek hamda ingliz tillariga tarjima muammolari xususida so'z yuritimiz.

Ingliz tilida ham umumxalq o'xshatishlar badiiy adabiyotda keng qo'llanib, quyidagi misolda o'xshatishning aynan shu turi qo'llangan: "Sunmotels lilted around like yellow butterflies – Quyoshli maskanlar sariq kapalaklar misoli yaltirab turardi". Ushbu matn amerikalik yozuvchi Kapote Tumanning "The grass harp" asaridan olingan parcha bo'lib, muallif o'zining individual yondashuviga ko'ra, quyoshli maskanlarni sariq kapalaklarga o'xshatmoqda. Bu vaziyatda boshqa bir yozuvchi quyoshli maskanlarni kungaboqar dalasiga ham o'xshatishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, individual o'xshatishlar har bir insonning o'z falsafasi, mantig'i, olamni anglashidagi yondashuviga qarab subyekt va obyektning tanlashi mumkin.

Umumxalq o'xshatishlar bir tilda avloddan avlodga, tillararo esa tildan tilga o'tib keladigan o'xshatishlar hisoblanadi. Bu kabi o'xshatishlarni ommabop o'xshatishlar tarzida talqin qilish ham mumkin. Masalan, o'zbek tilida "fildek baquvvat" ingliz tilida "As strong as an ox (buqadek kuchli)".

Ingliz tilida, odatda, ikki obyektning o'xshatish usuli sifatida ikki termin: "comparison – taqqoslash" va "simile – o'xshatish" ishlatiladi. Bu borada tilshunos G.A.Shusharin o'zining "Stilistika angliyskogo yazыka" asarida "taqqoslash bir xil sinfga mansub ikkita obyektning solishtirish va ularning barcha sifatlarini hisobga olib, solishtirilayotganini ajratib ko'rsatish hodisasi sifatida, o'xshatishni esa turli sinflarga mansub taqqoslanadigan ob'yektlarning umumiy xususiyatlaridan tashqari barcha sifatlarini o'zaro qiyoslash hodisasi",⁴ deya xulosa beradi.

O'zbek tilshunosligida ushbu stilistik vosita o'xshatish, mumtoz adabiyotimizda esa tashbeh termini bilan talqin qilinadi. "O'xshatish" termini borasida yuqorida L.Boboxonaning fikrlari va o'zbek tilining izohli lug'atidagi manbalardan foydalangan holatda asosiy mazmuni borasida fikrlar bildirildi. Tashbeh tushunchasining mohiyati xususida esa biz R.Qo'ng'urovning "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"ga murojaat etishni lozim topdik. Lug'atda keltirilishicha, "tashbeh (arabcha – o'xshatish) mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, ikki narsa va tushuncha, parakat yoki polat va shu kabilarni bir-biriga o'xshatish, qiyoslash. Adabiyotda, xususan, she'riyatda eng keng tarqalgan va qadimiy san'atlardan biri. Tashbeh-

¹ Spirkin A.G. Философия. Учебник, 2 издание, Москва, "Гардарики", 2006.

² Fromilhague C. (1995). Les Figures de Style. Paris: Nathan, p. 88 – 89.

³ Махмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. Т., "Маънавийат", 2013, 5-бет.

⁴ Shusharina G.A. Stylistics of the English language: textbook. Komsomolsk-on-Amur: GOU VPO "KiAGTU", 2010, p. 100.

ning yuzaga kelishida ikki narsa–tushuncha, ikki harakat va holat orasidagi o‘xshashlik asos bo‘ladi. O‘xshatish uchun haqiqiy, real hayotiy narsa-buyumlar tanlangan bo‘lsa, haqiqiy tashbeh; noaniq, mavhum narsalar tanlangan bo‘lsa, majoziy tashbeh yuzaga keladi. Tashbeh san‘ati to‘rt juzv orqali yuzaga keladi: mushabbix (o‘xshatilayotgan narsa), mushabbixun (o‘xshayotgan narsa) bix, vajxi shabix (ikki narsa-tushunchani bir-biriga o‘xshatish asosi), vositayi tashbeh (o‘xshatishli konstruksiyadagi grammatik vosita).¹

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, o‘xshatish dunyoning deyarli barcha tillariga xos bo‘lgan universaliya til hodisasi bo‘lib, tilda ifodalanadigan obrazli-tasviriy ifoda vositalardan hisoblanadi. O‘xshatishlar, asosan, badiiy matnlarda, xususan, nasriy va she‘riy matnlarda keng qo‘llanib, ijodkor o‘xshatishdan foydalanish orqali tasvirlamoqchi bo‘lgan obyektning kengroq ifodalash va o‘z o‘quvchisini e‘tiborini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Badiiy matnda o‘xshatishlardan foydalanish o‘quvchilarning e‘tiborini tortadi va bevosita his-tuyg‘ulariga jalb qiladi, ularning ongida olam tasvirini yaratadi, bu esa tasvirlangan obyekt yoki hodisalarni yanada yorqinroq his qilishiga yordam beradi. Badiiy adabiyotning ijodkorligi, ko‘p jihatdan, yozuvchining ma‘lum estetik effektga erishish uchun til resurslarini badiiy manipulyatsiyasiga bog‘liq bo‘lib, bu bevosita matnni yaratishda o‘xshatishlardan samarali foydalanishda namoyon bo‘ladi.

**Allamberganova Guljaxon (Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, f.f.b. PhD),
Sadullayeva Risolat (Urganch davlat universiteti magistranti)**

IBRAYIM YUSUPOV ASARLARIDA OMONIM FRAZEMALARNING QO‘LLANILISHI

Аннотация. *Frazemalar – tilimizda o‘zining rivojlanishi borasida uzoq vaqtlar davomida o‘zaro birikib shakllangan, bir nechta so‘zlardan tuzilgan so‘z birikmalari sanaladi. Bunday barqaror so‘z birikmalari o‘zining shakliga ko‘ra ham, ma‘nosining barqarorligi bo‘yicha ham, uslub jihatdan ham ayrim mustasnoqliklarga ega. Tilimizda o‘zining yozilishi va talaffuzi bir xil, lekin ma‘nosiga ko‘ra biri ikkinchisini takrorlamaydigan so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunday shaklga ega so‘zlar tilshunoslikda leksik omonimlar deyiladi. Frazeologizmlarga ham omonimlik xos bo‘lib, ushbu maqolamizda frazemalarning omonimlik vazifasiga to‘xtalib o‘tamiz. Omonim frazemalarni aniqlash va tahlil qilishda Qoraqalpoq‘iston xalq shoiri I.Yusupov asarlaridan foydalanildi.*

Аннотация. *Фраземы – это словосочетания, состоящие из нескольких слов, образовавшихся вместе на протяжении длительного периода времени с точки зрения их развития в нашем языке. Такие устойчивые словосочетания имеют некоторые исключения по форме, устойчивости значения и стилю. В нашем языке есть много слов, имеющих одинаковое написание и произношение, но не повторяющих друг друга по смыслу. Слова с такой формой в языкознании называются лексическими омонимами. Фразеологизм также свойственна омонимия, и в данной статье мы остановимся на омонимической функции фразем. Для выявления и анализа омонимичных словосочетаний использованы произведения каракалпакского народного поэта И. Юсупова.*

Annotation. *Phrasemes are phrases made up of several words that have been formed together over a long period of time in terms of their development in our language. Such stable word combinations have some exceptions according to their form, stability of meaning, and style. In our language, there are many words that have the same spelling and pronunciation, but do not repeat one another in terms of meaning. Words with this form are called lexical homonyms in linguistics. Phraseologisms are also characterized by homonymy, and in this article we will focus on the homonymous function of phrasemes. The works of Karakalpakstan folk poet I. Yusupov were used to identify and analyze homonymous phrases.*

Kalit so‘zlar: *leksika, frazeologizm, omonim, termin so‘z birikmasi, badiiy matn, semantika, turg‘un so‘z birikmasi, idioma, stilistika, idioma, so‘zlar.*

Ключевые слова: *лексика, фразеология, омоним, терминосочетание, художественный текст, семантика, устойчивый оборот, фразеологизм, стилистика, фразеологизм, слова.*

Key words: *lexicon, phraseology, homonym, term phrase, artistic text, semantics, fixed phrase, idiom, stylistics, idiom, words.*

Tilimizda o‘zining yozilishi va talaffuzi bir xil, lekin ma‘nosi bo‘yicha biri ikkinchisini takrorlamaydigan so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunday shaklga ega so‘zlar tilshunoslikda leksik omonimlar deyiladi. Qoraqalpoq tilidagi yakka so‘zlar, ya‘ni, leksik omonimlar ikki yoki undan ortiq so‘zlar orasida: ot – hayvon turi, ot harakat, buyruq, ot – odamga qo‘yiladigan ot (ism) tarzida kuzatiladi. Frazeologik omonimlarni esa, asosan, ikkita turg‘un birikma orasida kuzatishimiz mumkin. Masalan, boshiga ko‘tarmoq I, boshiga ko‘tarmoq II frazemasi asosidagi so‘z komponentlari bir xil leksik ma‘noda qo‘llangan,

¹ Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Т., “Академнashr”, 2013, 408-бет.

ularning frazema sifatida anglatadigan ma'nolari boshqa-boshqa obrazlar asosida bo'ladi. Bunda birinchi birikma "bolalarning shovqin solib, baland ovozda o'ynashi nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi birikmada esa "qadrlash, hurmat qilish, boshiga ko'tarib yurish" ma'nolarida keladi.

Bunday frazemalar orasidagi omonimlikni frazeologik omonimiya deb yuritish mumkin. Frazemalar yakka so'zlar singari bir nechta ma'nolarni bildirib, omonim sifatida keladi, lekin frazemalardagi ko'p ma'nolilik (polisemiya) va omonimiya sifatida ajratish bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

Omonim sifatida qaralib kelayotgan so'zlarning paydo bo'lishida ma'noviy bog'liqlik mavjud ekanligi, hozirgi ma'nosidan ancha uzoqlashganligi ularni polisemiya yoki omonimiya qatoriga kiritishda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli omonimlarni har tomonlama to'liq o'rganib, ulardagi farqlarni aniqlamaguncha lug'atlarda so'z ma'nosining chegarasini to'g'ri aniqlab berish mumkin emas [1.13].

Rus tilshunosligida omonimlarning o'rganilishi masalalari, qo'llanilishidagi farqlarga oid dastlabki fikrlarni L.A.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradov, P.Abramenko, V.N.Telyaninlarning maqolalarida, ilmiy ishlarida uchratamiz (2). Turkiy tilshunoslikda omonimiya ta'rifiga Q.Axanov, O.S.Axmanova, M.Belbayev, S.Usmonov, Y.Pinxasov, Sh.Rahmatullayev asarlarida maxsus o'rganilgan (3).

Qoraqalpoq tilshunosligida omonimlar haqidagi dastlabki fikrlar N.A.Baskakovning [4.100–101] asarlarida berilgan. Shundan so'ng mahalliy professor E.Berdimuratovning [5.83–96] asarlarida so'z yuritiladi. Muallif, dastlab, omonimlarni ikkiga bo'lib o'rganib, ya'ni, so'zga doir omonimlarni omonimlik hodisasi, leksik omonimiya, grammatik shakllar orasidagi omonimiya hodisalarini esa grammatik omonimiya deb ajratib ko'rsatgan. B.Yusupova o'zining asarida [6] frazeologizmlar boshqa birliklar bilan ham, erkin so'z birikmalari bilan ham va boshqa birliklar bilan ham tovush tuzilishi, shakllar bir xil bo'lib kelishiga ko'ra omonimlik munosabat paydo qiladi. Frazeologizmlar turg'un so'z birikmalari bilan ham, erkin so'z birikmalari bilan ham omonim bo'ladi va bu omonimiya hodisalarini bir-biridan farqlanadi. Frazeologizmlardagi ko'p ma'nolilik (polisemiya) va omonimiya hodisasini ajratish qiyin deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, bunday frazeologizmlarning polisemiya yoki omonimiya hodisasi ekanligini aniqlash, ular orasidagi farqlarni o'rganish ilmiy jihatdan hali ko'p izlanishlarni talab qiladigan masala hisoblanadi.

Qoraqalpoq tilidagi omonimlik hodisasini o'rganishda M.Qudaybergenov va J.Tangirbergenovlar maqolasida fe'l frazeologizmlarning omonimlik munosabatining ikki xil farqini aniqlaydi. Bu ikki tur omonimiyani bir-biridan ajratib, alohida tadqiq qilish kerak ekanligi va qoraqalpoq tilida turg'un so'z birikmalari o'rtasidagi omonimiyani frazeologik omonimlik deb atash maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlagan (7.85–89).

Omonimiya hodisasi tilimizning frazeologik birliklarida ko'p uchraydi. Chunki ularda xalqning asrlar davomida yaratgan, to'plagan o'tkir xayollarining, donoligining, so'z marjonlarining ajoyib namunalari mavjud. Biz buni sevimli shoirimiz Ibrayim Yusupov asarlarida omonim frazemalardan o'rinli va mohirona foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Tilimizdagi "kózin jumıw" frazemasini omonimlik munosabatida qo'llaniladi: **kóz jumıw I** – qazo qilmoq, o'lmoq; **kóz jumıw II** – tavakkal qilmoq, biror ishga kirishmoq [8.99] ma'nolarini ifodalaydi. Buni shoir asarida shu ma'noda ishlatilganligini kuzatishimiz mumkin.

Bul dunyadan biymezgil kóz jumǵanıń

Daǵlap ketti doslarınıń júregin (I.Y. Qulpitastagi jazıwlar)

Leykin jetpes meniń sabır taqatım

Kóz jumıw kún boyı oyǵa talarǵa (I.Y. Dala ármanları)

Shımshıq ańlytuǵın tarǵıl pıshıq ta

Saǵan mǎlel bermey kóz jumar edi

Bu misollarda keltirilgan "kózin jumıw" frazemasini shoir tilida mohirona tasvirlangan. Birinchi misolda kózin jumıw frazemasini vafot etish, qazo qilish ma'nosida, ikkinchi misolda esa xayol qilish, tavakkal qilish ma'nosini anglatgan, uchinchi misolda shoir kózin jumıw frazemasini yanada kengaytirib obrazli, ta'sirli tarzda, ko'rib tursa ham, ko'rmaganga olish, ya'ni omonim sifatida qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Yoki "jan berdi" frazemasini olib ko'raylik, mazkur frazema **jan beriw I** – jonni xudo insonga berish haqida, ya'ni, ma'lum bir o'ziga yaqin, yaxshi ko'rgan buyumiga jon berish nazarda tutilgan bo'lsa, **jan beriw II** bunda endi inson jonini xudoga berish, ya'ni insonning joni chiqishi, qazo qilishi tushuniladi. Masalan,

Tuńǵıyıq tereńe túsip jan berdi,

Awır júgi menen shókken qayıqtay (I.Y. Poseydonniń gázebi)

Biraq pútkil dúnya xalıqlarınıń

Baxtı ushın jan beriwge tayarman (I.Y. Sonday bir el meniń enshime tiygen)

Keltirilgan misollarda frazemalar omonimik ma'noda ishlatilgan. Ya'ni, birinchi misolda qazo qilinishi berilgan, ikkinchi misolda esa xalqi uchun jon berishi ma'nosida qo'llanilgan. Adabiy tilimizda frazemalardan ijodiy qo'llanishda ularning shaklini saqlab, ma'no jihatdan o'zgartirilgan holda, ya'ni omonim frazemalarni yuzaga keltiradi. Bizga ma'lumki, tilimizdagi ko'pgina frazemalar erkin so'z birikmalarini ma'noviy tomondan o'zgartirib qo'llanishi asosida yuzaga kelgan. Erkin so'z birikmalari frazema sifatida qo'llanishi ma'noviy tomondan asosan matnda muhim rol o'ynaydi. Masalan, adabiy tilimizda «kózin ashıw» erkin so'z birikmasi mavjud bo'lib, badiiy nazmiy asarlarda uslubiy jihatdan bir necha omonimik ma'noda keladi. **Kózin ashıw I** – ongiga kelish yoki uyqudan uyg'onish; **Kózin ashıw II** – tug'ilishi, dunyoga kelishi, ko'zini ochishi; **Kózin ashıw III** – oq-qorani ajratish yoki turmush tashvishlaridan ko'zi ochilishi ma'nolarini anglatadi.

Shoir I.Yusupov o'z asarlarida mazkur frazemani bir necha marta qo'llanilganligini kuzatamiz. Masalan:

Bilim berip kózin ashqan birazduń

Húrmetine algıs bolsın ustazduń (I.Y. Joldas muğallim)

Ya oylay ma jańa awıl-qalasın?

Kózim ashıp jańa ómirge jańa jas (I.Y. Joldas muğallim)

Muzday tiyer hár aytqan sóziń

Oho, ashılıptı góy bul gáplet kóziń (I.Y. Aktrisanıń ıǵbalı)

Ashılǵan kózlerden qashqan shayıqlar

Otqa topıraq shashıp, jawıp shapanın (I.Y. Aktrisanıń ıǵbalı)

Keltirilgan misollarda ko'rinib turganidek, shoir mazkur frazemani bir necha omonimik ma'noda qo'llaganligi ko'zga tashlanadi. Bunday uslubda frazema qo'llash uning uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Yoki shoirning quyidagi she'r misralarida omonimik ma'noda berilgan:

Bul bes kúnlik ómirde

Ne bolsaq, birge bolamız (I.Y. Shayır hám júrek)

«Biymezgil qonaq pa» dep shıǵıp kórsem

Birew tur tuwǵan ayday bes kúngi (I.Y. Keshki jol oyları)

Keltirilgan birinchi misolda bes kúnlik – dunyo, hayot ma'nosida keltirilgan bo'lsa, ikkinchi misolda frazema bes kúnlik – oydek deb qizning chiroyi, husniga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, frazemalar omonimik ma'noda ishlatilgan. Shoir I.Yusupov erkin so'z birikmalarini ko'chma ma'noda qo'llanib, ular asosida yangidan yangi frazemalarni yuzaga keltirishga alohida e'tibor berilgan. Masalan, "miyin jew" erkin so'z birikmasi sifatida "gelleniń miyin jew, as mánisin" anglatasa, "miyin jew" frazema sifatida "kóp sóylew" ko'p gapirish ma'noni anglatadi. Shoir I.Yusupov «miyin jew» frazemasini "miyin tesiw" shaklida qo'llagan. Masalan:

Báybishe gárgısı testi miyimdi

Bul zarlı zamannan keshtim men búgin (I.Y. Joldas muğallim)

Bunday erkin so'z birikmasi va frazemalar o'rtasida omonim frazemalar nazm misralarining yana ham badiiyligini, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Bu borada Sh.Rahmatullayev haqiqiy ma'nodagi frazeologik omonimiya turg'un so'z birikmalari o'rtasida bo'ladi. Erkin so'z birikmasi va turg'un so'z birikmalari o'rtasida bo'ladigan holatni omonimiya deb emas, omonimlik deb atash to'g'ri deb ko'rsatadi. Buning asosida frazeologik omonimiya frazemalar orasida voqe bo'ladigan turi frazeologik omonimlik – erkin so'z birikmasi va frazemalar o'rtasida voqe bo'ladigan shakli degan atamalarni qo'llaydi. Ayniqsa, ularning har birini alohida o'rganish lozim [3.214] ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Bunday erkin so'z birikmalari bilan ifodalangan omonim frazemalarni shoir asarlarida ko'plab uchratish mumkin. Tilimizda "tilge keliw", "janı shıǵıw", "basına kóteri w", "tili shıǵıw" va boshqa frazemalar mavjud. Masalan, **tilge keliw I** o'ziga kelish, esini yig'ish, gapira boshlash; **tilge keliw II** kelishuv, muomalaga kelish; **janı shıǵıw I** qazo qilish, **janı shıǵıw II** juda shoshilinch yoki bir narsadan xavotir olish; **basına kóteri w I** bolalarning ovozi, shovqini nazarda tutilsa; **basına kóteri w II** asrab-avaylab, qadrlab, hurmat qilish ma'nosida keladi. **Tili shıǵıw I** bolaning gapira boshlashi; **tili shıǵıw II** qarshi gapira boshlash, qarshilik ko'rsata boshlash ma'nolarini bildiradi. Masalan:

Basına kóteri p, joldı, shańlaqtı,

«Oyim keldi» desip balalar shaptı. (I.Y. Aktrisanıń ıǵbalı)

Bul qurlańım tilge kelgennen keyin

Saǵan bir qızıq sóz sóylep bereyin (I.Y. Aktrisanıń ıǵbalı)

Keltirilgan misralarda «basına kóteri w», «tilge keliw» omonim frazemalari qo'llanilgan. Tilimizda frazeologik omonimiya sodda so'zlar orasidagi omonimlarga nisbatan tilimizda kam miqdorda uchraydi. Chunki tilimizning leksikasida so'zlar frazemalarga nisbatan ko'proq. Tilimizning boy xazinasini hisoblan-

gan frazemalarni shoir I.Yusupov o'z asarlarida juda ko'p va o'rinli foydalangan. Frazemalar she'riyatda obraz va tabiatlarni o'quvchi ongida aniq tiklash, aynan o'xshatib tasvirlash uchun xizmat qilmoqda. Shoir o'z asarlarida ham shunday voqea-hodisalarni aniq, ixcham, obrazli tarzda tasvirlashda har bir qahramon xarakterini esda qoladigandek, ta'sirchan ifodalashda frazemalarning mana shunday xususiyatlaridan keng foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аханов К. Тил билимине кириспе. Алматы, 1993, 13-бет.
2. Булаховский Л.Н. Из жизни омонимов, 1 сб: «Русская речь» под ред Л.Щербы, новая серия, ИИИ, Л, 1928; Виноградов В.В. Об омонимии и смежных явлениях, «ВЯ», 1960; Абраменко О.П. Семантическая омонимия, связанная с функционированием фразем в определенном контексте. Киев, 1961; Телия В.Н. О многозначности фразеологических единиц русского языка на материале фразеологических единств. Доклады Ростов на-Дону, 1962, с. 162 – 169.
3. Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Тошкент, 1966.
4. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык, М., 1952, с. 100 – 101.
5. Бердимуратов Б. Ҳазирги заман каракалпак тилиниң лексикологиясы. Нөкис, 1968, 83 – 96-бетлер
6. Юсупова Б. Каракалпак тилиниң фразеологиясы. Тошкент, «Тафаккур қаноти», 2014, 93–97-бетлер.
7. Кудайбергенов М., Тәңирбергенов Ж. Каракалпак тилинде феџил мәнили фразеологиялық омонимлер ҳаққында. Ҳазирги филология илиминиң әҳмиетли мәселелери. Илимий мақалалар топламы. Н., ҚМУ, 2011, 85 – 89-бетлер.
8. Ежбаев Ж. Каракалпак тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги. Нөкис, 1985, 99-бет.

Shukurov Begzod (TIQXMMI Milliy tadqiqot universitetining Qarshi Irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Matematika va tabiiy fanlar” kafedrasi assistenti)
KREDIT-MODUL TIZIMIGA ASOSLANGAN O‘QITISH TIZIMIDA FIZIKADAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI OLIB BORISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda fizikadan ta'lim jarayoni amaliy mashg'ulotlarni ham o'z ishiga oladi. Amaliy mashg'ulotlar fanni shuqur o'rganish, mustahkamlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish ushuni mo'ljallangan. Agar ma'ruza bo'lajak dasturshilarda medellashtirish va kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishni o'z ishiga olsa, amaliy mashg'ulotlar bo'lajak dasturshilarni loyihalash va konstruksiyalash kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan.

Аннотация. В статье идет речь о том, что процесс изучения физики в высших учебных заведениях также включает в себя практические занятия. Практические занятия предназначены для углубленного изучения науки, укрепления, профориентации и формирования профессиональных компетенций. Если лекция предполагает моделирование и формирование когнитивных компетенций у будущих программистов, то практическое обучение направлено на формирование проектных и конструкторских компетенций у будущих программистов.

Annotation. In this article, the process of studying physics in higher educational institutions also includes practical classes. Practical classes are designed for in-depth study of science, strengthening, career guidance and the formation of professional competencies. If the lecture involves modeling and the formation of cognitive competencies in future programmers, then practical training is aimed at the formation of design and design competencies in future programmers.

Kalit so'zlar: innovatsion, elektron resurs, animatsiya, texnologiyalar, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, transfer, loyihalash, konstruktorlik.


Ключевые слова: программные средства, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирование, конструкторский.

Key words: software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

Fizikadan amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarning o'zlashtirgan bilimlarini professor-o'qituvshi bilan birgalikda kasbiy muammoli muhandislikka yo'naltirilgan fizikaviy masalalarni hal qilish uchun qo'llash zaruriy kasbiy kompetensiyalarni (loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish, dasturlash va tadqiqotshilik) shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kredit-modul tizimida amaliy mashg'ulotlar ushuni ajratilgan soatlar ma'ruza mashg'ulotlari soatlariga mutanosib bo'ladi har bir ma'ruzadan keyin amalga oshiriladi.

Fizikadan amaliy mashg'ulotlar ma'ruzada olingan bilimlarni mustahkamlash va batafsil bayon etish, kasbga yo'naltirib o'qitish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga ko'maklashish ushuni mo'ljallangan. Ular talabaning ilmiy, texnik, muhandislik tafakkurini va nutqni rivojlantiradi, o'z bilimla-

rini sinab ko‘rish imkonini beradi va tezkor teskari kommunikativ aloqa vositasi sifatida harakat qiladi [2].



1-rasm. Fizikadan amaliy mashg‘ulot tuzilmasi.

Birinshi bosqishda professor-o‘qituvshi:

- ◆dars mavzusini aytish;
- ◆mavzu bo‘yisha talabalarda motivatsiya hosil qilish;
- ◆talabalar bilan birgalikda faoliyatni rejalashtirish;
- ◆mavzuning maqsadini belgilash.

Keltirib o‘tilgan bosqishlarning barshasi ta‘lim jarayonida ma‘ruza mashg‘ulotini va samarali o‘zaro hamkorlikni rejalashtirish, tashkillashtirish.

Shuni ta‘kidlash lozimki, motivatsiya bosqishining asosiy vazifasi bo‘ljak dasturshilarni loyihaviy-konstruktorlik faoliyatga tayyorlashda shaxsiy mazmun kasb etadigan jarayonidir. Motivatsiya bosqishidan maqsad talabani loyihaviy-konstruktorlik faoliyatga qiziqish uyg‘otishdir. Loyihaviy konstruktorlik faoliyat maqsadlari talaba tomonidan amalga oshirilganda, qabul qilinganida va shaxsning ishki ehtiyojlari natijalariga ega bo‘lganda erishiladi. Mashg‘ulotlarning maqsadi nafaqat o‘qituvshi, balki o‘quvshilarga ham aniq bo‘lishi kerak.

Ikkinshi bosqishda boshlang‘ish nazorat o‘tkazilib, unda beshta nazariy savol yoki test dars boshida o‘tkaziladi va 5–7 daqiqa davom etadi. Test o‘tkazishning maqsadi talabaning keyingi amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarligini sinovdan o‘tkazish, ma‘ruza mashg‘ulotlarda egallangan bilimlar darajasini aniqlash va mustahkamlashdan iborat [2].

Ta‘limda kompetensiyaviy, individual yondashuv va unumli pedagogik va kommunikativ muloqot katta ahamiyatga ega. Talabalar kasbiy faoliyatda o‘z qobiliyatlarini, shaxsiy salohiyatini namoyon etish imkoniga ega bo‘lishlari lozim. Agar talabalar barsha o‘quv imkoniyatlari pastligi bo‘yisha ma‘lumoga ega bo‘lsa, ularning motivatsiya darajasi keskin pasayadi. Professor o‘qituvshi amaliy mashg‘ulotni shunday tashkil etish kerakki, talabalar bajarilayotgan vazifalarning algoritmik ravishda murakkablashib borayotganligini doimo his etib, o‘qitishda o‘z muvaffaqiyatlarini, ijobiy his-tuyg‘ularni boshdan keshirib, qizg‘in ijodiy kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishini, to‘g‘ri va aniq yeshimlarni topish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari kerak [4.114].

Test topshiriqlari fangi doir yangi bo‘limlarini o‘rganish ushuncha zarur bo‘lgan asosiy bilimlarni yangilash va loyihalash va konstruksiyalash kabi kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish ushuncha ma‘ruza mashg‘ulotlarida olingan bilimlardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Yozma shaklda ishlab shiqilgan testning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda barsha talabalar qamrab olinadi. Bu esa professor-o‘qituvshiga talabalar bilimini xolisona baholash imkonini beradi. Fizi-

kadan amaliy mashg'ulot boshida boshlang'ish test savollari berilishi va tekshirish, baholash o'tkazish talabalarining o'rganilayotgan mavzuga qanday darajada tayyorgarlik ko'rilganligini belgilaydi.

Ushinshi bosqichda fizikadan egallangan bilimlar umumlashtiriladi va tizimli holatga keltiriladi, talabalarining egallagan bilimi tekshiriladi, tushunshalar, fizik kattaliklar, atamalar, formulalar va qonunlar tushuntiriladi, dasturlash tillaridan foydalana olishi o'rganiladi, izohlanadi [2].

To'rtinchi bosqichda kasbga yo'naltirilgan muhandislik muammolari tahlil qilinadi va tushuntiriladi, shunki u fizikadan ma'ruza mashg'ulotlarida nazariy materialni o'zlashtirish va amaliy mashg'ulotlarda egallangan nazariy bilimlarni kasbiy faoliyatda samarali qo'llay olish ta'minlanadi. Mavzuning murakkabligiga qarab darsning mazkur bosqichiga yarim soat vaqt beriladi. Darsning bu qismi professor-o'qituvshining rahbarligi va tyutorning nazorati ostida olib boriladi.

Fizikadan masala yeshish biz tomonimizdan ishlab chiqilgan elektron o'quv qo'llanma va vizual dasturlash tilida ishlab shiqilgan dasturiy mahsulotlar yordamida amalga oshiriladi, u har bir talabada mavjud bo'lib, qisqasha nazariy asos, asosiy formulalar, masala yeshish namunalari, fizikaning har bir mavzusi bo'yisha bilimlarni mustahkamlash ushuni mustaqil yeshish ushuni masalalarni va masalalarning javoblarini o'z ishiga oladi [2].

Jumladan, faollik ko'rsata oladigan, iqtidorli talabalar rag'batlantiruvchi ball oladilar, ballarni taqsimlash bajarilgan topshiriqning murakkabligiga qarab belgilanadi. Talabalarni masalalar yeshishda dasturlash tillaridan foydalana olishiga qarab rag'bat ballari ham beriladi.

Beshinchi bosqichda amaliy mashg'ulotni tugashi oldidan talabalarga turli darajadagi murakkablikka ega topshiriqdan iborat mustaqil ish shaklida topshiriqlar beriladi. Mustaqil ish topshiriqlarida muhandislik muammolariga bag'ishlangan fizikaviy masalalarni dasturlash tillaridan foydalanib yeshim topish vazifasi qo'yiladi. Mustaqil ish yangi mavzuni o'zlashtirish darajasini refleksiylaydi, tushunshalarni belgilaydi va professor-o'qituvshiga ta'lim jarayonini boshqarish imkonini beradi.

Mustaqil ish kompyuterda vizual dasturlash tili S++ va android dasturlash tillari RAD Studio va Android Studiodan foydalanib bajariladi, bu ham tekshirish ushuni professor-o'qituvshiga onlayn HEMIS platformasi orqali topshiriladi.

Biz "Fizika 1" fanining barsha asosiy mavzularini qamrab olgan va oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga to'liq mos keladigan elektron o'quv qo'llanmani RAD Studio dasturlash muhiti tarkibidagi S++ dasturlash tilida ishlab shiqdik va amaliyotga tatbiq etdik [5].

Elektron o'quv qo'llanma "Fizika 1 fanidan elektron o'quv qo'llanma" 15 ta mavzulariga doir ma'lumotlar hamda mustaqil yeshish ushuni masalalar keltirilgan. Mustaqil ishlar namunaviy fan dasturiga mos ravishda murakkablik darajasi va talabalarining bilim darajasiga qarab tuzildi. Boshlang'ish nazorati ushuni test topshiriqlar ham bir neshta variantda (15 tadan 30 tagasha savollar majmui) keltirilgan bo'lib, ularni bajarish ushuni sarflangan vaqt har bir variantga 10 daqiqadan oshmasligi kerak.

Fizikadan vizual va shizikli dasturlash tillaridan foydalanib, masalalar yeshishning asosiy metodlarini o'zlashtirgan talabaga nazorat ishlarini yuqori bal to'play oladi va masala yeshish qiyinshilik tug'dirmaydi. Misol tariqasida mexanika mavzusi bo'yisha dars rejasini keltirib o'tamiz (1-jadval).

1-jadval

Dars rejasi

Bosqich	Mazmuni
I. Tashkiliy-mazmuniy bosqich.	Mavzuni qisqasha tushuntirish.
II. Kirish nazorat bosqishi.	Kirish testini o'tkazish.
III. Kognitiv, umumiy va tizimli bosqishi.	Talabalarining bilimini aniqlash, umumlashtirish, tizimlashtirish.
IV. Masala yeshish.	1) kasbga yo'naltirilgan muammoli masalalarni tahlil qilish va yeshish; 2) mustaqil qaror qabul qilish.
V. Yakuniy nazorat.	Kasbga yo'naltirilgan muammoli topshiriqlarni bajarish.

Fizikadan amaliy mashg'ulotlarni dasturlash tillaridan foydalanib tashkil etish nazariy va amaliy, kasbiy muhandislik muammolarni hal etishning yangi, zamonaviy yo'llarini mustaqil izlashdan boshlanadigan faol va interfaol, induktiv va deduktiv o'qitish usullaridan unumli foydalanishni talab etadi. Ijodiy o'quv faoliyatida yangilik subektiv ma'noda paydo bo'ladi [3].

Masalalarni hal qilishda dasturlash tilini tanlash, rejasini izlash, ushbu vaziyatni tahlil qilish bo'lajak dasturshining kasbiy malakasini oshirishga, xususan, kasbiy muammolarini tahlil qilish, sintez qilish

va tadqiq qilishga hissa qo'shadi. Kasbiy muammolarni hal qilishni to'g'ri tashkil etish asosiy tashkiliy va boshqaruv, loyihalash, konstruksiyalash kompetensiyalarini, jumladan, ishda tashabbuskorlik, ijro intizomi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va qaror qabul qilish qobiliyati, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini baholash, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish, yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyati, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Oliy ta'limda asosiy diqqat-e'tibori ma'naviyatli, madaniyatli, mas'uliyatli, mustaqil harakat qila oladigan, vaziyatni tahlil qila oladigan va nostandart vaziyatlarda eng yaxshi yo'lni topa oladigan, o'z kasbiy faoliyatini tez yo'lga qo'ya oladigan, raqobatbardosh yuqori malakali dasturshining ijodiy shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa talabalarning loyihaviy-konstruktorlik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. Т., 2017, 39-бет.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы). Ставрополь, 2012, с. 145.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.02. М., МГПУ, 2003, с. 332.
4. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», Тошкент, 2010, 1, 54 – 57-бетлар.
5. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса. Автореф. дис. канд. пед. наук, Карачаевск, 2003, с. 23.

Султанова Лола Акмаловна (Ташкентский государственный университет востоковедения, факультет Китаеведения, кафедра китайской филологии, доктор филологических наук

PhD; e-mail: lola_sultanova@inbox.ru)

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Ushbu maqolada xitoy tilida tibbiy terminologiyaning rivojlanishi muhokama qilindi. G'arb mamlakatlari tibbiyotidan farq qiluvchi Xitoy tibbiyotining rivojlanish tarixi ko'rib chiqilgan. Ilk tibbiy lug'atlar va darsliklarning yaratilishiga ta'sir ko'rsatgan an'anaviy tibbiyot maktablari 全体新论 Quántī xīn lùn – Inson anatomiyasi nazariyasi, 西医略论 Xīyī lüè lùn – Garb tibbiyoti nazariyasi. 内科新论 Nèikē xīn lùn – Ichki kasalliklar nazariyasi, orqali ko'plab G'arb tibbiy atamalari bayhua tiliga kirganligi o'rganilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие медицинской терминологии в китайском языке. Проведён обзор истории развития китайской медицины, которая отличается от медицины западных стран. Исследованы традиционные медицинские школы, которые повлияли на создание первых медицинских словарей и учебников таких, как 全体新论 Quántī xīn lùn – Теория анатомии человека, 西医略论 Xīyī lüè lùn – Теория западной медицины, 内科新论 Nèikē xīn lùn – Теория внутренних болезней, благодаря которой многие западные медицинские термины вошли в язык байхуа.

Annotation. This article discusses the development of medical terminology in Chinese. A review of the history of the development of Chinese medicine, which differs from the medicine of Western countries, was carried out. Traditional medical schools that influenced the creation of the first medical dictionaries and textbooks such as 全体新论 Quántī xīn lùn – Theory of human anatomy, 西医略论 Xīyī lüè lùn – Theory of Western medicine, 内科新论 Nèikē xīn lùn – The theory of internal medicine, through which many Western medical terms entered the baihua language.

Kalit so'zlari: xitoy tibbiyoti, Garb tibbiyoti, Xitoyning tibbiyot maktablari, "4-may harakati", «[国医go yi](#)»

Ключевые слова: китайская медицина, западная медицина, медицинские институты Китая, «[Движение 4 мая](#)», «[国医go u](#)».

Key words: Chinese medicine, western medicine, Chinese medical Institutes, «4th May Movement», «[国医go yi](#)».

На фоне тесных межгосударственных отношений и динамичного сотрудничества Республики Узбекистан и Китайской Народной Республики практически во всех отраслях особо выделяется

активное взаимодействие в системе здравоохранения и медицины, особенно в период распространения коронавирусной инфекции (COVID-19) и ее разновидностей, в первую очередь, слаженность и взаимодействие структур здравоохранения двух стран показали не только эффективность проводимых мероприятий, но и необходимость дальнейших глубинных исследований в области медицины. Президентом Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёевым особо отмечается, что «в мировом масштабе принимаются беспрецедентные меры по борьбе с распространением коронавирусной инфекции»¹ и неотложная задача медицины противостоять вызовам пандемии.²

Как известно, история Китая характеризуется разнообразием и яркими периодами правления китайских династий. Особенно это касается периода правления последней маньчжурской династии 清 Qing 1644–1911 гг. н.э., при которой традиционная медицина, на фоне экономических и политических преобразований, претерпела значительные изменения.³ Эти изменения стали причиной появления понятия западная медицина наряду с традиционной. Несмотря на почтенный исторический возраст, китайская медицина не имела единой системы и отставала от медицины Запада, использовавшей новейшие технологии, методологию доказательной медицины, стандартные термины и подходы.

По мнению К.Шморренбергера,⁴ традиционная китайская медицина отличалась от западной своей методологией в лечении на базе учений энергетического равновесия и циклового изменения организма, то есть повсеместно использовался холистический подход.⁵ Это, в свою очередь, подтверждает тезис о том, что накопленные веками теоретические данные имели “феноменологический” характер при определении критериев состояния организма человека и имеющихся заболеваний.⁶ История развития китайской медицины отличается от медицины западных стран. Исследователи отмечают, что, несмотря на свою уникальность и огромный, накопленный веками опыт, в новое время она сильно отстала от западной медицины.⁷ Причина этого кроется не только в различии базовых подходов к пониманию процесса лечения, но и в том, что в период правления предпоследней династии Мин и последней Цин китайская медицина формировалась в условиях искусственной изоляции, не получая знаний от стремительно развивающейся западной медицины. Образование и клиническая практика в Китае основывались на классических канонах и комментариях, редко изменяющихся в течение длительного времени.

В работе В.В.Самойленко «Современное состояние традиционной китайской медицины: история формирования» говорится, что «с древности до середины XIX века болезни чума, холера, тиф, туберкулез или малярия меньше распространялись в Китае, но китайцы чаще болели простудными заболеваниями, которые связаны с недостатком «поток» иньчи 阴气 yīn qì и яньчи 阳气 yáng qì», т.е. заболевания из-за холода 寒气 伤寒 hánqì shānghán или излишнего тепла 温气 温病 wēnqì wēnbìng и др. Основные постулаты китайской медицины, записанные в классических кано-

¹Указ Президента Республики Узбекистан «О первоочередных мерах по смягчению негативного воздействия на отрасли экономики коронавирусной пандемии и глобальных кризисных явлений» от 19.03.2020. № УП-5969.

² <https://www.gazeta.uz/ru/2021/07/28/vaccination-president/>

³ Часто в научно-исследовательской литературе отмечается, что было много «отцов искусства целительства» в истории китайской медицины ими написаны ряд классических трудов, сохранивших свое значение и до настоящего времени. К примеру, Хуан Ди, «желтый «император», Хуа То – «бог хирургии», Чжан Чжун Чин -- «Гиппократ востока» и др. Хуан Ди, «Желтый князь» (император), был одним из мифических властителей древнего Китая. См.: <http://www.chinaconsulate.khb.ru/rus/gyzg/zg7/t118266.htm>

⁴ Шморренбергер К. Учебник китайской медицины для западных врачей (пер. с нем.). М., Профит Стайл, 2019, с. 558.

⁵Холистический или холический, связанный, соотносящийся по значению с существительным холизм; основанный на целостном подходе к объектам, явлениям. См.: <https://ru.wiktionary.org/wiki/холистический>; диалектический – связанный, соотносящийся по значению с существительным диалектика; свойственный, характерный для него. См.: <https://ru.wiktionary.org/wiki/диалектический>.

⁶ Шморренбергер К. Учебник китайской медицины для западных врачей (пер. с нем.). М., Профит Стайл, 2019, 558 с.

⁷ Михель Д.В. Социальная история медицины: становление и проблематика. Журнал исследований социальной политики. М., 2009, т. 7, № 3, с. 295–312; Бернардино де Саагун, Куприенко С.А. Общая история о делах Новой Испании. Книги X–XI: Познания ацтеков в медицине и ботанике. Ред. и пер. С.А.Куприенко. Киев: Видавель Куприенко, 2013, с. 218; Мирский В.А. Медицина России X–XX веков. М., РОССПЭН, 2005, с. 632; Мирский В.А. Хирургия от древности до современности. Очерки истории. М., “Наука”, 2000, с. 798 и др.

нах, обычно «не подвергались анализу на протяжении целого века».¹ По мнению В.В.Самойленко, китайская медицина редко практиковала хирургические методы лечения.² Обычно, лекари успешно лечили переломы (手法复位术—shǒufǎ fùwèi shù – ручное правление) и вывихи (手法牵引— shǒufǎ qiǎnyǐn – ручное вытяжение), а также делали кровопускания, применяли мануальную терапию и акупунктуру.

До появления миссионеров на территории Китая в XIX веке, в империи не было медицинских учреждений, а китайские врачи использовали знания, полученные «по наследству» или из древних классических трудов. Специальность врача не имела социального или культурного престижа, что, по всей видимости, стало одной из причин отсутствия систематизации терминов китайской медицины. Например, в 1949 году только после образования Китайской Народной Республики, появился термин 传统中医医学 chuántǒng zhōngyī yīxué –традиционная китайская медицина.³ До этого китайскую медицину называли «国医го и», что означает государственная медицина или «旧医цзу и» – древняя медицина, а западную медицину «西医си и » или «新医син и» – новая медицина. В настоящее время китайцы называют свою медицину просто «китайская медицина» (中医 чжун и), а западную медицину – 西医 (си и).⁴

В Китае начало XIX века характеризуется вхождением западной медицины «больничной медицины с новыми диагностическими и терапевтическими инструментами», гарантирующими «медицинскую компетентность»⁵. Из истории следует, что западная медицина из изученной нами истории базируется на принципах, которые обозначают три этапа – это физическое обследование больного, выявление взаимосвязей между клиническими проявлениями и патологией и изучение как можно большего числа случаев заболеваний для правильной диагностики и определения лечения.⁶

Согласно историческим⁷ данным, врачи-миссионеры Запада отмечали крайне низкий уровень знаний анатомии человеческого организма у китайских целителей. Бенджамин Джобсон (китайское имя 合信He Xin), британский миссионер, приехал в Китай в 1839 году и проработал в миссии долгие годы. В период 1850 по 1858 годы первым сделал переводы на китайский язык байхуа мно-жества таких книг по западной медицине⁸ как «全体新论» Quántǐ xīn lùn – Теория анатомии чело-века, «西医略论 Xīyī lüè lùn»–Теория западной медицины, «内科新论 Nèikē xīn lùn»–Теория вну-тренних болезней, благодаря которым многие западные медицинские термины вошли в язык бай-хуа. Поскольку традиционная китайская медицина полностью отличалась от западной, то, естест-венно, терминология отличалась также кардинально. Основная сложность заключалась в том, что термины, как правило, были многосложными по своей структуре и могли найти свое правильное выражение только на языке байхуа. Например, 大脑dànnǎo (мозг), иероглиф 大dà (большой) + 脑nǎo (мозг); термин 小脑xiǎonǎo мозжечок (маленький мозг) – 小xiǎo (маленький) + 脑nǎo (мозг) и др. А также были переведены на китайский язык учебники по медицине в области гинекологии (女科学nǚ kēxué), акушерства (产科学chǎn kēxué), педиатрии (儿

¹Самойленко В.В. Современное состояние традиционной китайской медицины: история формирования. Проблемы Дальнего Востока <https://pdv.jes.su/s013128120007512-4-1/DOI10.31857/S013128120007512-4>; Unschuld P.U. Medicine in China, a History of Ideas. Berkeley-Los Angeles-London; University of California Press. 1985, p. 3.

² Там же. 3 р.

³Самойленко В.В. Современное состояние традиционной китайской медицины: история формирования. Проблема Дальнего Востока № 5 (2), 2019. He M. King H., Thomas S., Bmwing C. Searle K. et al. Paradigm Evolution of the Traditional Chinese Medicine and its Application in International Community. Ami Community Med Pratt, 2015, Vol. 1(2).

⁴ 《中医知识丛书·话说中医》. 李慕才. 河北: 科学普及出版社. 1987年. 6页.

⁵Самойленко В.В. Современное состояние традиционной китайской медицины: история формирования. Проблема Дальнего Востока №5(2), 2019. DOI: 10.3185 7/S013128120007512-4.

⁶ История западной медицины: гигиена, терапия. Международная ассоциация ученых, преподавателей и специалистов (Российская Академия Естественных наук). <https://www.rae.ru/ru/publishing/Chalyk6.html>

⁷https://roim.historymed.ru/science/publications/?SECTION_ID=429 Общероссийской общественной организации «Российское общество историков медицины» от 14.11.2019; Медицина Древнего Китая https://www.letopis.info/themes/medicine/medicina_drevnego_kitaja.html

⁸ Хасанова Ф.М. Хитой байхуа тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. док. (PhD) . дисс., Тошкент, 2021, 91-бет.

科学ér kēxué), и внутренних болезнях (内科病 nèikē bìng). Было издано шеститомное руководство по медицине на китайском языке (1887).¹Свой вклад внес А.Пирсон, американский хирург, который внедрил в китайскую медицину –практику вакцинации (现代接种xiàndài jiēzhǒng). В результате такого активного проникновения западной медицины был основан «Китайский медицинский журнал» (1907). Некоторым врачам из Китая удавалось получить образование в западных медицинских школах,² где помимо профессиональных знаний они получали прогрессивные взгляды на жизнь и становились еще и общественными деятелями. Например, Сунь Ятсен (孙燕 Sūn yàn, 1866–1925) стал революционером и вождем буржуазной (Синьхайской) революции 1911 года в Китае, Го Можо (郭沫若 Guōmòruò, 1892–1978) стал поэтом, писателем, историком и государственным деятелем, Лу Синь (鲁迅 Lǔxùn, 1881 –1936) и др.) стал писателем и своим творчеством заложил основы современной литературы Китая.³

С появлением институтов и учреждений западной медицины и нарастания их влияния в стране китайские врачи понимали, что игнорирование «иностранной» медицины приведет к неправильным выводам в медицинской науке, как в частности, так и в целом. Это и стало поводом появления中西汇通派 zhōngxī huì tōng pài – Китайско-западной школы Ци Тонг, основателем которой стал Тан Цзунхай (唐宗海 tángzōnghǎi). Главная задача этой школы заключалась в объединении китайской и европейской медицины. Деятели школы делались попытки изучить теорию китайской медицины при помощи собственных анатомических и физиологических знаний.⁴

В первом медицинском институте Китая был организован учебный процесс по 西医 xīyī – западным канонам. Тем не менее, китайские традиционные целители, благодаря относительной дешевизне и определенной эффективности лечения, еще долгое время продолжали сохранять популярность и влияние в народе, несмотря на активное проникновение западной медицины. Такая популярность в первую очередь была связана с небольшим количеством в Китае врачей, практикующих европейские методы лечения.

